



**“MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI
TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI VA
HUDUDLARNI MUTANOSIB RIVOJLANTIRISHNING
USTUVOR YO'NALISHLARI”**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
KONFERENSIYASI**

25-may 2024-yil



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI BUXGALTERIYA HISOBI VA
STATISTIKA KAFEDRASI**

**“MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI
TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI VA
HUDUDLARNI MUTANOSIB RIVOJLANTIRISHNING
USTUVOR YO‘NALISHLARI”**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
25-may 2024-yil**

**Республиканская научно-практическая конференция на
тему
«АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ
ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ
ПРОПОРЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИНОВ»
25 май 2024 год**

Бухоро

**“Миллий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлашнинг долзарб масалалари ва ҳудудларни мутаносиб ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясининг
Дастурий қўмита таркиби:**

Ф.И.О.	Илмий даражаси ва унвони	Лавозими
О.Х.Ҳамидов	и.ф.д., проф.	Ректор
Т.Ҳ.Расулов	ф-м.ф.доктори (DSc), проф.	Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Б.Н.Наврўз-Зода	и.ф.д. проф.	Маркетинг ва менежмент кафедраси профессори
А.Т.Жўраев	и.ф.н.доц.	Халқаро ҳамкорлик бўйича проректор
Д.Ш.Явмутов	и.ф.н.доц.	Иқтисодиёт ва туризм факультети декани
Н.С.Ибрагимов	и.ф.д. доц.	Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси
А.Ж.Абдуллаев	и.ф.ф.д. (PhD), проф.	Иқтисодиёт кафедраси мудири
З.С.Нуров	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Таълим сифатини назорат қилиш бўлими бошлиғи

Ташкилий қўмита таркиби:

Ф.И.О.	Илмий даражаси ва унвони	Лавозими
Т.Ҳ.Расулов	ф-м.ф.доктори (DSc), проф.	Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Д.Ш.Явмутов	и.ф.н.доц.	Иқтисодиёт ва туризм факультети декани
Ю.У.Суннатов	и.ф.ф.д. (PhD)	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси мудири
Н.Ҳ.Кулиев	и.ф.н.доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
Б.С.Исомов	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
С.О.Ҳомидов	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
А.А.Қодиров	и.ф.ф.д. (PhD)	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси в.б. доценти
М.Х.Уракова	-доцент	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
А.У.Курбонов	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси
Ш.Б.Маликова	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси

Масъул муҳаррир:

Б.С. Исомов, Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти

KIRISH SO'ZI

Buxoro davlat universiteti rektori i.f.d., professor Obidjon Xafizovich Xamidovning tabrik so'zi.

Assalomu aleykum hurmatli mehmonlar va anjuman qatnashchilari!

“Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari va hududlarni va mutanosib rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” mavzusida Respublika miqyosida o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiyaga xush kelibsizlar. Ushbu anjuman 2019-yil 5-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2019-yil 13-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida”gi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022 — 2026- yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Prezident Farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Ushbu anjumanning maqsadi 2022-2026 yillar davomida O'zbekiston respublikasi milliy iqtisodiyoti, shu jumladan, hududlarni barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib, mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida yuzaga kelgan holatni o'rganish, bu sohani barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, moliyaviy tizimni reanimatsiya qilishning tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, O'zbekistonning investitsion muhit jozibadorligini oshirish yo'llarini aniqlash, ishlab chiqarish va moliya-bank tizimida xususiylashtirishni amalga oshirish hamda iqtisodiyotning innovatsion va smart shakllarini joriy qilish evaziga mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini aniqlash kabi dolzarb muammolarning yechimiga bag'ishlangan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024 yildagi ustuvor chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra jami 10 ta yo'nalish (energetika, transport, telekommunikatsiya, urbanizatsiya, biznes va agrar, makroiqtisodiyot, davlat korxonalari transformatsiyasi, turizm va yashil iqtisodiyot va innovatsiya) ko'zda tutilgan, ushbu anjumanda ko'riladigan masalalar ushbu vazifalarni amalga oshirishga muvayyan darajada xizmat qiladi. Ilmiy-amaliy anjumanni tashkil qilishdan quyidagi natijalar kutilmoqda: 2022-2026 yillarda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, barqaror rivojlanishini ta'minlash va uning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish hamda sohaga innovatsion boshqaruv usullarini joriy qilish va o'zaro manfaatli raqobat muhitini yaratishga qaratilgan 80 ga yaqin ilmiy ma'ruzalar respublikamizning turli oliy ta'lim muassasalaridan kelib tushgan bo'lib, bu hol anjumanning yuqori nufuzidan dalolat beradi. Anjuman tashkilotchilariga o'zminnatdorchiligimni bildiraman va uni yuqori darajada o'tkazishlariga omad tilab qolaman!

I SHO‘BA. MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA‘MINLASH, MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITINI YANADA YAXSHILASH VA UNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Xamidov O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi chora-tadbirlarni shakllantiruvchi asoslar va asosiy tamoyillari yoritilgan. Ma‘lumki, barqaror rivojlanish strategiyasi inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishishga qaratilgan. Mamlakatni barqaror rivojlantirishning konseptual yo‘nalishlari belgilab berildi.

Tayanch iboralar: mamlakat iqtisodiyoti, tamoyillar, barqaror rivojlanish, konseptual yo‘nalishlar, resurs, jamiyat, qonun, kapital, globallashtiruv, taraqqiyot, korxonalar, tabiiy resurslar, iqtisodiy o‘rnatish.

Barqaror rivojlanish bu bizning, O‘zbekiston xalqining oliy maqsadi, bu aholining bugungi kundagi ehtiyojlarini qondiradigan va atrof-muhitni muhofaza qilgan holda kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur etkazmaydigan ijobiy, doimiy rivojlanish jarayonidir. Albatta bu maqsadga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini agalashimiz zarur va shart[1]. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan korxonalarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan boshqaruv usullari, shakllari va mexanizmlarining samaradorligi bilan belgilanadi.

Obyektiv ravishda tanlangan biznes-jarayonlarni boshqarish strategiyasi ayniqsa dolzarbdir, chunki aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasi, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, mamlakat byudjetini ko‘paytirish va takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, uning samaradorligiga bog‘liq. Innovatsion moslashuvchan boshqaruv tizimlarini joriy etish, birinchi navbatda, boshqaruv jarayoniga uslub va yondashuvlarni yangilash, texnologik ishlab chiqarish jarayonlarini o‘zgartirish va barcha turdagi resurslardan yanada oqilona foydalanishga o‘tishni o‘z ichiga oladi[2]. "Barqaror rivojlanish" kontseptsiyasi 1983 yilda tuzilgan Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha xalqaro komissiya tomonidan 1987 yilda BMT nomidan tayyorlangan hisobot nashr etilgandan keyin butun dunyoga tarqaldi. Shuning uchun, uning eng to‘g‘ri ma‘nosi uzluksiz rivojlanish bo‘lishi mumkin. Rivojlanish barqaror va uzluksiz bo‘lishi uchun nafaqat iqtisodiy jihatlari, balki ijtimoiy, innovatsion, ekologik va boshqa jihatlarni ham hisobga olish zarur. Barqaror rivojlanish, eng avvalo, aholining demografik holati va biosferaning iqtisodiy imkoniyatlari doirasida odamlarning hayot sifatini yaxshilashni nazarda tutadi, bu esa atrof-muhitni buzilishini oldini olishni talab qiladi. Hozirgi kunda Yer aholisi soni 7,8 milliard kishiga yetdi. Kurrai zaminimizda hozir har soatda 17,8 ming, har kuni esa 427,5 ming bola tug‘ilmoqda. Jahon aholisi soni 2030 yilga borib 8,6 milliard, 2050 yilda 9,5 milliard va 2100 yilda 11,2 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2024 yil 1 yanvar holatiga 33905,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 650,3 ming kishiga yoki 2 foiz o‘rdi. Xalqaro demografik tasnifga ko‘ra, mamlakatimiz aholisi yosh davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat aholisi 2024-yil boshida 36,8 mln kishini tashkil etgan. Har bir oyda o‘rtacha 54,5 ming kishiga oshgan. Har bir kunda esa o‘rtacha 1,8 ming kishiga ko‘paymoqda. 1-yanvar holatiga ko‘ra, 1 km kv yer maydoniga o‘rtacha 82,3 nafar doimiy aholi soni to‘g‘ri keladi. Shahar joylarda — salkam 19 mln kishi, qishloq joylarda — 18 milliondan ziyod kishi yashaydi. Prognozlariga ko‘ra, tug‘ilish sur‘ati 2030-yilgacha bir maromda (o‘rtacha 900–950 ming) davom etadi va aholi soni 41 milliondan oshadi.

Bundan tashqari, xalqimizning hozirgi yosh tarkibida 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ulushi 62,1, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ulushi 33,3, 16-29 yoshdagilar ulushi 28,8 foizni tashkil etadi.

Mamlakat aholisining hozirgi vaqtdagi o'rtacha yoshi 25,5 yoshga, shu jumladan, qishloqda 24,1 yoshga, shaharda esa 27,9 yoshga tengdir. Bu demografik ko'rsatkichlar aholishunoslik sohasidagi davlat siyosati eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi zarurligining amaliy ifodasidir [3]. Barqaror rivojlanish strategiyasi odamlar o'rtasida, jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ammo, jahon hamjamiyatida siyosiy va iqtisodiy rivojlanishdagi noaniqliklar, turli xavf va tahdidlarning o'sib borayotgan bir sharoitda, milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish vazifasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan, mamlakat, uning tarmoqlari va hududlarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan strategiyalar, konsepsiyalar, maqsadli dasturlar va yo'l xaritalarini, BRMLarga moslashtirish, erishilgan natijalarni chuqur tizimli tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalariga erishish borasidagi keyingi qadamlarni belgilash uchun ehtiyoj ortib bormoqda.

Ma'lumki, 2017–2021 yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning jadal o'sishiga olib kelgan katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu mamlakatning deyarli barcha barqaror rivojlanish maqsadlarini faol va maqsadli amalga oshirish uchun kuchli turtki bo'ldi.

Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishiga muvofiq so'nggi besh yilda asosiy iqtisodiy islohotlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, biznes uchun qulay muhit yaratish, infratuzilmani yaxshilash, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy integratsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlariga qaratildi. Natijada, 2021 yilda mamlakatda iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida YaIM o'sish sur'ati 107,4 foizni tashkil etdi. Jahon bankining 2022 yil yanvar oyidagi prognozlariga ko'ra, O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi davlat sifatida qayd etilgan bo'lib, 2025-2026 yillarda yuqori iqtisodiy o'sish kutilmoqda.

Rivojlanish uchun davlat tomonidan moliyalashtirish sohasidagi vaziyatni yaxshilash, davlat faoliyati samaradorligini oshirish, xususiy biznesni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun jalb qilish imkoniyatlariga ijobiy ta'sirini hisobga olgan holda, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish, aralash moliyalashtirish, moliyalashtirishning an'anaviy konsepsiyasidan natijalarga e'tibor qaratilgan konsepsiyaga o'tishni faollashtiradi, mas'uliyatli investitsiya va impakt-investitsiyalar tamoyillarini joriy etish maqsadga muvofiq. Sonvergence tashabbusi ma'lumotlariga ko'ra, 2011–2023 yillarda aralash moliyalashtirish doirasidagi investitsiyalar miqdori 182 milliard dollarga oshdi. Davlatning mavjud resurslarni samarali boshqarish qobiliyatini kuchaytirish, uning ushbu bozorda faolroq ishtirok etishiga imkon beradi.

Qo'shimcha moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish davlat va xususiy investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishni talab qiladi. Aksariyat chora tadbirlar mavjud dasturlarni kengaytirish yoki yangi dasturlarni yaratish orqali davlat xarajatlarini ko'paytirishni, shuningdek, xususiy biznesni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun rag'batlantirishni kengaytirishni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish holatini yaxshilash bir qator sohalarda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirishni talab etadi. Birinchisi, davlat tomonidan moliyalashtirishning resurs bazasini kengaytirish maqsadida davlat daromadlari hajmini oshirish hamda davlat mablag'larini rejalashtirish va sarflash samaradorligini oshirish. Ikkinchisi, xususiy sektorning rivojlanishi uchun shartsharoitlarni yaxshilash orqali uning ishtiroki salohiyatini kengaytirish, shuningdek, barkaror rivojlanishga erishishni moliyalashtirishda (birgalikda rag'batlantirish, moliyalashtirishda) ishtirok etishni – davlat-xususiy sherikchiligi xilma-xilligini kengaytirish va faolligini oshirish, qo'shma moliyalashtirishni rivojlantirish.

O'zbekiston barqaror rivojlanish sohasidagi muammolarga alohida e'tibor Mamlakat Prezidentining "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlament rolini kuchaytirish to'g'risida"gi qarorga muvofiq ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi" O'zbekistonda 20232024

yillarda barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalariga erishishni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston ning taraqqiyot strategiyasining barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar bilan o'zaro bog'liqligi "Inson sha'ni va qadr-qimmatini yo'lida" tamoyiliga asoslangan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 28 yanvarda tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston ning taraqqiyot strategiyasi" ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlari: xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquq va manfaatlarini so'zsiz himoya qilish, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iborat. Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish[4]. Bundan tashqari, mamlakatda kambag'allikni ikki baravar qisqartirish birinchi maqsadlardan biri sanaladi[5]. Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish.

Taraqqiyot strategiyasida mamlakatda barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalariga erishishni ta'minlash mexanizmlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tashqi va ichki tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etishni e'tiborga olishlari lozim. Tashqi tahdid va xatarlar asosan global siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatdagi keskinlikning kuchayishi bilan bog'liq. Nufuzli xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, Osiyo banki, BMT va boshqalar) hisob-kitoblariga ko'ra, kelgusi yillarda dunyoning yirik davlatlari (AQSh, Xitoy, Rossiya va Yevropa Ittifoqi) o'rtasida savdo munozaralari kuchayishi va investitsiya shartlarining keskinlashishi bilan bog'liq holda jahon iqtisodiyotida pasayish tendensiyalari kuzatiladi. Jahon iqtisodiy kon'yunkturasida noaniqlik va beqarorlik kuzatilib, bu proteksionistik kayfiyatning kuchayishiga va turli sanksiyalar rejimlarining joriy etilishiga olib keladi. Bu aholi va alohida davlatlar iqtisodiyotining ehtiyojlarini o'zini o'zi ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazilishiga turtki beradi.

Uzoq muddatli barqaror xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarning uzilishi tovarlar va xizmatlarni sotish va sotib olish uchun yangi bozorlarni, transport koridorlarini va logistikani topish va qidirishni talab etadi. Oziq-ovqat mahsulotlari, neft-gaz va strategik xomashyo narxlarining beqaror va tez o'zgarib turishi BRMni amalga oshirishda raqobatbardoshlikni kuchaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, inflyatsion kutilmalarga qarshi kurashish bo'yicha aniq choralarni ko'rishga qaratilgan samarali mexanizmlarni topishni taqozo etadi. Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent. 2022 yil, 22 s.
2. Ismoilova G.B. Innovatsion Menedjment. Ekaterinburg. URFU. 2018. 125 b.
3. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining 2022-2030 yillarga bo'yicha aniq va prognoz ma'lumotlari.
4. O'zbekiston respublikasi prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston ning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. Toshkent. 2022-yil 28-yanvar,
5. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli qarori. Toshkent. 2022-yil 21-fevral.

СПРОС НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УСЛУГИ В КОНТЕКСТЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА

Сафиуллин Ленар Наилевич,

доктор экономических наук, профессор, Казанский федеральный университет

Сахбиева Амина Ильдаровна,

кандидат экономических наук, доцент, Казанский федеральный университет

Аннотация: Узбекистан привлекает внешние ресурсы для развития сферы высшего образования для поддержания международной конкурентоспособности. Цель статьи заключается в анализе спроса на образовательные услуги, выявлении тенденций и особенностей взаимодействия России и Узбекистана в области высшего образования, исследовании влияния этих связей на экономическое сотрудничество между странами. В статье описываются двухсторонние усилия по укреплению образовательных связей через внедрение совместных международных программ и подчеркивается важность академической мобильности. В статье также рассматриваются текущие тренды в образовательном направлении и перспективы дальнейшего сотрудничества.

Ключевые слова: высшее образование, межвузовское сотрудничество, академическая мобильность, спрос, академические связи.

Республика Узбекистан является важным политическим союзником и весомым торгово-экономическим партнером Российской Федерации. Повсеместное внедрение совместных образовательных программ с международными учебными заведениями свидетельствует о кардинальном пересмотре узбекскими властями отношения к обучению граждан за рубежом и развитию академической мобильности. Узбекистан усилил двусторонние отношения с рядом стран, в том числе и с Россией. Данное сотрудничество активно развивается как в экономической, так и в гуманитарной областях. Особенно значимым стало укрепление двусторонних связей в области образования, которому сейчас уделяют повышенное внимание. [3]

В 2019 году Россия и Узбекистан осуществили важный шаг в сторону укрепления образовательного партнёрства, заключив соглашение о взаимном признании образовательных документов, квалификаций и учёных степеней, что стало основой для формирования структур межгосударственного и межвузовского взаимодействия в образовательной сфере. На сегодняшний день Россия занимает ведущую позицию среди зарубежных партнёров узбекских высших учебных заведений в рамках совместных образовательных программ.[1] Под руководством президента Ш.М. Мирзиёева активное развитие политических и экономических отношений между Узбекистаном и Россией способствовало созданию благоприятной атмосферы для дальнейшего расширения сотрудничества в сфере высшего образования, укрепляя уже существующие академические и культурные связи.[4]

Среди абитуриентов из Узбекистана высокий спрос наблюдается на такие образовательные направления, как медицина, нефтедобыча, металлургия, машиностроение, геология и разведка полезных ископаемых. Популярны также программы по информатике и вычислительной технике, экономике и управлению, ядерной физике и технологиям, а также лингвистике. Эти специализации привлекают студентов благодаря своей актуальности, высокому спросу у работодателей на рынке труда и перспективам профессионального развития.[5] В 2024 году в российских вузах обучается свыше 53 тыс. граждан Узбекистана.

Одним из примеров успешного сотрудничества в сфере образования между Россией и Узбекистаном является Казанский федеральный университет (КФУ). В 2024 году у КФУ насчитывается более 50 соглашений с ведущими узбекскими университетами, такими как Ташкентский государственный экономический университет, Ташкентский финансовый институт, Бухарский государственный университет, Бухарский государственный медицинский институт, Бухарский инженернотехнологический институт, Национальный университет Узбекистана им.

Мирзо Улугбека, Самаркандский институт экономики и сервиса, Ферганский государственный университет и многие другие.

Таблица 1.

Количество студентов из Узбекистана в КФУ в 2017-2024 гг

Учебный год	2017/18	2018/19	2019/20	2020/21	2021/22	2022/23	2023/24
Обучающиеся	1601	2053	2750	2524	2543	1890	2115

Источник: сайт КФУ <https://media.kpfu.ru/news/uzbekistan>, сайт КФУ https://kpfu.ru/portal/docs/F_35096708/Spravka..Uzbekistan.sentyabr_.2022.pdf

Как видно из таблицы 1, общая тенденция показывает увеличение динамики количества студентов из года в год, с небольшими колебаниями, что говорит об устойчивом интересе к российскому образованию со стороны граждан Узбекистана. В 2022-2023 учебном году большая часть студентов училась в Институте управления, экономики и финансов КФУ в количестве 502 чел. Основная форма сотрудничества КФУ с вузами Узбекистана заключается в разработке и реализации совместных образовательных программ по различным направлениям подготовки, которые являются приоритетными для экономики и социальной сферы Узбекистана. В рамках этого сотрудничества Казанский федеральный университет предоставляет свои онлайн-курсы, организует обучение и стажировки.

Развивается и совместная публикационная деятельность с коллегами из Узбекистана. Так, в соответствии с данными базы SCOPUS, в период с 2017 по 2022 годы сотрудники университета в сотрудничестве с коллегами из Республики Узбекистан, опубликовали 38 научных статей в журналах международного уровня.

Академическая мобильность преподавателей университетов России и Узбекистана является важным аспектом международного сотрудничества в сфере высшего образования и научных исследований. Так, в период с 2017 по 2022 годы наблюдается положительная динамика участия преподавателей КФУ в международных академических обменах с Узбекистаном. В 2017 году - 16 сотрудников, в 2018 году - 32, в 2019 году – 65, в 2020 – 19, в 2021 году - 65, а в 2022 году – 54 человека.

Входящая академическая мобильность преподавателей из Узбекистана также демонстрирует положительную динамику. В 2019 году в КФУ прибыли 14 преподавателей из Узбекистана, в 2020 году это число увеличилось до 19, в 2021 году – до 70, 2022 году – 54 преподавателя.[7]

Академическая мобильность преподавателей между Россией и Узбекистаном способствует обмену знаниями, улучшению образовательных программ и укреплению международных связей между университетами. Совместные усилия по развитию академической мобильности способствуют профессиональному и научному росту, что в конечном итоге положительно сказывается на образовательных и научных достижениях обеих стран.

В апреле 2024 года города Ташкент, Самарканд, Навои и Бухара стали площадками для проведения XXV Международной выставки «Образование и профессия 2024», ориентированной на абитуриентов. В рамках этого события Казанский федеральный университет также демонстрировал свои образовательные программы и возможности. На выставке в Ташкенте было зарегистрировано присутствие 10 тысяч потенциальных студентов. В Самарканде число посетителей достигло 4 тысяч, в Навои – 2 тысяч, а в Бухаре – примерно 4 тысячи человек.

Осенью 2022 года в Джизаке состоялось торжественное открытие первого зарубежного филиала КФУ в Республике Узбекистан. Создание филиала было одобрено в соответствии с соглашением с Министерством науки и высшего образования РФ и решением президента

Узбекистана Шавката Мирзиёева. Открытие этого филиала является значимым событием для международного сотрудничества Казанского федерального университета, так как филиал стал значимым элементом укрепления отношений между Россией и Узбекистаном. На данный момент в учебном заведении обучается более 600 студентов. Инфраструктура филиала активно развивается, так как недавно был открыт Симуляционный центр медицинского образования. Планируется строительство нового учебного корпуса на 800 мест, что подчеркивает значимость и поддержку, оказываемую проекту со стороны узбекских властей, что позволит молодежи Узбекистана получать высококачественное образование, не покидая родины, и способствует дальнейшему укреплению академических и культурных связей между странами.

В настоящий момент на территории Узбекистана функционируют филиалы 15 российских высших учебных заведений, среди которых такие известные университеты как Московский государственный университет, Плехановский российский университет экономики, Всероссийский государственный институт кинематографии, Московский государственный институт международных отношений, Московский инженернофизический институт, Казанский федеральный университет и другие.[2]

Несмотря на широкий круг международных партнеров, Россия сохраняет лидирующие позиции, что обусловлено историческими связями и академическими взаимоотношениями между странами. К тому же, значительное количество узбекского населения владеет русским языком, что в сочетании с трудовой и образовательной миграцией в Россию способствует укреплению этих связей.[4] Тем не менее, языковой барьер может стать проблемой, несмотря на широкое распространение русского языка в Узбекистане. С одной стороны, не вся молодежь владеет русским языком, а с другой стороны, возрастающая интеграция английского языка в образовательную среду требуют дополнительных ресурсов для подготовки кадров и адаптации учебных программ. Следовательно, важно увеличить инвестиции в языковую подготовку, включая обучение английскому и русскому языку студентов и преподавателей, чтобы облегчить доступ к образовательным ресурсам. Продолжение укрепления межвузовского сотрудничества через создание совместных образовательных программ и научно-исследовательских проектов будет способствовать синхронизации образовательных стандартов и расширению возможностей для студентов и преподавателей обеих стран.

Список использованных источников:

- 1.Троицкий Е. Ф., Юн С.М. Узбекистан: новый этап интернационализации высшего образования // Высшее образование в России, №10, 2021, С. 157-168.
- 2.Жуманазаров Ж.Н. Динамика экономического сотрудничества Узбекистана и России // Экономика и бизнес: теория и практика, № 7 (101), 2023, С. 72-74.
- 3.Шнейдер В.М. Основные аспекты сотрудничества России и Узбекистана в сфере образования на современном этапе // Постсоветские исследования, vol. 2, №7, 2019, С. 14721476.
- 4.Юн С. М. Реформа и интернационализация высшего образования Узбекистана при Президенте Ш. М. Мирзиёеве // Вестник Томского государственного университета. История, №62, 2019, С. 138-144.
- 5.Ye Hanwen. Узбекистан и Россия: активизация сотрудничества в области высшего образования // Oriental Journal of History, Politics and Law, vol. 2, №2, 2022, pp. 34-41.
6. Сайт КФУ [Электронный ресурс] <https://media.kpfu.ru/news/uzbekistan> (дата обращения 16.05.2024)
7. Сайт КФУ [Электронный ресурс] https://kpfu.ru/portal/docs/F_35096708/Spravka..Uzbekistan.sentyabr_.2022.pdf (дата обращения 16.05.2024)

INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHNING JAHON TAJRIBALARI

Isomov B.S - Buxoro davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası dotsenti.

Jahonning qariyb barcha mamlakatlarida investitsiya loyihani moliyalashtirish mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantirishning ustuvor vositalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, investitsiya loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui hisoblanadi [1]. Investitsiya loyihalarining asosiy obektlari yo'llar, ko'priklar va boshqa transport infratuzilmasi ob'yektlarini, konlarni qazib olish va qayta ishlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni qurish, shuningdek, quvurlar va energetika ob'ektlari, xususan, elektr stansiyalari va yuqori voltli elektr uzatish liniyalari qurilishi va boshqalar. Hozirgi vaqtda butun dunyoda yirik kompaniyalar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda foydalaniladigan barcha moliyaviy vositalardan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Ular buni juda ehtiyotkorlik bilan qilishadi. Hatto eng yirik kompaniyalar hamon kapital xarajatlari nisbatan kam bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishni afzal ko'rishadi, kerak bo'lganda jamoaviy investitsiyalardan foydalanishga harakat qilishadi. Kichik kompaniyalar boshqa investorlar bilan hamkorlik qilishga intiladilar. Xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olsak, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq global muammolar Evropa va Shimoliy Amerikada energetika sanoatida loyihalarni moliyalashtirishdan foydalanish faolligini oshirishga olib keldi. Evropa Ittifoqida loyihalarni moliyalashtirishdan foydalanishning ko'payishi tendentsiyasi asosan hukumatni rag'batlantirish dasturlari, xususan, qayta tiklanadigan energiya va kam uglerodli energiyaning boshqa shakllariga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha maqsadli sa'y-harakatlar bilan bog'liq.

Germaniyada Nordsee ONE, Nordergrunde va Butendiek shamol parklarida muqobil energiya loyihalari loyihani moliyalashtirish vositasi yordamida muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ularni amalga oshirish uchun kompaniyalar tashkil etildi, ularning maqsadi shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish, moliyalashtirish (asosiy va noresurs loyihalarni moliyalashtirish orqali), qurish va foydalanishdan iborat edi. Misol uchun, Nordsee One GmbH Nordsee ONE parki uchun tashkil etilgan va Western Power Distribution Butendiek shamol stansiyasining hammuallifi, operatori va ishlab chiqaruvchisi edi. Shuningdek, Germaniyada Bavariya daryosi Loisaxdagi shaxtada (stansiyaning turbinasi va generatori daryo sathidan pastda - shaxtada joylashgan) shaxtada dunyodagi birinchi GES loyihasi amalga oshirildi. Myunxen texnika universitetining muhandis-olimlari kon elektr stansiyasi loyihasini ishlab chiqdilar va Voith GmbH Loisach daryosida 2020-yil fevral oyidan muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan birinchi ochiq havodagi tajriba zavodini moliyalashtirish va qurishni ta'minladi.

Yaponiyaning eng yirik elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi kompaniyasi JERA Yaponiyada 1 Gvt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalarini rivojlantirish uchun loyihani moliyalashtirish uchun 160 milliard yen (1,4 milliard dollar) sarflagan. Bugungi kunda ishlab chiqarish va maishiy chiqindilarni samarali foydalanish, ularni qayta ishlov berish yo'li bilan xom ashyoga aylantirish global muammo bo'lib, uning yechimi nafaqat iqtisodiy, balki butun mamlakatning ijtimoiy rivojlanishini ham belgilab beradi, bu esa barqaror rivojlanishga muvaffaqiyatli o'tishni belgilaydi. Bunday chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini moliyalashtirishini tashkil qilish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda, dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha mashhur bo'lgan mashhur Jahon banki keng qamrovli mahsulot va xizmatlardan foydalangan holda qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish bo'yicha loyihalarni moliyalashtiradi. Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan chiqindilarni boshqarish bo'yicha loyihalar chiqindilarning butun hayotiy siklini qamrab oladi, ayniqsa ishlab chiqarishdan tortib yig'ish hamda tashishgacha, nihoyat, qayta ishlash va utilitatsiya qilishgacha. Jahon banki chiqindilarni saralash va qayta ishlash ob'ektlarini qurish yoki modernizatsiya qilish, poligonlarni qurish yoki rekonstruksiya qilish, shuningdek, axlat qutilari, yuk mashinalari va uzatish stantsiyalari bilan ta'minlash uchun investitsiyalar beradi. 2000 yildan beri Jahon banki tomonidan 40,7 mlrd dollarlik qiymatga ega bo'lgan 340 dan ortiq qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash investitsiya loyihalari moliyalashtirilgan[2].

Jahon banki dunyoning barcha mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlov berishga doir ehtiyojlarni qondirish uchun investitsiyalarni ko'paytirmoqda. Misol uchun, Afrika mamlakatlarida Jahon bankining kreditlari bilan ikki milliondan ortiq aholiga xizmat ko'rsatadigan uchta qattiq maishiy chiqindilar poligoni qurildi va farovonlik dasturlari ishlab chiqildi. Ozarbayjonda Jahon banki kreditlari asosiy poligoni rekonstruksiya qilishga yordam berdi. **Xitoyda** maishiy oshxona chiqindilarini qayta ishlash uchun Jahon bankining 80 million AQSH dollar miqdorida Jahon banki kredit mablag'laridan foydalanildi.

Nepalda 2022 yilda bank muassasalari tonidan 4,3 million dollarlik shiqindi qayta ishlov berishga doir 54 loyihani moliyalashtirildi. Vetnamda qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishga investitsiyalar Can Tho shahri hukumatining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi suv toshqiniga olib kelishi mumkin bo'lgan bo'ronli drenajlarda tiqilib qolishning oldini olish. Xuddi shunday, Filippinda investitsiyalar qattiq chiqindilarning suv yo'llariga kirishi potentsialini minimallashtirish orqali Manila poytaxti hududida suv toshqini xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Chiqindilarni boshqarishga investitsiyalar maqsadli chiqindilarni yig'ish tizimini takomillashtirish, jamoatchilik yondashuvlarini ishlab chiqish va rag'batlantirishni yaratish, suv hududlarida, ayniqsa Manila ko'rfazida suv ifloslanishni kamaytirish masalarini hal qilish maqsadlariga Jahon banki ko'plab mamlakatlarga moliyaviy yordam bermoqda. IFC Jahon bankining sho'ba korxonasi va guruh a'zosi hisoblanadi. Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlarda faqat xususiy sektorga qaratilgan eng yirik global rivojlanish institutidir. Bundan tashqari, IFC Bogota, Izmir, Medellin va Buenos-Ayres kabi qattiq chiqindilarni boshqarish, qayta ishlash va yo'q qilish uchun bu yerdagi kompaniyalarga texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishda yordam beradi. Shu bilan birgalikda, IFC atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etishda ishtirok etadi, manfaatdor tomonlarni birlashtirish va xususiy sektor moliyasini jalb qilish uchun zarur bo'lgan qulay muhitni yaratishga bevosita qatnashadi. IFC shaharlarda ekologik mukammallikni ta'minlash bo'yicha yashil moliyalashtirishga mos loyihalarni aniqlash, strategiyalarni ishlab chiqish va natijalarni kuzatishda yordam berishi mumkin.

Yana bir muhim moliya instituti Evropa investitsiya banki (EIB) tomonidan ishlab chiqilgan chiqindilarni qayta ishlash sanoati tashkilotlarida investitsiya loyihalari, ularning mablag'lari yirik va kichik korxonalar uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

MSWni boshqarish masalalarida Evropa Ittifoqi siyosati maqsadlariga erishishga hissa qo'shadigan investitsiya loyihalaridan biri "Trifyl horizont 2030" investitsiya loyihadir. Ushbu loyiha ikkita saralash markazini moliyalashni o'z ichiga oladi va Tri Mécano Biologique bo'limi, Fransiyaning Oksitaniya mintaqasida (O'rta Pireney va Languedok-Russillon) hosil bo'lgan maishiy va shunga o'xshash chiqindilardan qurilish materiallari va energiyani qayta tiklashga lozim

bo'ladigan materiallar ishlab chiqarishga qaratilgan[3]. Loyihaning asosiy maqsadi chiqindilardan materiallar va energiyani qayta tiklash samaradorligini oshirishdan iborat. Ikki ta saralash stansiyasi va mexanik biologik tozalash inshooti atrof-muhitni himoya qilishga taklif etilayotgan loyiha EIB tomonidan €36 mln. miqdorida moliyalashtiriladi va loyihaning umumiy qiymati 150 million yevroni tashkil etadi.

Fransiyada "Carbios" sanoatni rivojlantirish kompaniyasi plastik butilkalarni bir necha soat ichida eritib yuboradigan bakterial ferment yaratdi. Loyihaning maqsadi real dunyoda o'z texnologiyasining texnik va iqtisodiy hayotiylikini namoyish etishdir sanoat sharoitlari va bioprotsesslarni optimallashtirish. Loyiha plastik ifloslanishga qarshi kurashish va Yevropa Ittifoqining aylanma iqtisodiyot paketida belgilangan maqsadlarga erishishga yordam beradi. Taklif etilgan Evropa investitsiyalar banki tomonidan moliyalashtirilgan loyiha obektining umumiy miqdori - 29 million yevro. Investitsion loyihaning umumiy qiymati esa 60 million yevro.

Bundan tashqari Okean aylanma kapital fondi (Circulate Capital Ocean Fund - CCOF) ham tashkil etilgan. U dunyodagi birinchi bo'lib okean plastik yig'indilarini suv tubidan chiqarish va ularni qayta ishlash investitsiya fondini ishga tushirdi. Uning maqsadi plastik yig'indilari natijasida suvning ifloslanishining oldini oladigan va Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda kompaniyalariga sarmoya kiritish, shu bilan investitsiya jozibadorligini isbotlash va yechimlar uchun katta kapitalni rag'batlantirish, shu bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat va xususiy sektorni birlashtiradigan yangi aralash moliya mexanizmidir. Jamg'arma mablag'lari asosan Hindistonga Indoneziya, Tailand, Vetnam, Filippin va Malayziyaga sarmoya kiritishga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu jamg'armaning "Yo'l xaritasi" maqsadlariga muvofiq iqlim va barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadigan investitsiya loyihalariga qaratilgan. Jamg'armaning maqsadli hajmi 80-100 million AQSH dollarigacha.

Bolgariyadagi "Toplofikacia CHP" investitsiya loyihasi. Maishiy chiqindilarni qayta ishlash zavodida ishlab chiqariladigan chiqindilardan olinadigan yoqilg'idan foydalangan holda, Sofiyaning markaziy issiqlik tarmog'i uchun yangi issiqlik-energiya kombinatini qurish va ishga tushirishdan iborat yirik loyiha. Bu Sofiya shahridagi maishiy chiqindilarni kompleks boshqarish loyihasining yakuniy bosqichi bo'lib, chiqindilardan yoqilg'ini olish, tarmoqqa elektr energiyasini etkazib berish va Sofiya markaziy isitish tizimini issiqlik bilan ta'minlaydi. Loyihaning umumiy qiymati 35 million yevro bo'lib, uning 14 million yevrodagi miqdori Evropa investitsiya banki tomonidan moliyalashtiriladi[4].

Loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribani tahlil qilish asosida tashkiliy, o'ziga xos (loyiha) va ekologik xavflar aniqlandi. Atrof-muhit bilan bog'liq xavf-xatarlarga tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqinlari va zilzilalar) kiradi va ularning yuzaga kelishidan kelib chiqadigan zararni sug'urta yordamida kamaytirish mumkin.

Shunday qilib, investitsiya loyihasining risklarini minimallashtirish uchun loyiha kompaniyasi va homiylar, kreditorlar, mahsulot xaridorlari va loyihani moliyalashtirishni boshlagan boshqa tomonlar o'rtasidagi javobgarlik sohasini qonuniy belgilash orqali, amalda ularni taqsimlash strategiyasi qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda, loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish ham chet elda, ham mahalliy amaliyotda keng foydalaniladi. Ushbu moliyalashtirish vositasidan muvaffaqiyatli foydalanilayotgan iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlari hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanishning mavjud xavf-xatarlariga qaramay, ushbu usul yirik investitsiya loyihalarini, xususan, energetika va infratuzilma ob'ektlarini qurishni moliyalashtirishning asosiy vositasi bo'lib qolmoqda. Investitsion loyihani amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan

ishtirokchilarni huquq va majburiyatlarini aniq belgilash muhim masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Investitsiya mexanizmini shakllantirishdan asosiy maqsad iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida aktivlarning bozor qiymatini oshirish va ularning bozorda raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Yaqin kelajakda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga doir loyihalarni moliyalashtirish investitsiya mexanizmlarini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning samarali faoliyatini ta'minlash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish;
- ishlab chiqarishni kengaytirish va mahsulotni sotish uchun yangi tashqi bozorlarni egallash;
- asosiy fondlarning ma'naviy va ijtimoiy eskirishiga qarshi kurashish, shuningdek, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
- mahsulot sifatini oshirish;
- mehnatga layoqatli aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash;
- ishlab chiqarish rentabelligini oshirish;
- mamlakatlarning milliy daromadi va yalpi ichki mahsulotining o'sishi uchun faroham sharoitlar yaratish.

Xulosa sifatida yana shu ta'kidlash mumkinki, an'anaviy kreditlash, loyiha va venchur moliyalashtirish shakllari bo'yicha quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- bankning investitsiya loyihasini kreditlashi, ma'lum shartlarda, faqat loyihani moliyalashtirish shakllaridan biri, uning alohida holati sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Umuman olganda, kreditor ko'pincha ma'lum bir loyihadan olingan daromadga emas, balki moliyalashtirilayotgan loyihaning umumiy moliyaviy natijasiga tayanadi;
- loyihani moliyalashtirishda investitsiyalar faqat ushbu loyiha doirasida hosil bo'ladigan kelajakdagi pul oqimlari hisobiga to'lanadi. Uning asosiy obektlari - konchilik va infratuzilma kabi iqtisodiyotning katta miqdordagi kapital talab qiluvchi tarmoqlarida mavjud;
- venchur moliyalashtirish bilan - investitsiyalar bir yoki ikkita loyihaning yo'qotish ehtimoli kam bo'lgan taqdirda moliyalashtiriladi. Uning maqsadli segmenti yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishdir.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqaruvchi korxonalar, dunyoning barcha mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotining barqarorligi va o'sishining asosiy omili sifatida o'z rolini saqlab qolishda davom etmoqda va shuning uchun ushbu tarmoqlar ob'ektlarini loyihaviy moliyalashtirish uchun investitsiyalarni jalb qilish ayniqsa dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuni. Toshkent. 2019 yil 25 dekabr.
2. Nevitt, P.K., Fozzi F.J. Project Financing, 7th edition, Euromoney Books, 2000 (London, U.K.).
3. Шенаев В.Н, Ирниязов Б. С. Проектное кредитование. Зарубежный опыт и возможности его использования в России / М.: Изд-во АО «Консалтбанк», 2019. 18-26 стр.
4. Rigby P., Penrose J. Project Finance Summary Debt Rating Criteria // Project & Infrastructure Finance Review 2003-2004: Criteria and Commentary, Standard & Poor's Corporation, 2003. P.153-158
6. Tax and Project Finance. Special Issue. // International Business Lawyer, May 1998, vol. 26, N 5, pp. 193.
7. Vinter Graham D. Project Finance. A Legal Guide / London, Sweet & Maxwell, 1995.

IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH OMILLARI

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna,

Farg'ona politexnika instituti, tayanch doktoranti, e-mail:

s.abdullayeva@ferpi.uz, +998 93 648 06 97.


Annotatsiya. O'rganishda muallif tomonidan iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillarni umumiy jihatlari tadqiq qilinib beshta guruhga ajratish taklif qilingan. Sanab o'tilgan omillar umumiylik jihati bilan e'tibor qaralilib iqtisodiy-ijtimoiy, moliyaviy, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarga bog'liq jihatlari muhokama etilgan

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiyotini sanoatlashtirish, sanoatlashtirish siyosati, iqtisodiy barqarorlik, to'qimachilik sohasi faoliyat.

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashtirish siyosatini shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy asoslari iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'plab kuzatilmoqda. Sanoatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini mustahkamlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarini faollashtirish asosida sanoat imkoniyatlarini kengaytirishga erishish innovatsion taraqqiyot bosqichining eng ahamiyatli masalalaridan biridir.

Mamlakatimiz olimlarning sanoatlashtirish siyosatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida sanoatlashuv jarayoni, davlat sanoatlashtirish siyosati, tarmoqlararo integratsiya, jumladan, agrosanoat integratsiyasi, sanoat tarmoqlarini joylashtirish, urbanizatsiyalashuvni boshqarish va jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan nazariy qarashlar, g'oyalar, yondashuvlar va ilmiyuslubiy masalalari o'rganilgan. Lekin ularning ilmiy tadqiqot ishlarida sanoatlashtirish jarayoniga umumiy yondashuv kuzatilgan bo'lib, ya'ni sanoatlashtirishning pirovard natijasi aniqlashtirilmagan [4]. Fikrimizcha to'qimachilik sohasida sanoatlashtirish siyosatining nazariy asosi sifatida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish pirovard maqsad qilib belgilanishi kerak. Zamonaviy sharoitlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalasi yanada dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki uning barqaror iqtisodiy faoliyati dastlab sarflangan xarajatlarni qoplash va o'ziga maqbul bo'lgan foydaga erishish hamda raqobatchilar orasida o'z mavqeyini saqlab qolish sharoitini yaratadi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash unga ta'sir etuvchi omillarni tasniflash hamda baholash darajasining zarurligini keltirib chiqaradi.

Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillarni umumiy jihatdan beshta guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi [1].



1-chizma. Iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar[3]

Yuqorida sanab o'tilgan omillar umumiylik jihati bilan e'tiborlidir, har qanday iqtisodiy jarayon yoki hodisaning amal qilinishi an'anaviy ravishda iqtisodiy-ijtimoiy, moliyaviy, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu shart-sharoitlar turli sohalarda uning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, qayd etib o'tilgan barcha omillar nafaqat to'qimachilik sohasi faoliyatiga, balki boshqa faoliyat sohaslarida ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar bilan ifoda etilishi mumkin.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan omillarga qo'shimcha ravishda tashqi muhit omilini kiritish zarurdir. Korxonalar faoliyatining natijalari asosan uning tashqi muhiti bilan belgilanadi. Shuning uchun bu muhitni bilish va uning o'zgarishiga javob bera olish hamda korxonalar ichki tuzilmalariga o'zgaruvchan muhitning ta'sirini o'rganish zarur. Korxonaning o'zi ochiq tizim sifatida resurslar ta'minoti, energiya, kadrlar va shuningdek iste'molchilar bilan munosabatga kirishish kabi masalalarda tashqi muhitga to'liq bog'liq. Korxonalar omon qolishi, o'z samaradorligini va raqobatbardoshligini saqlab qolishi uchun bu muhitga moslashishga majbur. Tashqi muhitning asosiy xususiyatlaridan biri – bu omillarning o'zaro bog'liqligi, murakkabligi, harakatchanligi va noaniqligidir. Tashqi muhit omillarining o'zaro bog'liqligi

deyilganda ta'sir kuchining darajasi tushuniladi, ya'ni bir omilning o'zgarishi boshqa tashqi muhit omillarining o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuni e'tiborga olgan holda, tashqi muhit omillarini yakka holda emas balki boshqa barcha omillar bilan birgalikda ularning o'zgarish dinamikasini hisobga olgan holda uzviy bog'liqlikda o'rganish lozim.

Tashqi muhitning murakkabligi deyilganda ishlab chiqarish tizimining o'z faoliyatini saqlab qolishi uchun qayta javob berishi kerak bo'lgan omillar soni hamda har bir omilning o'zgarish darajasi tushuniladi. Atrof-muhitning harakatchanligi yoki dinamikasi – bu korxonada tashqi muhitida o'zgarishlarning sodir bo'lish tezligidir [2]. Tashqi muhitning noaniqligi funktsiya bo'lib, bu o'z navbatida korxonaning muayyan tashqi omilga tegishli bo'lgan axborotlar miqdoriga egaligiga hamda mavjud axborotlarning aniqligi va ishonchligiga bog'liq. Tashqi muhit qanchalik noaniq bo'lsa, korxonada xo'jalik faoliyatida ma'lum bir samarali qarorni qabul qilish shunchalik murakkab bo'ladi. Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan umumiy omillar deya e'tirof etilganlarni hamda tashqi muhit omillarini quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- to'g'ridan to'g'ri (bevosita) ta'sir etuvchi omillar;
- bilvosita ta'sir etuvchi omillar.

To'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi omillar tarkibiga Davlat (davlat tashkilotlari), ta'minotchilar, iste'molchilar, raqobatchilar hamda korxonada mutaxassislar kiradi.

Iqtisodiy barqarorlikka bilvosita ta'sir etuvchi omillar esa iqtisodiyotning holati (iqtisodiy omillar), texnik omillar va texnologiya, ijtimoiy omillar va siyosiy omillardan iborat.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy barqaror holatiga bilvosita omillar ham odatda bevosita (tashqi) omillar kabi bir xil sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bilvosita ta'sir etuvchi omillar bevosita ta'sir etuvchi omillarga nisbatan ancha murakkab hisoblanadi. Chunki, korxonada faoliyatiga ta'sir etuvchi bilvosita omillarni tavsiflash, ular xususiyatlarini tahlil qilish hamda ta'sir natijalarini oldindan bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'lish murakkab va ancha ko'p vaqt talab etadigan jarayondir. Bizga ma'lumki, iqtisodiy holat an'anaviy kategoriyalarga asoslanib tavsiflanadi: iqtisodiy o'sish sur'ati, to'lov balansi, ish bilan bandlik darajasi. Iqtisodiy muhit muqim bir holatda bo'lmasdan o'zining dinamik o'zgarishlari bilan korxonada faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, o'z navbatida bu ta'sir bir vaqtning o'zida ham salbiy, ham ijobiy bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda korxonaning ijobiy faoliyat yuritishiga kafolat bo'lib, iqtisodiy muhitning o'zgarishini bashorat, tahlil va izoh qila olish qobiliyatiga korxonaning ega ekanligi hamda ushbu o'zgarishlarga moslasha olishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, S. K., & Davlyatova, G. M. (2022). Тўқимачилик саноати корхоналарининг иқтисодий барқарорлигини инновацион ривожлантириш масалалари. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(6-8), 7-21.
2. Абдуллаева, С. (2022). “Иқтисодий барқарорлик” ва у бўйича назарий қарашларнинг ўзига хос хусусиятлари. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(6), 40-47.
3. Chizma tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
4. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur Bo'stoni. 2011. – 336 b.

КОРХОНАЛАРДА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИКНИ БАҲОЛАШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ МУҲИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Раджапбай Дусмуратов,

Тошкент давлат иқтисодиёт университети, и.ф.д., профессор.

Аннотация: Ушбу мақолада инвестицияларнинг рентабеллик коэффициенти, инвестиция лойиҳаларининг рентабеллик коэффициенти (ARR), ички рентабеллик нормаси (IRR) ва рентабеллик индекси (PI) ҳисоблаш ҳамда муқобил муддатларидан мақбулини танлаш мезонлари тавсия этилган. Мақола инвесторлар, лойиҳа менежерлари ва молиявий консультантлар учун мўлжалланган.

Калит сўзлар: инвестиция, бизнес-режа, инвестицион лойиҳа, рентабеллик коэффициенти, дисконтлаш, инвестицион харажатлар, ички рентабеллик коэффициенти

Маълуми, инвестиция лойиҳаларини комплекс экспертиза қилиш ва иқтисодий самарадорлигини баҳолаш заруратини кучайтириб, бу борада вужудга келаётган муаммоларни ҳал этиш зарурлиги аён бўлмоқда. Хусусан, аграр соҳада фаолият юритаётган хўжалик субъектларининг жалб қилинаётган инвестициялардан фойдаланиш даражаси қониқарсизлигича қолмоқда. Ушбу муаммолар бир томондан, аграр соҳа корхоналари, хусусан фермер хўжаликларининг тўлов қобилиятига бориб тақалса, иккинчи томондан, тузилаётган инвестиция лойиҳаларининг техник-иқтисодий асосномалари (ТИА) пухта ишлаб чиқилмаётганлиги ва иқтисодий самарадорлиги илмий-услубий асосланмаётганлиги билан боғлиқ.

Ушбу муаммолар инвестиция лойиҳаларини амалга оширишдан олдин уларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқ баҳолашни талаб этади. Шу боис, мазкур мақолада инвестиция лойиҳалари самарадорлигини баҳолашнинг муҳим методларини кўриб чиқамиз. Жумладан, инвестицияларнинг ёки инвестиция лойиҳаларининг рентабеллик коэффициенти (ARR)ни аниқлаш методи инвестиция объектининг самарадорлигини ифодалайди. Ушбу коэффициент куйидаги хусусиятларга эга: *биринчидан*, у «соф фойда» кўрсаткичи бўйича аниқланади; *иккинчидан*, уни ҳисоблаганда даромад дисконтланмайди.

Инвестицияларнинг рентабеллик коэффициенти (ARR) куйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$ARR = \frac{CF_{\text{урт.}}}{IC}, \quad (1)$$

Бунда: $CF_{\text{урт.}}$ – режалаштирилаётган давр(ойлар, йиллар) давомида инвестициялардан олинган режалаштирилаётган ўртача пул тушумлари(ёки соф фойда);

IC (*Investment Capital*) – инвестицияланадиган капитал, яъни инвесторнинг инвестиция фаолияти объектига қилинадиган дастлабки харажатлари.

Инвестициялар рентабеллик коэффициенти ҳисоблаш формуласининг бошқача шакли ҳам мавжуд. Бунда режалаштирилаётган давр давомида инвестиция объекти(лойиҳаси)га қўшимча қўйилмалар амалга оширилади. Шу боис, инвестиция даври учун капиталнинг ўртача қиймати олинади. Юқоридаги формула куйидаги кўринишга келади:

$$ARR = 0,5 \frac{PN}{IC - RV}, \quad (2)$$

Бунда: PN – инвестициялардан олинган ўртача йиллик соф фойда;
 RV – лойиҳанинг қолдиқ (тугатилиш) қиймати.

Ушбу кўрсаткич бутун корхона бўйича олинган умумий соф фойдани унинг фаолиятига авансланган маблағларнинг умумий суммасига бўлиш йўли билан аниқланган, авансланган капиталнинг рентабеллик коэффиценти билан таққосланади.

Инвестиция лойиҳасининг асосий ўлчам(тавсиф)лари қуйидагича: бирламчи инвестиция (IC) 370 000,0 млн. сўм; 5 йил давомида олиниши режалаштирилаётган пул тушумлари мос равишда (млн. сўм): 85 000, 0; 110 000, 0; 167 000, 0; 180 000,0 ва 140 000,0.

Инвестиция лойиҳасининг мақбуллигини рентабеллик коэффиценти (ARR) методи бўйича баҳолаш мезонини ҳисоблаймиз (1-жадвал).

Инвестицияларнинг рентабеллик коэффиценти (ARR) кўрсаткичининг афзалликлари ва камчиликлари.

Рентабеллик коэффиценти (ARR) кўрсаткичининг афзаллиги фақат уни ҳисобкитоб қилишнинг соддалигидан иборат.

1-жадвал. Инвестиция лойиҳасини ARR мезони бўйича баҳолаш (млн. сўм)

Давр (йиллар)	Бирламчи инвестиция (IC)	Пул тушуми, t - йилда (Vt)
0	370 000	-
1	-	85 000
2	-	110 000
3	-	167 000
4	-	180 000
5	-	140 000
V =		682 000

$$V=85\,000 + 110\,000 + 167\,000 + 180\,000 + 140\,000 = 682\,000: 5 = 136\,400 \text{ млн. сўм.}$$

$$ARR = \frac{CF_{\text{ўпм}}}{IC} = \frac{136400}{370000} = 36,9\%$$

Ушбу коэффицентнинг камчилиги сифатида инвестиция лойиҳасидан келгусида олинадиган пул тушумларини прогнозлашнинг мураккаблигини кўрсатиш мумкин. Инвестиция лойиҳалари иқтисодий самарадорлигини баҳолашнинг яна бир муҳим кўрсаткичи - инвестицияларнинг ички рентабеллик нормаси (IRR) дейилганда лойиҳанинг NPV кўрсаткичи нолга тенг бўлгандаги дисконтлаш коэффиценти тушунилади:

$$IRR = r, NPV = f(r) = 0. \text{ Бўлганда, } (3)$$

Инвестицияларни режалаштиришда рентабеллик нормасини таққослаш учун «капитал харажатлар» (CC)¹ асос бўлиб, у корхонада сафарбар қилинган капиталнинг вужудга келган энг кичик қайтими (рентабеллиги)ни ифодалайди. У ташқи молиялаштиришнинг барча манбалари бўйича ўртача арифметик тортилган усул формуласи бўйича ҳисобланади.

¹ Айрим хориж манбалари ва амалиётида IC (*Investment Capital*) «инвестицияланадиган капитал» тушунчаси ўрнига «капитал харажатлар» CC (*Cost of Capital*) тушунчаси қўлланилади. Улар мазмунан бир хил тушунчалардир.

Шундай қилиб, инвестицияларни режалаштиришда рентабеллик даражаси жорий CC кўрсаткичидан паст бўлмаган лойиҳалар самарали ҳисобланади. Бунда агар:

$IRR > CC$ бўлса, лойиҳа маъқулланади;

$IRR < CC$ бўлса, лойиҳа рад этилади;

$IRR = CC$ бўлса, лойиҳа фойда келтирмайди, аммо зарар ҳам кўрилмайди.

Инвестицияларнинг рентабеллик нормасини ҳисоб-китоб қилиш учун дисконтланадиган кўпайтимлар қийматини табуляциялашдан фойдаланилган ҳолда кетмакет итерациялаш услуби қўлланилади. Бунинг учун дисконтлаш коэффициентининг $r_1 < r_2$ бўлган иккита қиймати жадвал ёрдамида (r_1, r_2) интервалда $NPV = f(r)$ функцияси ўз

қийматини «+» дан «-»га ёки «-» дан «+» га ўзгартирадиган чегара танланади. Сўнгра қуйидаги формула қўлланилади:

$$IRR = r_1 + \frac{f(r_1)}{f(r_1) - f(r_2)} (r_2 - r_1) \quad (4)$$

r_1 - бунда дисконтлаш коэффициентининг $(f(r_1) > 0)$ $(f(r_1) < 0)$ бўлгандаги табуляцияланган қиймати;

r_2 - бунда дисконтлаш коэффициентининг $(f(r_2) < 0)$ $(f(r_2) > 0)$ бўлгандаги табуляцияланган қиймати.

Ҳисоблашнинг аниқлиги (r_1, r_2) интервал узунлигига тескари пропорционал бўлиб, табуляцияланган қийматлардан фойдаланган ҳолда интервал узунлиги энг кичик бўлган вақтда (1%га тенг), энг яхши аппроксимацияга эришилади, яъни r_1 ва r_2 - дисконтлаш коэффициентларининг қиймати бир-бирига яқин бўлиб, шартлари бажарилади (функция белигиси «+» дан «-»га ўзгарган ҳолда).

r_1 - NPV кўрсаткичи ижобий қийматини энг паст даражага тушурадиган, яъни $r_1 = \min \{f(r) > 0\}$ бўлгандаги дисконтлаш коэффициентини табуляцияланган қиймати; r_2 - NPV кўрсаткичи салбий қийматини энг юқори даражага кўтарадиган, яъни $r_2 =$

$-\max \{f(r) < 0\}$ бўлгандаги дисконтлаш коэффициентини табуляцияланган қиймати.

r_1 ва r_2 коэффициентларни ўзаро алмаштириш йўли билан функция «-» дан «+» га ўзгарган вазият учун шунга ўхшаш шартлар бажарилади.

2-жадвал Инвестиция лойиҳасини IRR мезони бўйича баҳолаш

IRR ни баҳолаш мезонлари	Лойиҳа бўйича хулоса
$IRR > CC$	Инвестиция лойиҳасига сарфланган капитал ўз қийматидан юқори даромад келтиради. Бундай лойиҳа фойдали ҳисобланади.
$IRR = CC$	Бундай лойиҳадан олинган даромад харажатларни тўлик қоплайди, лекин фойда олинмайди ва шунинг учун маъқулланмайди.
$IRR < CC$	Бундай лойиҳадан олинган даромад сарфланган капитални қопламайди, яъни зарар кўрилади. Шунинг учун рад этилади.

Инвестициялар самарадорлигини баолашнинг муҳим кўрсаткичларидан яна бири – рентабеллик индекси (PI) қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$PI = \frac{PV}{IC}, \quad (5)$$

Агар $PI > 1$ бўлса лойиҳа самарали; $PI < 1$ бўлса лойиҳа самарасиз; $PI = 1$ бўлса лойиҳадан фойда ҳам олинмайди, зарар ҳам кўрилмайди.

Корхонада 3та муқобил (А, В ва С) инвестиция лойиҳаларидан қайсиниси мақбуллиги масаласи кўриб чиқилмоқда (3-жадвал). Уларнинг амалга оширилиш муддатлари 5 йилдан бўлиб, шу даврда ҳар йили мос равишда: **А** лойиҳа — 19 050,0 млн. сўм, **В** лойиҳа — 10 795,0 млн. сўм ва **С** лойиҳа — 29 464,0 млн. сўм доимий даромад келтириши режалаштирилган. Лойиҳанинг дисконтлаш ставкаси -10%. Қайси лойиҳа корхона учун мақбул?

$$PV_A = 17\,318 + 15\,744 + 14\,313 + 13\,011 + 11\,829 = 72\,214,0 \text{ млн. сўм.}$$

$$PV_B = 9\,814 + 8\,921 + 8\,110 + 7\,373 + 6\,703 = 40\,922,0 \text{ млн. сўм.}$$

$$PV_C = 26\,785 + 24\,350 + 22\,137 + 20\,124 + 18\,295 = 111\,692,0 \text{ млн. сўм.}$$

3-жадвал . Лойиҳалар мақбуллигини PI мезони бўйича баҳолаш (млн. сўм)

Лойиҳа номи	Бирламчи инвестициялар суммаси, (IC)	t-нчи йилда пул тушуми, (Pt)	PV	NPV	Рентабеллик индекси, (PI)
A	63 500,0	19 050,0	72 214,0	8 714,0	1,14
B	38 100,0	10 795,0	40 922,0	2 822,0	1,07
C	101 600,0	29 464,0	111 692,0	10 092,0	1,10

Жадвал маълумотларини таҳлил қилиш асосида хулоса қилиш мумкинки, кўриб чиқилаётган инвестиция лойиҳаларидан NPV кўрсаткичи бўйича энг мақбули **С** лойиҳа бўлса, рентабеллик индекси (PI) бўйича **А** лойиҳа ҳисобланади. Баён қилинганлар асосида инвестиция лойиҳасининг рентабеллигини баҳолаш мезонларини тақдим этамиз (4жадвал).

Рентабеллик индекси (PI) соф жорий қиймат (NPV) кўрсаткичидан фарқ қилиб, нисбий кўрсаткич ҳисобланади. Бу бир қанча муқобил (альтернатив) лойиҳалардан мақбулини танлашга қулайлик яратади.

4-жадвал. Инвестиция лойиҳасини PI мезони бўйича баҳолаш

PI ни баҳолаш мезонлари	Лойиҳа бўйича хулоса
$PI > 1$	Инвестиция лойиҳаси ўзини-ўзи қоплаб, қўшимча даромад келтира олади ва уни қабул қилиш мақсадга мувофиқ
$PI < 1$	Инвестиция лойиҳаси унга қилинадиган капитал харажатларни тўлиқ қоплай олмаслиги боис, уни рад этиш тавсия қилинади.
$PI = 1$	Инвестиция лойиҳаси танланган дисконт ставкасига тенг бўлган даромаднигина таъминлай олади.
$PI_1 > PI_2^*$	Бир нечта муқобил лойиҳалардан қайси мақбуллигини аниқлаш мақсадида улар ўзаро таққосланади. Биринчи лойиҳа афзал бўлганлиги учун иккинчиси рад этилади.

Шундай қилиб, замонавий илмий қарашлар, норматив ҳужжатлар ва услубий қўлланмаларда инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини комплекс баҳолаш бўйича ягона универсал ёндашув мавжуд эмас. Шу боис, инвестиция лойиҳасини таҳлил қилишда объектнинг ўзига хос (ташкилий-ҳуқуқий, тармоқ, технологик ва б.) хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда мавжуд методларнинг турли комбинацияларидан фойдаланиш тавсия этилади. Бу инвестиция рискларининг олдини олиш, бартарф этиш ва ниҳоят самарадорликни оширишни таъминлайди.

Инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини комплекс, тезкор ва сифатли баҳолаш учун компьютер дастурларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Юқорида келтирилган кўрсаткичларни (*ARR, IRR, PI*) Excel дастурлари асосида аниқлаш, таҳлил қилиш ва хулосалар шакллантириш амалиётда юқори самара беради. Шунингдек, инвестиция даври давомида лойиҳа менежерларига кўрсаткичлар ўртасидаги боғлиқликларни кузатиш(мониторинг) ва у ёки бу вазиятларнинг сабабларини аниқлашга ёрдам беради.

Инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини ҳисоблаш ҳамда муқобил инвестиция лойиҳаларидан мақбулини танлаш мезонлари самарали инвестиция қарорларини қабул қилишга имкон яратади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17 январ 2019 йилдаги ПФ- 5635 сонли «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «*Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили*»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида» Фармони. [www. Lex.uz](http://www.lex.uz).
2. R.D.Dusmuratov. MOLIYA. Darslik,. Т.: «Молия» нашриёти, 2008 й. -472 б.
3. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Me‘yoriy hujjatlar bazasi portali

О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA BARQAROR RIVOJLANISH JARAYONLARI

То‘xtayev Maqsud Mansurovich.

Buxoro viloyat soliq boshqarmasi davlat soliq bosh inspektori

Аннотасија: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi barcha iqtisodiy sohalarni rivojlanishi uchun yetarli ilmiy va amaliy poydevor mavjudligi, iqtisodiyotni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va uning tarkibi, xususan, tarmoq va hududiy tuzilishi takomillashtirish katta e'tibor qaratilgan.

Аннотация: В данной статье большое внимание уделяется на наличие достаточной научнопрактической базы для развития всех отраслей экономики в Республике Узбекистан, обеспечению экономики современными технологиями и совершенствования ее структуры, в частности сетевой и территориальной структуры.

Abstract: In this article, much attention is paid to the availability of a sufficient scientific and practical base for the development of all sectors of the economy in the Republic of Uzbekistan, providing the economy with modern technologies and improving its structure, in particular the network and territorial structure.

Tayanch iboralar: bozor munosabatlari,tadbirkorlik,ishbilarmonlik, xususiy mulk, xususiy kapital,iqtisodiy o'sish.

Ключевые слова: рыночные отношения, предпринимательство, бизнес, частная собственность, частный капитал, экономический рост.

Key words: market relations, entrepreneurship, business, private property, private capital, economic growth.

Barcha mamlakatlarda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida korxonalar va moliya institutlarining amal qilishi hamda taraqqiy etishi iqtisodiy qonuniyatlar asosida amalga oshmoqda. 2022-2026 yillarda yangi O‘zbekiston modernizatsiyalashgan iqtisodiyotga tayadi. Bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun undagi davlat ishtiroki va soliqlar yukini kamaytirish,kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish zarur. (1, 136)

Darhaqiqat, yurtimizda iqtisodiy qonuniyatlar doirasida barcha subyektlar ichki va tashqi resurslar va sarmoyalar evaziga tashkil etilmoqda. Mamlakatda kichik va o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli imkoniyatlar vujudga keltirildi. Bugungi kunda, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi bosh vazifa, eng avvalo, davlatning nazorat va boshqaruv funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birincha galda, xususiy biznes faoliyatiga behuda aralashuvini cheklashdan iborat va sub'ektlar ishini qo'llab – quvvatlash hamda tizimlarni shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha tizim tarkibiga esa ishlab chiqarishning shaxsiy insoniy va moddiy ashyoviy omillari kiradi, ularning bir-birini taqozo etishga asoslangan yaxlitligi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari deb yuritiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimga iqtisodiy faoliyat natijasi bo'lgan ijtimoiy, ya'ni jamiyat miqyosida yaratilgan mahsulot ham kiradi.

Odatda, tizimlarda mehnat taqsimoti yuz berib, mehnat, birinchidan, ixtisoslashadi; ikkinchidan, mehnat turlari bir-biri bilan bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Barcha jamiyatlarda mehnat turlari o'rin almashadi, kishilar bir mehnatdan boshqa mehnatga o'tadilar, o'z kasbini o'zgartiradilar. Qayerda bo'lmasin mehnat malaka va mahoratni talab qiladi. Turli tizimlarda, ularni tashkil etuvchi unsurlar bir xil bo'lsada, ularning o'zaro bog'lanishi har xil bo'ladi. Shunday bog'lanishlar orasida ishlab chiqarish omillarining birikishi mulkiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tizimda omillarning birikish usuli asosiy o'rin tutadi, shu jihatdan tizimlar farqlanadi. Turli tizimlarga baho berilganda ularning xalq farovonligi uchun nima bera olganligi bosh mezon bo'ladi. Hozirgi taraqqiyot bosqishida turli tizimlarning samarali ekanligini xalq farovonligining o'sishi ko'rsatib turadi. Farovonlikni oshirish, bilish qobiliyati tizimning yashovshanligi yoki uning boshqasi bilan almashuvi zarurligini bildiradi.

Jamiyatimizda mulkiy munosabatlarning xarakteri, xo'jalikiqtisodiy aloqalar mazmuni, xalq iste'moli darajasi, sinfiy belgilar bilan belgilanadi. Marksizm nazariyasida mulkiy sinf mezonlar asos qilinib, tizimlar formatsiya deb qaralgan. Marksizm ta'limotiga ko'ra besh formatsiya mavjud: ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va nihoyat kommunizm. O'tgan XX asrning 60-chi yillarida marksizmni almashtira oladigan ta'limot sifatida «rivojlanish bosqishlari» nazariyasi paydo bo'ldi. Mazkur nazariya tizimlarni tahlil etishda ishlab chiqaruvchi kuchlarning yetuklik darajasini mezon qilib oladi. Bu nazariya mualliflari jamiyatni ikki tipga bo'lishadi: an'anaviy jamiyat, industrial jamiyat. Shunga monand ravishda iqtisodiy rivojlanishning olti bosqishi ajratiladi:

- traditsion jamiyat;
- o'tkinshi jamiyat;
- industrial jamiyatga o'tish;
- industrial jamiyat;
- ommaviy iste'mol jamiyati; ● yangi turmush tarsi.

Barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sish mulkchilikka asoslangan holda vujudga keladi. Mulkning mavjudligiga qarab, insonlarning jamiyatdagi mavqei, ularning ijtimoiy maqomi yuzaga keladi. Iqtisodiyot doimo mulkiy munosabatlarga asoslanadi. Mulkchilikning rivojlanganlik darajasi u yoki bu mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasini ko'rsatib beradi. O'zbekiston Respublikasida mavjud tabiiy zaxiralar, iqtisodiy, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni, ayniqsa, tadbirkorlarni rivojlantirishga oid iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, milliy valutamizni muntazam ravishda mustahkamlab borish, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun soliq yukini kamaytirish, chetdan olib kiriladigan sarmoyalarga keng yo'l ochib berish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omillar yaratish demakdir. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste'molchilar talablari asosida tashkil etish hamda fuqarolar erkinligiga keng yo'l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanishi, yuqori unum, yoshlarimizning tashabbuskorlik va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyati olib borishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik yurtimiz iqtisodiyotini ham moliyaviy ham moddiy jihatdan qo'llashidan kelib chiqib bu sohani mamlakatda rivojlantirish va uni tashkiliy huquqiy asoslarini ta'minlash orqali yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy – moliyaviy siyosatlar zamon talablariga mos keladi.

Mamlakatimizda prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda tadbirkorlik va xususiy sektorni shakllantirish hamda rag'batlantirishda katta e'tibor berilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "Ochiq muloqoti"ni o'tkazish va barcha hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznesinkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish rejalashtirilgan. Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish, 2026-yilga borib esa tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish asosiy vazifa sifatida belgilab olingan. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish hamda tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Tegishli boshqaruv muassasalari tomonidan mamlakatimizda "Tadbirkorlik to'g'risidagi" va "Tadbirkorlikni rag'batlantirish", "Tadbirkorlik sohasini erkinlashtirish kafolatlari" to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarning qabul qilinishi mamlakatda tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim baza sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston - taraqqiyot strategiyasi. T.: O'zbekiston . 2022.B136.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston ning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Toshkent sh., 2022-yil.

INFLYATSIYA SABABLARI VA OQIBATLARI VA UNING YAIMGA TA'SIRI

S. O. Xomidov

Buxoro davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası dotsenti, PhD.

M. A. Tuxtayeva.

Buxoro davlat universiteti 3-1STA-21 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lgan inflyatsiya, inflyatsiya natijasida yuzaga keladigan muammolar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek YaIM va inflyatsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlik O'zbekiston Respublikasining 2011-2022yillardagi ma'lumotlari asosida o'rganilgan hamda korrelyatsion-regression tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, devolvatsiya, talab inflyatsiyasi, stagflyatsiya, kutilgan inflyatsiya, Fillips egri chizig'i, regression-korrelyatsion tahlil


Har qanday davlatning asosiy maqsadlaridan biri yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bu milliy valyutamizning barqaror emasligi, devolvatsiya va inflatsiya natijasida so'mning qadrsizlanishidir. Inflyatsiya deganda tovar bilan ta'minlanmagan pulning muomalaga chiqishi natijasida pul massasining oshishi tushuniladi. Valyutaning qiymati mamlakat ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlarga asoslanadi. Ma'lum miqdordagi inflyatsiya iqtisodiy rivojlanishni anglatadi. Ammo me'yordan ortiqcha inflyatsiya ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, milliy valyuta xarid qobiliyati pasayishi natijasida pulning baholash va jamg'arish funksiyalari buziladi. Natijada nafaqat investorlarning investitsiya qilish salohiyati kamayadi, balki mahalliy aholi ham o'z

mablag'larini xorijiy valyutada jamg'arishga harakat qiladi. Bu esa milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan kursini tushiradi. Agar davlatning tashqi qarzlari mavjud bo'lsa, devolvatsiya natijasida tashqi qarzlari ham oshadi. Shuningdek, narxlarning oshishi iste'mol savatchasining bahosini ham ko'tarilishiga olib keladi. Natijada eng kam ish haqi oshadi va davlat byudjetidan qo'shimcha mablag' sarflanadi. Bu esa davlat byudjetining defitsitiga sabab bo'lishi mumkin. Agar defitsit pul emissiyasi yoki tashqi qarzlari bilan bartaraf etilsa, bu yana pulning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.

Inflyatsiyaning oldini olish uchun uni keltrib chiqaruvchi omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, inflyatsiya turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Inflyatsiyaning ba'zi umumiy sabablari:

- Talab inflyatsiyasi. Bu davlat tomonidan berilgan subsidiya va rag'batlarning ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va bandlik darajasining ortishi, umuman olganda davlat xarajatlarining ko'payishi natijasida yuzaga kelishi mumkin;
- Stagflyatsiya (Taklif inflatsiyasi). Yalpi taklifning kamayishi natijasida yuzaga keladi. Taklifni kamayishiga esa noto'g'ri yuritilgan soliq tizimi, ta'minot zanjirlarini buzadigan tabiiy ofatlar yoki global bozorlarga ta'sir qiluvchi geosiyosiy hodisalar ta'sir qilishi mumkin;
- Kutilgan inflyatsiya (Built-in inflation). Bu odatda uzoq muddat davom etgan giperinflyatsiyaga bo'g'liq bo'lib, bunda odamlar kelajakda inflyatsiya bo'lishini taxmin qilishadi va narxlarni sun'iy ravishda oshirishadi. Ushbu turdagi inflyatsiyani nazorat qilish qiyin bo'lishi mumkin, chunki u o'z-o'zidan amalga oshadigan bashoratga aylanadi, hatto inflyatsiyani keltirib chiqaradigan asosiy omillar pasaygan bo'lsa ham narxlar va ish haqining doimiy o'sishi pasaymaydi.

Odatda iqtisodiyotda quyidagi doiraviy jarayon natijasida kichik inflyatsiya yuzaga keladi. (1-rasm) Ya'ni bandlik darajasining oshishi aholi daromadining ko'payishiga olib keladi. Buning natijasida aholi ehtiyojlarini qondirish maqsadida qo'shimcha talabni hosil qiladi. Talabning oshishi bozordagi taqchillik sabab narxning ko'tarilishiga va taklifning ortishiga olib keladi. Taklif miqdorining ko'payishi narxni muvozanatga keltiradi va bandlik darajasining ortishiga olib keladi.




1-rasm

Bu jarayon ya'ni inflyatsiya va ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'lanish Fillips egri chizig'ida o'z aksini topgan. Ammo bu model stagflyatsiya holatini hisobga olmaydi.

Taklif miqdori ikki usulda ko'payishi mumkin. Birinchisi mahalliy bozorda ishlab chiqaruvchi korxonalar ortishi, ikkinchisi esa import hisobiga ham ortishi mumkin. Importning eksportdan ortishi milliy valyutaning devolvatsiya bo'lishiga olib keladi. Devolvatsiya natijasida mahalliy bozordagi bir qancha tovar, mahsulot va xizmatlar inflyatsiyaga uchraydi, import tovarlari va xizmatlari uchun to'lov miqdorining oshishiga sabab bo'ladi.

Inflyatsiya YaIM ga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda 2016-2018-yillarda inflyatsiya darajasi keskin ortgan, YaIM ko'rsatkichida esa pasayish kuzatilgan. (2-3-rasm)

2-rasm. O'zbekiston Respublikasining inflyatsiya darajasi dinamikasi
Manba: <https://www.macrotrends.net/countries/UZB/uzbekistan/inflation-rate-cpi>



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining Yalpi ichki masulot dinamikasi, mlrd dollar

Manba: <https://www.macrotrends.net/countries/UZB/uzbekistan/gdp-gross-domestic-product>

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining YaIM hajmi(mlrd dollar) va inflyatsiya darajasi(%)


Yillar	YAIM	Inflyatsiya darajasi
2011	60.18	13.78
2012	67.52	13.21
2013	73.18	11.84
2014	80.85	9.28
2015	86.20	8.75
2016	86.14	8.13
2017	62.08	13.88
2018	52.87	17.52
2019	60.28	14.53
2020	60.22	12.87
2021	69.60	10.85
2022	80.39	11.45

Yuqoridagi ma'lumotlar orasida kuchli va teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm) ya'ni korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = - 0.93$. Umuman olganda inflyatsiya yuqori bo'lgan davrda YaIM ko'rsatkichi pasayishi kuzatilgan. Regression tenglamasi esa quyidagicha:

$$GDP = 117.6 - 3.9 * Inflation_rate$$

2-rasm

Xulosa qilib aytganda, yuqori inflyatsiya mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazadi. Shuning uchun milliy valyuta barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Inflyatsiyani nazorat qilishning ayrim yo'llari:



- Import tovarlarining alternativlarini yaratish. Masalan, O'zbekiston importida mashina va transport asbob uskunalari, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari yuqori ulushga ega. Shu sohalarning rivojlanishiga e'tibor qaratish import hajmini kamayishiga olib kelishi mumkin. - Import narxlari va sifatini tekshirish. Importda narx va sifatga e'tibor berish juda muhimdir. Chunki import narxlari oshishi, mahalliy bozorlardagi importga o'rindosh va to'ldiruvchi bo'lgan tovarlarni qayta baholanishiga sabab bo'ladi.
- Xorijiy investorlarni jalb qilish. Lekin bu ko'proq milliy valyutaning qudrati, mamlakatning iqtisodiy holati, siyosiy barqarorligi, moliyaviy tizimning ishlashi hamda soliq siyosatiga tayanadi.
- Turizmni rivojlantirish va unda shaffoflikni ta'minlash. Bu ko'pgina davlatlar uchun muhim bo'lgan ekonomik faoliyatdir, chunki turizm, valyutaning kirimlarini oshiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. David M. L. Introduction to Statistics
2. Darren George , Paul Mallery. IBM SPSS Statistics 25 Step by Step
3. <https://www.khanacademy.org>
4. <https://stat.uz>
5. <https://www.worldbank.org>
6. <https://www.macrotrends.net>

O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Suyunov Shohzod Murod o'g'li
Guliston davlat universiteti, stajyor-o'qituvchi

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqish hozirda juda ahamiyatli hisoblandi. Shu boisdan ushbu ilmiy ishda mamlaktimizning investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *milliy iqtisodiyot, texnika, investitsiya, texnologiya, investor, strategik aktiv, siyosiy vaziyat, tavakkalchilik, risk.*

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani samarali hal etish uchun esa iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish talab qilinadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat investitsiya siyosatining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning quyidagi fikrlari shu haqida: "Mamlakatimizda investitsiya siyosatini kuchaytirish masalasiga biz alohida ustuvor ahamiyat qaratamiz. Xorijiy sarmoyalarni va ilg'or texnologiyalarni iqtisodiyotga jalb etish uchun chet ellardagi diplomatik vakolatxonalarimiz jiddiy ish olib borishi lozim. Buning uchun tashqi ishlar vazirligi faoliyatini kuchaytirish, chet mamlakatlaridagi elchilarimiz nafaqat siyosiy, ayni vaqtda yurtimizga investitsiyalarni jalb qilish masalalari bilan ham faol shug'ullanishlari darkor. Ularning bu boradagi faoliyati nazorat qilish uchun Oliy Majlis Senatining Tashqi siyosat masalalari qo'mitasining faoliyat sohasi va vakolatlarini kengaytirish zarur, deb hisoblayman"[1].


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar investorlarning mazkur mamlakatda ishlab chiqarishni joylashtirish qaroriga ta'sir etuvchi, ya'ni motivatsiyasi omillariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi[2]:

✦ Resurslarni ko'zlovchi investitsiyalar (resource seeking FDI) – xorijiy investor sarmoya kiritishining klassik motivatsiyasi bo'lib, rivojlanayotgan davlatning arzon tabiiy resurslarga boyligi ularni jalb etadi va bu investitsiyalardan asosiy maqsad tabiiy resurslarni ichki bozor hamda eksport uchun qazib olish va ishlov berish.

✦ Samaradorlikni oshirish maqsadidagi investitsiyalar (efficiency seeking FDI) - ishlab chiqarish xarajatlari past va ishlab chiqarishda ishchi kuchidan intensiv foydalanish mumkin bo'lgan iqtisodiyotlarga sarmoya kiritish, ya'ni global bozor uchun ishlab chiqarishda band bo'lish.

✦ Bozorni kengaytirish maqsadidagi investitsiyalar (market seeking FDI) – bu importga qat'iy cheklashlar qo'yilgan bo'lsa, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va rivojlanayotgan mamlakatlarning mahalliy bozorlariga kirish maqsadida ishlab chiqarish sektoriga investitsiya kiritish, ya'ni keng miqyosda ichki bozorga xizmat ko'rsatish. Qo'shimcha sabablar transport xarajatlari, mahalliy iste'molchilar dididagi farqlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

✦ Strategik aktivlarni ko'zlovchi (strategic asset seeking FDI) – investorlarga raqobatda ustunlik yaratuvchi va ko'p hollarda boshlanayotgan monopoliyani beruvchi aktivlarni qidirish, ya'ni nou-xau, ilmiy tadqiqotlarga investitsiya kiritish.



1-rasm. Investitsiya iqlimiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar (%)da[3]

Yuqoridagi 1-rasmning tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyaviy faollikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan asosiy omillar:

– makroiqtisodiy beqarorlik, bu – salbiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (iqtisodiy rivojlanishning salbiy dinamikasi, inflyatsiyaning yuqori darajasi, byudjet taqchilligi, to‘lov balansi taqchilligi, ichki va tashqi qarzlarning yuqoriligi).

– mamlakatdagi siyosiy beqarorlik, ijtimoiy keskinlik (etnik va diniy tartibsizliklar, ish tashlashlar, korrupsiya, byurokratiya, aholi turmush darajasining pasayishi va h.k.).

O‘zbekistondagi mavjud investitsiya muhiti, fikrimizcha, investorlarning investitsiya risklarini baholash asosida chet el investitsiyalari kirib kelishiga qulayliklar yaratish kerak. Chet ellik investorlar qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitini, uning xavfsizligi, siyosiy risklar darajasi va ularning sug‘urtalanishi, investitsiyalash maqsadlarga muvofiqligi, iqtisodiyotning boshqalarga qaraganda qulayligi nuqtai nazaridan baholaydilar.

Mamlakatimizdagi eng asosiy hal etilishi kerak bo‘lgan masalalar: korrupsiya, sansolarlik, byurokratiya, muammolarni hal etish va qulay investitsiya muhitini yaratish uchun xorij tajribasiga yuzlanmog‘imiz kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston ” NMIU, 2017 y.
2. Dunning J. The Globalization of Business. – London: Routledge, 2017. – p.67.
3. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/816/748>

MAMLAKAT BARQAROR INVESTITSION MUHITI VA JOZIBADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna,

Farg‘ona politexnika instituti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası, assistenti, e-mail: gulbaxor.isomitdinova@ferpi.uz, +998 93 644 54 30.

Annotatsiya: iqtisodiyotning rivojlanishi, aholi turmush sharoitining yaxshilanib borishi va daromadlarining oshishi bir so‘z bilan aytganda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik asosan milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiya mablag‘larining hajmi va tarkibiga bog‘liq. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag‘larini jalb etishning barqaror muhitini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Kalit so‘zlar: investitsion faoliyat, yashil iqtisodiyot, investitsion muhit, investitsiya va yashil iqtisodiyot, investitsiya jozibadorligini baholash.

Dunyo hamjamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida birorta ham mamlakat, hatto rivojlangan mamlakatlar ham investitsiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Investitsiya resurslarini milliy iqtisodiyotlariga jalb qilmagan mamlakatlar esa iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha dunyo mamlakatlari darajasidan ancha orqada qolib ketishi mumkin. Shuning uchun ham mamlakatimiz bugungi kunda dunyo hamjamiyatiga qo‘shilish ya‘ni globallashuv jarayoniga intilmoqda.

Investitsion jozibadorlik deganda investitsion imkoniyatning potensial investorlar uchun jozibador yoki jozibador qiladigan xususiyatlari tushuniladi. U investorlarning ma‘lum bir aktiv, loyiha yoki bozorga kapital qo‘yish qarorlariga ta‘sir qiluvchi turli omillarni o‘z ichiga oladi. Investitsion jozibadorlikka hissa qo‘shadigan ba‘zi asosiy komponentlar:

-Investitsiyalarning rentabelligi (ROI): Investorlar odatda jozibador daromad olish potensialini taklif qiladigan imkoniyatlarga jalb qilinadi. Yuqori ROI investitsiya qilingan mablag‘ga nisbatan katta foyda yoki daromad olish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

- Xavf profili: Investorlar investitsiya bilan bog‘liq risk darajasini baholaydilar va ularning risklarga bardoshlilikini hisobga oladilar. Barqaror daromadli past riski investitsiyalar konservativ investorlar

uchun yanada jozibador bo'lishi mumkin, yuqori daromad olish potensialiga ega bo'lgan yuqori xavfli investitsiyalar esa tajovuzkor investorlarni jalb qilishi mumkin.

-Bozor salohiyati: Investitsion faoliyat yuritayotgan bozor yoki sanoatning hajmi va o'sish salohiyati uning jozibadorligini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investorlar ko'pincha kuchli o'sish istiqbollari va mahsulot yoki xizmatlarga barqaror talabga ega bozorlarda imkoniyatlar izlaydilar.

- Raqobat ustunligi: Noyob texnologiya, kuchli brend tan olinishi yoki mulkiy intellektual mulk kabi raqobatdosh ustunlikka ega investitsiyalar investorlar uchun yanada jozibador. Barqaror raqobatdosh ustunlik kompaniyaga uzoq muddatda bozordagi mavqeyini va rentabelligini saqlab qolishga yordam beradi.

-Boshqaruv jamoasi: Investitsion imkoniyat ortidagi boshqaruv jamoasining sifati va tajribasi uning jozibadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Investorlar muvaffaqiyatga erishgan va strategik rejalarini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan malakali va ishonchli boshqaruv guruhlarini izlaydilar.

-Moliyaviy barqarorlik: Investorlar investitsiya imkoniyatining moliyaviy salomatligi va barqarorligini, jumladan, daromadlarning o'sishi, rentabellik, leveraj, pul oqimlarini shakllantirish va moliyaviy barqarorlik kabi omillarni baholaydilar. Kuchli moliyaviy holat investitsiya jozibadorligini oshiradi.

-Regulyativ muhit: Investorlar investitsiya faoliyat yuritayotgan tartibga solish muhitini, jumladan, tartibga solishga muvofiqlik, siyosiy barqarorlik, huquqiy risklar va hukumat siyosati kabi omillarni hisobga oladi. Barqaror va qulay normativ-huquqiy baza investitsiya jozibadorligini oshirishi mumkin.

-Barqarorlik va ESG omillari: Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) masalalari investorlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va yaxshi boshqaruv amaliyotiga sodiqligini ko'rsatadigan investitsiyalar ijtimoiy ongli investorlar uchun yanada jozibador bo'lishi mumkin.

-Chiqish imkoniyatlari: Investorlar IPO, qo'shilish, sotib olish yoki ikkilamchi bozor operatsiyalari kabi investitsiya uchun mavjud bo'lgan potensial chiqish imkoniyatlarini baholaydilar. Jozibador chiqish imkoniyatlarining mavjudligi likvidlik va potensial daromadni ta'minlash orqali investitsiya jozibadorligini oshirishi mumkin.

Umuman olganda, investitsiya jozibadorligi ko'p qirrali va ROI, xavf profili, bozor potentsiali, raqobatdosh ustunlik, boshqaruv sifati, moliyaviy barqarorlik, tartibga solish muhiti, barqarorlik va chiqish imkoniyatlari kabi omillarning kombinatsiyasi bilan ta'sirlanadi. Ushbu omillarni sinchkovlik bilan baholash orqali investorlar o'zlarining investitsiya maqsadlari va afzalliklariga mos keladigan imkoniyatlarga kapitalni taqsimlash bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. [3, 5]

Prezidentning 2019-yil 4-oktyabrdagi qarori bilan 2019–2030-yillarda O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan. Mazkur strategiya doirasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o'laroq, "Yashil" o'sish indeksidagi mamlakatning o'rni sezilarli yaxshilanishi hamda global "yashil" ekotizimni asrab-avaylashda uning munosib hissa qo'shishi ta'minlanadi.[1]

Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra, zaminimiz umumiy boyligining 66 foizi — 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya'ni asosan shaxsning ilm darajasiga to'g'ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko'rsatkich milliy boyligining 77 foizi — 95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari joriy yil Murojaatnomada "Eng katta boyluk – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!" degan fikrni alohida keltirib o'tdi. [2]

Investorlar avvalo mamlakatning moliyaviy salohiyatini o'rganadilar va albatta faqat o'zlari ishonch qozongan korxonalariga investitsiya loyihalarini moliyalashtiradilar. Demak, investitsiyalar bo'yicha hamkor mamlakatning moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha iqtisodiy reytingi yuqori bo'lishi zarur. Qolaversa hamkor mamlakat shaffof va ochiq faoliyat yuritishi lozim. Buning uchun buxgalteriya hisobi hujjatlari ularga qo'yilgan talab darajasiga javob berishi lozim va korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati

hujjatlari bo'yicha yakuniy natijalari ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat a'zolariga ochiq e'lon qilinishi zarur.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga katta e'tibor qaratilib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'lovlari sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi shakllantirildi. Bunday tizimning tarkibiy qismi bo'lgan sug'urtaning shakllantirilishi xorijiy investorlarga siyosiy va tijorat xatarlaridan sug'urta kafolatini taqdim etish imkoniyatini yaratdi. Yana bir jihat valyuta kursi barqarorligi ham investorlar uchun ham muhim jihatlardan biridir.

Xorijiy investorlar reytingdagi ma'lumotlardan vaqtni tejash maqsadida keng foydalanadilar. Mamlakatning reytingi yuqori yoki pastligi albatta, katta ahamiyat kasb etadi. Lekin shu reytingga kirishning o'zi xam investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan u yoki bu darajada ishonch uyg'otadi. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hududiy dasturlari samarasini oshirish, uni doimiy monitoring qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan "Hududlarda iqtisodiy rivojlantirish" konsepsiyasini ishlab chiqish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isomitdinova, G. K. (2019). About problems of accounting of corporate governance in the conditions of modernization of economy. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(79), 449-453.
2. Mustafakulov SH.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent:Baktria press, 2017.-320 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-45395022>.
4. Hakimova N.A. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari va ustuvorlik xususiyatlari// Iqtisodiyotda inninovatsiya jurnali. –2019. –54-60 bet.

ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАР ВА УЛАРНИ БАҲОЛАШ КУРСАТКИЧЛАРИ

Суннатов Юсуф Усмонович

Бухоро давлат университети Иқтисод фанлари фалсафа доктори

Юсупова Нигина Джураевна

**Бухоро давлат университети Иқтисодиёт(тармоқ ва йўналиш бўйича) 2-курс
магистранти**

Аннотация: Мақолада инвестициялар ва уларнинг бозор иқтисодиёти шароитида мамлакатнинг қолаверса иқтисодий фаолият билан шуғулланувчи корхона ва ташкилотлар фаолиятини ривожлантиришдаги аҳамияти тўғрисида, шунингдек инвестицион лойиҳаларнинг мазмун моҳияти ёритилган. Асосий эътибор, инвестицион лойиҳаларни баҳолашга қаратилган.

Калит сўзлар: Инвестиция, инвестицион лойиҳа, капитал, молиявий инвестициялар, ижтимоий инвестициялар, инфляция, риск, жорий қиймат

Инвестиция лотинча "investio" сўздан олинган бўлиб "айланмоқ" деган маънони англатади. Инвестициялар бўш капитал маблағлари бўлиб иқтисодиётни ривожлантириш мақсадида ўз мамлакатида ёки чет элда турли соҳаларга, ижтимоий-иқтисодий дастурларга, инновацияларга, бизнес лойиҳаларга узоқ муддатли капитал қўйилмасидар. Бундан асосий мақсад капитал қийматини сақлаб қолиш ёки агар бўлмаса вақт ўтиши билан капитал қийматини оширишдир.^[1]

Инвестициялар бирор бир давлатга икки хил йўл билан кириб келади:

1. Давлат орқали – бунда давлат киритилган инвестиция учун кафолатни ўз зиммасига олади.
2. Хусусий ҳолда кириб келиши

Иқтисодий мазмунига кўра инвестициялар 3 турга бўлинади:

- Капитал инвестициялар бўлиб аниқ бир объектга йўналтирилган бўлади. Мисол учун, бинони реконструкция қилиш ёки ишлаб чиқаришни модернизациялаш киради.
- Молиявий инвестициялар бўлиб қимматли қоғозлар билан бўладиган операциялар мисол бўлади.
- Ижтимоий инвестициялар бу инновацион, интеллектуал ғоялар учун инвестициялардир. Инвестициялар фойда олишга қаратилган фаолият бўлиб инвестицион лойиҳалар асосида амалга оширилади. “Инвестицион лойиҳа” тушунчаси 2 хил маънода талқин этилади: - муайян мақсадларга эришиш (муайян натижаларни олиш)ни таъминловчи қандайдир ҳаракатлар комплексини амалга оширишни назарда тутувчи иш, фаолият, чора-тадбир сифатида;

- қандайдир ҳаракат, фаолиятларни амалга ошириш учун зарур бўлган ташкилий-ҳуқуқий, техник, ҳисоб-молиявий ҳужжатлар тизими сифатида.^[2,3]

натижа аниқ ва самарали бўлиши учун инвестиция натижалари мутахассислар томонидан прогнозланади. Инвестицияларни баҳолашда қуйидаги уч кўрсаткич ҳисобга олинади:

1. Пулнинг вақт қиймати
2. Инфляция
3. Риск

Пулнинг вақтлилик қиймати кўрсаткичининг моҳияти шундаки бунда инфляция даражаси ҳамда кўзда тутилган фойда инобатга олиниб, жорий даврдаги капитал қиймати маълум бир муддатдан кейин қандай қийматга тенг бўлишини кўрсатади ва бу қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$PV \cdot (1+k)^n = FV_n$$

Бу ерда:

PV – капиталнинг жорий қиймати k –

капитал нархи

n – давр

FV – келажакда кутиладиган қиймат

Мисол учун инвестиция қилинадиган сумма 100 доллар, капитал нархи 20 % , 2 йил муддатга киритилган бўлса қуйидагича ҳисобланади:

$$100 \cdot (1+0.2)^2 = 100 \cdot 1.44 = 144 \$$$

Келажакда режалаштирилган қийматга эга бўлиш учун жорий даврда қанча маблағни инвестиция қилиш зарурлигини аниқлаш учун қуйидаги формуладан фойдаланамиз:

$$PV = FV_n / (1+k)^n$$

Мисол учун, капитал нархи 12 % бўлганда 2 йилдан сўнг 125 \$ даромад олиш учун бизга қанча маблағ керак?

$$PV = 125 / (1+0.12)^2 = 125 / 1.25 = 100 \$$$

Демак инвестиция суммаси 100 \$ бўлиши керак.

Инвестициядан олинadиган соф фойда қуйидагича аниқланади:

t

$$NPV = \sum_{n=1} FV_n / (1+k)^n - I_0$$

I₀ – дастлабки инвестиция суммаси

Мисол учун, 60 млн долларлик инвестиция лойиҳаси 5 йил муддатга 10 % лик капитал нархи билан киритилган бўлиб, капитал қайтими 1-йил 35 млн \$, 2-йил 11 млн \$, 3-йил 16 млн \$, 4-йил 18 млн \$, 5-йил 17 млн \$ ^[5] бўлганда соф фойда қиймати-?

$$NPV=35/(1+0.1)+11/(1+0.1)^2+16/(1+0.1)^3+18/(1+0.1)^4+17/(1+0.1)^5-60=15.778 \text{ млн } \$$$

Инвесторлар учун яна бир муҳим кўрсаткич бу инвестициянинг қопланиш муддати бўлиб улар киритган инвестиция қанча муддатга қопланишни кўрсатади ва у қуйидагича ҳисобланади:

$$PP=t- NPV_t/NPV_{t+1}-NPV_t$$

Агар $NPV_t < 0$ бўлса инвестиция қопланмаган, агар $NPV_{t+1} > 0$ бўлса у ҳолда инвестиция қопланган ҳисобланади.

Мисол учун, 60 млн долларлик инвестиция лойиҳаси 5 йил муддатга 10 % лик капитал нархи билан киритилган бўлиб, капитал қайтими 1-йил 35 млн \$, 2-йил 11 млн \$, 3-йил 16 млн \$, 4-йил 18 млн \$, 5-йил 17 млн \$ бўлганда Қопланиш муддати-?

$$NPV_1 = 35/(1+0.1)-60 = -28.182 \text{ млн}$$

$$NPV_2 = 11/(1+0.1)^2-60 = -19.902 \text{ млн}$$

$$NPV_3 = 16/(1+0.1)^3-60 = -7.701 \text{ млн}$$

$$NPV_4 = 18/(1+0.1)^4-60 = + 5.223 \text{ млн}$$

$$PP=3-(-7.701)/5.223-(-7.701)=3.575 \text{ ёки } 3 \text{ йил } 6 \text{ ой } 21 \text{ кунда } 60 \text{ млн доллар қопланган.}$$

Адабиётлар рўйхати

1. Пржедецкая Н.В., Шевелева В.В., Кулькова Е.П. Инвестиционная политика российского региона на современном этапе // Фундаментальные исследования. 2016. № 6 (часть 2). С. 449-453.
2. Д.Ю.Хужамкулов, Д.А. Исмаилов “Инвестиция лойиҳаларини бошқариш” ўқув қўлланма Тошкент 2019, 13-16 бетлар
3. Маҳмудов Н.М., Мажидов Ш.А Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма Т.: ТДИУ, 2010. – 86 б.
4. www.blackrock.com <<http://www.blackrock.com>> - BlackRock investitsiya kompaniyasi rasmiy sayti.
5. Bain & Company, Global private equity report 2018 йил маълумотлари

ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИДА ИМПОРТ ВА ЭКСПОРТ МАСАЛАЛАРИ

Нишонова Икболлой Иброхимовна,

Фарғона политехника институти, «Бухгалтерия ҳисоби ва аудит» кафедраси, ассистенти,
e-mail: ikboloy.nishonova@ferpi.uz, +998 91 673 62 83.

Аннотация. Ташқи иқтисодий операциялар банк, валюта ва божхона назоратидан ўтганлиги сабабли, уларни ташкилотнинг молиявий ҳисобида акс эттиришнинг тўғрилигига қўйиладиган талаблар ошиб бормоқда, бу унинг молиявий ҳисоботларининг ишончлилигига бевосита таъсир қилади. Ушбу мақолада муаллифлар экспорт-импорт операциялари миллий бухгалтерия амалиётини таҳлил қилишга уринди.

Калит сўзлар: бухгалтерия ҳисоби, экспорт, импорт, ҳужжатлаштирилган аккредитив, хўжалик субъекти, ташқи савдо баланси, дефицит, валюта курси.

Импорт-экспорт савдоси бутун дунё бўйлаб иқтисодийётни бирлаштиришда муҳим роль ўйнайди, мамлакатларга глобал миқёсда товар ва хизматлар алмашиш имкониятини беради. Бу мамлакатлар ўртасидаги ҳамкорлик, ихтисослашув ва фаровонликни оширишга ёрдам берадиган иқтисодий ўсишнинг асосий омилдир.

Импорт-экспорт савдоси деганда турли мамлакатлар ўртасида товарлар ва хизматлар алмашинуви, ўзаро боғлиқликни яратиш ва иқтисодий интеграцияни ривожлантириш тушунилади. Ушбу савдо мамлакатларга мавжуд бўлмаган ёки мамлакат ичида ишлаб чиқариш қимматроқ бўлган товарларни сотиб олишга имкон беради, шу билан бирга ортиқча товарларни ташқи бозорларда сотиш имкониятини беради. Импорт-экспорт савдосида иштирок этиш орқали мамлакатлар максимал иқтисодий самарадорликка эришиш учун ўзларининг кучли ва ресурсларидан фойдаланган ҳолда қиёсий устунликлардан фойдаланадилар.

Бугунги кунда жаҳондаги глобал иқтисодиёт истеъмолчилари бутун дунёдаги маҳсулотларни харидорлари ҳисобланади. Зеро, хорижий маҳсулотлар ёки импорт қилинадиган товарлар истеъмолчиларга кўпроқ танлов имкониятини беради. Ва улар одатда ҳар қандай маҳаллий ишлаб чиқарилган ҳамкасбига қараганда арзонроқ ишлаб чиқарилганлиги сабабли, импорт истеъмолчиларга пастроқ нархда тақдим этилади. Импорт ва экспорт нархларининг ўзгариши меҳнат статистикасига ҳам ўз таъсирни кўрсатиб, миграция масалаларини кун тартибига олиб чиқади. Бугун профессионал кадрлар муаммоси ҳам долзарб масалалардан ҳисобланади

Шу билан биргаликда, агар мамлакат ўз экспортига нисбатан жуда кўп импортни қабул қилса, бу мамлакатдан чет элга жўнатиладиган маҳсулотлар бўлса, бу мамлакат савдо балансини бузиши ва валютасини қадрсизлантириши мумкин. Миллий валютанинг девальвацияси мамлакат фуқароларининг кундалик ҳаётига катта таъсир кўрсатиши мумкин, чунки валюта қиймати мамлакатнинг иқтисодий кўрсаткичларини ва унинг ялпи ички маҳсулотини (ЯИМ) белгиловчи энг муҳим омиллардан биридир. Импорт ва экспортнинг тўғри мувозанатини сақлаш мамлакат учун жуда муҳимдир. Мамлакатнинг импорт ва экспорт фаолияти мамлакатга таъсир қилиши мумкин ЯИМ, унинг валюта курси, инфляция даражаси ва фоиз ставкалари [1].

Юқорида келтирилган турли иқтисодий хавфлардан ташқари импорт-экспорт савдосининг аҳамияти, ва унинг траекторияси бутун дунё иқтисодиётининг маршрутини белгилайди [2]. Импорт-экспорт савдоси иқтисодий ривожланиш ва ўсишнинг энг муҳим асоси бўлиб хизмат қилади. Бу жуда катта аҳамиятга эга бўлган бир нечта асосий сабаблари куйидагилар:

Кенгайтирилган бозорга кириш: Импорт-экспорт савдоси ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчиларни чегаралар орқали боғлаш бозорга киришни кенгайтиради ҳамда глобал миқдорлар базасига эришиш учун янги бизнес имкониятларини яратади.

Иқтисодий ўсиш: импорт-экспорт савдосида иштирок этиш орқали мамлакатлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш, инвестициялар, иш ўринларини яратиш ва технологик ютуқлар орқали иқтисодий ўсишни рағбатлантиради.

Диверсификация: Импорт-экспорт савдоси мамлакатларга ягона саноат ёки бозорга боғлиқликни камайтириш орқали ўз иқтисодиётларини диверсификация қилишга имкон беради. Бундай диверсификация иқтисодий зарбалар ва тебранишларга чидамлилигини оширади.

Билим ва кўникмалар алмашинуви: Импорт-экспорт савдоси мамлакатлар ўртасида билим, гоё ва кўникмалар алмашинувини осонлаштиради, маданиятлараро ўзаро таъсир орқали инновациялар ва ўрганишни тарғиб қилади.

Яна шуни таъкидлаш керакки, экспорт импортдан ошиб кетганда, соф экспорт ижобий бўлади, бу мамлакат савдо профицитини кўрсатади. Экспорт импортдан кам бўлса, соф экспорт салбий бўлиб, мамлакат савдо дефицитини кўрсатади. Савдо профицити мамлакатнинг иқтисодий ўсишига ёрдам беради. Экспортнинг ўсиши мамлакатдаги фабрикалар ва саноат объектларида ишлаб чиқаришнинг юқори даражасини ва кўпроқ одамларнинг бандлигини англатади. Компания кўплаб товарларни экспорт қилганда, мамлакат истеъмол харажатларини рағбатлантирадиган ва иқтисодий ўсишга ҳисса қўшадиган маблағлар оқимини олади [3].

Шу ўринда импорт-экспорт савдосининг асосий иштирокчилари кимлигини билиш муҳимдир, бу дунё иқтисодиётини ким бошқаради деган саволга жавоб бўлиши мумкин, Тули

илмий изланишлар натижалари ва етакчи олимларнинг фикрига кўра импорт-экспорт савдосининг ишлашига турли хил ташкилотлар ўз хисса қўшади, улар қуйидагилар:

Ҳукуматлар: ҳар бир давлат ўзининг иқтисодий потенциалидан келиб чиқиб импорт-экспорт савдоси сиёсатни ишлаб чиқадилар, савдо битимларини тузадилар, муҳокамалар даврида савдони энгиллаштириш ва адолатли рақобатни таъминлаш учун меъёрий-ҳуқуқий базани яратилади, давлатлараро стратеги, ёки ўзаро ҳамкорлик шартномалари, меморандумлар тузилади.

Импортчилар ва экспортчилар: Импортчилар ички истеъмол учун ташқи бозорларда товар ва хизматларни сотиб олишади, экспортчилар эса ўз товарлари ва хизматларини халқаро миқозларга сотадилар. Ушбу корхоналар савдо оқимларини бошқаришда ҳал қилувчи роль ўйнайди.

Экспедиторлар: экспедиторлар логистика ва юкларни ташиш билан шуғулланадилар, импорт ва экспортнинг самарали ва хавфсиз ҳаракатланишига хисса қўшадилар.

Молия институтлари: банклар ва молия институтлари рискларни камайтириш ва узлуксиз операцияларни осонлаштириш учун савдони молиялаштиришни, шу жумладан аккредитивлар, экспорт кредити ва савдо суғуртасини таъминлайди.

Минтақа иқтисодий ривожланишида импорт ва экспорт масалалари, деб номланган ушу ўрганишимизнинг асоси бу «Импорт ва экспорт бизнесига қандай таъсир қилади» саволига жавоб излашдан иборат, демак, мамлакат товарларни импорт қилганда, бу ушбу мамлакатдан маблағларнинг чиқиб кетишини англатади. Агар сиз ушбу мамлакатда импортёр бўлсангиз ва сиз кўпроқ товарларни импорт қилсангиз, бу сизнинг мамлакатингизда иқтисодиёти ўсиб бораётган барқарор ички талаб мавжудлигини кўрсатади. Агар сиз экспортчи бўлсангиз ва халқаро бозорда маҳсулотингизга талаб юқори бўлса, унда сизнинг экспортингиз ўсиб бормоқда ва шу билан бирга сизнинг бизнесингиз даромади ҳам ўсмоқда. Аммо сиз ушбу талабни қондиришингиз керак ва бунинг учун сиз ишлаб чиқаришни мунтазам кўпайтиришингиз керак бўлади, чунки жаҳонда талабгор маҳсулот бу рақобатбардош, сифатли, қулай нархдаги истеъмолчилар эҳтиёжини қондириш воситаси, товаридир .

Юқорида келтирилган муаммолар билан биргаликда бизнингча келажакда бир неча асосий омиллар таъсирида импорт-экспорт савдоси ривожланади ҳамда истиқболли белгиланади, уларга қуйидагиларни келтириш мумкин:

Технологик ютуқлар: рақамли технологиялар, блокчейн, сунъий интеллект ва автоматлаштириш савдо жараёнларини ўзгартиради, харажатларни камайтиради, импорт ва экспорт операцияларининг шаффофлиги ва самарадорлигини оширади [4].

Минтақавий интеграция: минтақавий савдо шартномалари ва Европа Иттифоқи, кенг қамровли ва прогрессив Транс-тинч океани шериклик шартномаси ва Африка континентал эркин савдо зонаси каби иқтисодий блоклар аъзо давлатлар ўртасида чуқурроқ интеграцияни рағбатлантиради ва савдо оқимларини соддалаштиради.

Электрон тижорат ва рақамли тижорат: электрон тижоратнинг жадал ўсиши кичик ва Ўрта корхоналарга глобал савдода иштирок этиш, бозорга киришни кенгайтиришга имконият тақдим этади.

Хулоса қилиб шунни айтиш мумкинки ҳар қандай муҳим, гуллаб-яшнаган бизнеснинг асосини товарлар экспорти ва импорти ташкил этади, бу ҳам миллий иқтисодиётларнинг кенгайиши ва ўсишига ёрдам беради. Ҳар бир минтақа учун ўзига хос берилган махсус иқтисодий ресурслар мавжуд. Бироқ, бутун иқтисодиётини ривожлантириш ва мустаҳкамлаш учун зарур бўлган бошқа ресурслар бир жойда йиғилиши имконсиздир, шу сабабли минтақа иқтисодий ривожланишида импорт ва экспорт масалалари ҳар доим долзарб бўлиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Фадейкина, Н. В., & Пилова, Ф. И. (2023). К вопросу о необходимости реорганизации и трансформации мировой валютно-финансовой системы в условиях проявления глобальных кризисных явлений и многополярности. Сибирская финансовая школа, (4), 61-70.
2. Кудбиев, Д., & Нишонова, И. И. (2022). Особенности Учет ЭкспортноИмпортных Операций В Узбекистане. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(11), 11-23.
3. Tohirovich, Q. N., & Ibroximovna, N. I. (2022). Raqamli iqtisodiyotda eksport va importni soliqqa tortish xususiyatlari. Архив научных исследований, 5(5).
4. Ibroximovna, N. I. (2022). Korxonalarda eksport-import operasialarini hisobini takomillashtirish masallalari. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 5(2), 274-283.

EKOTURIZMNING TABIIY-EKOLOGIK VA IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARDAGI ROLI.

Qodirov Azizjon Anvarovich BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika kaferasi dotsenti, i.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizmning tabiiy-ekologik mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi aloxida xususiyatlariga doir muammolar va ularning yechimlariga doir nazariy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, biodiversitet, ekologik ta'lim, ekoturizm, ijtimoiy integratsiya, ekologik barqarorlik.

Ekoturizmning tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi roli keng qamrovli bo'lib, u ko'p qirrali foyda keltiradi. Quyida ekoturizmning har ikki jihatdagi rolini batafsil tahlil qildik.

Tabiiy-ekologik munosabatlardagi roli, tabiatni muhofaza qilish, ekoturizm tabiatni muhofaza qilishga katta hissa qo'shadi. Turistlar tabiat bilan yaqin aloqada bo'lish orqali uning qadr-qimmatini anglashadi va uni saqlashga intiladilar. Milliy bog'lar va qo'riqxonalar orqali tabiiy muhitning muhofazasi ta'minlanadi.

Biodiversitetni saqlash, ekoturizm orqali mahalliy flora va fauna himoya qilinadi. Turistlar ko'pincha noyob hayvonlar va o'simliklarni ko'rish uchun kelishadi, bu esa bu turdagi turlarning saqlanishiga yordam beradi. Boshqa turistik turlar bilan solishtirganda, ekoturizmning atrofmuhitga zararli ta'siri kamroq.

Ekologik ta'lim, ekoturizm ekologik ta'limning muhim vositasidir. Turistlar tabiiy resurslarni qanday saqlash va ulardan qanday oqilona foydalanish haqida ma'lumot olishadi. Ekoturistik faoliyatlar orqali jamoatning ekologik ongini oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi roli, iqtisodiy foyda, ekoturizm mahalliy iqtisodiyotga katta daromad keltiradi. Turistlarning sarflashlari orqali mahalliy bizneslar, mehmonxonalar, restoranlar va savdo do'konlari rivojlanadi. Mahalliy aholini ish bilan ta'minlaydi va ularning daromadlarini oshiradi.

Madaniy almashtish, ekoturizm orqali madaniy almashtish amalga oshiriladi. Turistlar mahalliy aholi bilan aloqada bo'lib, ularning madaniyati va urf-odatlarini o'rganadilar. Mahalliy an'analar va urf-odatlarining saqlanishi va rivojlanishiga yordam beradi.

Ijtimoiy integratsiya, ekoturizm ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Mahalliy jamoalar ekoturizm faoliyatiga jalb qilinib, ularning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadi. Mahalliy aholi va turistlar o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatiladi.

Barqaror rivojlanish, ekoturizm barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali ularning kelajak avlodlar uchun saqlanishi ta'minlanadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikka hissa qo'shadi. Ekoturizm, shuningdek, mamlakatlararo aloqalarni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Mahalliy va xalqaro darajada ekoturistik

loyihalarni amalga oshirish orqali davlatlar o'rtasida hamkorlik kuchayadi va umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda harakat qilinadi. Umuman olganda, ekoturizm tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda muhim rol o'ynaydi va uning rivojlanishi barqarorlik va farovonlikka hissa qo'shadi.

Yuqorida ekoturizmning ob'ekti va unga qo'yiladigan talablar yuzasidan birdirilgan takliflarga asoslangan holda, uning predmetiga ham aniqlik kiritib o'tamiz. Bunda ekoturizmning tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lishini inobatga olib, uning predmeti atrof-muhit tabiiyligini himoya qilish; tabiiylik xususiyatini yo'qotgan yoki qisman yo'qotgan eko va geotizimlarni qayta tiklash; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha yo'nalishlarni qamrab olishi zarur, deb hisoblaymiz. Bundan ko'zlangan maqsad, mezo, makro va xalqaro darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-ekologik barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilishi zarur. Bu esa o'z navbatida ekoturizmning maqsadi sifatida baholanadi. Bulardan biri, turizmning barcha yo'nalishlarida ekoturistik ta'limning majburiyligi.

Turizmga oid barcha o'qitish muassasalarida o'quvchilarning yoshi, ixtisosligi, mutaxassisligidan qat'iy nazar, ekologik ta'lim bilan bir qatorda ekoturistik ta'lim berilishi shart. Aks holda insonlar yashab turgan hayotiy zarur tabiiy muhitni saqlab qolish qiyin. Shu bois ham 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan va amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun"ining 4-moddasida ekologik o'quvning majburiylik prinsipi kiritilgandir. Turizm ta'limiga oid barcha me'yoriy hujjatlarga ekoturistik ta'limning majburiylik prinsipini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Bulardan biri, turizmning barcha yo'nalishlarida ekoturistik ta'limning majburiyligi. Turizmga oid barcha o'qitish muassasalarida o'quvchilarning yoshi, ixtisosligi, mutaxassisligidan qat'iy nazar, ekologik ta'lim bilan bir qatorda ekoturistik ta'lim berilishi shart. Aks holda insonlar yashab turgan hayotiy zarur tabiiy muhitni saqlab qolish qiyin. Shu bois ham 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan va amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun"ining 4-moddasida ekologik o'quvning majburiylik prinsipi kiritilgandir. Turizm ta'limiga oid barcha me'yoriy hujjatlarga ekoturistik ta'limning majburiylik prinsipini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, ekoturizm prinsiplarini juda xilma-xil va keng qamrovli bo'lgani uchun ham biz ularni sharhsiz, sizlarning mustaqil fikrlashingiz maqsadida sanab o'tamiz, xolos:

ekoturizmدا ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikning yagonaligi; ekoturizmда milliy g'urur va iftixorni shakllantirishning zarurligi; ekoturizmning mintaqaviy xususiyat kasb etishi va hokazo.

Muayyan ekologik me'yordagi ekoturizm prinsiplari ekologik xavfsizlikni saqlab turuvchi zaruriy hodisa va jarayonlar turkumiga kiradi. Bundan bir vaqtning o'zida ham sayyohlik, ham tabiatni muhofaza qilish qoidalari kelib chiqadi. Shunday qilib, ekoturistik yo'naltirilgan harakatlar ekologik prinsiplarga yondashgan va chuqur ilmiy asoslangan bo'lishni talab etadi.

Chunki inson tabiatning bir bo'lagi, lekin uning aksi emas.

Biz falsafada fan ob'ektiga nisbatan berilgan ta'rifni hamda turizmga quyiladigan talablarni ma'qullab, ulardan ekoturizm ob'ektini aniqlashtirishda foydalangan tarzda quyidagi xulosalarga keldik. Ekoturizm ob'ekti sifatida sayyohlarning o'zlari yashamaydigan, turizm uyushtirilishi mumkin bo'lgan va ularning ongiga bog'lik bo'lmagan ob'ektiv borliq:

tabiat komponent (unsur)lari; tabiiy tizim(sistema)lar; tabiat majmua(kompleks)larini olish mumkin. Ushbu tabiat ob'ektlari ikki ko'rinishda, namoyon bo'ladi:

Kishilar faoliyati tomonidan nisbatan tegilmagan yoki antropogen o'zgarman, ya'ni tabiiy xossa va xususiyatlarini yo'qotib qo'yman:

tabiat komponentlari - tabiat yodgorliklari (sharsharalar, g'orlar, noyob daraxtlar va ularning kompozitsiyalari, noyob turdagi o'simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va uning topilmalari, o'ziga xos shakldagi toshlar...); tabiat majmualari - tabiat rezervatlari, biosfera qo'riqxonalari, qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar kabi davlatning alohida e'tibori bilan

«mutlaq» ravishda qo'riqlanadigan yer yuzasi hududlari va suv akvatoriyalari...) tabiiy tizimlar - o'rmonlar, tog' cho'qqilari, turli landshaftlar yoki gidrografik ob'ektlar kabilar kiritiladi.

Kishilar faoliyati (antropogen) yoki tabiiy jarayon va hodisalar (ofatlar) natijasida o'zgargan yoki yaratilgan:

tabiat komponentlari - sun'iy yaratilgan sharsharalar, g'orlar, qo'lga o'rgatilgan yovvoyi hayvonlar, iqlimlashtirilgan yovvoyi turdagi o'simlik dunyosi ...; tabiat majmualari - dendrologik bog'lar, hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, akvariumlar...; tabiat tizimlari - sun'iy suv inshootlari va akvatoriyalari, madaniylashgan landshaftlar... kabilar kiradi.

Ekoturizm paytida tabiatda kechayotgan xodisa va jarayonlarga aralashmaslik konsepsiyasi namoyondalarini «harakatsizlar» strategiyasi deyish mumkin. Chunki ular ekologik tizimlarni ayrim xudud va mintaqalarda buzilganligiga befarq bo'lishni va Yer kurrasida yashayotgan 7 mlrd.dan oshiq aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmaslikni tavsiya etadilar. Ushbu prinsipni alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar - biosfera qo'riqxonalar va qo'riqxonalarda amalga oshirsa bo'ladi, lekin ommaviy tarzda, ya'ni tabiatdan ajralgan ekoturizmni aslo tassavur qilib bo'lmaydi.

Muammosi bor tabiat qonunlariga ekoturizm orqali aralashishni yoqlab chiquvchilar fikri aralashmaslik konsepsiyasidagi fikrlarga qarama-qarshi bo'lib, ular tabiat qonunlarini, ilmiytexnik yutuqlardan foydalanilgan tarzda, ekoturizm uchun xizmat qiladigan darajada o'zgartirishni taklif qilmoqdalar. Afsuski, bu oqim namoyandalari tabiat qonunlarining turizm qonunlaridan avval shakllanganligi, tirik organizmlar esa shunday tabiat jarayonlari orqali paydo bo'lganliklari va rivojlanganliklarini inkor etishlari hozirgi ko'rinishdagi tirik mavjudotlarni genetik o'zgartirib yuboradi. Bunday holat kino ko'rsatuvlarda keng namoyish qilinayotgan «mutant» odamlarni va hayvonlarni yuzaga keltirdi va tabiiy tizimlarni ishdan chiqaradi.

Tabiiy atrof - muhit sharoitiga ekoturizmni moslashtirish orqali ekologik inqirozdan chiqib ketishni tavsiya etayotganlar, bir tomondan, ekologik tizimlarni tashqi kuchlarga nisbatan qarshi turish (buferlik) va o'z-o'zini tiklash konuniyatlariga ishongan holda insonlarning harakatlarini moslashtirishni tavsiya etsalar, ikkinchi tomondan, kishilarning evolyusion jarayonlarini jadallashtirishni yoqlab chiqadilar. Bunday konsepsiya namoyondalari, tabiat qonunlarini ko'chirishga urinayotganlar, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biz falsafada fan ob'ektiga nisbatan berilgan ta'rifni hamda turizmga quyiladigan talablarni ma'qullab, ulardan ekoturizm ob'ektini aniqlashtirishda foydalangan tarzda quyidagi xulosalarga keldik. Ekoturizm ob'ekti sifatida sayyohlarning o'zlari yashamaydigan, turizm uyushtirilishi mumkin bo'lgan va ularning ongiga bog'lik bo'lmagan ob'ektiv borliq:

tabiat komponent (unsur)lari; tabiiy tizim(sistema)lar; tabiat majmua(kompleks)larini olish mumkin. Ushbu tabiat ob'ektlari ikki ko'rinishda, namoyon bo'ladi:

Kishilar faoliyati tomonidan nisbatan tegilmagan yoki antropogen o'zgarmagan, ya'ni tabiiy xossa va xususiyatlarini yo'qotib qo'ymagan:

tabiat komponentlari - tabiat yodgorliklari (sharsharalar, g'orlar, noyob daraxtlar va ularning kompozitsiyalari, noyob turdagi o'simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va uning topilmalari, o'ziga xos shakldagi toshlar...); tabiat majmualari - tabiat rezervatlari, biosfera qo'riqxonalar, qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar kabi davlatning alohida e'tibori bilan «mutlaq» ravishda qo'riqlanadigan yer yuzasi hududlari va suv akvatoriyalari...) tabiiy tizimlar - o'rmonlar, tog' cho'qqilari, turli landshaftlar yoki gidrografik ob'ektlar kabilar kiritiladi.

Kishilar faoliyati (antropogen) yoki tabiiy jarayon va hodisalar (ofatlar) natijasida o'zgargan yoki yaratilgan:

tabiat komponentlari - sun'iy yaratilgan sharsharalar, g'orlar, qo'lga o'rgatilgan yovvoyi

hayvonlar, iqlimlashtirilgan yovvoyi turdagi o'simlik dunyosi ...; tabiat majmualari - dendrologik bog'lar, hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, akvariumlar...; tabiat tizimlari - sun'iy suv inshootlari va akvatoriyalari, madaniylashgan landshaftlar... kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. World Tourism Organization. <https://www.unwto.org/ru>
2. The International Ecotourism Society. <https://ecotourism.org/>
3. World Wildlife Fund. <https://www.worldwildlife.org/>
4. Штрюмер Ю.А. Охрана природы и туризм. / Ю.А. Штрюмер. – М.: Физкультура и спорт, 1974. – 103 с.
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari. URL: <https://nsdg.stat.uz/uz>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички туризм хизматларини диверсификация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-232 сонли қарори, 30.04.2022 й. <https://lex.uz/docs/5991928>
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 434-сон қарори, 27.05.2019 й. <https://lex.uz/ru/docs/4354743>
8. Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish // Monografiya. – Durdona nashriyoti. Buxoro: 2023. B.148.
9. Qodirov A.A. «COVID-19» inqirozining jahon ekoturizm industriyasi rivojlanishiga ta'siri // SCIENCEPROBLEMS.UZ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. T:S/5(3)-2023 B. 130-137 (ISSN 2381-1342 (online))
10. Qodirov A.A. Ekoturizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari // IQTISODIYOT VA TURIZM xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. B.:5(13)-2023. B. 52-58.
11. Qodirov A.A. Ekoturizmning mohiyati va uning tasniflanishi // Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti. Ilmiy-amaliy jurnal. T.:4(6)-2023. B. 24-32.
12. Qodirov A.A. Ekologik turizmni tashkil etish tamoyillari, usullari va uning tarkibiy tuzilishi // Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. X:11/2-2023. B. 145-152.
13. Qodirov A.A. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ekoturizmni rivojlantirish amaliyoti//SCIENCEPROBLEMS.UZ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. T:9(3)-2023 B. 128-136. (ISSN 2381-1342 (online))
14. Qodirov A.A. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning institutsional asoslari // Agroiqtisodiyot Ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. T:2-2023. B.115-117.
15. Qodirov A.A. Analysis of ecotourism development practice in developed countries // Journal of Management Value & Ethics. –G.:2023. – August Special Issue. 23 Vol. 13 No.02. P.117-122.
16. Qodirov A.A. O'zbekistonning ekoturistik salohiyatidan foydalanish holati tahlili // Iqtisodiyot va ta'lim T:4 -2023 (Tom 24). B.326-332.
17. Qodirov A.A. O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari, muammo va yechimlar // IQTISODIYOT VA TURIZM xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. B:6(14)-2023. B. 69-77.
18. Qodirov A.A. Ekoturistik xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va rivojlanish xususiyatlari // Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. X:11/2-2023. B. 152-156.

MAMLAKATIMIZDA EKOTURISTIK MAHSULOTLARNI DIVERSIFIKASIYA QILISH YO'LLARI VA USULLARI

**Qodirov Azizjon Anvarovich BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika
kaferasi dotsenti, i.f.f.d.(PhD)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ekoturistik mahsulotlarni deversifikatsiya qilish yo'llari, usullari, ekoturistik diversifikatsiya qilishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga doir takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekoturistik mahsulot, diversifikatsiya, ekoturizm, ekologik ta'lim, bioturizm, infratuzilma, ekologik ong, ekologik madaniyat.

Mamlakatimizda ekoturistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish mazmuni va mohiyati quyidagicha ifodalalanadi. Ekoturizm - bu tabiiy resurslarni himoya qilish va barqaror rivojlanish maqsadida amalga oshiriladigan turizm shaklidir. Diversifikatsiya qilish esa, mavjud ekoturistik mahsulotlarni ko'paytirish va ularning turini kengaytirishni anglatadi. Bu jarayon mamlakatimizda quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Tabiatga asoslangan turizm. Tog'lar, daryolar, o'rmonlar va cho'llar kabi tabiiy manzillarni qamrab olgan sayohatlar misol bo'ladi.

Madaniy meros va an'analar. Mahalliy aholi bilan aloqada bo'lib, ularning madaniyati, an'analari va urf-odatlarini o'rganiladi.

Eko-qishloqlar. Mahalliy dehqonlar va chorvadorlar hayoti bilan tanishish, ekologik qishloq xo'jaligini o'rganish mumkin.

Bioturizm. Qushlar, hayvonlar va o'simliklar dunyosini kuzatish, ular haqidagi ma'lumotlarini o'rganiladi.

Ekologik ta'lim. Tabiatni muhofaza qilish va ekologiya bo'yicha seminarlar, treninglar va dasturlar tashkil qilinadi

Ekoturistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilishning mohiyati shundan iboratki, bu jarayonda barqaror rivojlanishni ta'minlash, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish, madaniy merosni saqlash, turistlar oqimini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tabiatga zarar yetkazmasdan, turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy manfaatlarini qo'lga kiritish, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilash, ekoturizm orqali tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni oshirish, mahalliy madaniyat va an'analarni saqlash hamda targ'ib qilish, turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali ko'proq turistlarni jalb qilish imkoni yaratiladi.

Bu jarayon mamlakatimizning tabiiy va madaniy boyliklarini samarali foydalanish va ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish imkonini beradi. Ekoturizm orqali, nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy manfaatlar ham qo'lga kiritiladi.

Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda ekoturistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilishdagi 2023-2024 yillardagi mavjud muammolarni tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqildi. Bunday muammolarga quyidagilar misol bo'la oladi.

1. Infratuzilma va transport muammolari. Bu holatda yo'l va transportning yetishmovchiligi hamda mehmonxona va o'ziga xos turar joylar kamligi kuzatildi. Mamlakatimizda ekoturistik manzillarga yetib borish uchun zarur bo'lgan yo'l va transport infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan. Bu turistlar uchun noqulayliklar yaratadi va ularning qiziqishini kamaytiradi. Yana mintaqalarimizning tabiiy manzillarga yaqin hududlarida ekologik talablar asosida qurilgan mehmonxonalar va turar joylarning yetishmasligi ham alohida kamchilik bo'lib hisoblanadi.

2. Marketing va reklama kamchiliklari. Bunday holatlarda raqobatbardosh reklama va marketologlarning yetishmovchiligi hamda tashqi reklama kampaniyalarining kamchiligi alohida

ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz turizm xizmatlari bozorida ekoturizm mahsulotlarini xalqaro va milliy bozorda targ'ib qilish ancha sustlik mavjud bo'lib, bu esa turistlar oqimini kamaytiradi. Mahalliy va xalqaro darajada ekoturistik manzillarni targ'ib qiluvchi reklama kampaniyalarining kamligi esa xalqaro turizm bozoridagi mamlakatning faoliyatini susaytiradi.

3. Kadrlar tayyorlash va ta'lim masalalari. Malakali kadrlar yetishmovchiligi va ta'lim hamda o'qitish dasturlarining kamchiligi ekoturistik xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ekoturizm sohasida malakali mutaxassislar va gidlarning yetishmasligi ekoturizm bo'yicha maxsus o'quv dasturlarining kamligi yoki mavjud dasturlarni modernizatsiya qilish ehtiyojiga olib keladi.

4. Ekologik muammolarga esa atrof-muhitga qilinadigan salbiy ta'sirlar, qonunchilik va nazoratning yetishmasligi kabi muammolar misol bo'ladi. Ekoturizm faoliyati orqali tabiiy resurslarning noto'g'ri foydalanilishi yoki zarar ko'rishi mumkin. Bu esa tabiatga zarar yetkazishi mumkin. Ekoturizm faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va ularning bajarilishini ta'minlashdagi sustlik esa mamlakat ekoturistik faoliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

5. Mahalliy aholining jalb qilishidagi muammolar. Mahalliy aholining faoliyati va jamiyatning ekoturistik madaniyati ekoturizm faoliyatiga jalb qilishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Bu esa ekoturizmning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ekoturizmning ahamiyatini tushunish va qo'llab-quvvatlashdagi kamchiliklar esa alohida o'rganishni talab etadi.

6. Moliyaviy va investitsion muammolar. Investitsiya yetishmovchiligi muammosiga ekoturizm infratuzilmasiga yetarlicha investitsiyalar jalb qilinmasligi kiradi. Davlat qo'llab-quvvatlashining yetishmasligi muammosiga esa davlat tomonidan ekoturizmni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish dasturlarining kamligi misol bo'la oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tadqiqot jarayonida tadqiqotchi tomonidan bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o'tildi.

1. Infratuzilmani rivojlantirish. Tabiiy manzillar yaqinida ekologik mehmonxonalar va yo'l infratuzilmasini yaxshilash, mavjud marketing strategiyalarini kuchaytirish, milliy va xalqaro bozorda raqobatbardosh marketing va reklama kampaniyalarini amalga oshirish mumkin.

2. Malakali kadrlar tayyorlash. Ekoturizm bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini tashkil etish, ekologik nazoratni kuchaytirish, ekoturizm faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini nazorat qilish va tegishli qonunchilikni joriy etish.

3. Mahalliy aholini jalb qilish. Mahalliy aholini ekoturizm faoliyatiga jalb qilish va ularning ekologik ongini oshirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish, investitsiyalarni jalb qilish, ekoturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish mumkin.

Bu chora-tadbirlar mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish va uning salohiyatini to'liq amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. World Tourism Organization. <https://www.unwto.org/ru>
2. The International Ecotourism Society. <https://ecotourism.org/>
3. World Wildlife Fund. <https://www.worldwildlife.org/>
4. Штрюмер Ю.А. Охрана природы и туризм. / Ю.А. Штрюмер. – М.: Физкультура и спорт, 1974. – 103 с.
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari. URL: <https://nsdg.stat.uz/uz>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички туризм хизматларини диверсификация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-232 сонли қарори, 30.04.2022 й. <https://lex.uz/docs/5991928>
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 434-сон қарори, 27.05.2019 й. <https://lex.uz/ru/docs/4354743>

8. Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish // Monografiya. – Durdona nashriyoti. Buxoro: 2023. B.148.
9. Qodirov A.A. «COVID-19» inqirozining jahon ekoturizm industriyasi rivojlanishiga ta'siri // SCIENCEPROBLEMS.UZ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. T:S/5(3)-2023 B. 130-137 (ISSN 2381-1342 (online))
10. Qodirov A.A. Ekoturizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari // IQTISODIYOT VA TURIZM xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. B.:5(13)-2023. B. 52-58.
11. Qodirov A.A. Ekoturizmning mohiyati va uning tasniflanishi // Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti. Ilmiy-amaliy jurnal. T.:4(6)-2023. B. 24-32.
12. Qodirov A.A. Ekologik turizmni tashkil etish tamoyillari, usullari va uning tarkibiy tuzilishi // Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. X:11/2-2023. B. 145-152.
13. Qodirov A.A. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ekoturizmni rivojlantirish amaliyoti//SCIENCEPROBLEMS.UZ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. T:9(3)-2023 B. 128-136. (ISSN 2381-1342 (online))
14. Qodirov A.A. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning institutsional asoslari // Agroiqtisodiyot Ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. T:2-2023. B.115-117.
15. Qodirov A.A. Analysis of ecotourism development practice in developed countries // Journal of Management Value & Ethics. –G.:2023. – August Special Issue. 23 Vol. 13 No.02. P.117-122. 34. Qodirov A.A. O'zbekistonning ekoturistik salohiyatidan foydalanish holati tahlili // Iqtisodiyot va ta'lim T:4 -2023 (Tom 24). B.326-332.
16. Qodirov A.A. O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari, muammo va yechimlar // IQTISODIYOT VA TURIZM xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. B:6(14)-2023. B. 69-77.
17. Qodirov A.A. Ekoturistik xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va rivojlanish xususiyatlari // Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. X:11/2-2023. B. 152-156.

YASHIL IQTISODIYOT VA YASHIL INFRATUZILMA-IQLIM O'ZGARISHI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI YUMSHATISHDA

Malikova Shoiraoq Baxtiyorovna

BuxDu Iqtisodiyot va turizm fakulteti o'qituvchisi

Eshbekov Murodjon Uktamovich

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi va unga oid tushunchalar berilgan. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish va uni joriy etish yo'llari, shu jumladan xorij tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil energiya, yashil iqtisodiy o'sish, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi, zararli gazlar, quyosh panellari, yashil biznes, yashil infratuzilma

Kirish: Dunyo texnologiya, iqlim, siyosat va iqtisodiyot evolyutsiyasi bilan o'zgarib borar ekan, tabiat, fuqarolar va biznes manfaati uchun ekologik va ijtimoiy maqsadlarni ijobiy muvozanatlashtiradigan o'zaro bog'liq amaliyotlar mavjud. Ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirish bilan birga, inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni ta'minlash muvaffaqiyatini birinchi o'ringa qo'yadigan iqtisodiy model bo'lgan yashil iqtisodiyot yetakchilik qilmoqda .

Yashil iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejamkor va ijtimoiy inklyuziv sifatida tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Yashil infratuzilmaning jamiyat uchun foydalari jamoat maydonini kengaytiradi va ko'chalarni obodonlashtiradi. Ko'cha sharoitlarini yaxshilaydi va velosipedchilar va piyodalar xavfsizligini oshiradi. Biologik xilma-xillikni oshiradi va atrofimizni yashil qiladi. Qushlar, mahalliy o'simliklar va aholi uchun yaxshiroq yashash muhitini yaratadi. Yer osti suvlarini to'ldiradi. Shahar issiqlik orolining ta'sirini kamaytiradi. Havo sifatini yaxshilaydi. Yashil ish o'rinlarini yaratadi. Chiqindilarni tozalash xarajatlarini va energiya sarfini kamaytiradi.

Muammoning dolzarbligi: Tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanilmaslik natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida rivojlanayotgan mintaqalar mamlakatlari o'z ekologik tizimini, biologik xilma-xilligini va iqlimini yaxshilash uchun har yili 70-100 mlrd. AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda investisiya kiritishlari zarur. Shu bilan birgalikda rivojlanayotgan mintaqalarning investision salohiyati ancha past ekanligini e'tiborga olish zarur. Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar ushbu mintaqalar uchun strategik muhim bo'lgan (er osti boyliklarini ishlab chiqarish va qayta ishlash) sohalarga yo'naltirilmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy qonunchiligi xo'jalik sub'ektlarining ekologik yoki ijtimoiy javobgarligini ta'minlamaydi. Tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish borasidagi bunday agressiv yondashuv butun zamonaviy sivilizasiya uchun jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.


Adabiyotlar sharhi: Yashil iqtisodiyot atamasi birinchi marta Birlashgan Qirollik hukumati uchun 1989-yilda bir guruh yetakchi ekologiya iqtisodchilari tomonidan Yashil iqtisodiyot uchun loyiha loyihasi (Pearce, Markandya va Barbier, 1989) deb nomlangan kashfiyot hisobotida kiritilgan.

Yashil iqtisodiyotning xalqaro miqyosda kelishilgan ta'rifi mavjud emas va oxirgi nashrlarda kamida sakkizta alohida ta'riflar aniqlangan. Yashil iqtisodiyot uzoq muddatli istiqbolga ega bo'lib, jamiyatga qiymat yetkazib berish uchun resurslardan foydalanish usullariga e'tibor qaratadi. Bu faqat kam uglerodli yoqilg'i manbalari haqida emas; Bu, shuningdek, sayyoramizning ekologik chegaralarini hurmat qilgan holda, bugungi va ertangi kun fuqarolari uchun boylik, barqarorlik va farovonlikni yaratish uchun resurslarning samaradorligi va etarililigini qanday oshirish mumkinligi haqida. Shu o'rinda yashil infratuzilma nima, degan savol tug'iladi. Iqtisodiy adabiyotda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi ilk marotaba 1989 yilda qo'llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi.[1] Ayrim manbalarda "yashil iqtisodiyot" mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba'zi tadqiqotlarda "yashil iqtisodiyot" tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa "yashil iqtisodiyot" – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish hisoblanib, uning asosini sof yoki "yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyiladi. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir¹⁵. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya


iqtisodiyot tarmoqlari, "yashil iqtisodiyot" nazariyasi, tamoyillari yoki "yashil iqtisodiyot" siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investisiyalar faolligini oshirish, atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investisiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo'naltirish zarur bo'ladi. "Yashil infratuzilma" - bu shahar va iqlim muammolarini hal qilish uchun "komponentlar" ni ta'minlaydigan ob'ektlar tarmog'i, zaruriy sharti esa "tabiat bilan qurish" tamoyilini amalga oshirishdir. Yashil infratuzilma, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xavfsizlik uchun ekologik asos bo'lib xizmat qiladi, xavflarni kamaytirish orqali fuqarolarga munosib hayot sifatini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar: Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari O'zbekistonda "yashil" biznes mahsulotlari, xizmatlari va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni o'rganib chiqdi. (Irasim) Tadqiqot davomida so'rov o'tkazildi va unda 720 kishi (respondent) ishtirok etdi. Ishtirok etganlarning qariyb 60 foizi mamalakatimizda amalga oshirilayotgan "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasidan xabardor ekanligini bildirgan. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot uchun qaysi sohalar muhim, degan savolga so'rovda qatnashganlarning 18,4 foizi chiqindilarni qayta ishlash, deb javob bergan. Respondentlarning 16,9 foizi "yashil" qurilish, 8,2 foizi ekologik turizmni eng muhim sohalar sifatida qayd etgan. Respondentlarning 17,3 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalari, 15,4 foizi chiqindilarni qayta ishlash, 10,7 foizi shahar maydonini rejalashtirish bo'yicha mutaxassislarga va energiya tejamkor uylarning arxitektorlariga talab bugungi kunda nisbatan yuqori ekanligini e'tirof etgan. Qaysi "yashil" mahsulotlarga talab yuqori, degan savolga respondentlarning 16,2 foizi tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari, 15,0 foizi "yashil" texnologiyalar, 13,7 foizi ishlab chiqarishda atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar, 10,8 foizi to'qimachilik mahsulotlari, 10,3 foizi tabiiy materialdan tayyorlangan mahsulotlarga, deya javob bergan. So'rov natijalari aholi orasida organik mahsulotlarga talab boshqa mahsulotlarga nisbatan 2,2 barobar yuqori ekanligini ko'rsatdi. Mahsulotlar, xizmatlar va mutaxassislarga bo'lgan talabni qondirish uchun targ'ibot ishlarini kengaytirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, "yashil" tovarlarni ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, integratsiyalashgan marketing strategiyasi va aloqa rejasini ishlab chiqish va ilg'or tajribalardan samarali foydalanish hamda boshqa zarur chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiq.




1-rasm. "yashil biznes" mahsulotlari va xizmatlari mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj. Manba : [https://imrs.uz/]



1-rasm. O'zbekistonda 2030 yilga qadar mukobil energiya asosida elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini o'rnatishning prognoz ko'rsatkichlari, MVt.

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasiga muvofiq 2020-2030 yillarda tiklanadigan energiya manbalari orqali elektr energiya ishlab chiqarishga, jumladan quyosh energiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu loyihalar faqat sarmoyadorlar mustaqil elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar hisobidan amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, jahon ko'mir zaxiralari 270, neft' 50, gaz 70 yilga yetadi. Atom elektr stansiyalarida ishlatiladigan uran zaxiralari miqdori 5,7 mln. tonnani tashkil etadi va uning zaxiralari 2500 yilga yetadi. Ayrim mamlakatlarda atom elektr stansiyalarining elektr energiya ishlab chiqarishdagi ulushi 30% dan oshadi. Jumladan, bu ko'rsatkich Fransiyada 75%, Slovakiyada 54%, Bel'giyada 51%, Ukrainada - 46% ni tashkil etadi. 2022-yilda O'zbekistonda quvvati 200 MVtga teng bo'lgan quyosh elektr stansiyalari yordamida 411 mln. kVt.s elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu esa 124 mln. m³ tabiiy gazni tejash, atmosferaga 164 ming tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olish imkonini berdi. 2022-yilda quvvati 2072 MVtga teng bo'lgan gidroelektr stansiyalari vositasida 6,48 mlrd. kVt.s elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Natijada 1,94 mlrd. m³ tabiiy gaz tejaldi va atmosferaga 2,71 mln. tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olindi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, jumladan, Parij bitimi majburiyatlari bajarilishini maqsadida 2019 yil 4 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori qabul qilindi. (2-




2-rasm. 2019 — 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining ustuvor yo'nalishlar [3]

2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori ilovasiga binoan tuzilgan muallif ishlanmasi.

«Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi»da "yashil" energiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Strategiyaga ko'ra, 2026-yilga borib, quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvatini 8000 MVtgacha, gidroelektr stansiyalari quvvatini 2 920 MVtgacha oshirish rejalashtirilgan. Buning natijasida qayta tiklanadigan energiya ulushi 25 foizga yetadi, 3 mlrd. m³ tabiiy gaz tejaladi va 1 mln. xonadon 1 yil davomida gaz bilan ta'minlanadi. 2023-2030 yillarda O'zbekistonda 11 ta yirik, 9 ta o'rtacha va 8 ta kichik va mikro gidroelektr stansiyalarni qurilishi

rejalashtirilgan. Yangi GESlarni ishga tushirish tufayli yiliga 5,8 milliard kVt.soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi va 1,74 milliard m³ tabiiy gaz tejaladi. (3-rasm)



Takliflar: Yashil iqtisodiyot va infratuzilmaning barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi fikrlar mavjud:

1. Uglarodni ajratish: O'simliklar va daraxtlar fotosintez jarayonida karbonat angidridni o'zlashtiradi va atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasini yumshatishga yordam beradi. Yashil infratuzilma, masalan, shahar o'rmonlari va yashil maydonlar, atmosferadagi uglarod darajasini pasaytirish orqali iqlim o'zgarishiga qarshi kurashga hissa qo'shadigan uglarodni qabul qiluvchi bo'lib xizmat qiladi.

2. Haroratni tartibga solish: Keng beton va asfalt yuzalarga ega bo'lgan shahar hududlari issiqlikni yutish va ushlab turishga moyil bo'lib, shahar issiqlik orollarini yaratadi. Yashil infratuzilma soyani ta'minlash, evapotranspiratsiya orqali tabiiy sovutishni rag'batlantirish va umumiy issiqlik orollari ta'sirini kamaytirish orqali haroratni tartibga solishga yordam beradi, bu esa shaharlarni iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekstremal issiqlik hodisalariga chidamliroq qiladi.

3. Bo'ronli suvni boshqarish: Iqlim o'zgarishi ko'pincha kuchliroq va tez-tez bo'ronlarga olib keladi. Yashil infratuzilma, masalan, o'tkazuvchan yo'laklar, yashil tomlar va yomg'ir bog'lari bo'ron suvlarini o'zlashtirish va boshqarishga yordam beradi. Bu suv toshqini, eroziya va ifloslanish xavfini kamaytiradi, bu esa iqlimning umumiy barqarorligiga hissa qo'shadi.

4. Biologik xilma-xillikni saqlash: Yashil infratuzilma turli o'simlik va hayvonlar turlari uchun yashash joylarini ta'minlash orqali biologik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydi. Yashil maydonlarni saqlash va yaratish ekotizim xizmatlarini saqlashga yordam beradi va iqlim o'zgarishi ta'sirida ekotizimlarning barqarorligini ta'minlaydi.

5. Kengaytirilgan chidamlilik: Yashil infratuzilma jamoalarning iqlim o'zgarishi ta'siriga chidamliligini oshiradi. Shahar yashil maydonlari suv toshqinlari va bo'ronlar kabi ekstremal ob-havo hodisalariga qarshi bufer vazifasini bajaradi, shu bilan birga jamiyat farovonligiga hissa qo'shadigan dam olish joylarini ta'minlaydi.

5. Havo sifatini yaxshilash: Yashil infratuzilmadagi o'simliklar ifloslantiruvchi moddalar va zarrachalarni filtrlash orqali havo sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, havoning ifloslanishi sog'liq uchun jiddiy muammo bo'lgan shaharlarda juda muhimdir.

7. Ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar: Yashil infratuzilma dam olish joylarini taqdim etish, aqliy farovonlikni oshirish va estetik qiymatni oshirish orqali hayotning umumiy sifatiga hissa qo'shadi. Bundan

tashqari, yashil infratuzilmaga investitsiyalar ish o'rinlarini yaratishi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, barqaror va barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishi mumkin.

8. Moslashuv strategiyalari: Yashil infratuzilmani iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyalariga birlashtirish mumkin. Misol uchun, chidamli va moslashuvchan o'simlik turlarini ekish ekotizimlarning o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga bardosh berishiga yordam beradi.

Xulosa: Yashil iqtisodiyot va yashil infratuzilma - yashil ish o'rinlarini yaratadi. Chiqindilarni tozalash xarajatlarini va energiya sarfini kamaytiradi. Yashil infratuzilma iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashish strategiyalarining muhim tarkibiy qismidir. Uning ko'p qirrali afzalliklari ekologik barqarorlikka, jamiyat farovonligiga va o'zgaruvchan iqlim sharoitida ekotizimlarning umumiy barqarorligiga hissa qo'shadi. Yashil infratuzilmani shaharsozlik va yerdan foydalanish siyosatiga kiritish yanada barqaror va iqlimga chidamli jamoalarni qurish uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp
2. <https://telegra.ph/Yashil-infratuzilma-iqlim-ozgarishi-bilan-bogliq-muammolarni-yumshatadi12-14>
3. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикакиев ва бошқалар. –Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б

Elektron resurslar:

1. <https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?menu=1446>
2. <https://imrs.uz/>
3. <https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supporting-resourceefficiency/green-economy>
4. <https://telegra.ph/Yashil-infratuzilma-nima-11-24>
5. <https://www.greenplan.gov.sg/key-focus-areas/green-economy/>
6. <https://corporate.enelx.com/en/question-and-answers/what-is-green-economy>

BIO IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DORIVOR O'SIMLIKLARNI AHAMIYATI

Sultanova Munisa Akramovna

BuxDU o'qituvchisi

Xo'janazarov Dilshod Farxodovich

Buxoro Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada bio iqtisodiyotni rivojlantirishda, aholini tabiiy mahsulotlar bilan taminlashda dorivor o'simliklarni ahamiyati haqida va ularni tabobatda hamda oziq-ovqat sifatida qanday qilib qo'llanilishini haqida fikirlar yuritilgan.


Kalit so'zlar: na'matak, dorivor, o'simlik, tabiiy mahsulot, oziq-ovqat, gul yog'i, ekstrakt, sirop, suyuq ekstrakt.

Kirish. Bugungi kunda iste'molchilarning dorivor o'simliklarga bo'lgan e'tibori tobora ortib bormoqda, butun dunyo inson salomatligini saqlash, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlarni tabiiy dori darmonlar bilan immune tizimini yaxshilash uchun va tabiiy dorivor o'simliklardan tarkib topgan oziq-ovqat mahsulotlar bilan axolini taminlashni afzal ko'rish, bu tabiiy mahsulotlarning zararsizligi va foydali ekanligidan dalolat beradi. Sohaning rivojlanib borishi bilan bir qatorda aholining tabiiy dori vositalariga qiziqishi va iste'moli ko'payib, xabardorligi ortib bormoqda.

Hozirgi kunga kelib dorivor o'simliklarni yetishtirish, rivojlantirish, xususan tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivori o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Muammoning dolzarbligi. Oldingi davr mobaynida 9 ta dorivor o'simlik yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan limono't qalampir yalpiz, qizilmiyya, za'faron, moychechak, na'matak va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Dorivor o'simliklarni plantatsiyalarining kengayib borishi va tabiiy mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarining ortishi bilan birgalikda sohaning eksport salohiyati kuchaytirilmoqda. 2020-yil oxirida 29 ta chet davlatga 16 ming tonnadan ortiq 50 mln AQSH dollari qiymatidagi dorivor o'simliklar xomashyosi eksport qilingan bo'lsa hozirga kelib bu ko'rsatkichlar oshib bormoqda. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning „Al-qonun“ asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Dorivor o'simliklardan ko'proq, anor, achchiqmiya, bodom, do'g'buy, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko't, tog'rayhon, qizilcha, qoqio't va boshqalari tarqalgan.


Tahlil va natijalar. Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmasevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. Hozirga kelib Respublikada qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarida dorivor va ziravor o'simliklar jami 17,3 ming gektarga, jumladan asosiy maydonlarda 4,2 ming gektar va lalmi maydonlarda 13,1 ming gektarga yetkazildi hamda 19,1 ming tonna xom ashyo tayyorlandi.



1-rasm. Dorivor o'simliklar ekilgan yer maydoni

Respublikaning barcha hududlarida shahar va tuman kesimida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar orasida keng qamrovli kooperatsiyani yo'lga qo'yish maqsadida Savdo-sanoat palatasi, Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda O'rmon xo'jaligi agentligi bilan hamkorlikda 2023 yil mart oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Andijon va Farg'ona viloyatlarida ixtisoslashgan savdo yarmarkalari tashkil qilindi.

42 turdagi dorivor va ziravor o'simlik turlarini mahsulotlari 40 ta xorijiy davlatlarga ham eksport qilish yo'lga qo'yilda.



2-rasm. Dorivor o'simliklar xom ashyosi hamda ular asosida olingan mahsulotlar eksport geografiyasi

Dorivor o'simliklardan bebaho hisoblangan na'matak o'simligi ra'nodoshlarga mansub, bo'yi 2-3 metr ba'zan undan ham baland bo'lishi mumkin. Poyasi egiluvchan, tikanli va yaltiroq qo'ng'ir yashil rangli. Barglari toq patsimon murakkab ketma-ket joylashgan. Mevasi qizil va soxta mevadir. Mevasi kuz oxirida pishadi, ko'plab kasalliklarni oldini oladigan va o'zida ko'plab moddalarni tashkil etgan butasimon o'simlik hisoblanadi.

Na'matakning quyidagi turlari ishlatiladi:

1. Begger na'matagi
2. Itburun na'matagi
3. Fedchenko na'matagi
4. Qo'qon na'matagi

Bu o'simlikni guli, mevasi va ildizidan tayyor yokida yarim tayyor dorivor mahsulotlar tayyorlanadi. Mevasi kechki kuzgacha yig'ib olinadi akis holda mevani sovuq urishi ehtimoli kuchli bo'ladi. Sovuq urgan meva tarkibida C vitamini va boshqa element tarkiblari o'z hususiyatini yo'qotishi, dorivorligi kamayib ketishi mumkin. Meva quyosh yoki maxsus quritish uchun tayyorlangan pechlarda quritib maxsus idishlarga qadoqlanadi va turli xil dori-darmon yokida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalariga yetkazib beriladi.

Na'matakning barcha turlari foydali bo'lib, uning mevasi tarkibida 6% dan 18% gacha C, K, R vitaminlari, 18% mg gacha karotin va qand, 2% gacha limon kislota, organic kislotalar, flavanoidlar, pektin, oshlovchi moddalar, tuzlardan kaliy, temir, marganes, fosfor, kalsiy, magniy tuzlari va boshqa turdagi modda yokida elementlar bor. Meva urug'ida esa E vitamini va moylar bor.

Oziqaviy qiymati 100gr mahsulotni kaloriyasi-162 kkal, yog'lari-0.3 g, uglevodlar-1.6 g, natriy-4 mg, kaliy-430 mg, temir-1 mg, magniy-69 mg va boshqa turdagi vitaminlardan iborat. Na'matak mevasi hozirgi kunda ko'pincha shamollash va avitaminoz kasalliklarida qo'llaniladi. Urug'idan olingan moyi va urug'dan ajratilgan yumshoq mevasining qismidan tayyorlangan myli ekstrakt kuygan, teri kasalliklarini, rentgendan kuygan joylar, yaralarga va boshqa kasalliklarda ishlatiladi.

Na'matak mevasidan tayyorlangan quruq preparat jigar kasalliklarini davolashda ham ishlatiladi. Damlama va qaynatmalaridan esa me'da-ichak kasalliklari, bachadondan qon oqishini to'xtatuvchi, isitma tushuruvchi, o't va siydik haydovchi sifatida ishlatiladi. Damlama bilan milk shamollashi va tan jarohatlarida qon oqishida chayiladi.

Hozirgi kunga kelib na'matak o'simligidan yangi bo'lgan dori-darmonlar, kosmetologiyaga tegishli turli xil mahsulotlar va iste'molga yaroqli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqilmoda va ular o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak dorivor o'simliklarni yetishtirish, ulardan oqilona foydalanish va ko'plab plantatsiyalar yaratish bu axolini 100% tabiiy mahsulotlar bilan taminlash, ularni sog'liqlarini saqlash va istemol tartibini yaxshilash maqsadida qilinmoqda. Chunki hozirgi kunga kelib e'tibor beradigan bo'lsak dori-darmonlarimizda ham oziq-ovqat mahsulotlarimizda ham kimyoviy moddalardan tashkil etmoqda va bu esa inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'satadi. Biz shu kimyoviy moddalardan voz kechib tabiiy mahsulotlardan foydalansak o'zimizni o'zimiz sog'ligimizni qisman bo'lsa ham saqlab qolgan bo'lamiz.

Dorivor o'simliklarni yetishtirishda oqilona va tartibli shug'ullanish kerak. Ularning ham ba'zi bir inson salomatligiga salbiy tasiri bor. Har qanday dori darmon tayyorlashda ham ishlatilayotgan o'simlikdan kerakli miqdorda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Na'matakning esa dorivor xususiyati juda ko'p bo'lib, tibbiyotda ham oziq-ovqatda ham na'matak mevasidan damlama, ekstarkt va ho'l mevasidan sharbat hamda uning na'matak urug'idan yog'lar tayyorlanib sohalarda qo'llanilmoqda. Na'matak o'simligidan endilikda oziqovqat mahsulotlarida qo'llash mumkin. Bunga misol qilib na'matak mevasidan siroplar, suyuq va quyuq ekstraktlar, yog'idan esa kosmetologiyada qo'llaniladigan mahsulotlar tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
- 2) Бахромов Х.К., Ниязов Л.Н., Гапуров У.У. 4-Гидроксibenзой кислотанинг баъзи аминокислоталар билан ҳосилалари квант-кимёвий хоссалари // Фан ва технологиялар тараққиёти. – 2020. – № 4. – С. 74-78.
- 3) Гуламова М. Т., Садыкова С. Ш., Сафарова Н. С. Толерантность воспитание в духе терпимости // Universum: психология и образование. – 2021. – №. 2 (80). – С. 18-21.
- 4) <https://www.agro.uz/dorivor-osimliklar/>
- 5) Xo'jaqulova N.R. "The role and importance of medicinal plants in the development of the pharmaceutical industry" // International Journal of Management, IT & Engineering // Vol. 12 Issue 3, March 2022. U.S.A. ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119. 8893 pages
- 5) Xo'jaqulova N.R. "Ways to improve the current state of cultivation and processing of medicinal plants and it's importance" // Journal of Management Value & Ethics // India // Gwalior-M.P. 25-31 pages. (ОАК 08.00.00-Иqtisodiyot fanlari; Osiyo mamlakatlari nashrlari No 6).
- 6) <https://avitsenna.uz/namatak-rano-shipovnik-foydalari/>

HUDUDLARDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Ro'ziyev Shuxrat Sharifboyevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola hududlarda xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning mohiyati va mazmuniga bag'ishlangan bo'lib, xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashiga

olib kelishi mutaxassislar fikridan kelib chiqqan holda asoslangan hamda mamlakatimizda ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'ati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar, xizmatlar ko'rsatish, mintaqa iqtisodiyoti, bozor xizmatlari, xizmat ko'rsatish sohasi.

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyotini shakllanishida uni tashkil etuvchi mintaqalarining ahamiyati katta. Raqamli iqtisodiyotga o'tish, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlantirishga erishish ko'p jihatdan ana shu mintaqalarning, ya'ni mamlakatning turli ichki qismlarining salohiyat va imkoniyatlariga, faolligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan hozirgi davrda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish, viloyat va iqtisodiy rayonlarning yer-suv, mineral xom-ashyo, yoqilg'i va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga muhim e'tibor qaratilmoqda. Erkin va ochiq iqtisodiyot, uning turli qatlamlarini vujudga keltirish, sog'lom raqobat va investitsiya makonini shakllantirishdek dolzarb masalalarni hududlar xususiyatini hisobga olmasdan hal etib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining rahbariyati mahalliy hokimiyat (viloyat, shahar, tuman hokimliklari) huquq va mas'uliyatlarini kengaytirishga urg'u bermoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda hududlarni atroflicha o'rganish, ularning imkoniyat va muammolarini chuqur tahlil qilish, ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri aniqlashga katta ehtiyoj tug'iladi.

Darhaqiqat, hududlarda xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirish hamda ulardan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda iqtisodiyotga oid atamalar, kategoriyalar, tushunchalar, ibora va so'z birikmalari nihoyatda ko'pchilikni tashkil etadi. Bu esa, o'z navbatida xizmat tushunchasiga ham izohlar keltirish ehtiyojini vujudga keltiradi. Mutaxassislar bilimi hamda malakasiga tayangan holda aytish mumkinki, bu borada olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega tadbirlardan biri hisoblanadi. Xo'sh, aslida "Xizmat o'zi nima? Ushbu atamaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?" degan savollarga javob topish maqsadga muvofiq deb topdik:

F.Kotler fikricha xizmat – bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo'lgan, asosan sezilmaydigan va biror narsaga egalik hissini bermaydigan istalgan chora-tadbirlar yoki harakatli foyda [1].

T.P.Hill ta'kidlashicha xizmat - bu biror bir shaxs yoki sub'ekt holatining uning hohishiga binoan boshqa bir shaxs yoki sub'ekt tomonidan o'zgartirish kiritilishi [2].

G.Assel olib borgan tadqiqotlari natijasida "xizmatlar – iste'molchilar tomonidan xarid etiladigan, ammo mulk shakl tamoyilidan begona, his etib bo'lmaydigan ne'matlardir" ta'riflaydi [3].

A.Lindsay fikricha xizmat - bu jarayon, aniqrog'i, biznes jarayoni hisoblanib, maqsadga erishishi uchun mijozlarga ko'rsatiladigan harakatlar to'plami [4].

S.I.Ojegov ta'kidlashicha xizmat – bu naf keltirish yoki boshqa bir kishiga maishiy qulaylik yaratish harakati [5].

Yu.P. Sviridenko izlanishlari natijasida "Xizmat-bu ehtiyojga mos keladigan moddiy va nomoddiy tovarlarni yetkazib berish (ishlab chiqarish) orqali ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat" deb uqtiradi [6].

I.Ochilov fikricha xizmat-bu insonning, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi [7].

M.Q.Pardayev, H.N.Musayevlar ta'kidlashicha xizmat deyilganda insonning, xo'jalik yurituvchi subektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati [8].

R.M.Nureev olib borgan tadqiqotlari natijasida "Xizmat – qandaydir moddiy ob'ekt sifatida mulkka egalik huquqini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lmagan naf keltiruvchi tushuncha yoki (harakat) munosabatdir" ta'riflaydi [9].

Ayniqsa, xizmatlar sohasi nisbatan katta kapital xarajatlarsiz aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratishda, YalM hajmining oshishida mamlakat iqtisodiyotining asosiy ustuvor tarmoqlaridan bo'lib, u iqtisodiy-ijtimoiy o'sishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini ta'minlashda eng katta zahiralardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 35 foizni tashkil etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti tahlillariga ko'ra, servis industriyasining 1 foizga o'sishi kambag'allar sonini 1,5 foizga qisqartiradi" [10].

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan ko'rinadiki, xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda ulardan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Rasmiy statistikaning ko'rsatishicha, iqtisodiyotning faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasining ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'ati quyidagicha namoyon bo'lmoqda (1jadval).

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'ati (oldingi yilga nisbatan, foizda) [11].

№	Klassifikator	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1.	Savdo xizmatlari	115,4	113,9	115,7	118,5	120,5	100,3	104,9	107,4	103,8	112,3
2.	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	123,6	121,2	127,6	116	114,6	121,3	115,9	108,3	123,8	126,4
3.	Transport xizmatlari	109,4	108	104,6	104,3	107,8	109,9	104,5	106,7	91,4	115,7
4.	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	116	119,1	116,5	119	121,1	112,1	107	107,3	80,3	132,3
5.	Moliyaviy xizmatlar	114,5	131,5	132,1	130,6	119,8	136,5	121,5	147	125,6	128
6.	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	123,6	116,8	119,9	118,5	117,5	106,6	107,9	104,7	90	123,1

7.	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	131	115, 8	107, 4	106, 6	115, 3	124, 7	118, 1	115, 5	93,3	117, 9	105, 9
8.	Ijara xizmatlari	121, 2	119, 2	119, 1	113, 8	117, 6	102, 1	110, 4	98,3	98,4	118, 7	112, 6
9.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	105, 2	105, 2	109, 1	111, 2	107, 8	125, 6	110, 5	109, 5	101	130, 8	114, 1
10.	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	138, 8	130, 9	116, 3	117, 2	122, 2	116, 9	113, 4	114, 7	94,8	128, 5	113, 4
11.	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	120, 7	117, 5	116, 3	116, 3	115, 6	102, 6	104, 2	107, 1	94,5	122, 9	106, 6
12.	Shaxsiy xizmatlar	124, 5	121, 7	121, 4	107	113, 8	100, 7	102, 2	105, 4	94,7	114, 4	107, 1
13.	Boshqa xizmatlar	120, 7	113, 6	117	113, 5	114, 9	111, 8	121, 2	116, 3	99,7	113	114, 4

Yuqorida keltirilgan jamlanma ma'lumotlarni tahlil qilganimizda, ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'ati 2012 yilga nisbatan 2022 yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, transport xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlarida muttasil oshib bormoqda. Biroq savdo xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar, ijara xizmatlari, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, shaxsiy xizmatlar, boshqa xizmatlarda esa pasayishni kuzatishimiz mumkin.

Tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil etilgan mazkur 2012-2022 yillar davomida ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'ati muntazam ortib borgan. Buni keyingi yillarda insonlarning xizmatlarga bo'lgan talabi ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент. Экспресс-курс. Питер, 2005. – С. 301.
2. Hill T.P. On Goods and Services. Rev Income Wealth 1977;23:315–38. 3. Ассэль Г. Маркетинг: принципы и стратегия.: учебник для вузов. – М.: 2001. – С. 337.
3. Lindsay A, Downs D, Lunn K. Business processes-attempts to find a definition. InfSoftwTechnol 2003;45:1015-9

4. Романович Ж.А., Калачев С.Л. Сервисная деятельность. Учебник. –М. Издательско торг. Корпоратсия “Дашков и К”, 2007. – С. 268.
5. Сфера сервиса: особенности развития, направления и методы исследования. Коллективная монография / Под общ. ред.: Свириденко Ю.П., Соловьева В.Н., Бабурина В.А. – СПб.: Изд-во СПбГИСЭ, 2001. – 303 с.
6. Очилов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг таснифи. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.(монография) – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 190 б.
7. Пардаев М.Қ., Мусаев Ҳ.Н. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Т.: 2008. Монография. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2008. – 78 б.
8. Нуреев Р.М. Экономика развития: модели становления рыночной экономики. – М., 2008. – С.19.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 16 июндаги хизмат кўрсатиш ва ички туризмни ривожлантириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқи. <https://xs.uz/uzkr/site/search?q=2020-06-16>.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzildi.

II SHO'BA. HUDUDLARNI MUTANOSIB RIVOJLANTIRISH VA ULARNING ICHKI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

MUZEY TURIZMINING O'ZIGA XOSLIGI

Xamroyev X.R.

Bux.DU. prof, i.f.n.

Annotatsiya. Maqolada muzeyga muhim turizm obyekti sifatida qaralgan. Muzey turizmining o'ziga xos ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Dunyoning eng mashhur muzeylari faoliyatiga to'xtalib o'tilgan, O'zbekistonda muzey turizmini rivojlantirish ayrim imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Muzey, muzeyshunoslik, muzey turizmi, muzey tashrifi, xalqaro markaz, tutash hudud, muzey salohiyati.

Muzeylar tabiiyki, madaniy merosning ajralmas qismidir. Sayohatchilar qay o'lkaga borar ekan, eng avvalo ularning muzeylarini tomosha qiladilar va shu orqali mamlakat tarixi, madaniyati, san'ati va adabiyoti bilan yaqindan tanishishadi. Muzeyshunoslik- ijtimoiy axborotni saqlash vositasini anglash va yetkazish jarayonini o'rganuvchi ijtimoiy fandır. Har qanday fan tadqiqot ob'ekti va predmetiga ega bo'ladi. Turli fanlarning tadqiqot ob'ektlari bir-biriga o'xshash bo'lishi yoki butunlay mos tushishi ham mumkin. Muzeyshunoslikning ob'ekti - bu muzey ijtimoiy hodisa sifatidagi muzey ishidir. Lekin bu ob'ekt tarix, xususan madaniyat tarixini san'atshunoslik, sotsiologiya va boshqa fanlar yordamida o'rganilishi mumkin[3, 5.]. Hozirda O'zbekiston madaniyat vazirligi tasarrufidagi muzeylar 1.350 ming eksponatga ega. So'nggi paytlarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish orqali yurtimiz iqtisodiyotini yuqori bosqichlarga ko'tarish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, buyuk va navqiron o'tmishimiz, tariximizni namoyon etuvchi ochiq osmon ostidagi muzey shahar deb nom qozongan tarixiy shaharlarga sayohatlar uyushtirish ommaviy harakatga aylanmoqda. Bu borada «Ochiq osmon ostidagi muzey» deya e'tirof etilgan qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivada ham qator ishlar amalga oshirilmoqda [4].

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi, jumladan, «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» Davlat dasturida ham turizmni rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalar belgilab olingan: mahalliy aholining mamlakat bo'ylab sayohatlarini rag'batlantirish, sayyohlar uchun qulay infratuzilma yaratish, hududlarning sayyohlik salohiyatini keng targ'ib qilish orqali ichki turizmni tizimli rivojlantirish; xorijiy sayyohlarning tashrifi uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish; mamlakatimizdagi moddiy madaniy meros obyektlarida va ular atrofidagi obyektlarda tegishli infratuzilmani shakllantirish, amalga oshiriladigan diniy marosimlar uchun tegishli sharoitlarni yaratish orqali ziyorat turizmini sohaning istiqbolli yo'nalishi sifatida rivojlantirish.

2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida ham o'z aksini topgani bejiz emas [7.]. O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zaruriy manbalarga ega: Buyuk Ipak yo'li ustida joylashganligi; vatanimiz - qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga egaligidir. Jumladan, Buxoro Buyuk Ipak yo'lining yirik tijorat markazi bo'lib hisoblangan. Buxoro o'rta asrlarga mansub 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklariga ega bo'lgan «muzeyshahardir». Poyi Kalon, Qo'shmadrasa, Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi kabi ko'plab yodgorliklar bundan ming yillar oldin qurilgan bo'lib, hozirgi kunda ham mehmonlarni o'ziga jalb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qarori 31-may 2017 yil "Davom etish chora-tadbirlari to'g'risida va madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni 2020-yil 26-maydagi "Bundan keyin ham takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida madaniyat va san'atning o'rni va ta'siri jamiyat uchun muhim qo'llanmaga aylanib bormoqda [8.]. Bu hujjat ishini tashkil etishga qaratilgan muzeylarni yuqori darajada rekonstruksiya qilish uning materialini qurish va mustahkamlash va texnik baza, noyob kolleksiyani saqlash bebaho artefaktlar, arxeologiya, etnografiya, tasviriy va amaliy san'at, ularni kelajakka avlodlarga yetkazish Shuningdek, qarorning 3.2-bandining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha strategiya uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish, muzey va notijorat tashkilotlar biznesdan, foydalanish muzeylardagi amaliyotlar, ya'ni marketing vositalaridir zamonaviy talabga aylanib bormoqda. Bu quvonarli holatdir, albatta [9.].

Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida 1946 yilda YUNESKO bo'yicha xalqaro markaz - ICOM (International Council of Museums), yani xalqaro muzeylar kengashi xalqaro tashkiloti tashkil etilgan. Ushbu tashkilot 115 mamlakatdan 27 mingdan ortiq a'zolari o'z ichiga oladi hamda YUNESKOning va BMTning boshqa xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi [2].

YUNESKO bo'yicha xalqaro markazi ICOM tashkil qilingani muzeylarning jamiyatda o'sib borayotgan mavqeyidan dalolat beradi. ICOM xalqaro miqyosida turli ixtisosdosh muzeylarning ish tajribasini o'zaro almashinishga xizmat ko'rsatuvchi markaz sifatida yuzaga keldi. Uning asosiy vazifasini quyidagilar tashkil etadi:

- a) Muzeylar va muzeyshunoslik bo'yicha ayrim mutaxassislar ishini koordinatsiyalash hamda ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirish;
- b) Jahondagi barcha muzeylar hamda muzeyshunoslik bo'yicha ayrim mutaxassislarni xalqaro va madaniy tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashga jalb etish;
- v) Xalqlar o'rtasida o'zaro tanishuv va hamkorlikni mustahkamlash. Bu vazifalarning muzeyshunoslik buyicha xalqaro seminarlar, konferensiyalar, komandirovkalar tashkil qilish va tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Xalqaro muzey kengashining oliy organi - Bosh Assambleya 3 yilda bir marta chaqiriladi. Bir qator jamoatchilik muzeylari shahar, tuman va hatto viloyat xarakteriga ham egadirlar. Bular qatoriga birinchi navbatda Ikkinchi hahon urushi ishtirokchilari xotirasiga tashkil qilingan muzeylarni kiritish mumkin. Masalan: Namangan viloyatidagi shon-shuhrat uyi alohida obro'-e'tibor qozongan. Uning 11 mingdan ortiq eksponatlari orasida Namanganlik jangchilar va dunyoni "Jigar rang" vabodan qutqargan jangchilarning faoliyati haqidagi materiallar bor.

O'zbekistondagi eng ko'p tashrif buyuruvchilarga ega bo'lgan top-5 muzeylari quyidagilar: Qoraqalpog'iston Respublikasi I.V. Savitskiy nomidagi davlat muzeyi – 48,3 ming kishi; Temuriylar tarixi davlat muzeyi – 86,5 ming kishi; Xivadagi "Ichon-Qal'a" majmuasi – 211,9 ming kishi; Buxoro davlat badiiy me'morchilik muzey qo'riqxonasi – 399,4 ming kishi; Samarqand davlat badiiy muzey qo'riqxonasi – 683,9 ming kishi [6].

Dunyodagi eng qadimiy va mashhur muzeylarga kelsak, quyidagilarni sanash mumkin: Uffitsi muzeyi. Italiya (1575). Ushbu muzey Yevropa san'atini o'zida aks ettiruvchi eng muhim va yirik inshootlardan biri sanaladi. Muzey Florensiyadagi saroyda joylashgan bo'lib, u 1560-1581 yillarda qurilgan. Uffitsi tarixi 1559 yillarga borib taqaladi, Florensiya qiroli Kozimo I qasrda shaharning ko'zga ko'ringan ustalarini yiqqan. Kelasi yildan boshlab Jorjio Vazari ismli hunarmand ishga kirishgan. Biroq 1974 yilda Vazari vafot etadi, ishni uning jiyani Bernardo Buontalenti davom ettiradi. Yil o'tib galereya bitkaziladi, unda oilaviy yig'ilishlar o'tkaziladi. Keyinchalik muzeyga aylantiriladi.

Britan muzeyi. Buyuk Britaniya (1753). O'z davrida bu tarixiy-arxeologik bino jahonning eng katta muzeyi hisoblangan. Avvaliga muzeyda faqat Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistonga oid tarixiy ashyolar joylashtirilishi ko'zda tutilgandi. Lekin ular qatoriga turli san'at buyumlari va arxeologik topilmalar ham qo'shiladi. Ular Londonga Britaniya imperiyasining turli kolonnalaridan olib kelingan, shu tariqa muzey noyob surat, medal, kitob, tanga kabi buyumlarga to'lib borgan.

Luvr. Fransiya (1793). Bu muzey nomini eshitmagan odam kam topiladi. Luvr – qadimiy va boy, shuningdek qiziqarli tarixiy kolleksiyalarni o'zida jamlagan, nozik did sohiblarini san'at asarlari bilan

bag'riga chorlovchi g'aroyib binodir. Uni qurish ishlari ming yillar davom etgan, Parijning dovrug'ini oshirishda katta xizmati bor. Aytish lozimki, u aholi uchun 1793 yildan boshlab eshiklarini ochgan. 2018 yilda muzeyga 10 mln. sayohatchi tashrif buyurgan va bu rekord natija hisoblanadi [1].

Quyidagi jadvalda dunyoning tashrif buyuruvchisi eng ko'p bo'lgan muzeylarning top - o'ntaligi keltirilgan. Bu ma'lumot uchun 2019 yil tanlangan, chunki koronavirusdan oldingi turizm eng yuqoriga chiqqan yil bo'lganligi uchun olingan.

Jadval- Dunyoning top-10 muzeyi, 2019 yil bo'yicha

O'rin	muzey	mamlakat	Shahar	Muzeyni tashrif buyurganlar soni,mln.kishi
1	Luvr	Fransiya	Parij	9.6
2	Milliy muzey	Xitoy	Pekin	8.6
3	Havoda suzish va kosmonavtika muzeyi	AQSh	Vashington	8.0
4	Metropoliten	AQSh	Nyu-York	7.4
5	Petergof	Rossiya	Sankt - Peterburg	6.3
6	Zamonaviy san'at galariyasi "Tate Modern"	Buyuk Britaniya	London	5.9
7	Tarix – arxeologiya muzeyi	Buyuk Britaniya	London	5.8
8	Milliy galariya	Buyuk Britaniya	London	5.7
9	Tabiatshunoslik muzeyi	Buyuk Britaniya	London	5.3
10	Tabiiy tarix milliy muzeyi	AQSh	Vashington	4.8

Izoh: reyting muzeyga kelganlar soniga qarab aniqlangan. Manba: [10].

Muzey turizmi turizmning o'ziga xos turi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati - muzeylardan foydalanish, muzeylar va ularga tutash hududlarning turistik salohiyatidir. Muzey – madaniy ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot muassasasi, tabiiy yodgorliklarni, moddiy va ma'naviy madaniyatni asrash va ulardan foydalanish, fuqarolarni tabiat bilan tanishtirish milliy va jahon tarixiy-madaniy merosidir. Ularning yo'nalishiga ko'ra, muzeylar quyidagi turlarga bo'linadi: tarixiy, arxeologik, o'lkashunoslik, tabiiy, adabiy, badiiy, etnografik, texnik, tarmoq va boshqalar.

Muzeylar va turizm o'rtasidagi hamkorlik tizimi maxsus tarixiy, madaniy va tabiiy hududlarni shakllantirishga asoslanadi. Bu hududlarning rivojlanishi ta'minlanadi alohida hududlarning ijtimoiy-madaniy va turistik rivojlanishi omili bo'lib xizmat qiluvchi tarixiy-madaniy merosning muzeylarda to'planishidir. Muzey turizmi tashkilotchilari eng muhim vazifalar: muzeyning turistik ixtisosligini aniqlash va doimiylikni shakllantirish muzeyga turistlar oqimi oshirish, turistik dastur va marshrut yaratish, turistik paketlarini yaratish, reklama mahsulotlarini tayorlash, yangi manbalar va moliyalashtirishni topish.

Muzey turizmi - bu muzeylarning madaniy turizm sohasidagi o'ziga xos faoliyati muzey xarakteridagi turli xil turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish: ekspozitsiyalar yaratish, ichki va tashqi ekskursiyalarni tashkil etish, muzey do'konlarining mavjudligidir. Ushbu yo'nalishdagi turizm nisbatan yaqinda – XX asrni 70-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan. Muzeylar o'z taqdirini o'zi belgilash, rivojlanishning yangi yo'llari va yangi byudjetni qidira boshladilar. Bu faoliyatga mablag'larni jalb qilishga, resurslarni qidirishga, shu jumladan turistik faoliyatda ishtirok etishga harakatni boshladilar. Sayyohlar o'rtasida muzeylarga bo'lgan qiziqishning tiklanishi dolzarbligi bilan bog'liq tashrif buyuruvchilarni jalb qilishi kerak bo'lgan tashqi va ichki makon muzeylarni rivojlantirishga, jumladan, qurilishiga katta mablag' ajratila boshlandi. Konservativ va xotirjam ko'rinadigan ushbu muassasa katta tezlikda zamonaviy korporatsiya zamonaviy, globallashuv jarayonlariga integratsiyalasha oladigan, tashrif buyuruvchilarning tasavvur qilib bo'lmaydigan sonini oshirishga imkon bera boshladi.

Muzey turizmi, albatta, an'anaviy faoliyat emas, dastlab muzeylarda bunday hodisa nisbatan yaqinda – XX asrning 90 - yillarning o'rtalarida, bir vaqtning o'zida muzeylar, boshqa madaniyat muassasalari kabi, o'z taqdirini o'zi belgilash, yangi yo'llarni qidirish, rivojlantirish va moliyalashtirishning yangi byudjetdan tashqari manbalarini izlash kabilari paydo bo'ldi. Muzei turizmi o'z mohiyatiga ko'ra muzeylarning ta'lim sohasidagi o'ziga xos faoliyatidir. Muzei xarakteridagi turli xil turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uchun turizm (yaratish ekspozitsiyalar, ichki va tashqi ekskursiyalar tashkil etish, muzei do'konlari va boshqalar). Ba'zi hollarda, turistik siklni tashkil etish (joylashtirish, ovqatlanish, transfer, axborot bilan ta'minlash va boshqalar) uchun faoliyat yuritadi.

Muzei turizmi madaniy - ma'rifiy turizmning tarkibiy qismi bo'lib, majburiy turizmni o'z ichiga oladi muzeylarga, tarixiy shahar markazlariga tashriflar, madaniy diqqatga sazovor joylarga sayohat, arxeologik qazishmalar. tarix va madaniyatni har tomonlama ko'rsatish (qoplash) g'oyasiga asoslanadi yo'l, ayniqsa muzei kolleksiyalarining o'ziga xosligi va tarkibiga ko'ra. Muzei va turizm mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq asosiy jarayonlar: hududning madaniy merosini sharhlash; maxsus muzei va turizm ijodkorligini rivojlantirish kabilardan iborat.

Muzei turizmi alohida turistlar yoki kichik guruhlar bilan ishlashga qaratilgan bo'lishi mumkin, mustaqil sayohatchilarga xizmat korsatishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Xullas, muzeylar turizm sohasida turli o'rinlarni egallashi mumkin. Mustaqil sayyohlar haqida gap ketganda, muzei turopoperator pozitsiyasini egallashi mumkin, aslida, uy egasi boshqa mahalliy hamkorlar bilan birgalikda (davlat korxonalari, mahalliy hamjamiyat, munitsipalitetlar va boshqalar), o'zining turistik tsiklini, shu jumladan turistik sayohatni ta'minlaydi, madaniy dasturlar, ko'ngilochar tadbirlarni tashkil qiladi. Uyushgan guruhlarda muzei tashqi madaniy va turistik unsurlardan biri sifatida, muayyan turistik agentliklar bilan tuzilgan shartnoma asosida tuzilgan dasturlar (marshrutlar) asosida ishlaydi. Muzei turizmi turizmning o'ziga xos turi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, u turistni o'ziga xos tarzda foydalanishidir.

Muzei turizmi o'zaro hamkorlik tizimi sifatida madaniy turizm sohasidagi muzei va turistik kompaniyalar quyidagilarni ta'minlaydi:

- 1) Muzei faoliyatini birlashtiruvchi istiqbolli dasturni ishlab chiqish;
- 2) Muzei ekskursiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 3) Madaniy tadbirlarni turistik dasturlarga kiritish;
- 4) Muzei va turistik tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning samarali shakllarini yaratish (turopoperator + muzei);
- 5) Turistlarga xizmat ko'rsatishning yangi shakllarini joriy etish, jumladan: yagona muzei chiptasi, shahar tashrif qog'ozi;
- 6) Moslashuvchan narx siyosatidan foydalanish.

Shunday qilib, bugungi maqolada turizm muzeishunoslik yo'nalishiga quyidagi o'zgarishlar kiritilishi mumkinligi haqida xulosa qilishimiz mumkin: yurtimiz fuqarolari va sayyohlarini tariximizning yodgorliklari saqlanib qolgan mamlakatimiz muzeilari, shuningdek, hurmat ruhini shakllantirish umuminsoniy qadriyatlarimiz, keng va boy milliyligimiz va madaniy merosini tanishtirish bizning noyob ekspozatlar orqali muzei Xalqaro aloqalarni rivojlantirish, noyoblikni butun dunyo bo'ylab targ'ib qilishga erishish. Bular, o'z navbatida, mamlakatimizni rivojlantirish imkonini beradi, uning iqtisodiy o'sish, boyliklarimiz bilan faxrlanish tarix, o'zligimizni saqlab qolish va amalga oshirish buyuk meros qoldirish kabi buyuk vazifalar kelajak avlodlarga ta'kidlab kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Art's most popular (English): Exhibition and Museum visitors 2018 //The Art Newspaper - 2019. - Vol. XXVIII, ed. 311. - ISSN 0960-6556.
2. Holden, A. (2003). Turizm uchun yangi ekologik etikaga muhtojlikda, Turizm yilnomalari Tadqiqot 30[1], 94–108.
3. "Principles of research and promotion of the history and theory of cultural tourism". M.S. Muhamedova. - https://en.wikipedia.org/wiki/Cultural-historical_activity_theory.

4. Сабирова, Р. Г. & Утанова, У. (2016). Народная культура»: понятие, сущность, социально-философский анализ. ББК 72я43. С, 56, 183.
5. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar hazinasi. Toshkent.1981y.
6. Utanova, U. A. (2019). Scientifically Philosophical Analysis Of Cultural And Spiritual Heritage. International Journal on Integrated Education, 2(1), 53-55.
7. <https://lex.uz/acts/-3107036>.
8. <https://lex.uz/docs/-3221495?otherlang=1>
9. <https://lex.uz/docs/-4829149> 10. <http://turstat.com/topmuseumworld>.

IQTISODIY HUDUDLARNI MUTANOSIB RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA KLASTERLARNING AHAMIYATI

Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich.

Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti tayanch doktoranti

Ijtimoiy-iqtisodiy makonlar klasterizatsiyasi nazariyasi ishlab chiqarish tizimlari aglomeratsiyalarini yaratish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga bag'ishlangan umumiy konsepsiyalar asosida paydo bo'lgan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarga tayangan holda, ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster shakli hududdiy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishning istiqbolli yo'llaridan biridir. Birinchilardan bo'lib V. Petti moddiy resurslar, avvalambor yerning, qiymatini ishlab chiqarish kuchlari konsentratsiyasi natijasida oshirish mumkin degan nazariy xulosaga kelgan ².

Korxonalarining ma'lum makonda yig'ilishini bildiruvchi "klaster" termini 1970 yillarda A.P. Gorkin va L.V. Smirnyagin, K Fredriksson va L. Lindmarklar tomonidan qo'llanila boshlangan ³. Shunday qilib, klasterlar konsepsiyasining asoschisi amerikalik biznes-iqtisodchi M.Porter ushbu termini birinchilardan bo'lib qo'llashni boshlamaganini tan olib, A. Marshall, A. Lyosh, U. Ayzard va boshqalarning ilmiy tadqiqotlariga murojaat qilgan ⁴. "Klaster" terminining barcha tomonidan tan olingan ta'riflari mavjud emas. M.Porter zamonaviy bozor iqtisodiyotida klasterlarning o'rnini tadqiq qilib, mamlakat, hudud va tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlashda alohida korxonalar emas, balki klasterlar belgilovchi ahamiyat kasb etishini isbotlagandan so'ng, ushbu terminga turli talqinlar berildi va tasniflari ishlab chiqildi ⁴.

Klaster deganda ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tarkibga ega tizim tushuniladi. Ijtimoiy iqtisodiy nuqtai nazardan klaster ma'lum hududda o'zaro bog'liq faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan ishlab chiqarish va kapitalning yuqori konsentratsiyasi xususiyati; umumiy raqobat ustunliklarining mavjudligi; boshqa tizimlarga nisbatan raqobatbardoshlikni oshirishga olib keluvchi tizim doirasida kuchli raqobat muhiti bilan ajralib turadi. Tashkiliy tomondan klaster uzoq muddatli kooperatsiya orqali texnik va texnologik, bozor, institutsional aloqalar evaziga yaxlit tizimni tashkil etuvchi, turli institutsional xususiyatga ega xo'jalik yurituvchi subyektlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

Ayni kunda klasterlar ishlab chiqarish kuchlari integratsiyasining eng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, hududlarning raqobat potensialini to'laqonli ochishga, tarmoqlarning raqobatbardoshligini

² 2 Петти В. Трактат о налогах и сборах / В. Петти // Антология экономической классики. – В 2-х т. – Т.1. – М.: Эконом, 1993. – С. 35-38.

³ Spatial Analysis, Industry and the Industrial Environment. Progress in Research and Applications. Vol. 1. Industrial systems / Edited by F.E.I. Hamilton and Linge G.J.R. Chichester, N.Y., Brisbane, Toronto: Wiley, 1979. – 289 p. ⁴ Портер М. Конкуренция. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2002. 496 с.

⁴ Porter M.E. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. 1998. # 76 (6). P. 77–90.

o'shishga va uning iqtisodiy o'sishini optimallashtirishga yo'naltirilgan hududiy yaqin va o'zaro funksional bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy institutlar o'rtasida hamkorlik rishtalarini o'rnatishdir [39].

Klaster yondashuvi odatda sanoat korxonalarini integratsiyalash maqsadida qo'llanilgan. AQShning elektronika va avtomobilsozlik, Germaniyaning ximiya, Italiyaning poyabzal ishlab chiqarish, Shvesiyaning o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoat hududlari nisbatan yaxshi tadqiq qilingan bo'lib, turizm hamda boshqa xizmat ko'rsatish sohaslarida klasterga oid tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Aytish joizki, turistik markazlarning shakllanishida, ularga turistlarni jalb qilishda va raqobatbardoshligini oshirishda klasterlar belgilovchi ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish sohalari o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, hordiq chiqarish va sayohat sohasida klaster yondashuvini qo'llash dolzarb masaladir. Turizm sohaslararo aloqalar ko'lamining kengligi, tuzilmaviy uzuq-yuluqlikning mavjudligi, sohaning asosiy subyektlari o'rta va kichik biznes namoyandalari ekanligi, turistik mahsulotning nomoddiyligi hamda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tomonidan turlicha qabul qilinishi bilan boshqalaridan farqlanadi. Turistik sohaning ayni xususiyatlari klasterlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini taqazo etib, ularni shakllantirish turizmga band xo'jalik yurituvchi subyektlarga yaxlit tizimning bir qismi ekanliklarini anglashga ko'maklashadi.

Xizmat ko'rsatish klasterlar butun dunyoda tarqalgan bo'lib, ko'p hollarda o'ta rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilishi bilan birga, rivojlanayotgan va o'tish davrida bo'lgan iqtisodiyotlarda ham uchraydi. Muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan va istiqbolli turistik klasterlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: AQSh, Kaliforniya shtati Napa vodiysida vino turizmi klasteri; Avstraliyaning Kvinslend shtatida ekoturistik klaster; Janubiy Afrika Respublikasida 1999 yili turistik klasterlarni rivojlantirish milliy strategiyasi qabul qilingan; Meksikada Kankunoromgohi klasteri; Indoneziyadagi Bali oroli klasterlari.

Iqtisodiy sohalarda klasterlarning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi umumiy qonuniyatlar asosida amalga oshishi hamda ushbu sohada namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlangan. Klasterlarning mohiyati uni tashkil etadigan o'zaro bog'liq firmalarning qo'shilgan qiymat zanjirida o'z aksini topadi. Qo'shilgan qiymat – ma'lum korxonaning faoliyati natijasida mahsulot va xizmatlar qiymatiga qo'shgan qismidir. Ishlab chiqarish faoliyatining barcha shakli qo'shilgan qiymatni yaratadi. Aniq ketma-ketlikda amal qilish natijasida ular tashkilot miqyosida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantiradilar. Raqobat ustunligiga erishish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining qo'shilgan qiymat zanjiri bilan birga, xizmatlarni yetqazib beruvchi hamda iste'molchilar bilan bog'lovchi tashqi zanjirlarni ham optimallashtirishi kerak. Tez sur'atlarda rivojlanayotgan klaster o'zida turli qo'shilgan qiymat zanjirlarini qamrab olib, ularning yig'indisini M.Porter “qo'shilgan qiymatlar tizimi” (value system) deb ataydi. Masalan, Turistik klasterlarda qo'shilgan qiymatlar tizimi to'rt turdagi qo'shilgan qiymat zanjirlarini qamrab oladi: xizmatlarni yetqazib beruvchilar (transport kompaniyalari), joylashtirish muassasalari va boshqa qo'shimcha xizmatlar, turistik mahsulotlarni sotish kanallari (initsiativ va reseptiv turoperatorlar, turagentlar, elektron bronlash tizimlari hamda turistik portallar), shuningdek iste'molchi(turist)lar. Turistik klasterning raqobatbardoshligi va jozibadorligi qo'shilgan qiymat zanjirining har bir bo'g'inida amalga oshayotgan jarayonlar algoritmi va dinamikasini uzluksiz tadqiq qilishni taqazo etib, klasterni tashkil etuvchi subyektlarga barqaror o'sishning eng optimal yo'llarini ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Klasterning yana bir xususiyati hamkorlik va raqobatning uyg'unlashuvidir. Turdosh va bir xil mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tashkilotlar qo'shilgan qiymat zanjirining ma'lum bo'g'inini tashkil qilib to'g'ridan-to'g'ri raqobat qilishlariga qaramasdan, strategik birlashmalarni hamkorlikda tashkil qiladilar.

Klasterlar ma'lum iqtisodiy muhitda faoliyat ko'rsatib, ko'p hollarda ularning raqobatbardoshligi aynan shu muhitga bog'liq bo'ladi. Raqobat muhiti klasterlarga turlicha ta'sir qilib, ba'zi hollarda ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, boshqasida, aksincha, o'sishiga sabab bo'ladi.

Klasterlar davlat va xususiy sektor hamkorligi tamoyili asosida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Klasterlarning shakllanishi va amal qilishining boshlang'ich bosqichlarida davlat muhim o'rin egallab, u turistik biznes namoyandalari bilan yaqin strategik hamkorlik olib borishi maqsadga muvofiq. Amaliyotda o'z samaradorligini ko'rsatgan davlat va xususiy mulkning turli o'zaro hamkorlik shakllari, modellari va

mexanizmlari mavjud. Joylarda klaster tashabbuslarini rivojlantirishni davlat klasterini tashkil qiluvchilar o'rtasida muloqot platformalarini joriy qilish, kadrlarni qayta tayyorlash va qo'shimcha ta'lim dasturlarini amalga oshirish evaziga mahalliy ish kuchlarining malakasini oshirish, xorijiy sayyohlarni jalb qilish maqsadida hudud brendini yaratish orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Mavzuga oid ilmiy maqolalarni o'rganish natijasida o'zaro o'xshash bo'lmagan turli ob'ektlarni klaster deb atalishi ma'lum bo'ldi. Ko'p mamlakatlarda klaster tajribasini o'rganish natijasida I.V. Pilipenko uning tarmoq va hududiy shakllarini ajratadi⁵ :

- tarmoq klasterlar– xalqaro mehnat taqsimotida muvaffaqiyatli ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari subyektlarining o'zaro bog'liq guruhlarini (ishlab chiqarish va milliy klasterlar);

- hududiy klasterlar–ma'lum hududda geografik jihatdan zich joylashgan bir-biriga o'xshash yoki to'ldiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda klaster a'zolari o'rtasida ma'lumot almashuvining yo'lga qo'yilganligi evaziga xalqaro darajada raqobatbardoshligini barqaror saqlab turgan o'zaro bog'langan korxonalar guruhi (hududiy, transchegaraviy va mahalliy klasterlar). Klaster siyosati – klasterlarni rivojlantirishni rag'batlantirish orqali mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Klaster siyosatini amalga oshirishda davlatning roliga qarab 4 turi ajratiladi⁶

1. Katalitik – dalatning loyihalarni chegaralangan shaklda moliyalashtirish orqali o'zaro manfaatdor tomonlarni, masalan xususiy kompaniyalar hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini birgalikda harakat qilishlarida “katalizator” sifatida namoyon bo'lishi.

2. Qo'llab-quvvatlovchi– davlat hokimiyati organlari katalitik klaster siyosatiga qo'shimcha ravishda hududiy infratuzilmaga sezilarli investitsiyalar kiritish, oliy, o'rta-maxsus va ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarini takomillashtirish, hamda klasterlarni rivojlantirishni rag'batlantirishga oid kompleks chora-tadbirlar kabi ishlarni amalga oshiradi.

3. Direktiv (ko'rsatmali) – qo'llab-quvvatlovchi klaster siyosatining kengayishi hisobiga davlat tomonidan maxsus dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi orqali hududlarning ixtisoslashuvini o'zgartirishga qaratilgan klasterlarni rivojlantirish.

4. Intervension– davlat direktiv klaster siyosatini olib borishi bilan birga klasterlarning rivojlanish istiqbollari o'z javobgarlik va qaror qabul qilishni xususiy sektorning ixtisoslashuvini transfert, subsidiya, qonuniy to'siqlarni qo'yish, klasterini tashkil qiluvchi korxonalar ustidan nazoratni amalga oshirish orqali o'z zimmasiga oladi.

M. Enrayt 160 hududiy klasterlarni tadqiq qilib, ulardan 40% ida davlat boshqaruv organlari qo'llab-quvvatlovchi klaster siyosati, 20% katalitik klaster siyosati, 5% direktiv klaster siyosatini hamda 2-3-% hollarda intervension klaster siyosati amalga oshirilganligi aniqlangan⁷.

Klaster siyosatining kelib chiqishi bo'yicha ular “balanddan-pastga” va “pastdan-balandga” turlari ajratiladi. Klaster siyosatini amalga oshirish tashabbusi bilan milliy yoki hududiy hokimiyat organlari chiqsa, uning “balanddan-pastga” turiga mos kelib, odatda, bu siyosat davlat miqyosida turli mahsulot va xizmatlarni shakllantirishning qo'shilgan qiymat zanjirida qatnashadigan tarmoq klasterlarini tashkil qiluvchi korxonalar guruhiga nisbatan amalga oshiriladi. Klaster siyosatining ayni turiga Finlyandiya, Gollandiya va Daniya yaqqol misol bo'ladi. Klaster siyosatini amalga oshirishda o'z-o'zini boshqarish organlari, tadbirkorlarning mahalliy uyushmalari yoki mahalliy boshqaruv organlari tashabbus bilan

⁵ Асеева, О.Ю. Основные направления развития кластерной политики в России // Асеева О.Ю. / В сборнике: Тенденции развития естественных и гуманитарных наук Материалы VIII Всероссийской научно-практической конференции. г. Ростов-на-Дону, 2015. С. 81-85.

⁶ Enright M.J. Regional Clusters: What we know and what we should know. Paper prepared for the Kiel Institute International Workshop on Innovation Clusters and Interregional Competition, 2002. – 25 p.

⁷ Enright M.J. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy: Competitiveness Program, University of Hong Kong, 2000. – 21 p.

chiqsa, klaster siyosatining “pastdan-balandga” turiga mos keladi⁸. Shunga o‘xshash dasturlar “klaster tashabbusi” deb nomlanadi⁹. Tarmoq xususiyatiga ko‘ra klasterlarning quyidagi turlari ajratiladi¹⁰ :

1. Diskret (alohida ajratilgan) klasterlar alohida komponentlardan iborat avtomobilsozlik, aviatsiya sanoati, kemasozlik, qurilishga oid tarmoqlarda ishlab chiqarilgan mahsulot va bog‘liq xizmatlarni qamrab oladi. Odatda, ushbu klasterlar yig‘uvchi tashkilotlar atrofida butlovchi mahsulotlarni yetqazib beruvchi kichik va o‘rta hajmdagi korxonalarining rivojlanishi natijasidir.
2. Jarayonli klasterlar ximiya, selluloza, metallurgiya, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat kabi jarayonli sanoatlar (процессный отрасль) asosida shakllanadi.
3. Innovatsion va “ijodiy” klasterlar axborot texnologiyalari, biotexnologiya, yangi materiallar, shuningdek ijodiy faoliyat amalga oshiriladigan (kinomotografiya) xizmat ko‘rsatish kabi “yangi soha”lar zahirida rivojlanadi. Innovatsion klasterlar oliy ta‘lim muassasalari va tadqiqot institutlari faoliyati mahsuli bo‘lgan tadqiqotlar natijalari hamda yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonida shakllanadigan yangi kompaniyalarni o‘zida mujassamlashtiradi.
4. Turistik klasterlar sayohat qilish va hordiq chiqarish bilan bog‘liq ehtiyojlarni qondirishda qatnashadigan turli tarmoq korxonalarini qamrab oladi.
5. Transport-logistika klasterlari yo‘lovchilarni tashish, yuklarni omborxonalarda saqlash va yetkazib berishga ixtisoslashgan infratuzilma hamda kompaniyalar majmuidan iborat. Shuningdek klasterlarga port infratuzilmasi, dengiz, daryo, yer usti va havo yo‘llari orqali tashishga ixtisoslashgan tashkilotlar, logistik komplekslar va boshqalarni kiritish mumkin. Transportlogistik klasterlar yirik tranzit potentsialga ega hududlarda taraqqiy topadi.

KAMBAG‘ALLIK IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMO SIFATIDA.

Qutliyeva Mahliyo-Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiy-ijtimoiy muammoga bag‘ishlangan. Mavzuning dolzarbligini chuqur tushunish uchun muallif tomonidan "kambag'allik" tushunchasi, shuningdek, uning turlari va sabablari batafsil ko‘rib chiqilgan.

Tayanch iboralar: kambag'allik, ijtimoiy muammo, mutlaq kambag'allik, nisbiy qashshoqlik, kambag'allikni kamaytirish.

Abstract: This article is devoted to an economic and social problem. In order to deeply understand the relevance of the topic, the author has examined the concept of "poverty", as well as its types and causes in detail.

Key words: poverty, social problem, absolute poverty, relative poverty, poverty reduction.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida odamlar ko‘plab muammolarga duch kelishadi. Kambag'allik aholining ma'lum bir qismida shakllanadi. Odatda, qashshoqlikning sabablari va darajasi ma'lum moddiy mezonlar asosida va maqsadli so‘rovlar o‘tkazish, ijtimoiy-iqtisodiy muhitni, iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish orqali aniqlanadi. Kambag'allik

⁸ Ffowcs-Williams I. Cluster Development: Red Lights and Green Lights. Paper prepared for ANZR-SAI Conference “Sustaining Regions”, 24 May, 2004. – 17 p

⁹ Sölvell Ö., Lindqvist G., Ketels Ch. Cluster Initiatives in Developing and Transition Economies. Cen-ter for Strategy and Competitiveness, Stockholm, 2006. – 40 p.; Sölvell Ö., Lindqvist G., Ketels Ch. The Cluster Initiative Greenbook. The Competitiveness Insti-tute/VINNOVA, Gothenburg, 2003. – 94 p.

¹⁰ Ванеева И.В., Ромашин Н.В. Кластерный подход в стратегическом развитии региона. Культура народов Причерноморья. - 2011. - №215. - С.31-34.

tufayli vijudga keladigan iqtisodiy-ijtimoiy muammo - bu faoliyat sub'ekti faoliyatida yoki hayotida yuzaga keladigan vaziyatlar.

Kambag'allik tushunchasi. Kambag'allik - bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyati bo'lib, unda ular hayot uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordagi ehtiyojlarni qondira olmaydilar. Qashshoqlik chegarasi yoki kambag'allik chegarasi - bu shaxs yoki oilaning ma'lum bir davrdagi pul daromadlarining me'yoriy belgilangan darajasi bo'lib, u jismoniy yashash darajasini ta'minlaydi.

Kambag'allik har doim dolzarb muammo bo'lib kelgan. Ushbu muammo A. Smit, T. Maltus, D. Rikardo, G. Spenser, J. Prudon, E. Reklyus, K. Marks, F. Engels tomonidan shuqur o'rganilgan. XVIII va yigirmanchi asrning birinchi yarmigacha qashshoqlikni o'rganishda ikkita asosiy yondashuv mavjud edi: birinchisi qashshoqlikni yashash uchun kurashning muqarrar oqibati deb qaragan bo'lsa, ikkinchi yondashuv tenglik tamoyiliga asoslanadi.

Hozirgi paytda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida kambag'allik muammosiga katta ahamiyat berilmoqda va bu masalani hal qilish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqarilmoqda. Ma'lumki, ishsizlik, iqtisodiyotdagi beqarorlik, umidlarning barbodligi aholining qashshoqlashuv jarayonini kuchaytiradi. Qashshoqlik holati jamiyat rivojlanishiga imkon bermaydi.

L'intégration des technologies de l'information et de la communication (TIC) a transformé plusieurs secteurs économiques. L'usage des technologies numériques et de la blockchain dans le secteur bancaire a amélioré la sécurité des transactions et la gestion des risques. La digitalisation des services gouvernementaux a simplifié les processus administratifs, réduisant ainsi les coûts et les délais.

Les investissements dans l'infrastructure numérique ont favorisé l'essor des start-ups technologiques et l'innovation. Les initiatives de formation et de développement des compétences numériques ont également préparé la main-d'œuvre aux exigences des nouvelles technologies, augmentant ainsi la productivité [2, 198-204].

La diversification des secteurs économiques a été un pilier central des réformes. La dépendance traditionnelle à l'industrie du coton a diminué, avec une croissance notable dans les secteurs du tourisme, de l'agriculture durable, et de l'industrie manufacturière. Les politiques de soutien aux petites et moyennes entreprises (PME) ont encouragé l'innovation et la création d'emplois.

Le secteur touristique, en particulier, a connu une expansion rapide, soutenue par des campagnes de promotion et des investissements dans les infrastructures touristiques. L'agriculture durable a également été promue, avec des programmes de soutien aux techniques agricoles modernes et à la conservation des ressources naturelles.

L'Ouzbékistan a réussi à attirer un volume croissant d'investissements étrangers directs (IED). Les réformes réglementaires et les incitations fiscales ont créé un environnement favorable aux affaires. Les zones économiques spéciales, offrant des avantages fiscaux et logistiques, ont attiré des investissements dans divers secteurs, notamment la fabrication, l'agriculture, et les technologies de l'information [3].

Les statistiques montrent une augmentation significative des flux d'IED, passant de 1,5 milliard de dollars en 2015 à plus de 5 milliards de dollars en 2020. Ces investissements ont stimulé la croissance économique, favorisé le transfert de technologies, et créé des emplois.

La capacité du gouvernement à adapter ses politiques économiques aux conditions changeantes a été essentielle pour maintenir la stabilité. Les politiques budgétaires et monétaires flexibles ont permis de réagir rapidement aux crises économiques, telles que la pandémie de COVID-19. La création de fonds de réserve et de fonds d'investissement stratégique a fourni un coussin financier pour absorber les chocs économiques [8].

Les résultats de cette étude démontrent que les approches modernes adoptées par l'Ouzbékistan ont contribué de manière significative à la stabilité de son économie nationale. Les réformes structurelles et institutionnelles, l'adoption des technologies avancées, la diversification économique, et l'attractivité des investissements étrangers sont des éléments clés qui ont permis à l'économie ouzbèke de croître de manière stable et résiliente. Ces résultats offrent des perspectives

et des recommandations précieuses pour d'autres pays cherchant à renforcer leur stabilité économique à travers des approches contemporaines et innovantes.

DISCUSSION.

L'étude montre que les approches modernes adoptées par l'Ouzbékistan ont joué un rôle significatif dans la stabilité de son économie nationale. La libéralisation du marché des changes et la privatisation des entreprises d'État, tout comme les réformes structurelles et institutionnelles, ont dynamisé l'économie et suscité l'intérêt des investisseurs étrangers. Ces initiatives concordent avec les théories économiques de la compétitivité et de l'efficacité économique.

L'utilisation de technologies avancées telle que la blockchain a accru l'efficacité administrative et renforcé la sécurité financière. Toutefois, il est essentiel d'investir dans la formation et le développement des compétences pour maximiser leur impact. La réussite de la transition numérique en Ouzbekistan met en lumière l'importance de ces investissements.

La réduction de la dépendance à l'industrie du coton a été rendue possible grâce à la diversification économique, avec une croissance significative dans le tourisme, l'agriculture durable et l'industrie manufacturière. Le soutien aux PME et à l'innovation a joué un rôle déterminant. Cependant, il faut continuer et amplifier ces efforts pour assurer une diversification durable, comme le démontrent les cas de l'Indonésie et de la Malaisie.

Grâce à des réformes réglementaires et des incitations fiscales, l'Ouzbékistan a pu attirer un volume croissant d'investissements étrangers directs. Afin de maintenir cette attractivité, il est essentiel d'apporter des améliorations continues aux infrastructures et au climat des affaires, à l'image du Vietnam.

La pandémie de COVID-19 a pu être efficacement gérée grâce à la flexibilité des politiques économiques. Il est essentiel d'éviter les risques de mauvaise gestion en assurant une gestion transparente et responsable des fonds de réserve.

En résumé, les méthodes modernes utilisées par l'Ouzbékistan pour garantir la stabilité économique sont efficaces, mais elles exigent une mise en œuvre rigoureuse et continue. D'autres pays en quête de stabilité économique peuvent tirer des leçons précieuses de ces stratégies.

CONCLUSION.

Notre étude a analysé les méthodes modernes que l'Ouzbékistan utilise pour stabiliser son économie nationale. Les réformes structurelles et institutionnelles, l'adoption de technologies avancées, la diversification économique et l'attraction des investissements étrangers ont été essentiels pour stabiliser et faire croître l'économie du pays selon les résultats.

La compétitivité a été renforcée et des capitaux étrangers ont été attirés grâce aux réformes structurelles, telles que la libéralisation du marché des changes et la privatisation. L'efficacité administrative et la sécurité des transactions financières ont été améliorées par les technologies avancées telles que la technologie numérique et la blockchain. Grâce à la diversification économique, on a pu réduire la dépendance à un seul secteur et ouvrir des opportunités dans le tourisme, l'agriculture durable et l'industrie manufacturière. Les politiques en faveur de l'investissement étranger ont finalement stimulé la croissance économique et l'innovation.

Toutefois, il existe encore des défis, surtout en termes de gouvernance et de lutte contre la corruption. Il est souligné par l'expérience ouzbèke que la mise en œuvre rigoureuse des réformes et un investissement continu dans le capital humain et les infrastructures sont importants.

Les enseignements de l'Ouzbékistan sont précieux pour d'autres pays cherchant à atteindre la stabilité économique. Il est important que les décideurs politiques maintiennent leur engagement

envers les réformes, promeuvent la bonne gouvernance et investissent dans l'éducation et la formation afin de maximiser les avantages des technologies avancées.

En résumé, les techniques modernes mises en place par l'Ouzbékistan pour garantir la stabilité de son économie nationale démontrent que des réformes intégrées et novatrices peuvent conduire à une croissance durable et résiliente. Ces stratégies, une fois correctement mises en œuvre, peuvent servir de référence pour d'autres pays cherchant à améliorer leur stabilité économique dans un monde en perpétuelle évolution.

RÉFÉRENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
2. Anvarovich, Nozimov Eldor. "Investments in the Development of the National Economy of the Republic of Uzbekistan." *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science* 2.4 (2024): 198-204.
3. Khushnud, Ziyodilloev, Shomurodov Tokhir, and Qingjie Zhou. "Analyzing Characteristics and Trends of Economic Growth in the Sectors of National Economy of Uzbekistan." 4th International Symposium on Business Corporation and Development in South-East and South Asia under B&R Initiative (ISBCD 2019). Atlantis Press, 2020.
4. Kubayevich, Kholmamatov Farkhodjon. "Current Analysis and Current Issues of Ensuring the Financial Stability of the Banking System in Uzbekistan." *European Journal of Business Startups and Open Society* 4.3 (2024): 169-176.
5. Kubayevich, K. F., Uralovich, K. S., Toshmamatovich, T. U., Sapaev, I. B., Saylaubaevna, S. S., Beknazarova, Z. F., & Khurramov, A. (2023). A primary factor in sustainable.
6. Leboutte, René. *Histoire économique et sociale de la construction européenne*. No. 39. Peter Lang, 2008.
7. Musaeva, Jamila Karomatovna, Shohzod Shavkatovich Elmurodov, and Saida Nematovna Yuldasheva. "Role of currency relations in the development of the economy of Uzbekistan." *Бенефициар* 44 (2019): 22-25.
8. Tursunbaevich, Baykhonov Bahodirjon, et al. "Analysis of the development of the economy of the Republic of Uzbekistan on the basis of reducing the effects of the Pandemia." *The journal of contemporary issues in business and government* 27.5 (2021): 197-207.

IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Kuliyev N.X., Xaitov S.S.

BuxDU Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası

Iqtisodiyotda turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning istiqboldagi maqsadi respublikaning milliy-madaniy tiklanishi, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik masalalarini hal qilishdir. Turizm sohasi oldida turgan asosiy vazifa O'zbekiston ning tabiiy iqlimi, rekreatsion ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy salohiyatini hisobga olgan holda ichki va xalqaro turizm ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan yuqori rentabelli turistik tarmoqni yaratishdan iborat.

Xalqaro turizm bozorida mustahkam o'rin olishi uchun O'zbekistonda sayyohlarga yuqori darajadagi qulaylik yaratilishi, ularga xizmat ko'rsatishning barcha turlari bo'yicha standartlar tizimi, xavfsizligini ta'minlash kafolatlari yuzaga keltirilishi shart. "Turizm to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonda turizmning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat manfaatlari va O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, xalqaro turistik amaliyot me'yorlarini hisobga olgan holda turistik tarmoqning ustuvor rivojlanishini ta'minlash;
- kelgusida turizmning yanada rivojlanishiga ko'maklashadigan qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni tayyorlash;
- tarmoqning tashkiliy tuzilishini, uni boshqarish va faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish;
- turizmning rivojlangan infratuzilmasini yaratish;
- turistik-rekreatsion zonalar, hududlar va turistik markazlarni o'zlashtirish;
- axborot-reklama faoliyati yo'nalishlarini belgilash, marketing va ekskursiya-metodik xizmatlarni tashkil qilish;
- imtiyozli ravishda mablag' bilan ta'minlash va kredit berish yo'li bilan turistik faoliyatni rag'batlantirish;
- tarmoqni malakali kadrlar bilan ta'minlash va ilmiy potensialini shakllantirish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish;
- tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni saqlash samarasini ta'minlash zaruratini hisobga olgan holda turistik faoliyat yuritish tamoyillari va mexanizmini ishlab chiqish.

O'zbekistonda turistik faoliyat yuritishda quyidagi ustuvor jihatlarga katta e'tibor berilishi nazarda tutilgan:

- turizm sohasi faoliyat ko'rsatishini huquqiy ta'minlash va xalqaro-huquqiy faoliyat;
- turizm sohasini rivojlantirishning davlat tomonidan rag'batlantirilishi;
- turizm faoliyatini boshqarish va tartibga solish tizimini takomillashtirish;
- ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha turistik faoliyat yo'nalishi;
- axborot-reklama va marketing faoliyati;
- turizmning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish;
- turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning manfaatlarini himoya qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy va tarixiy-madaniy resurslardan foydalanish. Turizm sohasini innovatsion rivojlantirishni tezlashtirish jarayoni bozor munosabatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, aynan bozor turistik xo'jalik faoliyat ko'rsatishi uchun eng maqbul iqtisodiy muhit hisoblanadi. O'z navbatida, turistik tarmoq korxonalari, bevosita iste'molchiga mo'ljal ola turib, bozor kengligi shakllanishiga faol ko'maklashishi kerak.

Turizm faoliyatining samaradorligini oshirish, turizm infratuzilmasining mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy rivojlantirishning boshqa ustuvor sohalari bilan o'zaro aloqasini mustahkamlashga imkon beradi.

Turizm sohasi ayni paytda chegaradosh tarmoqlarga yuqori talablar qo'yar ekan, faqat texnologiyalarni takomillashtirish va mehnatni tashkil qilishni yaxshilashgagina emas, balki xo'jalik yuritishning eng samarali shakllarini joriy qilishga, yangi ish joylarini yaratishga ham ko'maklashadi. Jamoa va xususiy mulkchilikdagi kichik va o'rta korxonalar sonining ko'payishi katta markazlashgan mablag'larni jalb qilmagan holda turizmni rivojlantirishga imkon beradi. Aynan shunday yondashuv xorijiy sarmoyalar kirib kelishiga, xorijiy firmalar tomonidan 1-2 yil ichida sayyohlik ob'ektlari va markazlari qurilishiga, shuningdek, ularning tez muddat ichida (5-6 yil) o'zini qoplab ketishiga ko'maklashadi.

O'zgaruvchan davlat soliq siyosati yuritish, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish mamlakat budjetiga tushumlarning 3 barobar ko'payishiga imkon beradi.

O'zbekistonda turizm sohasini innovatsion rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga, baquvvat turistik tarmoq yaratishga, turizm infratuzilmasiga davlat boshqaruvi ta'siri kuchaytirishga, aholi turmush darajasini oshirishga, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga, tarixiy va

madaniy yodgorliklarni saqlab qolishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati darajasini, shuningdek, jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish va bu borada aholining ish bilan bandlik darajasi o'sib borishi sanaladi. Chunki mazkur soha xodimlari sayyohlarni kutib olish, xizmat ko'rsatish, bo'sh ish o'rinlari yaratish, chet el valyutasi kirib kelishini ko'paytirish, turistik xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarga daromadlar olish bo'yicha bir qancha omillarni harakatga keltiradi.

Turistik resurslardan to'g'ri foydalanish o'sha hudud iqtisodiyotining o'nnglanishiga, pirovardida turli soliqlarni to'lash orqali mahalliy va davlat budjetini to'ldirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirda muayyan davlatni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shishda xizmat ko'rsatish va servis sohasining mamlakatda yaratilayotgan YaIMdagi ulushi 65 foizdan yuqori bo'lishi asosiy mezon bo'lib qolmoqda. AQSh iqtisodiyotida yaratilgan YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi ulushi 78, Yaponiyada 62 foizni tashkil etadi. Shu sababli mamlakatimizda mazkur sohani jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Prezidentining "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi bo'lib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtimizga keladigan sayyohlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan. Xususan, Qashqadaryo misolida oladigan bo'lsak, viloyatda 2018-2019 yillarda turizm infratuzilmasi ob'ektlarini barpo etish rejasida 167 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ularda tarixiy-madaniy obidalarni ta'mirlash, sayyohlar uchun mehmonxonalar, dam olish va ko'ngilochar hududlar tashkil etish, sayyohlarga milliy madaniyatni keng namoyish qilish asosiy vazifa etib belgilangan.

Aholining sayohat qilishi va dam olishini ta'minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaralgan bo'lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida shakllanib, rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Yaqin-yaqingacha mazkur sohaga iqtisodiyotga katta daromad keltiruvchi tarmoq o'laroq qaralgan emas edi. Turizmga nafaqat dam olishni tashkil qiluvchi ijtimoiy soha, balki milliy iqtisodiyotning katta daromad keltiruvchi tarmog'i sifatida munosabatda bo'lina boshlandi. Uni tom ma'noda iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy tarmog'i, deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Zero, turizm, birinchidan, aholi bandligini hamda dam olishini ta'minlaydigan, davolaydigan, tadbirkorlarga va davlatga daromad keltiradigan iqtisodiyot tarmog'iga aylandi.

Mazkur soxani ijtimoiy-iqtisodiy sohaga kiritishni asoslashda uning tarmoq sifatida ishlab chiqarishdagi o'ziga xos xususiyatlarini, shakllanishidagi asosiy omillarni, milliy iqtisodiyotga qay darajada daxldorligini, asosiy faoliyati qay jihatdan o'ziga xosligi kabi jihatlarni inobatga olish lozim bo'ladi. Turizm boshqa soha va tarmoqlarda takrorlanmaydigan o'ziga xos vazifa va funksiyalarni bajaradi.

Mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash. Mazkur funktsiya aholisi kam va sanoati rivojlanmagan hududlarda turizmni taraqqiy ettirishga undaydi. Chunki ko'pgina chekka hududlar aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanadi. Bular ko'pincha tog' va tog'oldi hududlaridir. Bu joylarning o'ziga xos an'ana va qadriyatlari saqlanib qolgan. Turizmga milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaralganda, uning to'liq soha ekanligiga guvoh bo'lamiz. Agar uni xizmat ko'rsatish sohasining bir yo'nalishi sifatida o'rganadigan bo'lsak, u turizm tarmog'ini tashkil qiladi. Mazkur masalani yaxlit tadqiq etadigan bo'lsak, unga bir qancha tarmoqlarni birlashtiradigan yirik subyekt, ya'ni soha sifatida qarash mumkin.

Jahonda globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi va ilmni ko'p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishi har qanday mamlakatning iqtisodiy o'sishi va turmush sifati oshirishining zaruriy sharti – innovatsion faollik bilan belgilanadi. Innovatsion faollik, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlari, innovatsiyaga oid siyosati va

salohiyati, jamiyatning ma'naviy holatiga bog'liq. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishga alohida xalqaro e'tibor qaratilayotgani ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. 1999 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
4. M.A.Mirzaev, M.T.Alieva. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011 yil.

INNOVATSION FAOLLIK VA TURIZMNING MUSTAQIL SOHA SIFATIDA RIVOJLANISHI

Saidqulova F.F.

BuxDU, Yashil iqtisodiyot kafedrası

Dunyoda integratsiya jarayonining takomillashuvi va zamonaviy ilmni ko'p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishi har qanday mamlakatning iqtisodiy o'sishi va turmush sifati oshishining zaruriy sharti – innovatsion faollikdir. Innovatsion faollik, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlari, innovatsiyaga oid siyosati va salohiyati, jamiyatning ma'naviy holatiga bog'liq. Bu borada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishga alohida xalqaro e'tibor qaratilayotgani ahamiyatga moliqdir.

Turizmga alohida tarmoq sifatida qaraydigan bo'lsak, uni tashkil etuvchi korxonalar yig'indisi quyidagi asosiy, o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- turizm bir xil faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy jihatdan mustaqil korxonalar yig'indisi;
- turizmning mustaqil tarmoqligi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni o'rnatishi bilan tavsiflanishi;
- turizm sohasi rivojlanishi sayyohlarni joylashtirish, ovqatlantirish, ularga xizmat ko'rsatuvchi transport sohasini, dam olish tizimlarini yaratish, sog'lomlashtirish, ziyorat qilish, sport sohasini kengaytirish masalalarini hal qilishga qaratilishi;
- mazkur sohada faoliyat yuritadigan kadrlar malakasining o'ziga xosligi, ular bajaradigan ishlarning boshqa tarmoqlarda takrorlanmasligi;
- xo'jalik boshqaruvi organi mavjudligi, davlat va nodavlat uyushmalarga birlashganligi.

Turizm sohasining innovatsion rivojlanishini tahlil qilishda uning iqtisodiyot tarkibida qanday funksiyalarni bajarishini inobatga olish lozim. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, turizm iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida muayyan bir funksiyalarni bajarish bilan birga, unga quyidagicha ta'sir etadi. Bular:

- turistik mahsulotlar ishlab chiqaradi;
- aholi bandligini ta'minlaydi;
- milliy daromadni yaratishda ishtirok etadi;
- mintaqalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi;
- to'lov balansini barqarorlashtirishga hissa qo'shadi; – o'rta sinf shakllanishida ahamiyat kasb etadi.

Turizmning milliy iqtisodiyotga ta'sir darajasini baholashda bajaradigan funksiyasining nechog'liq samarali ekanligi va mavjud ehtiyojlarga mosligi masalalarini aniqlash taqozo qilinadi. Shu tufayli ularning har birini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Ishlab chiqarish funksiyasi. Turistik tashkilotlar turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish orqali mamlakat YaIMni ko'paytirishga hissa qo'shadi. Turizmning ushbu xizmati mamlakat YaIMda uning ulushi necha foizni tashkil qilganligi bilan o'lchanadi. Aholi bandligini ta'minlash funksiyasi. Turizmni rivojlantirish bevosita aholining ish bilan bandligiga bog'liq. Chunki ushbu sohada inson ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Sohada aholining qancha qismi bandligi o'sha davlat iqtisodiyoti qanday holda rivojlanganiga, turistik salohiyatiga va ulardan qay darajada samarali foydalanilayotganligiga bog'liq. Hozirgi paytda rivojlangan davlatlarda mehnatga layoqatli aholining besh foizi turizm sohasida faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz turistik salohiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur sohada bandlik yildan-yilga oshib borayotgani kuzatiladi. Turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni hisobga olishda bevosita bandlar bilan birga bilvosita bandlarni ham inobatga olish lozim. Masalaga shu jihatdan yondashganda turizmda band aholini quyidagi to'rtta toifa bo'yicha o'rganish maqsadga muvofiq. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turizm sohasida bevosita bandlik;
- turizm sohasida bilvosita bandlik;
- turizmga o'z ish joyidan turib xizmat qiluvchi sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar bandligi;
- turistik ob'ektlar va infratuzilmalar qurilishidagi bandlik.

Milliy daromad yaratish. Turizm sohasida faoliyat yuritish natijasida band aholiga haq to'lash, mahalliy hamda davlat budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash orqali milliy daromad yaratiladi. Ayrim davlatlar budjeti shakllanishida turizmdan kelib tushadigan daromadlar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Bundan tashqari, xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish evaziga valyuta zaxiralari shakllantirilib, katta hajmdagi ishlarga yo'l ochiladi. Turizm kelajakda bizda ham iqtisodiyotga katta foyda keltiradigan sohaga aylanishi ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ham o'ziga xoslik mavjud. Shu tufayli bunday joylarda ekologik turizmni, agroturizmni, qishloq turizmni rivojlantirish mumkin. Sayyohlarga mahalliy aholining yashash tarzi, milliy an'analarini ko'rish, tabiat qo'ynida dam olish qiziq, albatta. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy aholi turmush tarzini yaxshilashga olib keladi, ya'ni yangi ish o'rinlari yaratiladi, turizm infratuzilmasi va servis xizmatlari tashkil etiladi. Eng muhimi, xizmat sohasidagi bandlik hisobiga qishloqda mehnatning xarakteri ham o'zgarib, takomillashib boradi. Avvallari faqat agrar mehnatga moslashgan qishloq aholisi endi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishning ilg'or usullari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Innovatsion jarayonlar turizm sohasida globallashtirish tendensiyalarini chuqurlashtirib, jahonda biznesning yangi falsafasini – innovatsion rivojlanish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bugungi kunda turistik tashkilotlarning innovatsion faoliyatiga davlatning ta'sir ko'rsatish mexanizmlari qatoriga quyidagilar kiritilmoqda:

- innovatsion jihatdan faol bo'lgan tashkilotlarga soliq imtiyozlarini taqdim etish;
- maxsus ilmiy-texnikaviy, soliq va moliya-kredit siyosatini amalga oshirish;
- turizm sohasiga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- amortizatsiya siyosatini takomillashtirish;
- turizm fanini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash.

Turizm sohasini innovatsion rivojlantirish turistik mahsulotning yangisini yaratish yoki mavjud mahsulotni o'zgartirishga, transport, mehmonxonaga oid va boshqa turdosh xizmatlarni takomillashtirishga, yangi bozorlarni o'zlashtirishga, ilg'or axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini hamda tashkiliy-boshqaruv faoliyatining zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Turizm sohasi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanishi innovatsion rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etadi. Turizmning maqsadi va ko'rinishlarini e'tiborga olib taklif qilingan model to'rtta asosiy omilning alohida aks topishini taqozo qiladi: sayyohning hordiq chiqarishi va yangi taassurotlarga ega bo'lishi, sog'lomlashtiruvchi va rekreatsion, sayohat paytidagi ijtimoiy muloqotlar, malakaviy-biznes. Turizm sohasini innovatsion rivojlantirish omillarining taklif etilgan modeli sayyohlarning talab va ehtiyojini qondirish manbasi

sifatida turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi va aynan shu omillar turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda yangi turlar, g'oya va imkoniyatlar kashf etilishining sababchisi hisoblanadi.

O'zbekistonda turistik-rekreatsion resurslardan samarali foydalanish asosida milliy turistik xizmatlar bozorining hududiy tuzilmasini yanada takomillashtirish talab qiladi. Ravshanki, O'zbekiston mintaqalarida turistik klasterlar shakllantirilishi turistik-rekreatsion resurslardan to'liq foydalanish zamirida yangi sayyohlik firmalari ochilishiga va mavjudlari ishini yanada faollashtirishga turtki beradi va yangi turdagi turistik mahsulotlar yaratilishiga asos bo'ladi. Turizm sohasini innovatsion rivojlantirish faoliyati zaruriy omil hisoblanishi hamda bugungi kunda har qanday turistik firmaning asosiy maqsadi raqobat sharoitida iste'molchini o'z xizmat turlariga jalb qilishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda klaster ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish darajasini oshirishga keng imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida tadqiqotda turizm sohasi subyektlari faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirilgan holda muvofiqlashtirish vositalarini ko'rsatib berish maqsad qilib olingan. Taklif etilayotgan modelning mohiyati mintaqadagi betakror turistik resurslardan samarali foydalangan holda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini innovatsion rivojlantirish natijasida sayyohlar sonini izchil ravishda oshirib, mamlakatimiz iqtisodiy rivojiga katta hissa qo'shishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
3. M.A.Mirzaev, M.T.Alieva. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011 yil.

O'ZBEKISTON SHAROITIDA TURISTIK HUDUDLAR NEGIZIDA ZIYORAT KLASTERLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.

Axtamova Ra'no Rustamovna
Buxoro shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi,
BuxDU Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti.

ANNOTATSIYA. Ziyorat turizmi – azaldan va hozirgi kunda ham keng tarqalgan turizm sohasi hisoblanadi. Ziyorat turizmi o'z mohiyati jihatidan turli diniy qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlarni ziyorat qilish jarayonidir. Odatda, ziyoratlar diniy maqsadlar uchun bir necha kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Bunday safarlar butun bir sayohatni o'z ichiga olib, imon-e'tiqodli odamlar o'z dinlari bilan munosabatlarini mustahkamlash uchun boradigan maskanlardir. Ziyorat turizmi tashrif buyurish mumkin bo'lgan shahar yoki ma'lum hududdagi masjidlar va cherkovlarga yoki boshqa diniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni va u yerda bir necha kun ibodat qilishni o'z ichiga olishi mumkin. Ziyorat turizmi turistlarni diniy munosabat va urf-odatlariga ergashish uchun to'liq yoki kuchli turtki beradigan turizm turidir. Ushbu maqolada ziyorat turizmining tavsifi va uning mohiyati, hozirgi kunda qay darajada ahamiyat kasb etishi, hamda mintaqada ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish haqida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, diniy ziyoratgoh, diniy qadamjo, maqbara, ziyorat klasterlari, barqaror rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, xalqaro turizm.

ABSTRACT. Pilgrimage tourism since ancient times was and is currently a widespread tourism industry. Pilgrimage tourism is essentially the process of visiting sacred places of pilgrimage. Pilgrimages are usually long journeys of several days, weeks or even months for religious purposes. They are places where people of faith go to strengthen their relationship with their religion, encompassing a whole journey. Pilgrimage tourism may include visits to churches and mosques or other sacred religious places of interest in a particular city or region. Pilgrimage tourism is tourism that fully or strongly motivates tourists to achieve religious attitudes and practices is a type. In this article, we will well on the description of pilgrimage tourism, its essence, how important it is today and socio-economic mechanisms of sustainable development of this tourism in the region.

Keywords: Pilgrimage tourism, religious pilgrimage, shrine, mausoleum, pilgrimage clusters, sustainable development, organizational and economic mechanisms, international tourism.

Kirish. Turizm sohasida joriy bozor tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish faoliyati boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish orqali ta'minlanadi. So'nggi yillardagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki - dunyo, mamlakatimiz va uning barcha mintaqalarida turistik xizmatlarning jadal shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini aks ettiradi. Shuningdek, eng boy resurs salohiyatiga ega hududlarda ham turizm sohasini boshqarishni takomillashtirish vazifasi asosiy rol o'ynaydi. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, global hamjamiyat ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchilikka qarshi kurashayotganligi sababli ba'zi hududlardagi hozirgi inqirozning haddan tashqari noaniqligini hisobga olgan holda, izohlanishi kerakligini ta'kidlanadi. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro turizmning hissasi ba'zi mamlakatlar Yalpi ichki mahsulotidagi hajmi neft eksporti, oziq - ovqat mahsulotlari yoki avtomobillar ulushiga teng yoki hatto ustundir. Turizm xalqaro tijoratning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi va shu bilan birga, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda" [1]. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida turizm sohasida mavjud salohiyatdan samarali foydalanish hisobiga mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashga keng e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" ustuvor yo'nalishida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish" 35 -maqsad sifatida belgilandi. (https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)

Vatanimiz boshqa mashhur mamlakatlar qatorida o'zining ziyorat turizm salohiyatiga ham ega. Avvalo ziyorat turizmining boshqa turistik yo'nalishlaridan asosiy farqlarini oydinlashtirib olaylik.

Ziyorat turizmi - turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko'ra, u diniy maqsadli sayohatlarga taalluqlidir, lekin u ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi ahamiyatini ikki xususiyatga ko'ra asoslash mumkin: ziyorat turizmi ziyoratgoh uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyoratchilar uchun ziyorat turizmi qanchalik muhim? Ziyorat ko'plab insonlar uchun qiyin paytlarda ruhiy ozuqa olish imkoniyati hamdir. Insonlar diniy ma'rifatni his qilish uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishadi. Ko'pincha uzoq va ba'zan qiyin bo'lgan sayohat insonlar uchun fikr yuritish imkoniyatidir. Ziyoratlar din bilan munosabatlarni chuqurlashtirishning bir usuli bo'lishi mumkin. Bu, albatta, e'tiqodga qanchalik sadoqatli ekanligini ko'rsatishning bir usuli va bu dinning o'zi haqida ko'proq bilish imkoniyatidir. Sayohat shakli sifatida ziyorat odamlarga muqaddas joylarni ziyorat qilish imkoniyatini beradi. Diniy maqsadlarda sayohat qiluvchi sayohatchi - muqaddas joylar

va diniy markazlarni ziyorat qilish uchun olti oydan ortiq bo'lmagan muddatga doimiy yashash mamlakatidan tashqariga chiqadigan shaxs tushuniladi. Diniy turizm deganda, odatdagi muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat qiluvchi sayohatchilarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyat tushunilishi kerak.

Adabiyotlar tahlili.

Turizm sohasi resurs salohiyati ushbu sohani rivojlantirish uchun juda muhimdir. Shunga qaraganda, bizning nuqtai nazarimizdan turizm sohasi resurs salohiyatining mohiyati va uning rivojlanishidagi rolini aniqlashning asosiy nazariy yondashuvlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Ilmiy va amaliy adabiyotlarda uning turlicha talqinlari mavjud. Ko'pchilik iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, resurs nuqtai nazardan iqtisodiy salohiyat iqtisodiy tizim uchun mavjud bo'lgan resurslarning miqdori va sifatining yig'indisidir. Iqtisodiy salohiyat tarkibi sifatida moddiy, nomoddiy, mehnat va axborot resurslari sifatida tasniflanadi. A.Abduvohidovning fikriga ko'ra, mamlakatimizda turizm salohiyatini dunyoga namoyon qilishda, xalqaro turistik oqimlarni barqarorlashtirish, uni mavsumiylik xususiyatlaridan xoli qilish maqsadida internet tarmog'i orqali turistik salohiyatimizni ko'rsatib beruvchi veb-sahifalarni xalqaro tajribalar asosida o'zgartirib borish lozim.

Tadqiqot davomida turli turizm sohasida izlanishlar olib brogan, qolaversa aynan ziyorat turizmining o'ziga xos jihatlari tadqiq qilgan olimlarning fikrlari, maqolalari, ilmiy ishlarini o'rganib chiqdik.


Ziyorat turizmi haqida o'zbek islomshunos olimi B.M. Bobojonov, Markaziy Osiyoda ziyorat ob'ektlarining eng keng tarqalgan turi, bu – “muqaddas qadamjolar” hisoblanishini aytib o'tgan. [2] (<http://fayllar.org/ziyosat-turizmidagi-innovatsiyalar-reja--1.html?page=2>)

Surxondaryo viloyatlari tarixiy obyektlarini me'morchilik, arxitektura nuqtai nazaridan o'rganish olimi I. Azimovning tadqiqotida ko'zga tashlanadi [3]. Tasavvuf namoyandalarining qadamjolari va ziyoratgohlari to'g'risida A. Mamanazarov, B. Sattorov, Poslavskaya. O, S. Jo'rayeva ham ziyorat turizmi tarixiga atroflicha to'xtalib otgan. O'zbekiston hududida ziyoratgohlar masalasini o'rganishda ziyoratgoh nomi bilan bog'liq shaxsni personifikatsiya (avliyo, pir, said, xo'ja) maqomi va darajasini tadqiq qilish ham muhim sanaladi. T. Dadabayev [4] va E. Karimov tadqiqotlarida ham ziyorat masalasining turli jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Jumladan, D. Abramson va E. Karimov [5] hammuallifligida yozilgan maqolada, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratning ahamiyati, turli davrlarda unga bo'lgan munosabat tahlil qilinadi. Va bu shunchaki sayohat emas, bu o'zligingni anglash uchun imkoniyat, ruhiy poklanishga umid, duo va istaklar ijobatini tilash, iymonga eltuvchi yo'l. Ziyorat bu – o'tgan avliyolar orqali Qodir Tangriga murojaat qilish, ongi va ruhini tinchlantirish, muqaddaslik haqiqatini anglash, yol'izlik va poklanish yo'lidan o'tish. Markaziy Osiyoda buni Ziyorat deb atashadi, bu muqaddas joylarga tashrif buyurishni anglatadi. (<https://scholar.google.ac/citations?user=IPU98aAAAAAJ&hl=en>)

Muhokama va natijalar.

Mamlakatimizda turizm salohiyatini dunyoga namoyon qilishda, xalqaro turistik oqimlarni barqarorlashtirish, uni mavsumiylik xususiyatlaridan xoli qilish maqsadida internet tarmog'i orqali turistik salohiyatimizni ko'rsatib beruvchi veb-sahifalarni xalqaro tajribalar asosida o'zgartirib borish lozim.

Shundan kelib chiqib, turizmga mobil texnologiyalarning ta'siri juda yuqori ekanligini ta'kidlash mumkin. Mobil aloqa vositalaridan foydalanish turizm sohasida yangi tushuncha va yo'nalishlarni paydo bo'lishiga olib keldi (2-rasm).



2-rasm. Turizmda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati.

2-rasmda tasvirlanganidek, turizmdagi yangi yo‘nalishlar asosini innovatsion texnologiyalar tashkil etganligi bois, innovatsiyalarda yuz beradigan o‘zgarishlar sohani rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsiyalar bevosita turistik industriya imkoniyatlarini yanada kengroq shakllanishiga imkoniyat yaratib beradi.

Turizmda mobil texnologiyalarni rivojlanishi avvalambor, uni boshqa texnologiyalar bilan qay darajada uyg‘unligini namoyish etishni, ikkinchidan, ushbu texnologiyalar turizm va ijtimoiy sohaga ta‘sirini ko‘rsatish va uchinchidan, yondosh (logistika, transport, kommunikatsiya va h.k.) tarmoqlar bilan hamkorligini o‘rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, shuningdek, sohaning istiqbolini belgilashda uning rivojlanish darajasi va unga ta‘sir etuvchi yo‘nalishlarni ham tahlil qilish zarurligini namoyon etadi.

([file:///C:/Users/User/Desktop/38 Erkayeva Vaysakulov+348-356.pdf](file:///C:/Users/User/Desktop/38%20Erkayeva%20Vaysakulov+348-356.pdf))

Diniy turizm ikki asosiy turga bo‘linadi: - ziyorat turizmi; - ekskursiya va ma‘rifiy yo‘nalishdagi diniy turizm Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o‘zlar uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqda. Statistik ma‘lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yiliga 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln. buddistlar va sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar. Diniy ziyorat o‘rta asrlarga kelib, Salib yurishi shaklida o‘ziga xos ommaviy xarakter kasb etdi. U musulmonlar qarshi kurash bayrog‘i ostida, xristianlarning muqaddas joylarini ulardan ozod qilish shiori ostida o‘tkazilgan. Ziyorat harakatlari XV – XVI asrlarda ancha faollashdi. Muqaddas yer (Quddus)ga borayotganlarning ko‘pchiligi o‘z maqsadlari va qiziqishlarini diniy ziyorat bilan niqoblashgan. Ziyoratgohlarning keng va xilma-xil geografiyasini o‘rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniladi. Jahonda ziyoratning bir qancha makro hududi mavjud:

3-diagramma. Jahon miqyosida ziyorat makrohududlar geografiyasi .

(Muallif tuzgan diagramma)



Xristian Yevropasi; xristianlik va boshqa ko'psonli dinlar bilan mustahkam o'rin egallovchi Shimoliy Amerika



- Xristianlik va an'anaviy dinlar bilan bog'langan Lotin Amerikasi



- Islomni qabul qilgan Shimoliy Afrika;



Islom hukmron va alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud G'arbiy va Sharqiy Afrika;



Islom, buddizm, xristianlik va hinduzim dinlari keng tarqalgan Sharqiy Osiyo;



- Islom dini keng yoyilgan O'rta Osiyo;



G'arbiy Osiyo



Islom va xristianlik, iudizm dinlari keng yoyilgan hudud;



Janubiy Osiyo iudizm va buddizm keng tarqalgan hudud hisoblanadi.

Shuningdek xristianlik, jaynizm, sikkizm va islom dinlari mavjud. Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul, qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funksiyalari bilan qo'shib ketadi. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish obektlari mavjud.

Quddus shahri-jahonning eng yirik diniy markazlaridan biri hisoblanadi. Quddus uch din e'tiqodchilari islom, xristianlik, iudizm uchun muqaddas markaz hamdir. Bu makromintaqalar mavjud diniy ziyoratgohlar salohiyatidan kelib chiqqan holda ajratilgan. Ular ichida eng muhim mintaqa Yevropada Vatikan, G'arbiy Osiyoda Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina va Quddus shaharlari hisoblanadi.

O'rta Osiyda esa O'zbekistonning qadimiy Buxoro va Samarqand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarida diniy turistik resurslar mavjud. Ziyoratlar, odatda, turli dinlarning taniqli namoyandalarning qadamjolariga tashrif buyurishni aks ettiradi. Tashrif buyuriladigan joy muqaddas bo'lganligi sababli, ko'pchilik bu yerda ibodat qilish ibodatning ijobat bo'lish ehtimoli ko'proq ekanligini anglatadi.


Ba'zi ziyoratgohlar va joylar o'zlarining daromadlari uchun butunlay turizmning ushbu ta'sirchan kuchiga tayanadilar. Bu, o'z navbatida, atrofdagi hududlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Sayyohlar mehmonxona va restoranlarni ijaraga oladi. Gid(yo'l boshlovchi)lar, qo'lda esdalik sovg'alarini yasaydiganlar, fotosuratçilar va boshqalar uchun ish o'rinlari yaratiladi. Biroq, taniqli olim Vukonichning so'zlariga ko'ra, diniy sayohatning iqtisodiy jihatlari din - turizm atamasiga nisbatan eng kam o'rganilgan mavzu bo'lib, tadqiqotchilarni faqat bitta muqaddas joy ko'rib chiqilayotganda qiziqtiradi. Diniy ziyorat ziyoratchilar tashrif buyuradigan hududlarda iqtisodiy generator vazifasini bajarib kelgan, chunki xizmatlar ularning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan. Bu bugungi kunda ham xuddi shunday. Chunki ko'p joylarda diniy joylar asosiy turistik diqqatga sazovor joylar bo'lib, ba'zan Santyago-de-Kompostela, Medjugorje, Lourdes va Makka kabilarni o'z ichiga oladi.

Darhaqiqat, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o'rnini yaratishga turtki beradi. Ko'pgina mamlakatlar va aholi punktlarida turizm qiyin ahvolda bo'lgan iqtisodiyotni jonlantirish yoki qutqarish yo'li sifatida ko'riladi, ayniqsa hozirgi turizm prognozlarini, yuqorida aytib o'tilganidek, yaqin kelajakda diniy turizm kuchayishini ko'rsatadi.




4-rasm. Ziyorat turizmi turlari.

O'zbekiston har doim ko'plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo'lib kelgan, bu yerda turli dinlar targ'ib qilingan, shuning uchun ham islom, ham buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan. Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarining boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarini ziyorat qilish maskanlari yetarlicha topiladi.



5-rasm. Tashkent shahar ziyorat ob'yektlari bo'ylab sayohat.

Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa O'zbekistonda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoni, Imom al-Buxoriy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Moturudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Mustaqallik yillarida diniy qadamjolar davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunda ziyorat turizmini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan ekanmiz avvalo mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.



Xususan, Janubiy – Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida jozibador infratuzilmalar ishlab chiqishimiz kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, transport imkoniyatlarni o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin,

bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obektlariga aylantirish mumkin. Shu bilan birga, respublika hududidagi yirik ziyorat obyektlariga olib boruvchi yo'nalishli avtotransport qatnovi tizimini yo'lga qo'yish, hududdagi aholini boshqa hududga tashkillashtirilgan sayyohat qilishlari uchun transport qatnovlarini yo'lga quyilishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda joylashgan islom madaniyati va tarixi bilan bog'liq madaniy meros obektlari Islom hamkorlik tashkilotining Islom madaniy merosi ro'yxatiga kiritish choralari amalga oshiriladi. Ichki va tashqi sayyohlikni keng yo'lga qo'yish, respublikada turizm sohasini modernizatsiyalash, sohani barqaror rivojlantirish, turizm markazlari hisoblangan hududlarda turistik, maishiy va aloqa-axborot infratuzilmalarini rivojlantirish, mahalliy va xorijiy mehmonlarga xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, bu boradagi belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish birinchi navbatda dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning mavqeini mustahkamlaydi, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar va ishonchli hamkorlik eshiklarini ochadi, mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari barqarorligiga, aholi daromadlari, bandligi va tadbirkorligi kabi ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga omil bo'lib, xizmatlar sohasining yanada takomillashuviga sabab bo'ladi

XULOSALAR.

Hozirgi kunda tez suratlarda ommalashib borayotgan turizm sohasi hisoblangan ziyorat turizmini rivojlantirish mazkur sohada yuqori salohiyatga ega davlatlar uchun qulay imkoniyatdir. Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan va misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatning har bir a'zosi, shu jumladan tashqi davlatlar ham amal qilishi kerak bo'lgan ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish uchun muhim siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, xorijiy sayyohlarni jalb qila oladigan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun ham hukumat, ham mahalliy idoralar tomonidan muvofiqlashtirilishi kerak.

Mamlakatimiz ijtimoiy muammolarini hal qilishda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi uchun munosib turmush darajasini saqlash va to'lov balansini yaxshilash uchun sharoit yaratishga imkon beradigan turizm sohasidagi faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, turizm sohasining rivojlangan sohasi alohida xizmat ko'rsatish tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirishga, bu sohada imkoniyatlar va yangi axborot vositalarini joriy etishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, hududlarda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga o'zining samarali ta'sirini ko'rsatadi. Turizm ta'siri ostida biz hududiy hokimliklarning imkoniyatlari va atrof -muhit, uy xo'jaliklari, madaniy va tarixiy meros, tabiiy yodgorliklarni saqlash va yaxshilash bilan shug'ullanadigan korxonalarining shaxsiy baholarini tushunamiz. Ya'ni turizm sohasida turizm ob'ektlarining ham zamonaviy, ham tarixiy jihatlarni o'zida mujassam etish orqali iqtisodiy salohiyat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

In conclusion, it is the need of the hour for the insurance market to serve customers with the help of innovative technologies. The faster they adapt, the more likely they will remain relevant. The trends shared above can completely transform insurance company's relationship with their customers.

REFERENCES

1. Shah, A., Pandya, H., Soni, M., Karimov, A., Maaliw, R.R., Keshta, I. (2023). PUF-Based Lightweight Authentication Protocol for IoT Devices. In: Balas, V.E., Semwal, V.B., Khandare, A. (eds) Intelligent Computing and Networking. IC-ICN 2023. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 699. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-99-3177-4_29
2. Jindal L. et al. A machine learning method for predicting disease-associated microRNA connections using network internal topology data //Healthcare Analytics. – 2023. – С. 100215.
3. БОТИРОВ А. А. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАННЕ НЕОБРАБОТАННЫХ ЗОН //ЭКОНОМИКА. – С. 382-385.
4. Rakhmedova M. ADVANTAGES OF USE OF EUROBONDS //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 5. – С. 15.
5. Элмирзаев С. Корпоратив молия. Дарслик //Т.:“Иқтисод-молия. – 2019. – Т. 363.
6. Abdurakhimova D. INFLUENCE OF FINANCIAL INCLUSION ENCLOSED BY DIGITAL BANKING PRODUCTS ON UZBEKISTANS ECONOMY //International Finance and Accounting. – 2021. – Т. 2021. – №. 4. – С. 11.
7. Omonov S. КАПИТАЛ БОЗОРИДА МОЛИЯВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА РОБОМАСЛАНАТЧИЛАРНИ
//Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 313-315.
8. Абдуллаева, Н. ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ЭЛЕКТРОН ТИЖОРАТ ИМКОНИЯТЛАРИ / Н. Абдуллаева. – Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 331-4.
9. Sherkuzieva N. A. Increasing investment attractiveness by optimizing the dividend policy in joint-stock companies : дис. – Dissertation abstract written for PhD degree in economics. Tashkent, 2021.-B. 21.
10. Kurbonov PhD J. et al. INCREASING BUSINESS VALUE AND PROFIT DISTRIBUTION MECHANISM: ANALYSIS OF GLOBAL PRACTICE //International Finance and Accounting. – 2021. – Т. 2021. – №. 1. – С. 3.
11. Elmirzayev S., Omonov S. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari //Xalqaro moliya va hisob” ilmiy-elektron jurnali. – 2020. – Т. 2.
12. Rahmedova M. et al. REDISTRIBUTION OF FUNDS FROM SOVEREIGN EUROBONDS AND THEIR EFFICIENCY //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 3. – С. 17.
13. Botirov A. CAPITAL INFLOW TO CORPORATE STRUCTURES THROUGH CORPORATE BONDS //International journal of economic perspectives. – 2023. – Т. 17. – №. 11. – С. 68-77.
14. Абдуллаева, Н. А. (2022). Insurance and securities market. *Архив научных исследований*, 4(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2608>
15. Sherkuzieva n., Urazmetov f. The role of dividend policy in attracting institutional investors from the capital market //International journal of economic perspectives. – 2023. – Т. 17. – №. 1. – С. 30-37.

16. Жўрабекович Қ. Ж. и др. Халқаро IPO амалиётлари таҳлили: ташкилий хусусиятлари ва институционал инвесторлар иштироки //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 1 (137). – С. 53-61.
17. Botirov PhD A., Omonov S., Turobkhonov S. FEATURES OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PRACTICE //International Finance and Accounting. – 2021. – Т. 2021. – №. 1. – С. 17.

MINTAQALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Saidova Mavludaxon Jumaboevna

*“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi Andijon mashinasozlik
instituti, Uzbekistan*

Ijtimoiy ishlab chiqarishni barpo etishda tadbirkorlikning ahamiyati katta bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish turli sub‘yektlar yordamida amalga oshiriladi. Sub‘yektlarni tashkil etish aholining talab va taklifiga asosan, har xil tadbirkorlik shakllarida amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishning muhim 4 asosi bo‘lib quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tadbirkorning ijtimoiy ishlab chiqarish asosi - insoniyatning mavjud bo‘lishi uchun eng oddiy va eng asosiy hayotiy ne‘matlar yaratib berishdir.
2. Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy asoslari - korxonani (ashkil etish, korxonaning tashkiliy tuzilmasi, bo‘lir, bo‘g‘in, gumhlaming tizimli bog‘lanishi, faoliyatni bir ishlab chiqarish obyekti sifatida tuzilishidir.
3. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari - tadbirkor o‘z faoliyatini yuritish, korxonalar ochish, mahsulotni yetishtirib iste‘molchiga yetkazib berish jarayonida qollaniladigan va qonunchilik idoralari tomonidan ishlab chiqilgan qonuniy hujjatlardan foydalanish tushuniladi.
4. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslariga - tadbirkor tomonidan yaratiladigan moddiy boyliklarni ishlab chiqarish uchun sarf qilinadigan moddiy, moliyaviy, mehnat va ijtimoiy resurslardan samarali foydalanish tushuniladi[1].

Iqtisodiy jarayonlarning samarasi amalda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarning soni va sifati hamda shu faoliyat bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan kishilar soni bilan belgilanadi. Bu o‘z navbatida, tadbirkorlik ishiga yangi tadbirkorlarni jalb qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlik muhiti darajalariga bog‘liqdir. Oxirgisi tadbirkorlik faoliyatiga davlatning aralashishi darajasiga bog‘liq. Davlat shunday shart-sharoitlar yaratib berishi kerakki, unda tadbirkorlarning va tadbirkor bo‘lmoqchi bo‘lganlarning qiziqishi, xohishi va intilishlari maksimal darajada o‘z ifodasini topsin. Jahon tajribasi ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishga erishgan mamlakatlarda tadbirkorlik uchun barcha qulayliklar yaratib berilganligini ko‘rsatmoqda.

Biznesda mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Biznesda mulkchilik munosabatlari moddiy va mahnaviy nehmatlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi. shunday ekan, Biznesda mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Barqaror iqtisodiy taraqqiyotni tashkil etish va bozor muvozanatiga erishishda, jamiyat ahzolarining ehtiyojlarini oqilona qondirish darajasini oshirish vazifalarini hal etishda mulkiy islohotlar siyosatini takomillashtirish zaruriyati ortmoqda. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususi mulk huquqini himoya qilish, mulkka egalik qilish va uning hajmini oshirish orqali yuqori samaradorlikka erishish, Biznes va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, uni rag‘batlantirish mo‘ljallanmoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislikkommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes subyektlarini, ayniqsa, ularning yuqori texnologik uskunalari xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizmi takomillashtirildi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi tadbirkorlik muhiti bilan birga tadbirkorlik tafakkurining qay darajada rivojlanganiga ham bog'liqlik, ular jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustuvorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlantirish sharoitining mavjudligi va kerak bo'lgan resurslarni ishlatish kiradi.

Kichik biznes subyektlari sonini ko'paytirishga muntazam ravishda chora-tadbirlar qo'llanilishi kerak. Kichik korxonalar ko'payishi, faoliyat olib borishlari uchun avvalo Hukumat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning o'rni muhimdir. Ular faoliyat boshlashlari uchun mikrokreditlar ajratiladi. Ular uchun soliq stavkalari foizlari ham kamaytirilgan tartibda belgilanadi. Davlat tomonidan berilgan ko'mak va yordamlar bilan birgalikda, odamlarning o'zida ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning iqtisodiy – huquqiy bilimlarini oshirib borishlari talab etiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi ortib borayotgan hozirgi vaqtda aholini tadbirkorlikka jalb qilish moliya muassasalari, boshqa davlat va jamoat tashkilotlari oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga to'liq erkinlik berilgan[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 8 iyundagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ – 3777 – sonli qarori ham oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik turlarini keng ommalashtirish, har bir oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ishsizlikka barham berishni maqsad qilgan. Rejaga ko'ra dastur olis, tabiiy – iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasini oshirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan aholining tashabbuslarini har tomonlama qo'llab – quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda ishbilarmonlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatilishi belgilangan. Dasturga asosan 2018 yilning 10 iyunidan boshlab namunaviy tarzda Andijon viloyatining tuman va shaharlarida "Har bir oila – tadbirkor" hududiy dasturini amalga oshirish belgilab berildi[3].

Ushbu dastur asosan aholi o'rtasida nasldor qoramol, echki va quyon zotlarini parvarishlashni rag'batlantirish va yirik tadbirkorlarni jalb etgan holda sanoatlashgan chorvachilik klasterlarini tashkil etish chora – tadbirlarini o'z ichiga olgan.

"Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PQ-4231 – sonli qarori ushbu tizimli islohotlarning keyingi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlab berdi. Ushbu qarorga muvofiq maqsadli jamg'armalardan qo'shimcha 5 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. [4]. Qarorga asosan aholini tadbirkorlikka jalb etish uchun barcha hududlarda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash markazlari tashkil etildi. Bundan tashqari, qarorga muvofiq barcha tumanlar (shaharlar)da aholi va muhtoj oilalarni foydali mehnatga jalb etgan holda eksportbop, bozor talabiga to'liq javob beradigan qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonini qamrab olgan klaster tizimini keng joriy etish bo'yicha aniq choralarni ishlab chiqish belgilangan.

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan % da)

Yillar	YAHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik
2010	54,7	15,5	95,0	81,0
2011	56,3	18,4	93,1	82,4
2012	67,3	18,6	94,2	82,8
2013	68,4	20,3	90,0	83,3
2014	71,3	23,4	93,2	83,7
2015	78,5	32,0	93,9	83,8
2016	83,6	50,4	93,2	84,4
2017	80,2	34,5	93,8	84,2
2018	73,1	21,2	96,9	81,7
2019	69,7	17,7	94,9	81,8
2020	70,1	20,1	93,3	81,0
2021	72,2	27,1	95,2	80,7
2022	69,5	22,4	93,8	81,7
2023-yil yanvar-iyun*	66,8	23,3	70,2	80,1

* Dastlabki ma'lumotlar

Andijon viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar olib borilayotganini aytib o'tish mumkin. Xususan, viloyat, shahar hamda tuman hokimliklari tomonidan korxonalariga bank xizmatlarini ko'rsatish va kredit ajratishga, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga va biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan 36 ta qaror qabul qilinib, ijrosi ta'minlandi.

Viloyatdagi mavjud 868 ta mahallada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi maslahat markazlari tashkil etildi. 2022 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, hududda 23 ming 580 ta kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatmoqda. Yillar kesimida YaHM (Yalpi Hududiy Mahsulot) da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi turli rivojlanish dinamikasini ko'rsatmoqda (1-jadval)[6]. 2010 yilda YaHMning 54,7 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga to'g'ri kelsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 69,5 foizni tashkil etmoqda. Sanoatning ulushi 22,4 foizni, qurilish sohasida esa 93,8 foizni tashkil etmoqda.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2022 yilning 1 yanvar holatiga 592 tani tashkil etib, ulardan 558 tasi yoki 94,3 % faoliyat yuritadi [5]. Buko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 19,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim. Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 325 tasi (37,6 %) savdo, 190 tasi (22,0 %) sanoat, 102 tasi (11,8 %) qurilishda, 102 tasi (11,8 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 34 tasi (3,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 27 tasi (3,1 %) axborot va aloqada, 19 tasi (2,2 %) tashish va saqlashda, 10 tasi (1,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 55 tasi (6,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Yuqoridagilar umumlashtirib shuni aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada jadal rivojlantirish uchun ularni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash tizimni takomillashtirib borish, bu boradagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etib borish zarur bo'ladi. Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhiti va biznes yuritish sharoitini muttasil zamon talablarini hisobga olgan holda yaxshilab borish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. U.P.Umurzaqov "Kichik biznes va tadbirkorlik" O'quv qo'llanma T., 2014 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544 – sonli farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ – 3777 – sonli qarori.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018 y., 07/18/3777/1325-son)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston ning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 – sonli farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022 y., 01/28/60/547-son)
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4231 – sonli qarori// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.03.2019-y., 07/19/4231/2724-son) 6. Andijon viloyat 2022 yil statistik xabarnomasi. //www.andstat.uz.

ЎЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАНИШИ

Юлдашов Кодиржон Мамаджанович
НамМТИ, «БХА» кафедраси доценти. и.ф.н.
Юлдашев.М.Қ. НамМТИ Магистранти.

Аннотация: Ушбу мақолада кичик бизнеснинг миллий иқтисодиётда тутган ўрни ва уларнинг давлат томонидан қўллаб-қувватланиши масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: кичик бизнес, тadbirkorлик, давлат, молиялаштириш, стратегия, ялпи ички маҳсулот, саноат, давлат-хусусий шерикчилиги.

Ўзбекистонда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўналишларидан бири кичик бизнес ва хусусий тadbirkorликни ривожлантириш ҳисобланади. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorликни миллий иқтисодиётда етакчи ўринни эгаллаши, пировардида, мамлакат ялпи ички маҳсулотининг ҳажмини оширишга меҳнат ресурсларининг аҳамиятли қисмини иш билан банд қилишга хизмат қилади.

Мамлакатимизда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларда миллий иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тadbirkorликни ривожлантиришга қаратилган институтчионал ва таркибий ислохотларни давом эттириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Миллий иқтисодиётда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorликни ривожлантиришнинг ҳуқуқий асосларининг яратилганлиги, жумладан тегишли қонунчилик актларининг мавжудлиги. солиқ имтиёзларининг қўлланилиши, имтиёзли кредитлашни жорий этилганлиги ва уларнинг ҳуқуқий ҳимояси таъминланганлиги кичик бизнес субъектларининг фаолиятида яққол намоён бўлмоқда.

Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorлик тараққиётини таъминлаш ва унинг барқарор суръатларда ривожланишига эришиш учун катта миқдордаги молиявий маблағлар зарур. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorликни молиявий маблағлар билан таъминлаш ва молиявий қўллаб-қувватлаш иқтисодиётни модернизациялаш шароитида долзарб масалага айланиб бормоқда. Мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorлик

субъектлари ўз фаолиятини молиявий маблағлар билан таъминлашда маълум бир қийинчиликларга дуч келмоқдалар. Ўз ички маблағлари етарли бўлмаган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари эса ташқаридан, кредитлар кўринишида молиявий ресурсларни жалб этишга мажбур бўлмоқдалар. Ушбу молиявий ресурсларнинг қандай шартлар асосида ва қандай нархда жалб этилиши кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг келгусида оладиган даромадига бевосита ўз таъсирини кўрсатиши, табиий. Шундай экан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик тараққиётини молиялаштириш масаласи унинг молиявий равнақини таъминлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилиши зарур. Ушбу ҳолат молиявий ресурсларнинг чекланганлиги шароитида алоҳида аҳамият касб этади. Инқирозга қарши чоралар дастури амалга оширилаётган шароитда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик тараққиётининг молиявий жиҳатлари алоҳида аҳамият касб этмоқда. Ушбу ҳолат, ўз навбатида, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни молиявий қўллаб-қувватлашни ташкил этиш ва такомиллаштириш масаласи юзасидан чуқур, махсус илмий тадқиқотлар олиб боришни талаб этади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда муҳим омил ушбу соҳани молиялаштириш муаммосидир. Мазкур муаммони ижобий ҳал этиш орқали хусусий сектор субъектларининг мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришдаги ўрни ортиб боради. Бу борада давлат-хусусий шерикчилигини ривожлантириш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Давлат-хусусий шерикчилик механизмини жорий этиш орқали ижтимоий соҳалардаги мавжуд муаммоларни ҳал этиш имконияти ортади.

Жумладан, Давлат-хусусий шерикчилик механизмини жорий этиш орқали хусусий секторда мактабгача таълим ташкилотлари жадал ривожланмоқда. Бу эса таълим тизимида соф рақобатни юзага келтириб, уларда таълим сифатини оширишга хизмат қилади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни тараққий этиш суръатлари кейинги йилларда барқарор бўлишига қарамасдан ушбу корхоналарнинг кўламлари унчалик катта эмас. Аксарият ҳолларда ушбу корхоналар бозорда муайян мавқени эгаллаган бўлсалар-да, ишлаб чиқаришни кенгайтиришда молиявий ресурсларнинг етишмаслиги муаммосига дуч келмоқдалар. Ушбу муаммо фикримизча, бир томондан мамлакатда молиявий ресурсларнинг умумий тақчиллиги билан боғлиқ бўлса, иккинчи томондан, хусусий секторда фаолият кўрсатаётган тадбиркорларнинг аксарият ҳолларда молия бозорида иштирок этиш иш кўникмаларига эга эмасликлари, ҳамда мамлакатимизда молия бозорининг етарли даражада ривожланмаганлиги ва такомиллашмаганлиги билан боғлиқдир.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари аксарият ҳолларда бошланғич капитал етишмаслиги туфайли қатор қийинчиликларга учрайди. Фикримизча, қонунчиликда назарда тутилган кафиликни тўлов қобилитига эга юридик ва жисмоний шахслар, фуқаролар ўзини-ўзи бошқариш органлари ҳам беради. Бошланғич капитални жалб қилиш мақсадида, гаров пули, ушлаб қолиш, кафолат, олдиндан пул бериш кабилардан ҳам фойдаланиш мумкин. Бир вақтнинг ўзида, тадбиркорлик фаолияти субъекти кредит шартномалари бўйича мажбуриятларни таъминлаш мақсадида ўз мол-мулкидан, шу жумладан, ашёлари ва мулкый ҳуқуқларидан, ўзи олган кредитни тўлай олмаслик хавфи суғуртаси тўғрисидаги суғурта полисидан ҳам фойдаланса бўлади.

Бизнинг фикримизча, хусусий секторнинг тараққий этишига тўсиқ бўлаётган асосий ташкилий-қонуний масалаларни ҳал этмасдан туриб хусусий тадбиркорликнинг ривожини,

жумладан, уни молиялаштиришнинг самарадорлигини таъминлаб бўлмайди. Мазкур муаммоларни ҳал этиш учун қуйидагиларни таклиф қиламиз:

1. Хусусий сектор тараққиётини таъминлаш орқали давлатнинг иқтисо-дий мавқеини мустаҳкамлашга қаратилган, хусусий тадбиркорлик субъектлари ўртасида ўзаро мувофиқлашган, давлатнинг аралашувини чекловчи ҳамда хусусий тадбиркорликни молиялаштириш самарадорлигини ошишига хизмат қилувчи мукамал қонуний-меъёрий ҳужжатларни қабул қилувчи махсус мустақил ташкилот ва экспертлар гуруҳи ташкил этиш лозим ва уларнинг иш фаолияти давомийлигини таъминлаш керак;

2. Хусусий сектор тараққиётини самарали молиялаштириш механизмида молиялаштиришнинг манбалари бўлиб қуйидагилар хизмат қилмоғи мақсадга мувофиқ: а) хусусий секторда фаолият кўрсатаётган хўжалик юритувчи субъектларнинг фойдаси (асосан, тақсимланмаган фойдаси); б) хусусий сектор корхоналарининг амортизация ажратмалари; в) хусусий сектор корхоналари барқарор пассивларининг ўсган қисми; г) хусусий сектор корхоналарида иқтисод қилинган ёки тежаб-тергалган маблағлар; д) хусусий сектор корхоналарининг ички хўжалик резервлари; е) хусусий сектор корхоналари томонидан қимматбаҳо қоғозларни эмиссия қилиш орқали олинган маблағлар; ё) тижорат банклари ва бошқа кредит уюшмаларидан олинган кредитлар; ж) давлат бюджетининг маблағлари (умумдавлат аҳамиятига эга бўлган ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилишга қаратилган марказлаштирилган маблағлар ва инвестицион мақсадлар учун ажратилган молиявий ресурслар); з) халқаро (жумладан, молиявий) ташкилотлар ва хорижий инвесторлардан турли кўринишларда (кредитлар, заёмлар ва бошқа) олинган маблағлар; и) ҳомийлик ёки қайтариб бермаслик шарти билан ташқаридан берилган бошқа маблағлар.

Юқоридагилардан кўришиб турибдики, хусусий сектор тараққиётини самарали молиялаштириш механизмида молиявий манбалар сифатида фойдаланиши лозим бўлганларнинг таркиби амалиётда жуда ранг-баранг бўлиши мумкин. Ана шуни ҳисобга олган ҳолда хусусий секторда фаолият кўрсатувчи хўжалик юритувчи субъект уларнинг у ёки бу кўринишига устуворлик бермаслиги керак. Аксинча, уларнинг барчасидан бир вақтнинг ўзида максимал равишда самарали фойдаланишга ҳаракат қилмоқ лозим. Фақат шундагина хусусий сектор тараққиётини самарали молиялаштириш ўзининг том маъносига эга бўлади;

3. Хусусий сектор тараққиётини самарали молиялаштириш истиқбол-ларини белгилашда молиялаштириш манбаларининг, умумий кўринишда, давлат инвестиция ресурсларидан; хорижий инвестициялардан; хусусий секторда хўжалик юритувчи субъектлар инвестицион ресурсларидан; шахсий, жалб қилинган ёки қарзга олинган ресурслардан; давлат ва республика субъектлари даражасида ҳамда хусусий секторда хўжалик юритувчи субъектлар даражасида; ташқи ва ички манбалар; рискли ва рисксиз манбалар; капитал қуйилмалар ва ишлаб чиқариш захираларидан иборат эканлигини ҳам идрок этиш алоҳида аҳамиятга эга. Буларни тўла-тўқис идрок этмасдан туриб, республикамизда хусусий сектор тараққиётини самарали молиялаштириш истиқболларини белгилашнинг сира иложи йўқ. Чунки айнан ана шулар хусусий сектор тараққиётини молиялаштиришнинг оптимал таркибини аниқлаб беришга хизмат қилади;

4. Хусусий секторда молиялаштиришнинг асосий манбаларини шу секторда фаолият кўрсатувчи хўжалик юритувчи субъектларнинг ўз маблағлари, тижорат банкларининг кредитлари ва тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ташкил этмоқда. Бу ерда мавжуд бўлган муаммо ушбу манбаларнинг қай бирига устуворлик бермоқ лозим, уларнинг қайси бири самаралироқ ҳисобланади, уларнинг қайсисидан фойдаланиш бозор иқтисодиётининг талабларига кўпроқ жавоб беради, каби масалаларга аниқлик киритишдан иборат. Муаммонинг мураккаблиги шундаки,

юқоридаги саволларнинг ҳеч бирига, кўпчилик ўйлаганидек, аниқ жавоб беришнинг иложи йўқ. Бу муаммонинг ечими хусусий секторда фаолият кўрсатаётган хўжалик юритувчи субъектда мавжуд бўлган конкрет шароитга, унинг олдига қандай вазифаларнинг қўйилганлигига ва уларни қай муддатларда бажариш лозимлигига ва бошқаларга бевосита боғлиқ. Ана шулар эътиборга олинadиган бўлса, конкрет шароитда қайси молиялаштириш манбасидан фойдаланиш тўғрисида қарор қабул қилинаётган пайтда юқоридаги ҳолатларни ҳисобга олиб, ҳар бир молиялаштириш манбаининг афзалликлари (қулайликлари) ва камчиликлари ҳисоблаб чиқилиши ва фақат шундан сўнггина тегишли қарорни қабул қилиш мақсадга мувофиқ;

Бизнинг фикримизча, хусусий сектор тараққиётини самарали молиялаштириш механизми, энг аввало, қуйидаги меъзонларга жавоб бермоғи лозим: а) яратилиши лозим бўлган механизм хусусий секторни молиялаштиришнинг мавжуд механизмга муқобил бўлиши керак; б) бу механизм хусусий сектор тараққий топган мамлакатларда ўзини оқлаган механизмларга асосланиши зарур; в) хусусий сектор тараққиётини самарали молиялаштириш механизми республикамизнинг ҳозирги ривожланиш босқичидаги имкониятларига тўғри келиши мақсадга мувофиқ; г) бу механизм хусусий секторнинг тараққиёт манфаатларига хизмат қилиши керак; д) унда давлат томонидан тегишли кафолатларнинг бўлиши кўзда тутилмоғи лозим.

Ана шу меъзонлар асосида яратилиши лозим бўлган хусусий секторни самарали молиялаштириш механизмнинг амалиётга жорий этилиши, бизнинг назаримизда, хусусий секторнинг тараққий этишига кўпроқ ва кенгроқ имконият яратади, уларда рисклилик даражасини пасайтирган ҳолда молиялаштиришга ёрдам беради. Бизнингча, бу механизм ўз ичига мамлакатнинг марказий ҳукуматини, тегишли давлат бошқарув органларини, Ўзбекистон Республикасининг хусусий секторини ривожлантириш корпорациясини, кредитларни кафолатлаш корпорациясини, тегишли молиявий институтларни ва хусусий секторнинг ўзини қамраб олиши керак;

Бундай тадбирларни амалга ошириш мамлакатимизда хусусий секторни янада ривожлантиришга ва аҳолини турмуш даражасини оширишга хизмат қилади.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL QILISHDA ASOSIY VOSITALARNING ROLI

Kurbonova Shaxrinov Avazxonovna,

Farg'ona politexnika instituti, tayanch doktoranti e-mail:

sh.kurbonova@ferpi.uz, tel: +998999981552.

Annotatsiya. Hozirgi kunda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishda asosiy vositalar muhim ahamiyatga ega bo'lib ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega, shu nuqtai nazardan biz ushbu tadqiqotda asosiy vositalarning iqtisodiy ahamiyati muhokama etiddik.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, ishlab chiqarish vositalari, asosiy vositalarni qayta baholash, asosiy vositalarni ish holati, korxonalar aktivlari, asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish.

Asosiy vositalar sanoat rivojlanishining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Asosiy vositalar — bu joriy davrda sotish uchun mo'ljallanmagan, ammo kelajakda boshqa tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy obyektlar [2]. Agar kapital tarkibidagi bino, stanok va uskunalarsiz sanoat hozirgi ko'rinishida bo'lmas edi.

Ishlab chiqarishga asosiy vositalarni joriy etish va ularni davrlar osha takomillashtirib borish mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Asosiy vositalar ko'pincha korxonalar aktivlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Ular haqidagi ma'lumotlar kompaniyaning moliyaviy holati va faoliyatini tavsiflash uchun katta ahamiyatga ega.

Asosiy vositalarga binolar, inshootlar, ishchi va elektr mashinalari va uskunalari, o'lchash va tartibga solish moslamalari va qurilmalari, kompyuter uskunalari, transport vositalari, asboblar, ishlab chiqarish va maishiy inventar va aksessuarlar, ishchi va mahsuldor chorva mollari, ko'p yillik plantatsiyalar, qishloq xo'jaligi yo'llari va boshqa asosiy vositalar kiradi [1].

Tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida asosiy vositalarning mavjudligi va harakatini hisobga olishni to'g'ri tashkil etish muhim rol o'ynaydi va biznes natijalari va kompaniyaning narxiga bevosita ta'sir qiladi.

Kompaniya doimiy ravishda mablag'larni hisobga olish shakllarini tovardan pulga va aksincha o'zgartiradi. Faqat hujjatlarni moddiy boyliklarning haqiqiy mavjudligi bilan taqqoslash orqali buxgalteriya hisobi va hisobotning to'g'ri olib borilayotganligini aniqlash mumkin. Shuning uchun har qanday tashkiliy-huquqiy shakl va faoliyat turidagi korxonalar yillik hisobotni tayyorlashdan oldin mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarni to'liq inventarizatsiya qilishlari shart.

Asosiy vositalarni qayta baholash korxonalarining biznes-rejalarini, barcha darajadagi byudjetlarni ishlab chiqishda qiyinchiliklar tug'diradi. Ushbu rejalar va byudjetlar joriy yilning 1 yanvar holatiga asosiy vositalarni qayta baholash natijalari hali noma'lum bo'lgan rejalashtirilgan yildan oldin tuziladi.

Jarayonga jalb qilingan asosiy vositalar, albatta, korxonaning ishlashi va uzoq muddatli rivojlanishiga ta'sir qiladi. Asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish, buxgalteriya ishida ushbu sohaga yehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish buxgalter ishida juda muhim jihatdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya bo'limining ishi asosiy vositalarni hisobga olishda buzilishlarning oldini olish, qonun hujjatlariga, asosiy vositalarni hisobga olish va soliqqa tortish bilan bog'liq hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlarni kuzatib boradigan tarzda tuzilishi kerak.

Asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonidagi roli, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ularni takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari asosiy vositalarning mavjudligi, harakati, holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarga alohida talablarni belgilaydi. To'g'ri yuritiladigan har bir tashkilotda asosiy vositalarni hisobga olish: hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va tushumlarni o'z vaqtida hisobga olish, ichki harakat, asosiy vositalarni tasarruf etish; ularni sotish va boshqa tasarruf etish natijalarini ishonchli aniqlash.

Asosiy vositalarni ish holatida saqlash bilan bog'liq xarajatlarni to'liq aniqlash (texnik ko'rikdan o'tkazish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari, ta'mirlashning barcha turlari uchun); buxgalteriya hisobi uchun qabul qilingan asosiy vositalarning saqlanishini, ularni baholashning to'g'riligini, amortizatsiya va amortizatsiya hisob-kitoblarini nazorat qilish [3]. Faqatgina asosiy vositalarni hisobga olishning bunday tartibi har bir tashkilotga tegishli boshqaruv bilan daromadni ko'paytirish uchun ishlab chiqarish samaradorligini, ish sifatini va barcha moliyaviy-iqtisodiy faoliyat natijalarini oshirishga imkon beradi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va texnologik taraqqiyot sharoitida kapital qo'yilmalar (asosiy vositalarni qurish, montaj qilish, sotib olish), uchinchi tomon tashkilotlari va jismoniy shaxslar tomonidan bepul foydalanish uchun obyektlar bilan ta'minlash, shuningdek, kapital qo'yilmalar tartibida amalga oshiriladigan asosiy vositalarni doimiy ravishda to'ldirish va yangilash mavjud.

Asosiy vositalardan samarali foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektning muvaffaqiyatli ishlashi uchun muhim shartlardan biridir. Mashina va uskunalarning maksimal yuklanishini ta'minlash, transport vositalaridan, ishlab chiqarish maydonlaridan, ofis binolaridan va hududlardan oqilona va to'liq foydalanish ishlab chiqarish hajmining o'sishiga (ishlar, xizmatlar bajarilishi), ularning tannarxini pasaytirishga, kapital qo'yilmalarni tejashga, qoplash muddatini qisqartirishga va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Asosiy vositalar ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim elementi hisoblanadi, chunki ular kompaniya bozorda taklif qiladigan tovarlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlarni ko'rsatish uchun

ishlatiladi. Ishlab chiqarishni tashkil etishda asosiy fondlarning rolini quyidagicha tavsiflash mumkin: 1. Ishlab chiqarish quvvatlarini ta'minlash. Binolar, uskunalar, mashinalar va transport vositalari kabi asosiy vositalar kompaniyaga mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish imkonini beradigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish uchun ishlatiladi. Tegishli asosiy vositalarsiz kompaniya hech qanday mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqara olmaydi, bu esa ishlab chiqarish natijasini pasayishiga va bozorda o'z o'rnini yo'qotishiga olib keladi.

2. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. Asosiy vositalar vazifalarni bajarish uchun sarflangan vaqtni qisqartirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi mumkin. Masalan, maxsus jihozlardan foydalanish ishlab chiqarish tezligini oshirishi hamda ishlab chiqarish jarayonida xatolar sonini kamaytirishi mumkin.

3. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish. Asosiy vositalar kompaniyalarga mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga ham yordam beradi. Masalan, zamonaviy va samarali uskunalaridan foydalanish mehnat xarajatlarini kamaytirish, energiya hamda xom ashyo xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хизбуллина Р.Ф. (2014). РОЛЬ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ НА ПРЕДПРИЯТИИ. Экономика и социум, (3-3 (12)), 549-552.
2. Курбонова, Ш. А. (2023). ОСНОВЫ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ. In Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики (pp. 381-384).
3. Avazxonovna, K. S. (2024). Principles and Features of the Development of Fixed Asset Accounting. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 12-18.

XUSUSIY TADBIRKORLIKNI TASHKILY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA YO'LLARI.

Raxmatov Jahongir Shuxratovich

Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasida o'qituvchisi Buxoro Davlat Universiteti

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish, ijobiy tajribani O'zbekistonda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Misol uchun, Portugaliyada kichik korxonalarini rivojlantirishga investitsiyalar davlat tomonidan rag'batlantiriladi. Fransiyada kichik biznes sub'ektlari faoliyati davlat tomonidan soliq imtiyozlari berish orqali qo'llab-quvvatlanadi. Germaniyada kichik korxonalar faoliyati subsidiyalar, xizmatlar uchun subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va moliyaviy yordam berish orqali rag'batlantiriladi. AQSHda kichik biznes sub'yektlariga soliq imtiyozlari berilgan, xususan, davlat tomonidan meros solig'i, kompaniyalarni ro'yxatdan o'tkazish, moliyaviy-texnik yo'nalish bo'yicha kichik biznes uchun imtiyozlar berilgan. [1]

Har qanday bozor tizimida bandlik muammosini hal qilishda kichik biznes imkoniyatlari alohida e'tiborga loyiqdir. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda barcha band bo'lganlarning 50-60% va yangi ish o'rinlarining 70-80% ni tashkil qiladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ishchilarning yarmidan ko'pi kichik biznes sohalarida ishlaydi. Ba'zi mamlakatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori. Masalan, Yaponiyada yaponlarning 3/4 qismi kichik biznesda band bo'lib hisoblanadi. Aholisi va mehnat resurslari jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan mamlakatimiz uchun kichik biznesning ko'p sonli ish o'rinlari yaratish imkoniyati ustuvor ahamiyatga ega. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga qaror qilgan har qanday

mutaxassis o'zi boshqarayotgan kichik korxonaning moliyaviy resurslarini buxgalteriya hisobi, statistik ma'lumotlar va operativ ma'lumotlar asosida nazorat qila olishi, shuningdek, uni tahlil qilish bilan bog'liq bir qator moliyaviy masalalarni hal qila olishi kerak.

Xorijiy mamlakatlarda sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarini aniqlash mezonlarini tahlil qilishdan kelib chiqib, kichik korxonalarini ajratib ko'rsatish mezonini sifatida ular faoliyatining moliyaviy natijalarini, shuningdek, xodimlar sonini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kompaniya aktivlarining balans qiymati va rentabelligini hisobga olish kerak deb hisoblaymiz.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga qaror qilgan har qanday mutaxassis o'zi boshqarayotgan kichik korxonaning moliyaviy resurslarini buxgalteriya hisobi, statistik ma'lumotlar va tezkor ma'lumotlar asosida nazorat qila olishi, shuningdek, uni tahlil qilish bilan bog'liq bir qator moliyaviy masalalarni hal qila olishi kerak. Har bir kichik tadbirkorlik sub'ekti rahbari buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish uchun yetarli bilimga ega bo'lmasligi mumkin, chunki ular turli soha vakillari hisoblanadi. Natijada, buxgalteriya hisobidagi kichik xatolik soliqlarni hisoblash va to'lashda noaniqliklarga olib keladi yoki dastlabki hujjatdagi xato moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Shu munosabat bilan biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy barqarorligini oshirishda bir qator moliyaviy xizmatlardan foydalanish muhim bo'lib hisoblanadi. Korxonalar rahbarlari moliyaviy xizmatlarni amalga qo'llash jarayonida marketing strategiyalari yordamida muvofiqlashtirishni amalga oshirsalar maqsadga muvofiq hisoblanadi deb o'ylaymiz. Kichik biznesni rivojlantirishda marketing strategiyasining ayrim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda sanoat sohasida faoliyat yurituvchi kichik korxonalarini aniqlash mezonlarining tavsifi.

Mamlakatlar	Xususiy tadbirkorlik mezonlari	
	Xodimlar soni, odamlar	Moliyaviy ko'rsatkichlar
Koreya	300 gacha	kapital, 70 ming AQSh dollaridan oshmasligi kerak.
Yaponiya	300 gacha	2 844 ming AQSH dollari
Hindiston	chegaralar yo'q	aktivning asosiy fondlar bo'yicha qiymati 55 ming AQSH dollarigacha
Ozarbayjon	50	Cheksiz
Armaniston	200	Cheksiz
Belarusiya	100 dan kam	Cheksiz
Qozog'iston	50 gacha	aktivlarning umumiy o'rtacha yillik qiymati eng kam ish haqining 60 000 baravaridan oshmasligi kerak
Qirg'iziston	50 kishi	aktivlarning umumiy o'rtacha yillik qiymati eng kam ish haqining 20 000 baravaridan oshmasligi kerak
Moldova	20 dan 75	Cheksiz
Rossiya	100	yillik daromad 400 million rublgacha
Tojikiston	50 kishi	Cheksiz
Ukraina	200	Cheksiz
O'zbekiston	100 gacha	Cheksiz

Marketing strategiyasi mahsulot va xizmatlaringizni maqsadli auditoriyangizga targ'ib qilish uchun qo'llaydigan usullarni anglatadi. Bunga veb-sayt mazmuni, televidenie va radio reklamalari va ijtimoiy media platformalarida joylashtirilgan kontent kiradi. Sizing biznesingiz uchun samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish o'sish, kengayish va uzoq muddatli muvaffaqiyat kalitidir. Ammo muammo shundaki, to'g'ri marketing strategiyasini ishlab chiqish ko'plab muvaffaqiyatsizliklarga olib kelishi mumkin va kichik biznes uchun bozoringizni noto'g'ri tushunish halokatli bo'lishi mumkin. Bunday strategiyalardan biri Ansoff matritsasi va biznesni rivojlantirish strategiyasidir. Igor Ansoffning o'sish strategiyali matritsasi xususiy biznesning bozor ulushini oshirish uchun mumkin bo'lgan strategiyalarni tavsiflovchi modeldir. Matritsa mahsulot-bozor matritsasi deb ham ataladi. Ansoff matritsasi strategik korxonalarni boshqarish jarayonida amaliyotda keng qo'llaniladi. [2]

Igor Ansoff o'zining tovar bozori modelida biznesni rivojlantirish uchun to'rtta mumkin bo'lgan o'sish strategiyasini amalga oshirishni taklif qildi:

1. Bozorga kirish strategiyasi: o'sish-joriy mahsulotning bozor ulushini oshirishni anglatadi.
2. Bozorni rivojlantirish strategiyasi: yangi bozorlarda talabni rivojlantirish orqali xususiy korxonalarining o'sishini nazarda tutadi.
3. Mahsulotni rivojlantirish strategiyasi: xususiy korxonalarining rivojlanish manbai sifatida yangi mahsulotlarga bo'lgan talabning o'sishi ekanligini anglatadi.
4. Diversifikasiya strategiyasi deganda mahsulot assortimentini yangilash va bir vaqtning o'zida yangi bozorlarga chiqish imkoniyati tushuniladi.

Xususiy korxonalar Ansoff matritsasiidan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bozordagi mavjud iste'molchilar bozorini aniqlash, yangi iste'molchilarni jalb etish, ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan iste'molchilar bozorini baholash xususiy tadbirkorlik sub'ektlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ma'lumki, hozirgi globallashuv jarayonida har bir korxonada ichki va tashqi bozorda maksimal foyda olishi, bozordagi o'z o'rnini saqlab turishi va uzoq muddat faoliyat yuritishi zarur.

Xususiy korxonalarining bozor sharoitlarini tahlil qilganda, biz global transmilliy kompaniyalar bozorida ayniqsa muhim deb hisoblaydigan marketing strategiyalaridan yana biri bu Boston matritsasi hisoblanadi.

BCG matritsasi strategik tahlil, rejalashtirish va marketing uchun vositadir. Bryus D. Henderson tomonidan asos solingan, kompaniya mahsulotlarining dolzarbligini tahlil qilish, ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabning o'sishi bo'yicha bozorda yuqori o'rinlarga chiqish yo'llarini tahlil qilish uchun tanlangan kompaniya egallagan bozor ulushini baholash jarayonida tashkil etilgan konsalting guruhidir. Matritsaning o'qlari talabning o'sishini (vertikal o'q) va bozor ulushini (gorizontal o'q) aks ettiradi. Ushbu ikki mijozning reytinglarini birlashtirish, kompaniyaning ishlab chiqarish va sotish uchun tovarlarning to'rtta mumkin bo'lgan rolini ajratib ko'rsatib, tovarlarni tasniflash imkonini beradi. [3]

Boston matritsasiidagi strategik biznes birliklari turlarining tasnifi:

- Yulduzlar - yuqori savdo o'sishi va yuqori bozor ulushi. Bozor ulushini saqlab qolish va oshirish kerak. "Yulduzlar" juda katta daromad keltiradi. Ammo, ushbu mahsulotning jozibadorligiga qaramay, uning sof pul oqimi ancha past, chunki u yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun katta investitsiyalarni talab qiladi.

- Sog'in sigirlar - bozor ulushi yuqori, ammo savdo o'sishi past. "Sog'in sigirlar" imkon qadar himoyalangan bo'lishi va nazorat qilinishi kerak. Ularning jozibadorligi qo'shimcha investitsiyalarni talab qilmasligi va shu bilan birga yaxshi pul daromadini ta'minlashi bilan izohlanadi. Savdodan tushgan mablag' "Yomon bolalar"ni rivojlantirishga va "Yulduzlar"ni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi mumkin.

- Yomon bolalar - bozor ulushi past, lekin kuchli o'sish. Yomon bolalarni o'rganish kerak. Kelajakda ular ham yulduz, ham itga aylanishi mumkin. Agar yulduzlarga o'tish imkoniyati mavjud bo'lsa, unda siz sarmoya kiritishingiz kerak, aks holda undan xalos bo'lishingiz kerak.

- “Itlar” – o‘sish sur‘ati past, bozor ulushi past, mahsulot, qoida tariqasida, past rentabellikka ega va menejerdan katta e‘tibor talab qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, biz quyidagi xulosaga keldik.

Xususi biznesda marketing strategiyalaridan foydalanish orqali quyidagi samaradorlikka erishish mumkin.

1. Marketing strategiyalarini amalga oshirish natijasida siz maqsadli iste'molchilar auditoriyasini aniqlaysiz. Natijada, marketing strategiyasini ishlab chiqishdan oldin siz bozor tadqiqotlarini o‘tkazishingiz kerak va bu tadqiqot sizga mahsulotingizni yaxshilash va xatti-harakatlaringizdagi voqealar va o‘zgarishlarni kuzatish uchun qayta-qayta foydalanishingiz mumkin bo‘lgan ko‘plab ma'lumotlarni taqdim etadi.

2. Marketing strategiyalaridan foydalanish biznesingizni brendlashda yordam beradi. Natijada sizning marketing strategiyangiz nafaqat potentsial mijozlarga erishish va ularni xaridorga aylantirishga yordam beradi, balki sizning biznes madaniyatingiz, qadriyatlaringiz va maqsadlaringizni ifodalashga yordam beradi. Ushbu qarashni auditoriyangizga etkazish jarayoni brendingning mohiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://tltaudit.ru/uz/medicinal-plants/bostonskaya-matrica-matrica-bkg-chto-takoe-kakpostroit-i/>
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Матрица_БКТ
3. <https://smallbusiness.chron.com/pr-campaign-affect-marketing-function-38569.html>
4. <https://hr-portal.ru/story/strategii-marketinga-v-realom-vremeni-s-preimushchestvami>
5. <https://smallbusiness.chron.com/advantages-disadvantages-marketing-strategy-53961.html>
6. <https://smart-estet.ru/articles/marketingovye-strategii>
7. <https://www.diol-it.ru/articles/o-vazhnosti-marketingovoy-strategii>
8. <https://strategy.mr-h.ru/>
9. Davlatov s., Dilmonov k. Impact of investment in education on economic growth //2nd Student Conference of MDIS Tashkent. – 2017. – С. 7.
10. Kayumovich K. O., Kamalovna S. F. Social media-marketing-a forceful tool for tourism industry //European science. – 2019. – №. 7 (49). – С. 41-43.
11. Rajabova M. Convenience and advantages of outsourcing in the regional market of tourist services //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.
12. Rajabova M., Khodzhaeva D. K. Innovative methods for assessing the financial condition in family enterprises: Khodzhaeva Dilbar Khurshidovna senior lecturer of the Department of Economics of the Service Industry, BSU hodjaevadilbar@mail.ru Rajabova Mokhichehra Abdukholikovna lecturer of the Department of Economics of the Service Sector, BSU rajabova.mokhichekha@gmail.ru //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

REGULATIONS FOR ASSESSING THE LEVEL OF SERVICE AND COMPETITIVENESS OF HOTELS

Istamkhuja Olimovich Davronov

Lecturer, Tourism and Hotel management department Bukhara state university, Uzbekistan

Abstract: the thesis determines information on the evaluation process and the competitiveness of hotel services. In recent years, especially after the pandemic, many hotel businesses have focused on improving the quality of their offers and sustaining their competitiveness. Some hotels are making an effort to improve the quality of services they offer by leveraging the most recent digital technologies. The

paper offers insights into the techniques employed to evaluate service quality in addition to data about hotel performance.

Keywords: hotel services, quality, standards, competitiveness, market, demand, quality standards

During the process of economic reform, the development of the service sector is essential to the establishment of the market economy. The Republic of Uzbekistan's current stage of growth and the modernization of the national economy make rapid expansion of the hotel industry's service sector increasingly vital. Our country is paying particular attention to this field. Additionally, since the government has approved the relevant regulatory documents for the industry's growth, a lot of work is being done in this area.

Effective management of staff in the hotel sector and making use of their potential is one of the factors ensuring the financial success of the business in the present tourism services market [1].

Different labor products can satisfy the needs of both domestic and foreign clients, which is crucial to consider when assessing the caliber of services offered by the hotel industry. However, when seen through the prism of official regulations, naming quality indicators, determining their appropriate value, and defending the best options for product quality management can all be reduced to a set of actions involving the values of basic and relative indicators. Stated otherwise, the assessment of the quality level consists of the subsequent steps: choosing a group of quality markers; measuring, that is, contrasting a range of characteristics using a scale.

A visitor's evaluation of the quality of hotel service is based on their perception, which defines the extent (general level) to which the level of service meets the customer's expectations and forms an emotional state of mind toward the hotel industry that can be either positive or negative. The quantitative aspect of this emotional state, or its strength, is the guest's assessment of the quality of service he received; this is expressed as a positive or negative number on a specific scale.

These topics have been covered in books by foreign scientists such as F. Bastiat, T. Him, R. Brymer, S. Bartlett, K. Enerton-Thomas, J. R. Walker, and H. A. Shrepler in *World Experience*. Stated differently, it facilitated the creation of a corpus of knowledge that encompasses the ideas of interacting with other service sectors, the regulations controlling the growth and signs of highquality hotel service, and the theoretical underpinnings of this service. In their scientific publications, these scientists have emphasized these ideas.

Theoretical and practical aspects of the hotel sector have been studied by scientists from the Russian Academy of Sciences (RAS), including L. Agafonova, V. Apopiya, S. Baylik, M. Boyko, A. Vinogradskaya, G. Volkov, and S. Vassilin. I. Egorova, L. Ivanova, V. Karsekin, V. Kvartalnov, N. Kuznetsova, M. Pivovarova, A. Rumyantseva, and T. Tkashenko were also thoroughly investigated. As many experts have pointed out, meeting guests' needs in hotels of the future will depend on providing them with outstanding service.

It should be highlighted that there aren't many academic studies that present the findings of foundational research on hotel services systems and how they currently affect the caliber of hotel services while

A quality indicator is a numerical representation of a property that contributes to an object's quality and is relevant at specific stages of the object's life cycle. The parameters for its creation and delivery are referred to as the service, and the parameters for its transfer and preparation are referred to as the process. Quality indicators (objects), depending on the quantity of attributes to be described, can be:

- Individual
- Complex

A quality indicator that only relates to one aspect of the product is called a single quality indication (average shelf life - shelf life, etc.). A benchmark is necessary for any measurement (meter, kilogram, etc.) The primary quality indicator is the one of the item used as a standard in the comparative evaluation of quality. Keynotes can be simple or intricate.

The ratio of the evaluated object's quality indicator to the basic quality indicator, stated in relative units, is known as the relative quality indicator. A complex quality indicator refers to multiple aspects of the object's quality in one indication.

A detailed (complex) quality indicator enables the description of an objects or a set of related attributes' quality. Integral is one kind of complex quality indicator. This complex quality indicator shows the relationship between the object's intended use and its creation costs divided by the overall useful impact (S) that the object yields.




Figure-1. Classification of quality indicators

A quality indicator known as the "overall quality indicator" refers to the entirety of its attributes, which are chosen to assess the overall quality of the object.

The evaluation result, the system of values for the object's quality characteristics, and the relationship between the primary (standard) values of the parameters all contribute to the determination of the quality level, which is a relative ratio.

The general quality of services is affected differently by various service features. Therefore, when they are scaled to determine the level of service quality in a thorough service quality evaluation, both quality indicators and relative quality indicators should be considered with specific changes known as weighting coefficients.

While the number and nomenclature of quality indicator groups differ throughout monographs and approaches, they are substantially the same. The broadest content-based classification currently in use is this one.

Six primary categories of quality indicators are distinguished by experts: those based on product attributes; those based on the quantity of reflected features; those based on the detection method; those based on the color of the detection steps; those based on the dimensions of the reflected measurements; and those based on the significance of the assessment.




Figure-2. Main groups of quality indicators

When a guest evaluates the value of the service he received, he begins with his expectations. Employees follow management directives in addition to their own expectations when rendering services. Employees see it as the visitor's expectations that make the most sense. The owners and management of the hotel have their own expectations for what customers should anticipate, in addition to regulating the needs for staff work in instructions, standards, and technical documents based on external regulatory documents that provide mandatory and defined requirements.

Therefore, the result of the overall evaluation and assessment of the quality of the service is the algebraic total of the individual results, or the result of the quality evaluation of each additive element after the relevant multiplicative elements' impact has been taken into account. The experiences of global hotel businesses have made the problem of an inadequate hotel environment well acknowledged. This is the price of a subpar business culture. The evaluation of service quality is a crucial part of the quality management system.

It provides the basis for analysis and administrative decision-making, allowing for control over the quality of the services, as well as the input necessary for competent and dependable system development.

REFERENCES

1. Norchayev A.N., Aliyeva M. T., Xalimova F. N. (2019) "Mehmonxona xo'jaligida innovatsiya":- O'quv qo'llanma:- Toshkent – «Iqtisodiyot»
2. Муртазалиев, З. Р. (2011). Совершенствование системы управления качеством услуг на предприятиях гостиничного бизнеса, г.
3. Гаранина, Е. Н. (2015). Клиентоориентированная концепция конкурентоспособности гостиницы. *Вестник РМАТ*, (1), 78-89.
4. Донец, А. А. (2013). Повышение качества услуг как инструмент управления конкурентоспособностью гостиничного предприятия. *Russian Journal of Economics and Law*, (4 (28)), 138-143.
5. Котлярович, А. П. (2021). Способы повышения качества обслуживания в индустрии гостеприимства. In *Новая экономика, бизнес и общество* (pp. 1178-1181)..
6. Морозов, М. А., & Львова, Т. В. (2008). Анализ влияния качества средств размещения дестинации при организации делового туризма. *Вестник Российского нового университета. Серия: Человек и общество*, (4), 138-141.

7. Назаркина, В. А., & Штейнгольц, Б. И. (2014). Особенности потребительского спроса в гостиничной сфере. *Наука о человеке: гуманитарные исследования*, (2 (16)), 122-126.
8. Погорелова, Э. И., & Сергеев, А. А. (2017). Качество обслуживания туристов в гостиницах как фактор привлечения туристов. *Интерактивная наука*, (11), 193-196.
9. Davronov, I. O. (2021). Economic Importance of Innovative Technologies for Improving Hotel Services. *International Journal of Business, Technology and Organizational Behavior (IJTOB)*, 1(3), 169-175.
10. Davronov, I. O. (2021). Economic Development Mechanisms of Innovative Services in Bukhara Hotels. *International Journal of Business, Technology and Organizational Behavior (IJTOB)*, 1(6), 500-509.
11. Davronov, I. (2022). IMPROVEMENT OF QUALITY INNOVATIVE SERVICES IN BUKHARA HOTELS. " *Экономика и туризм*" *международный научно-инновационный журнал*, 1(3).

МЕҲМОНХОНА САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ

Истамхўжа Олимович Давронов

Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси ўқитувчиси Тошев

Шерзод Шароф ўғли

"Vatel-Hotel&Tourism Business School" талабаси

Бухоро давлат университети

Бухоро, Ўзбекистон

Ҳозирги кунда меҳмондўстлик саноати жаҳон иқтисодиётининг энг йирик ва энг даромадли тармоқларидан бирига айланди. Унинг салмоғини жами инвестициялар ҳажмининг 8 фоизи, барча солиқ тушумларининг 6 фоизи ва жаҳон хизматлар савдосининг учдан бир қисми ташкил қилади. меҳмондўстлик саноати иқтисодиётнинг транспорт ва алоқа, савдо, қурилиш, қишлоқ хўжалиги, халқ истеъмол молларини ишлаб чиқариш каби муҳим тармоқларига катта таъсир кўрсатиб, ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг катализатори бўлиб хизмат қилади. У 255 миллиондан ортиқ кишини, яъни дунёдаги ҳар бир еттинчи ишчини меҳнат билан таъминлайди[1].

Туристлик талаб ва таклифнинг сифат жиҳатидан ўзгариши меҳмоннавозлик саноатининг ривожланишини белгилаб берган. Жорий асрнинг бошларида туристик талабда янги йўналишлар пайдо бўлди. Уларнинг вужудга келиши бир қатор иқтисодий ва ижтимоий омиллар, шунингдек, инсонлар психологиясидаги ўзгаришлар туфайли белгиланади. Туристлик истеъмол тузилмасига иқтисодий вазиятнинг ёмонлашуви асосий таъсир кўрсатди. Иқтисодий инқироз аҳоли харид қобилиятининг кескин пасайиши билан бирга рўй берди[2].

Иқтисодий вазиятнинг ёмонлашуви билан боғлиқ ҳолда ижтимоий соҳадаги ўзгаришлар туристик талабнинг характериға ҳам таъсир кўрсатди. Пенсияға чиқиш ёшини камайтириш, таътил муддатини узайтириш, иш ҳафтасини қисқартириш, мослашувчан иш тартибини жорий этиш аҳоли бўш вақти жамғармасини кўпайишиға ва туристик хизматлардан фойдаланадиган салоҳиятли истеъмолчилар доирасининг кенгайишиға туртки бўлди.

Янги қадриятларнинг пайдо бўлиши инсонлар психологиясида чуқур ўзгаришларға олиб келди, ўзининг жисмоний ва маънавий салоҳиятини шахсан янада эркин, бевосита ифодалаш ва ўзини намоён этишға, бошқа индивидуумлар, ижтимоий гуруҳлар ва муассасалар билан муносабатларни қайта кўриб чиқишға, табиатға нисбатан бошқача муносабатда бўлишни шакллантиришға ёрдам берди.

Буларнинг барчаси туристик истеъмолда чуқур ўзгаришларни олдиндан белгилаб берди. Умумий иқтисодий вазиятнинг ёмонлашуви фонида бўш вақтнинг кўпайиши билан аҳолининг рекреацион хулқ-атворида икки асосий тенденция - таътил даврининг қисмларга бўлиниши ва қисқа муддатли саёҳатларнинг ўсиши кўзга ташланади[3].

Турлар анча кам давом этади, бироқ тез-тез бўлади. Бу ҳолат транспорт, турар жой ва умумий овқатланиш корхоналари ишидаги мавсумий нотекисликни юмшатиш имконини берди.

Кейинги тенденция бу 55 ёшдан ошган инсонлар туристик талабининг кенгайишидир. Улар учун туристик саёҳат фаол турмуш тарзи ва дунёни билиш шаклидир.

Дам олиш услубида ҳам туб ўзгаришлар рўй бермоқда. Соҳил бўйида пассив вақт ўтказиш гарчи у таътилнинг энг кенг тарқалган шакли саналса-да, индивидуал талабларнинг ўсиб бораётган диверсификацияси жараёнига оз жавоб беради. Сайёҳлар тобора кўпроқ миллий анъаналарни ўрганишни афзал кўришади, маҳаллий аҳолининг ҳаёти ва дам олишлари билан қизиқишади. Ушбу парадигма инсон психологиясида мавжуд бўлган ва замонавий сайёҳнинг хулқ-атвори ҳамда тафаккурида ифодаланган янги кадриятларга мос келади.

Меҳмоннавозлик саноати ихтисослашувнинг чуқурлашиши, ишлаб чиқариш концентрациялашиши жараёнларининг ўсиши ва янги технологияларга ўтиш билан тавсифланади. Ихтисослашув меҳмонхона саноати ишини ташкил этишнинг муҳим тамойилига айланди. Фаолиятнинг кўпгина йўналишлари орасида меҳмонхона корхонаси ўзи учун бош йўналишларни ажратиб, асосий саъй-ҳаракатини уларга қаратади. Бу ихтисослашув йўналишлари меҳмонхона саноати бозорининг фарқланадиган хусусиятларга эга инсонлар гуруҳидан иборат бўлган маълум сегментларига: демографик, психографик, хулқ-атвор ва бошқаларга мувофиқ келади[4].

Ихтисослашув чуқурлашган сари бозор сегментацияси янада кучлироқ қисмларга ажралади. Меҳмонхона хўжалигида бозорнинг муайян секторларига кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Уларнинг баъзилари паст ва ўрта даромадли транзит йўловчиларга хизмат кўрсатишга ихтисослашмоқда. Баъзи меҳмонхона корхоналари мақсадли сегмент сифатида тадбиркор туристларни танлайдилар.

Шуни таъкидлаш жоизки, замонавий меҳмоннавозлик саноати ихтисослашув билан бир қаторда концентрациялашиш, ишлаб чиқариш ва капиталнинг марказлашиши жараёнларининг кучайиши билан тавсифланади. Концентрация турли мамлакатларда, меҳмонхона саноатининг тармоқларида, алоҳида меҳмонхона корхоналарида ўта нотекис давом этмоқда. Меҳмонхона саноатида у йирик меҳмонхона занжирларининг шаклланиши билан характерланади [5].

Меҳмонхона саноатида ишлаб чиқаришнинг концентрацияси икки йўл билан юз беради: ички ва ташқи. Биринчи ҳолатда алоҳида меҳмонхона корхонаси доирасида фойданинг капиталлашуви (ички ўсиш) натижасида йириклашиш содир бўлади. Иккинчисида монополистик ташкилотнинг иқтисодий қудрати кенг доирадаги меҳмонхона корхоналарининг (меҳмонхона занжирларининг) ҳамкорлиги (кооперацияси) ёки бирлашиши (қўшилиши) натижасида жамланади.

Меҳмонхона корхоналарининг қўшилиши ёки бирлашиши уч йўналишда содир бўлади: горизонтал, вертикал ва диагональ бўйича[6]. Шу сабаб концентрациянинг (интеграция) уч турини ажратиб кўрсатадилар. Горизонтал концентрация технологик жараённинг бир босқичида турган, бир хил маҳсулотларни ишлаб чиқарадиган ёки шунга ўхшаш муқобил хизматлар кўрсатадиган меҳмонхона корхоналарини бирлаштиришда мавжуддир. Меҳмонхона саноати корхоналари вақтинча ёки доимий асосда ҳамкорлик қилиши, шунингдек, янги қўшма меҳмонхона корхоналарини ташкил этиши мумкин[7].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Барчуков И.С., Баумгартен Л.В., Башин Ю.Б. и др. Гостиничный бизнес и индустрия размещения туристов. М.:Кнорус, 2013. 166 с.

2. Иванов В.В., Волков А.Б. Гостиничный менеджмент. М.: «Инфра-М», 2007. 224 с 3. Азар В.И., Туманов С.Ю. Экономика туристского рынка. М.: ИПК госслужбы: Институт международного туризма, 2009. 240с
4. Велединский В.Г. Сервисная деятельность. М.: КноРус, 2010. 175 с.
5. Лайко М.Ю. Мировой опыт развития индустрии гостеприимства. М.: Издательство ГОУ ВПО «РЭА им. Г.В. Плеханова», 2008. 312 с.
6. Аكوпова Е.С., Гаврил ко Н.Н. Экономика предприятия гостеприимства. Ростов н/Д: Феникс, 2009. 415 с
7. Ксенофонтов А. В. Механизм повышения эффективности управления качеством гостиничного обслуживания на основе совершенствования профессионализма кадров : дис. – Балтийская академия туризма и предпринимательства, 2013.

WELLNESS TURIZMI SOG`LIK TURIZM SUB KATEGORIYASI SIFATIDA

Alimova Shaxnoza Oktyamovna

*Madaniy meros obyektlari muammolarini o`rganish va turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti
doktoranti, Toshkent sh, BuxDU o`qituvchisi*

Tel: +99890 745 27 67

Email: shakinoza.27@gmail.com


Annotatsiya: *Ushbu maqolada Wellness ya`ni sog`lomashtirish-davolash turizmni xorijiy olimlarning bergan ta`riflari o`rganish asosida boshqa sog`lik turizm turlaridan farqlari va o`xshashlik jihatlari keltirilgan bo`lib, yakuniy xulosa sifatida muallif tomonidan wellness turizmga ta`rif keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *sog`lomashtirish-davolash turizmi, tibbiy turizm, SPA turizmi, rekreatsion turizm, sog`liq turizmi.*

Wellness turizmini rivojlantirishning bir qancha afzallik tomonlari bo`lib, asosiy jihati inson salomatligiga qaratilganligi sababli hozirgi globalizatsiya jarayonida juda dolzarb hisoblanadi.

Wellness turizm bu - sayohat davomiyligi bo`yicha eng qisqa, kam xarajat, salomatlikni qo`llab-quvvatlash va ruhiy tiklanish, stressdan xalos bo`lish, aql va tananing uyg`un yangi holatiga erishish, insonning salomatligi va farovonligini yaxshilash kabi ehtiyojlarini qondiradigan turizm turidir[3]. Wellness turizm boshqa sog`lik bilan bog`liq bo`lgan turizmdan ajralib turadi. Buni farqlash maqsadida boshqa sog`liqga xos bo`lgan turizm turlarini ko`rib o`tamiz.


Galina Romanova, Alexandr Vetitnev va Frederic Dimanche olimlarning fikricha sog`lomashtirish turizmi "sog`lom" odamlar tomonidan amalga oshirilib, ularning asosiy maqsadi sog`liqni saqlash yoki tiklash hisoblanadi. Tibbiy sayyohlar ma`lum bir tibbiyot uchun davolanishni qidirib, kasallikka davo topish maqsadida sayohatga chiqishadi. [5] Maqsadiga ko`ra sog`liq bilan bog`liq turizm quyidagi rasmda o`z ifodasini topgan.



1-rasm. Sog'liqqa bog'lik turizm tipologiyasi

(Manba: Galina Romanova, Alexandr Vetitnev va Frederic Dimanche "Health and wellness tourism", Russia, 2015 y, 236 p)

Ushbu rasmda wellness turizmni inson kasal bo'lishi oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatni tushunishimiz mumkin. Sog'lik turizmi sayohatning maxsus turi bo'lib, o'z ichiga bir qancha sog'liq bilan bog'liq bo'lgan turizm turlarini o'z ichiga oladi. Sog'lik turizmining subkategoriyasi sifatida bir qancha adabiyotlarda tilga olingan.[1] Ular ichida tibbiy turizm – wellness turizm – spa turizm va h.k.larni kiritishimiz mumkin. Ularning o'zaro bog'liklik jihatlarini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin:




2-rasm. Sog'liq, wellness, spa, tibbiy turizmning o'zaro bog'liqligi

(Manba: Galina Romanova, Alexandr Vetitnev va Frederic Dimanche "Health and wellness tourism", Russia, 2015 y, 23)

Bu rasmdan ko'rinib turibdiki, inson salomatligining yaxshi yomonligiga qarab sog'lik turizmni qaysi turini tanlashni sayyoh belgilaydi. Wellness turizm inson sog'ligini yaxshilash va mustahkamlash maqsadida sayohat qilishga undaydi.

Ushbu ababiyot tahlillaridan shunday xulosa qilish mumkinki, inson kasal bo'lguniga qadar va ayrim jiddiy kasalliklarni oldini olib tuzalgandan keyin salomatligiga e'tibor berish maqsadida qilinadigan sayohat turi bu wellness turizmdir. Buni quyidagi rasm orqali tasvirlash mumkin.



3-rasm. Davomiyligi hamda sayyoh holatiga qarab sog'likga bog'lik turizmning farqlanishi (Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi)

Ushbu rasmda wellness turizmga sayyoh har ikki xil holatda ya'ni sog'lom hamda uzoq qilingan muloajalardan keyin tuzalgan holatda sayohat qilishi nazarda tutilgan. Eng qisqa davomiyligi bo'yicha wellness turizm boshqa turizm turlaridan farqlanadi. [4]

Insonning kasallik darajasiga qarab tibbiy yoki rekreasion turizmga borish tavsiya etiladi va ular tibbiy xodimlar tomonidan doim nazoratga olinib, tashxisga qarab davolanadi. Jiddiy kasalliklarni davolash yoki jarrohli amaliyoti o'tkazilishi ko'p vaqtni olgani kabi tibbiy turizmga aynan shu xususiyatga ega bo'lgan sayyohlar kasallikni bartaraf etish uchun borishadi.

Rekreasion turizmda esa shu holatni yaxshilash, qayta tiklash maqsadida eng kamida 14 kunlik sayohatni amalga oshirishadi va bu jarayonda kasalligi jiddiy bo'lmagan yengil darajadagi kasalliklar bartaraf etiladi.

Umuman olganda, wellness turizm barcha uchun taklif etiladi. Ushbu turizm turini mamlakatimizda rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlari mavjud bo'lib, uni takomillashtirish va jahon standartlariga moslashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alimova Shaxnoza. (2023). WELLNESS TUSHUNCHASI, WELLNESS TURIZM ATAMASINING O'ZBEK TILIDA QO'LLANISHI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 579–584.
2. Alimova Shaxnoza Oktyamovna. (2024). WELLNESS TURIZM KLASSIFIKATSIYASI VA UNING TURLARGA BO'LINISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11090479>
3. Alimova Sh.O , “Wellness turizmi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari”, “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash: muammolar va echimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi, 97-100 bb, 2023 y.

4. Eva Csirmaz, Karoly Peto, University of Debrecen, Faculty of Economics and Business Administration, Hungary, "International trends in recreational and wellness tourism", *Procedia Economics and Finance* 32 (2015) 755 – 762
5. Galina Romanova, Alexandr Vetitnev va Frederic Dimanche "Health And Wellness Tourism", Russia, 2015 y, 237p
6. Oktamovna, A. S., & Vahobjon o'g'li, N. S. (2024). O 'ZBEKISTONNING ICHKI TURIZM SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(1), 123-129.
7. Shaxnoza, A. (2023). WELLNESS TURIZMNING MOHIYATI VA UNI XALQARO TAJRIBA ASOSIDA O 'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 37(37).
8. Siripan Deesilatham and Sameer Hosany, School of Management Royal Holloway, University of London, Wellness Tourism and Quality of life: Motivations, Constraints, Lifestyles and Satisfaction, *Travel and Tourism Research Association: Advancing Tourism Research Globally* (12), 2016
9. <https://globalwellnessinstitute.org/> Global Wellness Institute
10. <https://www.researchandmarkets.com/reports/5669159/wellness-tourism-globalmarket-report-2022> Wellness Tourism research market report 2022
11. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/wellness-tourism-market> Grand view research
12. <https://www.booking.com/index.ru.html?label=gen> Booking.com
13. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/sanatorium> Cambridge dictionary

TURIZM SEKTORINI RIVOJLANTIRISHDA INTERMODAL TRANSPORTNING ROLI

Axmatova Moxigul Ergashovna

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Tel: +998 91 401 20 91

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda transport ikki yoki undan ortiq mamlakatlar o'rtasida transport operatsiyasi subyekting harakatini ta'minlaydi.

Umumiy foydalanishdagi transport — xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va aholining yuk va yo'lovchi tashishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan tarmog'i. U ko'pincha asosiy yo'nalish deb ataladi (asosiy yo'nalish ba'zi bir tizimda, bu holda aloqa marshruti tizimida asosiy, asosiy yo'nalishdir). Jamoat transporti tushunchasi temir yo'l transporti, suv transporti (dengiz va daryo), avtomobil, havo transporti va quvur transportini qamrab oladi.

Nodavlat transport - ishlab chiqarish ichidagi transport, shuningdek, transport bo'lmagan korxonalariga tegishli barcha turdagi transport vositalari, qoida tariqasida, har qanday ishlab chiqarish tizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Transport moddiy ishlab chiqarishning bir tarmog'i bo'lib, o'z mahsulotiga ega. Ushbu mahsulot harakatdir (masalan: katta hajmli yuklarni tashish yoki konteynerli temir yo'l tashish). Moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda, tashish jarayonida ishlab chiqarish jarayoni aylanma jarayonida va aylanma jarayoni uchun davom etadi. Transport mahsulotlari sotib olinadi va sotiladi, ya'ni ular tovar vazifasini bajaradi va shuning uchun foydalanish qiymati va qiymatiga ega. Transport mahsulotlarining foydalanish qiymati uning xalqaro yuklarni tashish ehtiyojlarini qondirish qobiliyatidir.

Umuman olganda, transport xizmatlarining maqsadi turistlarning bir joydan ikkinchi joyga, masalan, ularning yashash joyidan turistlarga xizmat ko'rsatadigan joyga harakatlanishini ta'minlashdir. Ko'rinib turibdiki, turizm va transport bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Turizm yo'lovchi tashish uchun harakatlantiruvchi omil bo'lib, ayniqsa uning rivojlanishi, innovatsion xizmatlari va intermodal yo'lovchi transporti va markazlari modellari hisoblanadi. Turistlar uchun turli yo'nalishlarni ishlab chiqish uchun turli rejimlar va marshrutlar kerak. Turizmda yo'lovchilarga intermodal xizmat ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoj va ularni bajarishdagi asosiy masalalar Intermodal yo'lovchi tashish sayohatda ikki yoki undan ortiq transport turlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Darhaqiqat, har bir yo'lovchi uchun rejimlar o'rtasidagi almashish noqulay va shunga e'tibor qaratadigan bo'lsak, intermodal yo'lovchi tashish kontseptsiyasining maqsadi bu almashinuylarni iloji boricha silliq qilish, ya'ni integral ma'lumotlarga kirish imkonini berish, aqlli chiptalarni taqdim etish va intermodaldan foydalanishdir. boshqa tomondan xavfsiz va qulay bo'lgan markazlar. Turizmda intermodal xizmatlarni joriy etish yo'nalish tanlashni ko'paytirishga, shuningdek, transport tizimining samaradorligini oshirish bilan birga qulay xizmatlarni taklif qilishga yordam beradi.

Yevropa mamlakatlari, shuningdek, AQSh, Uzoq Sharq va dunyoning boshqa mamlakatlariga o'zaro investitsiyalar zamonaviy biznesning o'ziga xos xususiyati bo'lib, ishchi kuchining harakatchanligi ortib borayotgan omil hisoblanadi. Bundan tashqari, intermodal markazlarning sayyohlarga uzluksiz xizmat ko'rsatishdagi eng muhim hissasi turli xil transport turlari o'rtasidagi aloqadir. Bu Yevropa fuqarolariga erkin harakatlanish imkonini beradi. Intermodal yo'lovchi tashish tezkor tranzitga kirish imkonini beradi va yuqori sifatli jamoat transporti xizmatlariga bo'lgan talabni qondiradi.

Jamoat transportidagi intermodal yo'lovchi tashish markazlariga avtovokzallar, temir yo'l va metro stantsiyalari kiradi, ko'pincha multimodal (avtobus va temir yo'l) yirik transport markazini transport markazi yoki tranzit deb atash mumkin. Shahar ko'chalarining tranzit markazlari sifatida ishlashga bag'ishlangan qismlari tranzit savdo markazlari deb ataladi.

Aeroportlar ikki tomonlama markaz funksiyasiga ega. Birinchidan, ular keyingi tashish uchun yo'lovchi tashishni bir joyga jamlaydilar. Bu aeroportlarning atrofdagi transport infratuzilmasi, jumladan, yo'llar, avtobus xizmatlari, temir yo'l va tezkor tranzit tizimlari bilan bog'lanishini muhim qiladi. Ikkinchidan, ba'zi aeroportlar aviakompaniyalar yoki aviakompaniyalar uchun modul ichidagi markazlar sifatida ishlaydi. Bu faqat cheklangan miqdordagi aeroportlardan uchadigan tarmoq aviakompaniyalari orasida keng tarqalgan strategiya bo'lib, agar ular aviakompaniya to'g'ridan-to'g'ri uchmaydigan ikki shahar o'rtasida bo'lishni istasa, mijozlarni o'z markazlaridan birida samolyot almashtirishga majbur qiladi.

Uzluksiz intermodal sayohatni qo'llab-quvvatlovchi quyidagi tegishli jihatlar aniqlandi va ularni beshta asosiy sohaga ajratish mumkin edi:

1-Intermodal integratsiyasi – o'zaro almashish terminalidagi barcha jamoat transporti turlarining (shaharlararo rejimlar va mahalliy jamoat transporti) mavjudligi va ulardan foydalanishni birlashtiradigan va rag'batlantiradigan, shuningdek, yo'lovchilarning alohida transport turlari uchun qulay foydalanishni ta'minlovchi holatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu taqdim etilgan xizmatlar, ob'ektlar va xususiyatlar turli transport operatorlari o'rtasida yaxshi muvofiqlashtirish va hamkorlikni talab qiladi. Bunga quyidagilar kiradi: uzoq masofali rejimlar va yuqori sifatli ulanishlar mavjudligi; terminalga kirish va undan chiqish uchun jamoat transporti (er osti, avtobus, tramvay, shahar poezdi) mavjudligi (birinchi/oxirgi shahar mili); asosiy yo'l tarmog'iga to'g'ridan-to'g'ri kirishni ta'minlash (masalan, mavjud avtomobil yo'liga ulanish); avtoturargohlar yoki garajlar bilan ta'minlash; markaziy joyda taksilar mavjudligi; almashish punktiga olib boradigan/qaytuvchi yoki o'tuvchi veloyolaklarning mavjudligi (aeroportlarning aksariyatiga tegishli emas); depozit qutilari va velosipedlar uchun stendlarning mavjudligi va turli transport operatorlari o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlik.

2 – Intermodallikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish – terminalda turli transport turlarining maqbul mavjudligi va integratsiyasi, ulardan foydalanish bo'yicha qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar sayyohlarning uzluksiz sayohati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Turkum xizmatlar, imkoniyatlar va o'tkazish xususiyatlari, kutish vaqtlari, ma'lumot taklifi, chiptalarni oson sotish va bagaj bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu sohaga quyidagi xizmatlar belgilanishi mumkin: shaharlararo rejimlar o'rtasida qisqa uzatish vaqtlari (transport operatorlari o'rtasidagi hamkorlik, dinamik jadvalni sinxronlashtirish va boshqalar); kelish va jo'nash vaqtlari va barcha rejimlarni birlashtiruvchi keyingi ulanishlar haqida etarli ma'lumot; ro'yxatdan o'tish, chipta kassalari kabi barcha sig'implarni cheklash punktlarida qisqa kutish vaqtlari; chiptalarni sotish avtomatlari, o'rnatilgan chiptalar, intermodal yuklarni tashish va h.k.lar orqali chiptalarni oson sotish.

3 – Intermodal o'tish joylarining dizayn jihatlari – temir yo'l vokzallari, aeroportlar va portlarda konstruktiv dizayn va ichki jihozlar sayyohlar uchun uzluksiz sayohatni kafolatlashda muhim rol o'ynaydi. Estetik dizayn muhim, lekin u yaxshi funktsionallik bilan bog'liq bo'lishi kerak, ammo ajoyib va jasur badiiy dizayn almashuvni "mo'ljal" qilishning afzalliklarini keltirishi mumkin. Shu sababli, ayirboshlash terminalini rejalashtirishda arxitektura va transportdan foydalanish bilan bog'liq masalalar, shuningdek saytning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Tegishli xizmatlar sohada eng muhimlari sifatida belgilanadi: shaharlararo rejimlar (darvozalar va platformalar o'rtasida) o'rtasida uzatish uchun qisqa masofalar; terminal ichidagi transport turlari va xizmat ko'rsatish ob'ektlari o'rtasidagi qisqa masofalar; nogironlar uchun to'siqsiz kirish va almashish; oson yo'l topish (yaxshi va tushunarli signallar) va terminal dizayni nuqtai nazaridan yaxshi xavfsizlik hissi.

4 – Yo'lovchilarga qulaylik yaratish bo'yicha qo'shimcha xizmatlar – turistik yoki biznes maqsadlarida uzoq masofalarga sayohatga chiqayotgan yo'lovchilar almashuv terminalida to'xtash vaqtida o'zlarini qulay his qilishlarini ta'minlaydigan keyingi xizmatlar, qulayliklar va xususiyatlar aniqlandi: qulay kutish sharoitlari (etarlicha bo'sh o'rindiqlarning mavjudligi har qanday vaqtda zallarda); yaxshi xavfsizlik hissi - xavfsizlik xizmatlari; chap bagaj idoralari va shkaflarning mavjudligi; kundalik foydalanish va iste'mol qilish uchun do'konlar va ob'ektlarning yaxshi ta'minlanishi, boradigan joy (mehmonxonalar, diqqatga sazovor joylar, tadbirlar va boshqalar) haqida aniq va oson tushunarli ma'lumotlarning mavjudligi.

5 – Intermodal almashuvlardagi huquqiy va me'yoriy baza – intermodal yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Aniqlangan yo'lovchilarning afzalliklariga kelsak, intermodal markazlarda uyg'unlashtirilgan transport xizmatlarini rivojlantirish turistlar uchun qo'shimcha qiymat beradi va turli transport turlarining jozibadorligini oshiradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi har bir transport turi o'z manfaatlaridan kelib chiqib, maksimal foyda olishni maqsad qilgan holda alohida harakat qiladi va boshqa transport turlariga e'tibor bermaydi. Xulosa qilib aytganda, transport vositalaridan yetarlicha samarali foydalanilmayapti, yo'lovchi tashish xizmatlari sifati past, ularning tashishga bo'lgan talabi yetarli darajada qondirilmayapti.

Agar transport infratuzilmasining roli yetarlicha baholanmasa, bu xalqaro turizm rivojiga va yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buning natijasida mamlakat jozibador turizm mamlakati imidjini yo'qotishi mumkin. Savdoni saqlab qolish uchun amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, transport tizimi sohasida maqsadli siyosat olib borish zarur.

Turizm va transportning rivojlanishi o'zaro bog'liq va o'zaro bog'liq jarayondir. "Turizmtransport" tizimidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganishda ilmiy adabiyotlardan ko'rinib turibdiki, transportga ustunlik beriladi, chunki uning o'рни va mazmuni turizmni rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Bu tabiiy va mantiqiydir, chunki turizm nisbatan yangi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib, katta hajmda transport rivojlanishining natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nikolova, С. Въздействие на системите за планиране на интермодалните пътувания върху градския туризъм. In Туризмът-отвъд очакванията. Сборник юбилейна международна научна конференция: 100 години УНСС и 30 години катедра" Икономика на туризма" (pp. 417-426). Университет за национално и световно стопанство (УНСС).

2. Meladze, M. (2008). The specifics of craft of tourist product in Georgia. Publ. House Kabadoni.
3. Devadze, A., Chaganava, P., Kordzaia, I., & Devadze, L. (2021). Intermodal transportation as a quality improvement tool in tourism industry. In MATEC Web of Conferences (Vol. 339, p. 01002). EDP Sciences.
4. Atoyevich, T. A., Jalol o'g, K. J. R., & Ahmedjonovna, S. S. (2022). diod rejimida ulangan maydon tranzistoriga yorug'lik ta'sirini o'rganish. Results of National Scientific Research International Journal, 1(2), 106-110.
5. Karimov, A. V., Dzhuraev, D. P., Kuliev, S. M., & Turaev, A. A. (2016). Distinctive features of the temperature sensitivity of a transistor structure in a bipolar mode of measurement. Journal of Engineering Physics and Thermophysics, 89, 514-517.
6. Abdulkhaev, O. A., Yodgorova, D. M., Karimov, A. V., Kamanov, B. M., & Turaev, A. A. (2013). Features of the temperature properties of a field-effect transistor in a currentlimiting mode. Journal of Engineering Physics and Thermophysics, 86, 248-254.
7. Rozikovich, H. H. UDC: 338.1. 12 USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE QUALITY OF TRANSPORT SERVICES Akhmatova Mohigul Ergash qizi Doctoral student of. MATHEMATICAL MODELS OF CURVED AND LINEAR MOTION OF A CAR TAKING INTO ACCOUNT THE ELASTICITY AND DEFORMABLE TIRES. 64, 54.
8. Axmatova, M. (2023). BUXORO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA TRANSPORT XIZMATLARI VA HARAKATCHANLIGI TAHLILI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 37(37).
9. Axmatova, M. (2021). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI OPTIMALLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
10. Axmatova, M. (2021). Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
11. Axmatova, M. (2023). TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASINI ANIQLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).
12. Axmatova, M. (2023). Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 37(37).
13. Axmatova, M. (2023). INTERNATIONAL CONNECTION OF TOURISM AND TRANSPORT SERVICES. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 37(37).
14. Axmatova, M. (2023). TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARI BILAN BOG 'LIQ MUAMMOLAR VA ULARGA INNOVATSION YECHIMLARI. DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE, 1(4), 58-65.
15. Rozikovich, H. H. (2021). The role of innovative technologies in improving the quality of transport services. World Bulletin of Management and Law, 3, 4-8.
16. Salimova, S. F. (2023). ONLAYN TURISTIK AGENTLIKLAR TIZIMI ORQALI JOYLASHTIRISH VOSITALARI XIZMATLARINI SILJITISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 16(4), 7-12
17. Sarvinoz, S. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ГИДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЛЯ СТРАНЫ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 37(37).

EFFICIENT WAYS OF USING PUBLIC RELATIONS TOOLS IN TOURISM

Radjabov Odil Olimovich

Lecturer, Tourism and Hotel business Department Bukhara state university, Uzbekistan

Abstract: *the main aim of thesis is defining useful aspects of PR and their adoption for tourist sphere. Enlarge using of foreign successful practise of PR in our regional and country tourism. Establishment of effective system of PR among subjects. The progress of modern information and communication technologies brings new opportunities: with the help of the means and methods of the Republic of Uzbekistan, the regulatory impact on the state of economic, political and cultural development of society is being implemented.*

Key words: *public relation, publicity, propaganda, advertisement, destination, brand making, public relation models, MICE, integrated applications, Sunday-Weekend-Holiday concept.*

Modern life requires promotion technologies in all areas: politics, entrepreneurship, education, culture, ecology and so on. Promotion technologies are associated with such types of activity as integrated marketing communications, which include advertising, PR, branding, publicity, loyalty programs, direct marketing, sponsorship, sales promotion, personal sales that are constantly transforming, which became especially noticeable in the era of digital technology. All this determined the relevance of marketing and PR, focused on industry specifics, one of which was tourism. Modern tourism is the sphere of the national economic complex, which has internationally turned into a booming industry. The success of a tourism organization, like any other business, largely depends on the effectiveness of communications that provide a link between the producer of tourism services (tour operator) and the consumer (tourist) and the promotion of tourism products.

The tourism sphere in Uzbekistan become more popular and rapid increasing field, due to several factors like solution of unemployment, rich source of traditional and cultural heritages, new field of economy and it is deemed as the most perspective branch of economy of republic. In recent two years the total number of tourism export increased to 2.5 times and get place of the main sphere in republic economy.

According to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan of February 3, 2018 № DP-5326 section 4: To transform the State Unitary Enterprise the Centre for Promotion of National Tourism Product under the State Committee of the Republic of Uzbekistan for Development of Tourism to the State Unitary Enterprise the National PR-Centre under State Committee of the Republic of Uzbekistan for Development of Tourism, while entrusting it with the tasks of organizing a promotion of tourist potential of the republic. Besides this decree of Cabinet of Ministers of republic establish another with number 747 on 20.09.2017 which gives preferences for foreign countries' media companies to cooperate with our tourism department. It contains preferences devoted in order to encourage PR activities of tourism industry. Additionally, implementation of decree of President on 25.10.2018 under the number PD-3982 makes good impact on spreading necessary information around the countries and support status of our country by compatriots living in foreign countries.

The analysis of scientific literature on the problems of the nuclear industry confirms the effectiveness of research in various branches of social and humanitarian knowledge. In modern world literature there are more than a thousand definitions of the Public relation. The first decades of the XX century are characterized by the appearance of names associated with the birth of professional specialization in public relations.

For the first time, the expression "public relations" was officially used by American President Thomas Jefferson in 1807 in the Seventh Appeal to Congress. In the 1830s, this concept came into use as

"relations for the general good" ("relations for the common good"). The wide circulation of the press caused the emergence of press agents, which in essence are the precursors of future PR-exchanges.

At the beginning of the 20th century the birth of professional PR specialization. This is due to the strengthening of "big business", whose representatives had in the eyes of the majority of the population a negative reputation of people who were ready for any violations of laws and morals for profit.

Thesis concentrate on tourism sphere, especially on macro level, additionally entrepreneurs also can keep these concepts to keep better improvement. As the recommendation author suggested the followings:

-using more people gathered places like airport and railway station (they must be internal gate of the city), malls to express beauty of city. These places must be organized or ornamented with symbols and spirit of the city. They must reflect whole **power and luxury** of the city;

-more **festivals** (annual exact schedule with excellent organization level) and **open-air musical performance** (now used usually Ark and fountain square in front of region administration building). In the near future Megamall in the centre of city and Bukhara city will be good places to held this kind of actions.

-using payment ATMs and Apps for booking or purchasing **bus** (just one place, but it also does not similar to ticket point of sale), **train** (around the city just one railway ticket sale place and one countryside of city) and **airway tickets** (more but process little long(language aspects also exist);

- **reschedule all flow** of main transport for long distance at the seasonal period of tourism (increase the number of daily flows for much required cities);

-using free type of **location** (Google maps, GPS navigation and etc.) and **booking apps** for all potential objects of tourism (cafes, ice cream, disco, small shops, even bio toilets);

-using **touristic flow** by student as the main object of research. Public relation in this case will be the best tool.

Author made additional concepts and projects to improve position of Bukhara region by learning practical success of European countries like Italy (during author's scholarship in Padova, Italy in 2020), what can be useful in further actions of tourism developing department of region. The offered way can be implemented with minimal expenses, but expected effects may be higher than costs. The proposed recommendations can be used by tourism specialists in their professional activities.

The main principles according to which public relations should be built were formulated by S. Black:

-transparency of information;

-reliance on the objective laws of mass consciousness, as well as relations between people, organizations, firms and the public;

-a decisive rejection of subjectivity, a voluntary approach, pressure on the public, manipulative attempts to wishful thinking;

-respect for individuality, orientation to a person, his creative abilities;

-recruitment of highly qualified specialists with the maximum delegation of authority up to the most low-level performers. [1]

The main types of PR are **commercial and political PR**. Initially, PR activity was aimed exclusively at consumers. Public relations programs aimed at creating positive fame for goodsproducing firms remain an important public relations trend now. This is especially important when introducing new types of goods to the market, when you need to assure wary consumers of the high reputation of the manufacturer. Nowadays, potential investors (financial PR), government agencies, employees of the company itself are also becoming the object of PR companies. In addition to ordinary PR events, crisis PR is used when it is necessary to eliminate the negative consequences of a crisis that hit a company.

Literature review

1. Блэк С. Паблик рилейшнз. Что это такое? /С. Блэк. М.: Новости, 1990. (стр.240)

2. Борисов Б. Л. Технология рекламы и PR: учебное пособие/ Б. Л. Борисов. М.: ФАИРПРЕСС, 2001. ISBN 5-8183-0270-9 (стр.624)
3. Карпухин О. И. Формирование масс: Природа общественных связей и технологии «паблик рилейшнз»: Опыт историко-социологического исследования / О. И. Карпухин, Э. А. Макаревич. Калининград, 2001. ISBN 5-7406-0447-8 (стр.547)
4. Папирян, Г.А. Международные экономические отношения: маркетинг в туризме/ Г.А. Папирян – М.: Финансы и статистика, 2001. (стр.160)
5. Public relations. Konzepte und Theorien. Kunczik, Ko'ln. 2002, (p.11)
6. Marketing Places. P.Kotler, I.Rein, D.Haider, 2002, (p.177)
7. Марлоу Ю. Пиар в электронных СМИ: Пер. с англ. / Ю. Марлоу. М.: Мир, 2002. ISBN: 5-03-003463-3 (стр.240)
8. Сайтел Ф. П. Современные паблик рилейшнз: Пер. с англ., 8-е изд. / Ф. П. Сайтел. М.: Имидж-контакт, 2002. (стр. 332)

XUSUSIY SEKTORNING RIVOJLANISHIDA IJARA

MUNOSABATLARINI O'RNI

Qudbiyev Nodir Tohirovich,

Farg'ona politexnika instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini, assistenti, e-mail: nodir.qudbiyev@ferpi.uz, +998911054548.

Annotatsiya. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ijara munosabatlarini rivojlantirish xususiy sektor uchun ham, hukumat uchun ham foydalidir, chunki bunda qo'shimcha moliyaviy resurslarni yaratish zaruratidan qochiladi. Ushbu tadqiqot davomida biz ijara bozorining muammolari va o'ziga xos jihatlari e'tibor qaratdik, bu masalaning iqtisodiy ahamiyatini aks ettirdik.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk bozori, ijtimoiy taraqqiyot, davlat ijarasi, uy-joy xizmatlari, davlat uy-joy fondi, uzoq muddatli kreditlar.

An'anaviy ma'noda ko'chmas mulk bozori ijtimoiy taraqqiyotni tavsiflaydi va umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Shuningdek zamonaviy xorijiy olimlarning tadqiqotlarida "ishsizlik darajasi va turar-joy binolari soni o'rtasidagi bog'liqlik, unda bo'sh turar-joy binolari ko'p bo'lgan ba'zi hududlarda yoshlar uchun ish topish qiyin va shu bilan ishsizlik darajasi oshadi" degan fikrlarni ko'rishimiz mumkin [6]. Ba'zi davlatlarning turar-joy binolari masalasidagi siyosatida ham yuqoridagi qarash to'g'ri ekanligiga va amaliyotda bu omilni hisobga olgan holda harakat qilinayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Misol tariqasida Xitoy hukumati "hozirgi va rivojlanayotgan bozorlarida sotib olish uchun uy-joylarga emas, balki davlat ijarasi uylariga ko'proq sarmoya kiritishi kerakligini ta'kidladi" [5]. Buyuk Britaniya hukumati uy-joy ijarasini davlat sektoridan xususiy sektorga o'tkazishni afzal ko'radi. So'nggi yigirma yil ichida Qo'shma Shtatlar bir qator moliyaviy ijara xizmatlarini yaratishga intildi. Bundan tashqari, Italiya hukumati uy-joy xizmatlari turli mintaqalarda taqsimlanish siyosatini olib bormoqda bu orqali ishchi kuchi ko'p talab etuvchi hududlarga ishchilar migratsiyasi amalga oshirilmoqda [2].

Adabiyotlarni ko'rib chiqish asnosida iqtisodiyot rivojlangan yoki rivojlanmaganligidan qat'i nazar, so'ngi yillarda butun dunyo bo'ylab siyosat xususiy uy-joylarni ijaraga berish xizmatlarini rivojlantirishga qaratilayotganini ko'rish mumkin. Xuddi shunday vaziyat yurtimiz misolida ham ko'rish mumkin "Davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi [3], "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" [4] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari buning yaqqol misolidir.

So'nggi yillarda barcha mamlakatlarda xususiy sektor va aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasida e'tibor kuchaydi. Xuddi shunday, xususiy sektorning ijara munosabatlari, ko'chmas mulk bozorida muhim ishtiroki, iqtisodiy rivojlanishning omili ekanligi kun sayin oydinlashib bormoqda. Yana bir muhim jihat bu ijtimoiy muhitning yaxshilash, ya'ni uy-joy sotib ololmaydigan aholining zaif qatlamining bu masaladagi muammolariga yechim ekanligidir. Hukumat o'z mablag'larini boshqarish va kapital ajratishda duch kelgan qiyinchiliklar tufayli davlat infratuzilmasiga xususiy investitsiyalar jalb qilinadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ijaraga beriladigan uy-joylardan olingan moliyaviy daromadlar uy egasining qo'shimcha foydasi sifatida qaraladi va bu yo'nalishdagi investitsion qarorlar qabul qilishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususiy investitsiyalar erkinligini va iqtisodiy qiymatni oshirishni nazarda tutadigan liberalizmning siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uy-joy sektori rivojlanayotgan mamlakatlarda shahar iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi.

Xususiy ijara sektorining samaradorligi iqtisodiyotning turli tarkibiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Iqtisodiyotning turli xil iqtisodiy tuzilmalarni, iqtisodiy rivojlanishni, siyosiy tizimlarni va umuman ijara, uy-joy imkoniyatlari va xususiy sektorni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash darajasini o'z ichiga olgan ijtimoiy ta'minot tizimini anglatadi. Umuman olganda, demokratik mamlakatlar davlat tomonidan tartibga solishdan ko'ra ijtimoiy jihatdan xilma-xil uy-joy fondiga ega bo'lishni afzal ko'rishadi. Ijara va iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi munosabatlar tahliliga ko'ra, ijara taqsimotining usullari turli bozorlardan kelib chiqadigan iqtisodiy siyosat turlariga asoslanadi. Masalan, Shvetsiya ijara har qanday shartnomalar yoki huquqiy baza asosida emas, balki uy-joy va bozor munosabatlarning ichki qiymati asosida aniqlanishi kerak, deb hisoblaydi [1].

Davlatning roli yanada barqaror investitsion muhit yaratishda asosiy o'rinni egallaydi, hukumat soliqlarning investitsiya daromadlariga nisbatini kamaytiradigan, ijaraga beriladigan uyjoylarga sarmoya kiritishning jozibadorligini oshiradigan maqsadli rag'batlantiruvchi tashabbuslarni joriy qilishi mumkin. Bundan tashqari, hukumat xususiy uy egalariга nisbatan soliq imtiyozlarini qo'llashi orqali, turistik maqsadlar uchun ijarani ham ko'paytirishga, mehmonxona biznesining rivojlantirishga erishim mumkin. Ba'zi nisbatan kichik individual investorlar kichik boshlang'ich sarmoyasi bilan o'z uyni mehmonxonaga aylantiradi, o'z o'zimi band qilgan shaxsga aylanadi, bu ham aholini ishsizlik muammosini yechadi ham uning daromadlari oshishiga xizmat qiladi.

Dunyoning ba'zi davlatlari aholi turmush sharoitini, farovonlikni yaxshilashga yo'naltirilgan ijara uy-joy bozorini rivojlantirish uchun xususiy moliyaviy investitsiyalar qo'llab quvvatlash yoki investorlar moddiy aktivlarga sarmoya kiritish o'rniga, moliyaviy ijara vositalardan foydalanishni afzal ko'rishadi. Bu shuni anglatadiki ipoteka va boshqa mulkiy kreditlar rivojlanadi, bu orqali hukumat o'zi kiritgan moliyaviy resurslarning yana qaytishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, fikrimizcha kelajakda xususiy sektorning ijara uy-joy bozorida o'rnini, davlat yoki banklar moliyalashtirish mablag'lari evaziga barpo etilgan uzoq muddatli uyjoy bozorida egallaydi, zero, bunda ham investor, ham mulkdor manfaatdor bo'ladi. Qurilish uchun investitsiya qilgan investorlar o'z mablag'larini uchinchi tomon (davlat yoki banklar) kafilligi ostida beradi, shu munosabati bilan uni xavflardan xolis qiladi. Ijara o'rniga uzoq muddatli kreditlar evaziga olingan uy-joy egalari kredit muddatlari tugashi yoki qarz uzilishi bilan o'zining mulkiga egalik qiladi. Shu o'rinda bizningcha kreditga sotilayotgan uy-joylarni kredit muddati tugagunga qadar oldi sotdi jarayonini huquqiy bazasini yanada takomillashtirish zarurati bor. Bundan tashqari xususiy ijaraga beriladigan uy-joy bozorini davlat nazorati ostida bo'lishi lozim bu tuli firibgarlik va moliyaviy piramidalarning oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bengtsson, B. (2024). The changing role of cooperatives in the Swedish housing regime—a path dependence analysis. *Housing Studies*, 1-21.
2. Czischke, D., & Van Bortel, G. (2023). An exploration of concepts and policies on 'affordable housing' in England, Italy, Poland and The Netherlands. *Journal of Housing and the Built Environment*, 38(1), 283-303.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 14.12.2023 yildagi 660-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 26.02.2019 yildagi 170son.
5. Sun, H., Zhou, G., Liu, Y., Fu, H., & Jin, Y. (2024). Housing vacancy identification in shrinking cities based on multi-source data: A case study of Fushun city in Northeast China. *Journal of Geographical Sciences*, 34(1), 89-111.
6. Zulkarnain, S. H., & Nawi, A. S. (2024). The relationship between macroeconomic variables on residential property price: case study in Malaysia before and during COVID-19. *International Journal of Housing Markets and Analysis*, 17(3), 702-725.

IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE REGIONAL SERVICE SECTOR BASED ON THE DEVELOPMENT OF HUMAN POTENTIAL

Kabilova Nigina Shukhratovna

*Teacher of the Department of Marketing and Management Bukhara
State University, Uzbekistan*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson salohiyatini rivojlantirishning hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada inson kapitalini rivojlantirish o'zgaruvchan global bozor sharoitlariga muvaffaqiyatli moslasha oladigan barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotlarni barpo etishda hal qiluvchi rol o'ynashi ta'kidlanadi va uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun inson salohiyatiga sarmoya kiritish zarurligiga urg'u beriladi.

$$B = (K_2 - K_1) / (T_1 - T_2)$$

- Бу ерда B - қопланиш муддати (йил ҳисобида);

- K1 va K2 вариантларни жорий этиш учун керак бўлган маблағлар миқдори;
- T1 va T2 таққосланадиган вариантларнинг эксплуатация харажатлари.

Қўшимча капитал маблағларнинг қиёсий самарадорлик коэффиценти (E) қопланиш муддатининг тескари ифодаси ҳисобланади ва таннархни пасайтиришдан олинган тежамнинг қўшимча капитал маблағлар миқдорига нисбати билан аниқланади:

$$E = (T1 - T2) / (K2 - K1) \text{ ёки } E = 1 / B$$

Бирон бир техникавий вазифани ҳал этишнинг, рационализаторлик ва ихтирочилик таклифлари, техникавий ва ташкиллаштиришнинг мумкин бўлган вариантларини, маҳсулот сифатини оширишнинг турли усулларини таққослаганда бошқа шартлари тенг бўлиб қолса, келтирилган харажатлар минимум бўлишини талаб қиладиган вариант энг яхшиси ҳисобланади. Бир неча вариантлардан энг яхшисини танлаб олиш учун қуйидаги келтирилган харажатлар формуласидан фойдаланиш керак.

$$C + E_n \cdot K \rightarrow \min$$

- Бу ерда C - муайян вариант бўйича ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархи;
- E_n - капитал маблағлар самарадорлигининг норматив коэффиценти;
- K - бир йўла солинадиган капитал маблағларнинг йиғиндиси.

У янги капитал қўйилмаларнинг минимал даражадаги иқтисодий самарадорлигини ҳамда бир сўмлик капитал қўйилма бир йилда маҳсулот таннархини неча тийинга камайтира олишни билдиради.

Масалан, саноат тармоғи учун белгиланган самарадорлик коэффиценти меъёри 0,14 бўлса, бу шу тармоқда ҳар бир сўм капитал қўйилмалар маҳсулот таннархининг пасайиши ҳисобига энг кам билан 15 тийинлик тежам, фойда бериши зарур. Самарадорлик коэффиценти "0"дан "1"га қанча тез интилса, самарадорлик шунча юқори, харажатларнинг режа қопланиш муддати эса шунча қисқа бўлади.

Ишлаб чиқаришнинг самарадорлик даражаси хилма-хил, бир-бирига боғлиқ бўлган омиллар таъсирида ташкил топади ва шаклланади. Ҳар бир комплекс, тармоқ ва корхона учун унинг техник-иқтисодий хусусияти сабабли самарадорликни оширишнинг ўзига хос омиллари мавжуд.

Полиграфия соҳасидаги ишлаб чиқариш корхонасининг китобни елимлаш бўлимидаги ишлаб чиқариш жараёнларини тадқиқ қилиб самарадорлигини ошириш тажрибасини таҳлилини кўриб чиқамиз. Корхона раҳбарияти ташкилот номини сир сақлаш талабини қўйгани учун шартли равишда Ношир МЧЖ деб номлаймиз.

Кохонанинг китобни елимлаш ишлаб чиқариш майдонидаги ва у билан боғлиқ бўлган моддий ва ахборот алмашинув занжирлари ҳақидаги бирламчи маълумотлар йиғилиб қуйидагилар аниқланди.

Елимлаш ускунаси: А3 форматда, 1 соатда ўртача 180-200 та китобни елимлайди. Бу 18-20 секундта 1 бирлик маҳсулот ишлаб чиқаради дегани. Бир сменали иш кунида (8 соатда) 1440-1600 та маҳсулот. 1 соатда 2 Кв, 1 кунда 16 Кв электр энегияси срафлайди. Ускуна ўрта қалинликдаги 1000 та китобни елимлашда 1.3 кг елим сарфлайди. Елим сарфи 1 китобга ўртача 130 сўмни ташкил этади. Ускунани ишлатишда 1 та ҳодим талаб этилади. 1 та ҳодим учун иш ҳаққи, тушлик ва бошқа харажатлар 1 ойда 6 890 000 сўмни, бир кунда 265 000 сўмни, 1 соатда 33125 сўмни ташкил этади. Елимлаш майдони рентабиллик фаолият юритиши учун 1 бирлик маҳсулотни тайёрлаш қиймати 450 сўмни ташки қилар экан. Шундан елим, электр сарфи, ускунани эскириши, ермайдони ижараси ва бошқа харажатлар 175 сўм/донани ташкил этса, сарфланаётган меҳнат сарфидан яратилган қиймат 275 сўм/донани ташкил этади. Ҳодимнинг 1 ойлик 6 890 000 сўм маошини 275 сўмга бўлсак 1 ойда 25 055 та, 1 кунда 964 та, 1 соатда 121 та китоб елимласа корхонанинг шу майдони зиён кўрмаслик нуқтасига чиқади.

Кузатувлар шуни кўрсатдики амалда 1 кунда ўртача 400 та маҳсулот тайёрланади ва ўрта ҳисобда иштёмолга яроқсиз маҳсулот адади бир кунда 15 тани ташкил қилади. Ўз навбатида 1 ойда 10400 та, 1 соатда 50 та дегани. Яни 72 дақиқада 1 та маҳсулот тайёрланади. Ваҳоланки 72 дақиқада ускунанинг ўртача иш сифимида 4 та маҳсулот тайёрлаш мумкин. Юқоридаги рақамларга мурожаат қиладиган бўлсак, корхона зиён кўрмаслиги учун 25 055 та маҳсулот елимлаш бўлимида тайёрланиши лозим. Амалдаги кўрсаткич бундан 1.5 баравар кам. Демак бу бўлим зиён билан ишлябти. Бундан ташқари бу бўлимга **йиғиш бўлими** елимлашга ҳозир бўлган вароқлардан йиғилган китоб блокларини тайёрлаб етказди. Йиғиш бўлими ўрта ҳисобда 1 кунда 2000 та китобнинг ички нашрдан чиққан вароқлардан териб елимлашга ҳозирлайди. Елимлаш бўлимида тиқин ҳосил бўлиб ишлаб чиқариш самарадорлиги 500 фойизга туширябти. Бу эса ўз навбатида корхонанинг даромадини 5 бараварга туширябти.

Мавжуд муаммони бартараф этиб, самарадорликни ошириш мақсадида бир қатор изланишлар олиб борилди ва елимлаш бўлимининг ички имкониятларидан максимал фойдаланиб бир кунда 2000 бирлик маҳсулот ишлаб чиқариш ечими таклиф қилиниб амалиётга жорий этилди. Натижада елимлаш майдонидаги тиқин бартараф этилиб, 1 кунда 2000 та А5 форматдаги китоб ва рисола... елимланишига эришилиб, корхонанинг шу бўлимдаги ишлаб чиқариш самарадорлиги 5 бараварга яъни 500% га оширилди.

Бунга қуйидаги омилларни ишлаб чиқаришга жорий этиш орқалик эришили:

1. Олдин ишлатиб келинган елимдан, сифати эқори, сарфи кам ва тез қотадиган италияда ишлаб чиқарилган елим қўлланила бошланди. Натижада эски елимда ускуна 1 китобни 7-8 дақиқа босимда ушлаб турган бўлса, янги елимда бу вақт 34 дақиқага туширилди.
2. Ишчи ходимни олдига кўшимча стол қўйиш орқали ускунадан елимланиб чиққат тайёр маҳсулотни олиб қўйишга сарфланадиган меҳнати 2 бараварга қискарди.
3. Олдин ускуна таъмир талаб бўлиб қолса, у иш вақтида таъмирланган ва бу ишни шу ишчи ходимни ўзи бажарган. Эндиликда муҳандис ишга олиниб ҳафтада 2 бор ишдан ташқари вақтда ускунага сервис хизмат кўрсатиб, иш пайтида бузилиб қолиш ҳолатларини олди олинди. Натижада бир ойда 12 соатлик ошиқча вақт йўқотишни олди олинди.
4. Олдин ускунада бирта А5 форматли китоб елимланган. Эндиликда эса нашрдан 2 та А5 форматдаги китоб бирлаштириб А3 форматда нашр этилиб елимга тайёрланди. Натижада ускунада худди шу вақтнинг ўзида бир 2та бирлаштириб нашр этилган А5 форматдаги китоб А3 форматда елимланиб, ускуна ва меҳнат самарадорлиги 2 бараварга ошди.

Елимлаш бўлимидаги самарадорликни молиявий жиҳатида хулоса ўлароқ тўхталиб ўтсак. Бир кунда 2000 та, 1 ойда (26 иш куни) 52000 та маҳсулот тайёрланмоқда. Бу 52000 та маҳсулотни 375 сўмга кўпайтирсак бир ойлик даромад 19 500 000 сўм келиб чиқади бундан ходимга сарфланадиган 6 890 000 ни айриб ташласак, ташкилот бир ойда 12 610 000 фойдага чиққанини кўрамиз. Ваҳоланки елимлаш бўлими зиён билан ишлаётган эди. Юқоридаги оддий 3-4 та кам харажатли ўзгартиришлар билан бўлим самарадорлиги 5 бараварга ошди.

Афсуски бугунги кунда кўплаб ишлаб чиқариш корхоналарида бу каби ҳолатларни кузатиш ва уларни бартараф этиб самарадорликни ошириш истиқболлари мавжуд. **Хулоса**

- Корхона ташкилот раҳбарлари ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш устида доимий изланишлар олиб бориш ва бунга қўшимча куч, вақ, маблағ сарфлашдан кўрқмаслиги лозим.

- Инсон омилни кучайтириш асосида меҳнаткашларнинг ижодий фаоллигини ва ташаббусини оширишни йўлга қўйиш.

- Саноат ишлаб чиқариши ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини юқори даражага кўтаришда инсон омилнинг роли беқиёсдир. Инсонларнинг ташаббуси, куч-ғайрати, жонли

ижодиёти ҳар қандай тараққиётнинг қудратли кучи ва энг муҳим манбаи ҳисобланади. Шу сабабли ҳам инсонни жамиятнинг асосий ишлаб чиқарувчи кучи деб айтадилар. У барча янгиликларни, шу жумладан, янги, илғор техника-технологияларни яратади, ишлаб чиқаришни оқилона ташкил этади, илмий ва амалий кашфиётлар қилади.

• Барча ишлаб чиқариш воситалари инсон меҳнати билан ҳаракатга келтирилади, фойдали нарсалар ҳосил қилинади. Бироқ инсон фақат асосий ишлаб чиқарувчи кучгина эмас, шу билан бирга ишлаб чиқариш ва бошқа ижтимоий муносабатларнинг субъекти ҳамдир. Одамлар фаолияти шу муносабатлар орқали рўёбга чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Нордик илмий-амалий электрон журнали 1-сон 2024 йил январ.
2. Хейне П. Экономический образ мқшления москва 1991 йил.
3. Gherhes C. Entrepreneurship and local economic resilience: the impact of institutional hysteresis in peripheral places. Small Bus Econ. 2018.
4. Управление финансовыми ресурсами предприятия : учеб. пособие / Н.Л.Савченко; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019.
5. John Mangan, Chandra Lalwani. Global Logistics and Supply Chain Management. Hoboken: Wiley, 2016.

TURIZM – MAMLAKATDA YUQORI IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH TARMOG‘I SIFATIDA

Begimqulov Javohirbek Jo‘raqul o‘g‘li

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda turizm sohasi barqaror iqtisodiy o‘shni ta‘minlash, mamlakatda iqtisodiy samaradorlikni, bandlik darajasini sezilarli oshirish, hududlarda kichik biznes subyektlarini ko‘paytirish maqsadida sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlar davlat ahamiyatiga molik sanaladi. Shuning uchun mazkur maqolada mamlakatda jadal iqtisodiy o‘shni ta‘minlashda turizm sohasini rivojlantirish holati va istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *turizm, xizmatlar, turistik hudud, iqtisodiy o‘sh, yalpi ichki mahsulot, ish o‘rni, destinatsiya, xizmatlar eksporti.*

Kirish. Turizm hozirgi globallashuv zamonida eng tez rivojlanayotgan va hududlar Yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo‘shayotgan iqtisodiyotning muhim sohasi, shu bilan birgalikda mamlakatni dunyo davlatlari orasida tanilishi uchun xizmat qiladigan drayver sifatida qabul qilsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda turizm sohasi Covid-19 global pandemiyasidan so‘ng qayta jonlanmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) bergan ma‘lumotlariga ko‘ra turizm global yalpi ichki mahsulotning 3 foizini yoki 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etmoqda. Bu 2019 yilgi ko‘rstakichlar bilan solishtirganda teng miqdor hisoblanadi.

Shu maqsadda bugungi kunda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda turistik xizmatlar ulushi jadal oshirishga, sohadan samarali foydalangan holatda aholi uchun ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga katta e‘tibor qaratilmoqda hamda buning uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Shu boisdan mazkur ilmiy-tadqiqot ishida mamlakatimiz hududlarida turistik xizmatlar sohasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari o‘rganilgan.

Adabiyotlar sharhi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda turizm sohasi muhim tarmoq hisoblanadi. Chunki tarmoqning ta'sir doirasi iqtisodiyotning boshqa sohalarini rivojlanishiga potensial turtki bo'la oladi. Shuning uchun turistik xizmatlar yetarli darajada raqobatbardosh va jozibador bo'lishi lozim. Bu esa o'z o'rnida turizm sohasiga davlat miqyosida keng chora-tadbirlar va muhim taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.

Iqtisodiyotda turizm tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, AQShlik professor (Oklend shahri Meynsen universiteti) N.Leyperning turizm uchun 3 elementdan tashkil topgan modelini keltirib o'tsak bo'ladi: 1) Geografik komponent (destinatsiya); 2) turistlar; 3) turistik industriya. Birinchi yondashuvdagi destinatsiya (prof. Leyper ta'biricha) – bu turistlar uchun jalb etuvchi geografik territoriya hisoblanadi. [Leiper, 1979]

Rus olimi M.A.Sarancha o'z darsligida XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanganini va 2020 yil boshida turizm sektorining jahon yalpi ichki mahsulotiga ulkan hissa qo'shgan holda sohada band bo'lganlarning umumiy soni 330 million kishiga yetganini (dunyoda band bo'lganlarning 1/10 qismi) keltirib o'tib turizm ahamiyatini naqadar dolzarb ekanligini isbotlagan. [Sarancha, 2020]

O'zbek olimlaridan H.R.Hamroev fikricha hozirgi kunda jahon mamlakatlarining ko'pchilik qismida turizm yagona tizim sifatida rivojlanmoqda va u mamlakat byudjetiga salmoqli daromad keltiradi, bundan tashqari, mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mavjud resurslardan oqilona foydalanish va turizm sohasini barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun kerakli shart - sharoitlar yaratishda mutaxassislar, iqtisodchilar mamlakatda turizm rivojlanish qonuniyatlarini, sohaning o'ziga xosligini yaxshi tushunishi, to'g'ri xulosalar chiqara olishi zarur. [H.R.Hamroev, 2022]

Tadqiqot metodologiyasi. Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanagan turizm sohasini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Muhokama va tahlillar. Turizm - bu dunyo aholisining dam olish yoki biznes maqsadida odatiy muhitdan tashqari bo'lgan joylarga sayohat qilishi hisoblanadi. Turizm diqqatga sazovor joylar va ijtimoiy-madaniy mashg'ulotlardan tortib sarguzasht turizmi va ekoturizmga bo'lgan keng ko'lamli tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida turistik xizmatlar muhim rol o'ynab, aholi bandligini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, u turli jamiyatlar o'rtasida madaniy almashinuv va integratsiyani rivojlantiradi.

So'nggi paytlarda turizm sohasida oxirgi o'tgan uch yilga nisbatan barqaror iqtisodiy o'sish kuzatildi, tarmoqni yanada rivojlantirish bo'yicha prognozlar berilgan. Ammo ko'pchilik mamlakatlarning COVID-19 koronavirus global pandemiyasiga munosabati tufayli bir qator omillar ta'sirida turizm sohasi uchun jiddiy muammolar va oqibatlariga olib keldi. Jumladan, Butunjahon turizm tashkilotining dastlabki hisob kitoblariga ko'ra, turizmda band bo'lgan aholi soni va uning YaIMdagi ulushi bir yil ichida 30 foizga kamaydi. Shuningdek, UNWTO 2020 yil may oyi oxirida dunyo iqtisodiyotida xalqaro turizm ko'rsatkichini 58-78% gacha qisqarish xavfini e'lon qildi.


Quvonarlisi shundaki, 2023 yilda xalqaro turizm sezilari darajada rivojlandi va tahlillarga ko'ra bu yetakchi tarmoq 2024 yilda o'zining global pandemiyadan oldingi holatini to'liq tiklash arafasida. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butun jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda global turizm faolligi darajasi pandemiyadan oldingi ko'rsatkichning 88 foiziga yetgan. 2023 yilda dunyo bo'yicha jami 1,3 milliard kishi xorijiy mamlakatlarga sayohat qilgan.

UNWTOning prognozlarga ko'ra sohaga bo'lgan talab hajimining ortishi, havo yo'llari orqali aloqalarning kengayishi va Osiyo bozorlari va yo'nalishlarining yanada faol tiklanishi 2024 yil oxiriga

qadar global turizmni 2019 yildagi ko'rsatkichga tiklash uchun asos bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda. Qayta tiklanish jarayoni allaqachon davlatlarning iqtisodiy o'sishiga, aholi uchun bo'sh ish o'rinlari va keng imkoniyatlar yaratilishiga sezilarli hamda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi ma'lumotlar turizm tiklanishining ijobiy iqtisodiy ta'siri allaqachon sezilayotganligini ko'rsatadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, xalqaro turizm daromadi 2023 yilda 1,4 trln.dollar yoki 2019 yilda ko'rilgan global turizm daromadlarining 93 foizini tashkil qildi. 2023 yilda turizm xizmatlari eksporti orqali topilgan daromadlar dunyo bo'yicha 1,6 trln. dollar yoki 2019 yil ko'rsatkichiga nisbatan 95 foizga etdi.

Xalqaro hamjamiyatga tobora jadal integratsiyalashayotgan O'zbekistonda ham turizmning sezilarli jonlanayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Chunonchi, O'zbekiston ga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni ko'rsatkichi 2023 yilda global pandemiyadan oldingi darajasiga deyarli tenglashganligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2018-2023 yillar davomida O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni, mln kishi[1]

O'zbekiston ga 2019 yilda tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar mamlakatda 2-3 kun qolgan va ko'rsatilgan turistik xizmatlar uchun o'rtacha 197 AQSh dollari sarflashgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 4-5 kunni va o'rtacha 323 AQSh dollarini tashkil qilmoqda. 2023 yil yakunlari bo'yicha turizmdan olingan daromad 2,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan [2].

Shundan kelib chiqqan holda, turizmning milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarini inobatga olgan holda, "O'zbekiston -2030" strategiyasida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish, bunda xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish; xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga etkazish; turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga etkazish, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga etkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [3].

Qabul qilingan strategiya asosida mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik

tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora – tadbirlar bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar. Global dunyoda, shuningdek O'zbekistonda ham o'sib borayotgan turistik oqim jarayoni iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xizmatlar sohasi ko'lami kengayishi, aholi bandligini oshishi, xizmatlar diversifikatsiyasi va sifati oshib borishiga turtki beradi. Qo'shimchasiga, ushbu tendensiya ichki bozorimizda ham yangi iste'mol talabini vujudga keltiradi.

Shu maqsaddan kelib chiqib hududlarda turizmni rivojlantirish uchun, avvalo mamlakatimizda mavjud infratuzilmani turistik xizmatlarni yanada samaraliroq ko'rsatishga moslashtirish va yaxshilash, hozirgi globallashtirish jarayonida nafaqat mamlakatimizning, balki hududlarimizning turistik salohiyatini ochib beruvchi media mahsulotlarini ishlab chiqish, chet ellik sayyohlarni yanada ko'proq jalb etish uchun ularga sifatli hamda jahon standartlariga mos bo'lgan turistik xizmatlarni ko'rsatishni keng ko'lamda yo'lga qo'yish, buning uchun esa turizm sohasi kadrlarning bilim va tajribalarini oshirish, mamlakatimizda mavjud ichki va tashqi investitsiya oqimining bir qismini turizm sohasiga yo'naltirish hamda jahon turistlarining talabini o'rgangan holda servis xizmatlarimizni ularning istaklariga moslashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish lozim hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan muallif ishlanmasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Pul-kredit siyosati sharhi, IV chorak 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158 sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
4. [Leiper, 1979] Leiper N. (1979) The framework of tourism: Towards a definition of tourism, tourist, and the tourist industry//Annals of tourism Research. №6 (4) P/390-407.
5. [Sarancha, 2020] Саранча М. А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. — Москва: КНОРУС, 2020.
6. [H.R.Hamroev, 2022] Turizm mamlakatshunosligi :darslik / H. R. Hamroev. - Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2022. - 492 b.

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Taylakova Dilafro'z Baymamatovna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti taylakovadilafroz7@gmail.com

+99890 672 32 25

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishining jihatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, boshqa sohalar va sanoat tarmoqlari orasida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar, takliflar va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch iboralar: *Qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, xizmatlar sohasi, dexqon va fermer xo'jaliklari, raqamli iqtisodiyot.*

Аннотация

В данной статье показаны аспекты быстрого развития сферы услуг в развитии аграрной экономики среди других секторов и отраслей экономики. Также представлены выводы, предложения и рекомендации по повышению эффективности быстрого развития сектора услуг среди других секторов и отраслей экономики.

Ключевые слова: *Сельское хозяйство, услуги, сфера услуг, фермеры и фермерские хозяйства, цифровая экономика.*

Abstract

This article shows the aspects of the rapid development of the service sector in the development of the agricultural economy among other sectors and industries of the economy. It also presents conclusions, proposals and recommendations to improve the efficiency of the rapid development of the service sector among other sectors and industries.

Keywords: *Agriculture, services, services sector, farmers and farms, digital economy.*

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ichida jadal rivojlanishi bilan ajralib turibdi. Mamlakatimiz ishlab chiqarish va intellektual salohiyatining yarmidan ortig'i muayyan tarzda bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liqdir. Qishloq xo'jalik mahsuloti mamlakatga valyuta tushumlarining 55 foizidan ortig'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaning iqtisodiy jihati xizmatlar sohasi bilan o'zaro bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi samaradorligini oshirishning metodologik muammolarining ayrim nazariy va uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar – K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, F.Kotler, P.Samuelson, A.Xosking[1] tomonidan izlanishlar olib borilgan va o'rganilgan.

Ushbu sohaning u yoki bu yo'nalishlariga oid tadqiqotlarni Hamdo'stlik mamlakatlari olimlari – L.I.Abalkin, I.N.Buzdalov, I.Y.Petrenko, P.I.Chujinov [2] va boshqalarning asarlarida ham uchratish mumkin. Aynan shu soha bilan bog'liq masalalar mamlakatimizning yetuk iqtisodchi A.K.Ismoilov, A.M.Jo'rayev, P.R.Po'latov, M.T.Rizayev, N.Tuxliyev, S.N.Usmonov, A.S.Samutali, Q.A.Choriyev, Q.A.Xasanjonov, R.H.Husanov, F.Q.Qayumov, A.A.Shokirov va boshqa olimlar tomonidan ham ilmiy asar va maqolalarida samarali izlanishlar olib borilgan va chuqur o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qurilish, transport–kommunikatsiya, servis va xizmat ko'rsatish sohaslarida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi"[3] shu boisdan barcha turli tashkilotlarda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish qolaversa, qishloq xo'jaligida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash lozim. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining mutanosibligi va barqarorligini ta'minlashda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish natijasida, mamlakatda qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi hamda aholining turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Xizmatlar sohasi aslida korxonalar, tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan jamlanma soha hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida xizmatlar sohasi juda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qishloq xo'jaligi - bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan muhim tarmoq hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholi uchun turmush sharoitini yaxshilashni ta'minlaydigan daromadlar manbai va tabiiy resurslarni boshqarishning asosi bo'lib, qishloq turmush tarzini saqlab turishga o'zining munosib hissasini qo'shadi. Shuning uchun ham Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini yuksaltirish va aholi turmush darajasini oshirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ahamiyati katta. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotga asoslanib, zamonaviy texnik – texnologiyalar va turli xildagi maishiy xizmatlar sohasidagi bir qancha muammolarni hal etish muhim masaladir.

Qishloq xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta va o'z ahamiyatga egadir. Chunki ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir. Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, konsalting va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Bizga ma'lumki, hozirgi vaqtda har birimiz deyarli har kuni xizmat ko'rsatish sohasi bilan yuzlanamiz. Demak xizmatlar sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida bu masala ham alohida nazarda tutilgan. Dastur doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar esa ushbu sektorda biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada qulaylashtirishga qaratilgan. [4]

Xizmat ko'rsatish sohasining yuqori darajada o'sishini bir qator omillar ta'siri bilan izohlash mumkin, jumladan: mamlakatimizda zamonaviy yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi ya'ni bugungi kundagi raqamli iqtisodiyotdan foydalangan holda, kredit kartalari orqali uyali aloqa, internet, savdo, ko'ngilochar markazlar, umumiy ovqatlanish joylari, go'zallik salonlari, konsalting xizmati, tibbiy va o'quv markazlari xizmatlaridan, turli transport vositalaridan foydalanib, elektron (onlayn ilova orqali) to'lov xizmat turidan foydalanib kelmoqdamiz. Bu barcha xizmat turlari xizmatlar sohasi tushunchasini tashkil etadi. Xizmatlar sohasi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida paydo bo'lib, jamiyatning davlat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi kabi xizmat turlarini o'z ichiga olgan.

1-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi *[5]

(mlrd.so'm hisobida)

Kÿpcatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Xizmatlar – jami	97 050,0	118 811,0	150 889,8	193 697,8
Shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:				
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	6 306,8	8 196,7	10 332,6	10 891,7
moliya xizmatlari	9 898,4	15 023,8	21 296,3	34 036,6
transport xizmatlari	30 617,8	36 217,2	44 159,4	54 473,5
shu jumladan: avtotransport xizmati	19 216,7	20 232,9	21 786,8	25 527,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 038,7	3 649,6	4 673,3	5 933,6
savdo xizmatlari	27 368,2	32 006,9	39 743,4	48 748,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 405,1	4 026,5	4 949,2	5 950,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 263,0	4 402,0	5 416,5	7 164,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 416,3	1 701,5	2 220,0	3 104,3
ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	2 270,1	2 589,2	3 297,4	3 733,5
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2 187,8	2 329,2	2 630,7	3 200,1

shaxsiy xizmatlar	2 915,5	3 134,4	3 700,6	4 575,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 132,6	1 611,7	2 953,6	4 543,1
boshqa xizmatlar	3 229,7	3 922,3	5 516,8	7 342,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 2020 yilda 97 050,0 mlrd.so'm, 2021 yilda 118 811,0 mlrd.so'm, 2022 yilda 150 889,8 ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 193 697,8 mlrd.so'm ga o'sgan. mamlakatimizda transport (54 473,5 mlrd.so'm) va savdo (48 748,2 mlrd.so'm) sohasida ko'rsatilgan xizmatlar eng yuqori ulushga ega. Eng past ulush esa sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (3 104,3 mlrd.so'm). Lekin 2023 yilda 2022 yilga nisbatan eng yuqori o'sishga erishgan xizmat turi sifatida moliya sohasida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish mumkin (34 036,6 mlrd.so'm). Shu bilan bir qatorda eng past o'sish sur'ati savdo sohasida ko'rsatilgan xizmatlarda kuzatilgan (48 748,2 mlrd.so'm).

Xizmatlar ko'rsatish sohasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligi o'sishining muhim omili hisoblanadi. Xom-ashyo, material va tayyor mahsulotning o'z vaqtida va meyorida yetkazib berilishi, tezkorligi xo'jalik aylanmasida bo'lgan resurs hajmini belgilaydi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar obyektlarining joylashganligi (asosan tuman markazlarida), qo'llaniladigan texnologiyalar, xizmat ko'rsatish tariflarining yuqoriligi, monopol xolati va boshqa sabablar natijasida fermerlar ularning xizmatidan to'liq foydalanmasliklariga sabab bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti talab, taklif, raqobat va baho asosida xarakterga kelmoqda. Shuning uchun qishloq xo'jaligida ham dexqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning tashkil topishi va joylashishi dexqon va fermer xo'jaliklarining talabi va taklifi asosida tashkil topadi. Hozirda mamlakatimizning ko'pgina tumanlarida dexqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ularning talablaridan kelib chiqib emas, balki aksincha yoki kerakli xududda joylashmagan yoki uzoqda joylashgan bo'lib, bu xolat dexqon va fermer xo'jaliklari bilan ularga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy, tashkiliy va xuquqiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Agar hududlarda xizmat ko'rsatish korxonalari talab va taklif asosida tashkil etilsa, ular o'rtasida raqobat shakillanadi va o'z-o'zidan ularning sifati va xizmat narxini arzonlashishiga erishish mumkin. Bu esa, dexqon va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. К.Р.Макконнелл, С.Л.Вруу, Экономикс.- Принципи, проблемы и политика. /В 2 –х томах. Пер.с англ. –Таллин. Римол. 1993 г. ,Т.1.-398 с.;
2. Котлер Ф. Основы маркетинга. -М.:Прогресс, 1992.- 734 с.; Самуэлсон П. Экономикс. - М.,1992. Т.2.; ХоскингА., Курс предпринимательства. – М.: Международные отношения,1993г. – 478 с.
3. Абалкин Л.И. Курс переходной экономика. -М.:Финстатинформ, 1997г.-640 с.;
4. Буздалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепция, опыт, перспективы).- М.,2000. -325с.;
5. Чужинов П.И., Петренко И.Й. Экономика сельскохозяйственного производства. Алма-ата: Кайнар, 1992г. -560с.
6. Ш.М. Mirziyoyev “2019 yil – Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”. 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi –Т.: Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr, № 271-

ustuvor yo'nalishlari

272

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.

Internet saytlari.

www.stat.uz

www.lex.uz

www.biznes-daily.uz

www.tsue.uz

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI.

Malikova SH.B.

BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishi hamda iqtisodiyotda xizmatlar hajmining o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar o'rganilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish masalalari ham tahlil qilingan.

Tayanch iboralar. xizmatlar sifati, moliyaviy natija, iste'molchilar, talab, ehtiyoj, soliq imtiyozlari.
Abstract. This article examines the importance of the development of the service sector in today's economy and the main factors affecting the growth of the volume of services in the economy. In addition, issues of support and financing of the service sector in our country were also analyzed.
Basic phrases. quality of services, financial result, consumers, demand, need, tax benefits.

Kirish. Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'z mazmuniga ko'ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta'minlash bo'yicha xo'jalik faoliyatining turli yo'nalishlarini qamrab oladi. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang'ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag'larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko'rsatish intensivligini ta'minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi. Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta'minlash, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to'liqroq qondirish bilan bog'liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi. Shuningdek, soha korxonalarining xalqaro bozorlardagi xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda xizmatlar eksporti hajmini ko'paytirish respublikamizda iqtisodiy o'sishga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar va adabiyotlarni o'rganish. Iqtisodiy o'sish, servis iqtisodiyoti rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xizmatlar sifati va

raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari, zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, mehnat unumdorligining o'sishi, personalning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liq muammolarning fundamental jihatlari Keyns J.M. Marshall A. Shumpeter Y.A., Volgin A.P. Xaksever K., Render B., Rassel R., Merdik R. Odegov Y.G., Abduraxmanov K.X., Kotova L.R. asarlarida yoritib berilgan. Servis tizimida ko'rsatiladigan xizmatlar tavsifi va tasnifi, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi, sohada personal faoliyati samaradorligini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) intensivligini ta'minlash, soha korxonalarida xizmatlar sifatini ularning iste'mol xususiyati bilan bog'liqligi, xizmatlarning sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari, iste'molchilarning motivatsiyasiga bog'liq holdagi xizmatlarning shakllanishi, xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish, personal kompetentligini ta'minlashga oid tadqiqotlar larning asarlarida o'rganilgan. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida iqtisodiy o'sish omillarini sifat va miqdoriy jihatdan baholash, ushbu omillarning har birining xizmat ko'rsatish soha va tarmoqlari o'sishiga qo'shayotgan hissasini aniqlash hozirgi kunda ham muhim ilmiy masala bo'lib hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan mualliflarning asarlarida turli xil omillarning sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda xizmat ko'rsatish korxonalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishlari tizimli ravishda o'rganilmagan. Shunga ko'ra, tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish xo'jalik yurituvchilar faoliyatlari natijasini aks ettiradi, ijtimoiy samaradorlik esa iqtisodiy subyektlarning ijtimoiy samaradorligini, uni jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'sirini aks ettiradi. Bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik muayyan darajada o'zaro bog'liq holda aniqlandi. Shuningdek, servis iqtisodiyotida xizmatlar alohida guruhlari bo'yicha tasniflandi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida servis xizmatlari soni va sifatiga qo'yilayotgan talablar oshib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasining qo'llanishi xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, iste'mol bozori tarkibida o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Aholining ayrim qatlamlarining moddiy farovonligi oshishi natijasida xizmatlarga nisbatan o'zlarining talablari va ehtiyojlari mavjud bo'lgan iste'molchilarning yangi kategoriyasi vujudga keldi. Moddiy jihatdan ta'minlangan iste'molchilar o'zlarining hayot qulayliklarini oshirishni ta'minlaydigan turli assortimentdagi xizmatlarga ancha talabgor hisoblanishadi. Shu sababli ayrim xizmat ko'rsatish korxonalarini o'z faoliyatlarini aynan aholining shu talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratadilar. Hozirgi kunda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatining samaradorligi bevosita strategiyaning asoslanganligiga bog'liq bo'lib, uni shakllantirish esa yuqori boshqaruv bo'g'inidagi rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish tashqi va ichki muhitning doimiy o'zgaruvchan sharoitlarida alohida ahamiyatga ega bo'lib, bozorda yetakchi mavqeyini saqlab qolishga imkon yaratadi. Yangi O'zbekiston ning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022-yilda qabul qilingan


“Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi Prezident qarori sohada kichik korxonalar va mikrofirmalarni imtiyozli kreditlash, imtiyozli soliq stavkalarini joriy etish, yangicha xizmat turlarini tashkil etish yuzasidan infrastrukturallarni

ustuvor yo'nalishlari

yaxshilash hamda tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali xizmatlar hajmini yanada kengaytirish uchun rag'bat bo'lmoqda. Olib borilgan chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi joriy yilning I yilligida **469,6 trln.** so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5,6 foizga** o'sdi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsada, YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 44,1 % dan 47,1 % ga oshganini ko'rishimiz mumkin. YAIMning boshqa tarmoqariga nazar tashlaydigan bo'lsak, jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 20,9 % dan 20,1 % ga, sanoatning ulushi 28,0 % dan 26,3 % ga, qurilish tarmog'ining ulushi 7,0 % dan 6,5 % ga kamaydi. Ushbu YAIMda tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatlarining hajmi **444,4 trln so'm** bo'lib, tarmoqlar kesimida quyidagicha ulushni tashkil etadi: Yuqoridagi raqamlarga asosan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMda eng yuqori ulush xizmatlar sohasida o'z ifodasini topmoqda. Joriy yilning o'tgan 8 oyida tarmoqlar kesimidagi o'sish ko'rsatkichlari 2022-yilning mos davriga nisbatan o'zgarishlari quyidagicha aks etgan:

- xizmat ko'rsatish sohasi + **58,7 trln so'mga**;
- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi + **12,9 trln so'mga**;
- sanoat sohasi + **12,6 trln so'mga**; • qurilish sohasi + **3,3 trln so'mga** oshgan.


ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИ АСОСИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ



Iqtisodiy tarmoqlarda xizmatlar sohasining o'sish sur'ati yuqori bo'lganligi sababli, ushbu sohadagi o'zgarishlar hamda rivojlanishlar kelgusida ham yanada o'sishi prognoz qilinmoqda. Xizmatlar sohasi o'sish tendensiyasi-davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan oqilona foydalanish bilan birgalikda, sohaga keng qamrovda tadbirkorlarni jalb qilish va bu orqali aholi bandligini ta'minlash kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar yotadi. Shuningdek, joriy yilning **yanvar-avgust** oylarida xizmatlar sohasida **40 168 ta** (2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **2 244 taga ko'p tashkil etilgan**) kichik biznes subyektlari tashkil etilib, **1 sentyabr** holatiga ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **336 613 taga** yetdi. Respublikamizda joriy yilning o'tgan 8 oyida xizmatlar hajmi **288,4 trln so'mni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,5 foizga**, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi esa **110,1 foizga** o'sib, **7,9 mln.** so'mga yetgan. Bugungi kunda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining **70,4 foizi** xizmatlar sohasiga to'g'ri kelmoqda hamda jami band bo'lgan aholining **55 foizidan** ortig'i xizmatlar sohasida ishlab kelishmoqda. Toshkent shahrida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish maqsadida Toshkent shahar hokimligi "O'zmilliybank" AJ bilan birgalikda ma'sul etib belgilangan so'ng, amalga

oshirilgan chora-tadbirlar natijasida quyidagilarga erishildi. Jumladan, **2023-yilning 8 oyligida** korxonalar va tashkilotlar tomonidan jami **116,8 trln soʻmlik** xizmatlar koʻrsatildi. Oʻtgan yilning mos davrida ushbu koʻrsatkich **89,3 trln soʻmni**, davriy oʻsish esa **18,2 foizni** tashkil etdi.

МОЛИЯВИЙ ХИЗМАТЛАР ҲАЖМИ



Shuningdek, xizmatlar sohasida **moliya, aloqa va axborotlashtirish, taʼlim va transport** xizmatlaridagi oʻzgarishlar boshqa turdagi xizmatlarga nisbatan yuqori oʻsish boʻyicha natijalarni qayd etgan. Misol uchun, quyidagi diagrammalarda bir necha yillik oʻsish tendensiyalari bilan yuqori **oʻsishni qayd etgan** xizmatlarni koʻrishimiz mumkin: Toshkent shahrida xizmatlar sohasi xajmining jadal surʼatlar bilan oʻsishining kuzatilishi amalga oshirilgan ishlar hamda avvaldan belgilab olingan chora-tadbirlar natijasi sifatida koʻrish mumkin. Bu borada, davlat rahbarining topshirigʻi ijrosini taʼminlash maqsadida hamkorlikda rejali ishlarni amaliyotda toʻgʻri tadbiriq qilinayotganligining belgisidir. Aytish joizki, 2021-yildan bugungi kunga qadar sohada yangi loyihalarni tashkil etish, faoliyatini kengaytirish hamda ularni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida “Qishloq qurilish tijorat banklari bilan birgalikda **28 mingdan** ziyod tadbirkorlar uchun **50,4 trln soʻm**, shundan joriy yilning 8 oyida **6,4 mingta** tadbirkorlarga esa **13,3 trln soʻmlik** kredit mablagʻlarni yoʻnaltirildi. Buning natijasida, **2023-yil 1-sentyabr** holatiga koʻra, **28,4 mingta** yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilib, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **76 mingtaga** yetdi. Umuman olganda, 2021-yildan bugungi kunga qadar korxonalar va tashkilotlar tomonidan jami **357 trln soʻmlik** xizmatlar koʻrsatildi, xizmatlar hajmi esa 2020-yilga nisbatan **2 barobarga** oʻsdi. Xulosa qilib aytganda, xizmatlar hajmining oʻtgan yillarga nisbatan jadal oʻsib borishi aholi jon boshiga koʻrsatilgan xizmatlar xajmining yuqori oʻsishiga hamda aholi daromadlarining koʻpayishiga sabab boʻlmoqda. Shu bilan birga, 2023yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali jumladan, yangi tadbirkorlarni joriy qilish, loyihalarni toʻliq ishga tushirilishi, mavjud tadbirkorlar faoliyatini yanada kengaytirish, korxonalar faoliyatini rasmiy sektorga oʻtkazilishini taʼminlash hamda soha yoʻnalishlarida fuqarolarni oʻzini oʻzi band qilish orqali **jami 445 mingta** ish oʻrinlarini yaratilishi koʻzda tutilgan. Shu munosabat bilan, oʻtgan 8 oy davomida yuqorida koʻrsatib oʻtilgan yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xizmatlar sohasida **290 mingta** ish oʻrinlarini yaratilganligi ijobiy natijalardan biridir.

Xulosa. Jahon hamjamiyati xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirishga har tomonlama harakat qilmoqda, chunki bu iqtisodiyotning asosiy boʻgʻinidir. Xususan, ular ish oʻrinlari yaratuvchi, tashqi moliyalashtirishni jalb qilish uchun shart-sharoit yaratuvchi, davlat va

ustuvor yo'nalishlari

hukumat o'rtasida vositachi bo'lgan tashkiliy tuzilmalarning aniq ierarxiyasini yaratuvchi korxonalar uchun imtiyozli soliq stavkalarini taklif etadi. Ko'pgina mamlakatlarda bunday korxonalariga soliq imtiyozlari ham past foizli kreditlar berilmoqda. O'zbekiston sharoitida belgilangan kompleks chora – tadbirlar iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sektori korxonalarini qo'llab quvvatlashning asosiy yo'nalishlari, ularga yordam ko'rsatishga qaratilgan chora – tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini bermoqda. “Xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirish – ustuvor vazifa bo'lib qoladi.” Bugungi kunda mamlakatimizning jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning yuksalish bosqichi izchil ravishda davom etayotganligi keng miqyosdagi ijtimoiy dasturlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirilishida kichik biznes bo'yicha ko'rilgan chora – tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshganligi, turmush darajasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan samarali foydalanishga qaratilgan tadbirlar natijasidir. Islohotlarni yanda chuqurlashtirish borasida iqtisodiyotning barcha sohalari kabi kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sohasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ХУҚУҚИЙИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ

**Бухоро давлат университети
мустақил тадқиқотчиси -Тухтаев
Умиджон Шухратович**

Ўзбекистонда 2016-2023 йилларда мамлакатимизда туристик хизматлар кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилди. Жумладан, туристик хизматларнинг сон ва сифат жиҳатдан ривожлантириш, ушбу соҳани давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмини такомиллаштиришга қаратилган 60 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниб, амалга оширилган ислоҳотлар натижасида 90 та давлат фуқаролари учун визасиз режим жорий этилди.²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг “туризмни ривожлантириш, соҳага инвестициялар жалб этиш, кадрлар салоҳиятини ошириш бўйича комплекс чоралар кўришимиз лозим. Бизда туризм кўпинча қадимий шаҳарларимиз, тарихий-маданий ёдгорликлар доирасида чекланиб қолмоқда. Ваҳоланки, мамлакатимизнинг бетакрор табиати, миллий кўриқхоналар, тоғли ҳудудларда туризмни ривожлантириш учун катта салоҳият мавжуд. Айниқса, тиббиёт туризми, зиёрат туризми ва экотуризмни ривожлантириш нафақат иқтисодиёт, балки ижтимоий соҳалар ривожига ҳам катта туртки беради. 2019-2025 йилларда Туризмни ривожлантириш миллий концепциясини ишлаб чиқиш ва шу асосда 2025 йилда юртимизга ташриф буюрадиган хорижий сайёҳлар сонини 7 млн. нафарга, туризм экспортидан келадиган йиллик даромадни эса 2 млрд. АҚШ долл.га етказиш лозим”²⁵ деб айтган фикрлари, кейинги йилларда туризм соҳасини ривожлантириш давлат

²⁴ 1Мажидов Х. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш: 2016-2020 йилларга умумий шарҳ. <https://review.uz/oz/post/razvitie-turizma-v-uzbekistane-obzor-turotrasli-za-2016-2020-gg>

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018 й. <http://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>

ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари қаторидан чуқур ўрин эгаллаганлигидан далолат беради.

Мустақилликнинг илк йилларида мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг институционал асосларини ташкил этиш билан бир қаторда, туризм инфратизилмасини шакллантириш, мазкур соҳани юқори малакали кадрлар билан таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширишга устуворлик қаратилди. таҳлиллар кўрсатишича, 1992-1995 йилларда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг биринчи босқичи сифатида ўз аксини топади.

Мамлакатимизда туризм соҳасининг ҳуқуқий-институционал жиҳатдан ривожланишининг кейинги босқичи 1996-1999 йилларни ўз ичига олиб, мазкур босқичда мамлакатда туристлар оқимини тартибга солиш, уларни мамлакат ҳудудига келиб кетишлари, транзит ўтишларни ташкил этиш, турстик хизматлардан фойдаланиш бўйича истеъмолчиларнинг ҳақ-ҳуқуқларига аниқлик киритилиб, туризм соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг замонавий амалиётига ўтилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 21 ноябрдаги “Хорижий фуқароларнинг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасига келишлари, кетишлари, бу ерда бўлишлари ва транзит ўтишлари тартиби тўғрисида”ги 408-сон Қарорида мамлакатимизга туристларнинг келиб кетишига оид қуйидаги ҳолатларнинг ҳуқуқий-норматив асослари ишлаб чиқилди:

- Ўзбекистон Республикасига келиш ва республика ҳудудидан кетиш визаларини расмийлаштириш тартиби белгиланди;
- мамлакат ҳудудига келиш ва ундан кетиш ҳуқуқидаги чекловлар ўрнатилди;
- хорижий мамлакатларга кетиш ҳуқуқи рад этилганлиги устидан шикоят қилиш тартиб-қоидалари ишлаб чиқилди;
- хорижий фуқаролар автотранспорт воситаларини ҳисобга олиш ва рўйхатдан ўтказиш, чет эллик фуқароларнинг мамлакат ҳудудига ҳаракатланиши ва уларни мамлакат ҳудудидан муддатдан илгари чиқариб юбориш тартиб-қоидалари белгиланди;
- хорижий мамлакатлар фуқаролари, шунингдек фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг мамлакат ҳудуди орқали транзит ўтиши бўйича ҳуқуқий-норматив меъёрлар ишлаб чиқилди.²⁶

Мамлакатимизда туризм соҳасининг ҳуқуқий-институционал асосларини ривожланишининг учинчи босқичи 2000-2005 йилларни ўз ичига олиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2286-сонли Фармони доирасида амалга оширилди²⁷. Мазкур босқич мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда миллатлараро алоқаларни кенгайтириш, мамлакатимизнинг халқаро туризм бозорига интеграциялашуви, Ўзбекистоннинг маданий-тарихий ва маънавий меросини жаҳон ҳамжамиятида тарғиб қилиш билан бир қаторда, мамлакатимизга келаётган туристлар учун кўрсатилаётган туристик хизматларнинг сифатини тубдан такомиллаштириш босқичи бўлди.

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хорижий фуқароларнинг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасига келишлари, кетишлари, бу ерда бўлишлари ва транзит ўтишлари тартиби тўғрисида”ги 408-сон Қарори. 21.11.1996 й. <https://lex.uz/docs/512233>

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2286-сонли Фармони, 15.04.1999 й. <https://lex.uz/docs/213701>

ustuvor yo'nalishlari

Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожланишининг тўртинчи босқичи 2006-2015 йилларни ўз ичига олиб, ушбу босқичда мамлакатимизда туристик хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг миқдор ва сифат кўрсаткичларини такомиллаштириш, кўрсатилаётган туристик хизматларни жаҳон стандартлари асосида ишлаб чиқиш ва исъмолчиларга етказиш усулларини амалиётга татбиқ этиш, республика, жумладан унинг ҳудудлари кесимида туризм соҳасини ривожлантириш салоҳиятидан фойдаланишга қаратилган чоратадбирларга устуворлик қаратилди. Мазкур босқичда республика ва унинг ҳудудлари кесимида туризмни ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурлари ишлаб чиқилиб, улар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:- Тошкент²⁸, Хоразм²⁶, Қашқадарё²⁹, Сирдарё²⁸ каби вилоятларда туризм салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш бўйича ҳудудий дастурлар ишлаб чиқилди;

- республика ҳудудларида туристик жиҳатдан тарихий-маданий аҳамиятга молик бўлган моддий маданий мерос объектларини ва уларга туташ ҳудудларни сақлаш соҳасига ва уларнинг зарур ҳолатда бўлишини қўллаб-қувватлашга инвестициялар ва бюджетдан ташқари молиялаштириш ҳажми ортиб бориши учун шарт-шароитлар яратиш, ушбу объектлардан маданий-ўрганиш ва туризм мақсадларида кенгроқ ва самарали фойдаланишни таъминлаш, шу асосда ўзаро боғлиқ инфратузилма ва хизматлар соҳаси объектлари сонини кўпайтириш, қўшимча иш ўринлари яратиш, аҳоли даромадларини ошириш ва барча даражалардаги бюджетларни кўпайтириш каби чора-тадбирлар амалга оширилди;³⁰

- туризм соҳаси инфратузилмаси, жумладан йўл ва йўлбўйи ҳудудларини ривожлантириш орқали туристик хизматлар сифати яхшиланди;³¹

- мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг ҳуқуқий-институционал асослари такомиллаштирилди.³²

2016 йилдан 2020 йилга, аниқроғи пандемия бошлангунга қадар бўлган муддатда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг бешинчи босқичи сифатида баҳоланиб, ушбу босқичда туризм соҳасини ривожлантиришни жаҳон стандартларига ўтказиш орқали мамлакатимизнинг халқаро туристик хизматлар бозорига интеграциялашуви жараёнларини чуқурлаштириш босқичи ҳисобланади. Шунингдек, ушбу босқичда қабул қилинган тегишли меъёрий ҳужжатлар асосида мамлакат иқтисодиётининг стратегик тармоғи сифатида туризмни жадал ривожлантириш учун қулай

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Тошкент вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 259-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2239481>

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хоразм вилоятида туристик инфратузилманинг қўшимча объектларини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 261-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2241069>

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Қашқадарё вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 294-сон Қарори, 01.11.2013 й. <https://lex.uz/docs/2261926>

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2015-2017 йилларда Сирдарё вилоятининг sanoat салоҳиятини янада ривожлантириш, замонавий хизмат кўрсатиш ва экотуризм объектларини барпо этиш дастури тўғрисида”ги 233-сон Қарори. 07.08.2015 й. <https://lex.uz/docs/2718287>

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий мерос объектларини ва уларга туташ ҳудудларни, уларни ободонлаштириш ва зарур ҳолатда сақлаш бўйича инвестиция мажбуриятлари олган ҳолда ижарага бериш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 53-сон Қарори. 06.03.2014 й. <https://lex.uz/docs/2352891>

³¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл бўйи ва туризм инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 51-сон Қарори. 09.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591263>

³² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни ривожлантиришнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 53-сон Қарори. 10.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591903>

иқтисодий ва ташкилий-ҳуқуқий шарт-шароитлар яратиш, ҳудудларнинг улкан туризм салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш, туризм тармоғини бошқаришни тубдан такомиллаштириш, миллий туризм маҳсулотларини яратиш ва уларни жаҳон бозорларида тарғибот қилиш, туризм соҳасида Ўзбекистоннинг ижобий қиёфасини шакллантиришга қаратилган чора-тадбирлар тизими изчил амалга оширилиб келинмоқда. Ўрта муддатли истиқболда мамлакатимизда туризмни ривожлантириш бўйича устувор йўналишлар сифатида қуйидагилар белгилаб олинган:

- туризмни ривожлантиришнинг яхлит концепциясини шакллантириш ва изчил амалга ошириш, туризмга иқтисодийнинг стратегик сектори мақомини бериш, ушбу соҳани барча ҳудудларни ва ўзаро боғлиқ тармоқларни комплекс равишда жадал ривожлантиришнинг етакчи кучига айланиши лозим бўлган иқтисодийни диверсификациялаш, таркибий ўзгартириш ва барқарор ривожланишнинг қудратли воситасига айлантириш, яратиладиган ялпи ички маҳсулотда, маҳаллий бюджет даромадларида туризмнинг улушини кўпайтириш;

- туризм индустрияси субъектлари фаолияти учун қулай шарт-шароитларни шакллантиришга йўналтирилган туризм фаолияти соҳасидаги қонун ҳужжатларини ва норматив-ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш, туризмнинг ривожланишидаги барча тўсиқ ва ғовларга барҳам бериш, виза ва рўйхатдан ўтказиш тартиб-таомилларини, паспорт ва божхона назоратини соддалаштириш, туризм соҳасини давлат томонидан бошқариш ва бозорга хос тарзда тартибга солиш механизминини мақбуллаштириш, туризм соҳасида тадбиркорлик фаоллигини рағбатлантириш;

- туризм фаолияти соҳасида халқаро ҳамкорликни, биринчи навбатда, БМТнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти (UNWTO), хорижий мамлакатларнинг туризм бўйича нуфузли халқаро ва миллий ташкилотлари – туризм хизматлари минтақавий ва жаҳон бозорларининг фаол иштирокчилари билан ҳамкорликни кенгайтириш, Ўзбекистоннинг туризм соҳасида тартибга солувчи универсал халқаро конвенциялар ва битимлардаги иштироки, туризм фаолияти амалиётига халқаро ва давлатлараро стандартлар ва нормаларни жорий этиш;

- республиканинг барча минтақаларида замонавий жаҳон стандартларига, туристларнинг эҳтиёжлари ва талабларига жавоб берадиган туризм индустрияси объектларини – меҳмонхоналарни ва жойлаштиришнинг шу каби воситаларини, умумий овқатланиш объектларини, транспорт-логистика тузилмаларини, ахборот марказларини, маданият ва спорт муассасаларини жадал ривожлантириш, асосий туризм йўналишлари бўйича йўл-транспорт ва муҳандислик-коммуникация инфратузилмасини, йўлбўйи инфратузилмасини жадал қуриш ва реконструкция қилиш, ушбу мақсадлар учун хорижий инвесторларни кенг жалб этиш;

- халқаро туризм ривожланиши тенденцияларини ва замонавий маркетинг воситалари қўлланилишини ҳисобга олган ҳолда, рақобатбардош туризм маҳсулотлари ва хизматларини ишлаб чиқиш, уларни ички ва халқаро туризм бозорларида тарғибот қилиш бўйича стратегияни ишлаб чиқиш, қулай туризм ахборот муҳитини ташкил этиш ва ривожлантириш, кенг реклама-ахборот фаолиятини амалга ошириш, мамлакат ҳудудларида туризм ахборот марказлари ва чет элда туризм ваколатхоналари очиш, интернет тармоғидан фаол фойдаланиш, ҳар йили Тошкент халқаро туризм ярмаркасини

ustuvor yo'nalishlari

ўтказиш йўли билан туризм соҳасида мамлакатимизнинг ижобий қиёфасини шакллантириш ва ҳ.к.³³

Ушбу босқичнинг яна бир муҳим жиҳати Туризмни ривожлантириш давлат кўмитаси фаолияти йўлга қўйилганлиги ва унинг низоми тасдиқланганлигидадир³⁴. Шунингдек, мазкур босқичда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожланишини тартибга солиб турувчи ягона меъёрий-ҳуқуқий асос, яъни, Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги Қонуни³⁵ ишлаб чиқилди. Қонунда мамлакатимиз туризм соҳасига тегишли бўлган барча ижтимоий-иқтисодий муносабатларни тартибга солишнинг замонавий механизми ўз аксини топган.

2020 йилнинг иккинчи ярим йиллигидан бошлаб жаҳонда, жумладан, мамлакатимизда жорий этилган “Лок-доун”нинг босқичма-босқич бекор қилиниши қатъий карантин чора-тадбирларини аста секинлик билан юмшатишга олиб келди (1-жадвалга қаранг). Бу эса 2021 йилдан мамлакатимизда туристик хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг кейинги олтинчи босқичини бошлаш имконини берди Ушбу босқичда «Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED (Ўзбекистон. Хавфсиз саёҳат кафолатланган)» тизими жорий этилди³⁶. Шунингдек, ушбу босқичда мамлакатимизда туризм фаолиятини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги низом тасдиқланди³⁷. Шунингдек, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида ҳам ички ва ташқи туризмни ривожлантириш вазифаси белгиланган. Жумладан, “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг” дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 млн.дан, хорижий туристлар сонини эса 9 млн. нафарга етказиш, жумладан, туризм, транспорт, ахборот-коммуникация, дастурий таъминот ва шу каби бошқа хизматлар экспорти ҳажмини 1,7 баробарга ошириш устувор вазифаси белгиланган.³⁸ Амалга оширилган тадқиқотларимиз натижаларига асосланган ҳолда, Ўзбекистонда туризм индустрияси ривожланишининг олти босқичи ажратиб ўтилиб, уларнинг ҳуқуқийинституционал асослари 1-жадвалда келтириб ўтилди. Кейинги йилларда мамлакатимизда туристик хизматлар бозорини ривожланишининг ҳозирги босқичида куйидаги чоратадбирларни амалга оширишга устуворлик қаратиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- туристик хизматлар кўрсатиш соҳасини инновацион усулда ривожлантиришга қаратилган илмий тадқиқотларни амалга оширишни кенгайтириш ва уларни амалиётга тадбиқ этилишини таъминлаш;

- туристик хизматлар соҳасини ривожлантиришда илғор хорижий технологиялардан фойдаланишни рағбатлантириш;

³³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сон Фармони, 02.12.2016 й. <https://lex.uz/docs/3077025>

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат кўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-2666-сонли Қарори. 02.12.2016 й. <https://lex.uz/docs/3077301>

³⁵ Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги ЎРҚ-549 сонли Қонуни, 18.07.2019 й. <https://lex.uz/docs/-4428097>

³⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Туризм соҳасини санитария-эпидемиологик хавсизликнинг кучайтирилган режими талабларига қатъий риоя қилган ҳолда ривожлантиришга доир қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4755-сонли Қарори. 19.06.2020 й. <https://lex.uz/docs/4862987>

³⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини тиклаш ва ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 433-сон қарори. 10.07.2020 й. <https://lex.uz/docs/4930291>

³⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>

- туризм соҳасини ривожлантиришда бозор иқтисодиёти тамойиллари асосида ишлаб чиқилган давлат хусусий шериклик механизмидан фойдаланиш;
- туризм инфратузилмасини модернизациялаш орқали туристик маҳсулот ва хизматлар сифатини такомиллаштириш;
- инновацион туристик маҳсулот ва хизматлар ишлаб чиқаришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш;
- мамлакат иқтисодиётида туризм соҳасининг ўрнини мустаҳкамлаш ва ушбу соҳанинг ЯИМ ҳажмидаги улушини ошириш;

Фикримизча, юқорида билдирилган таклифлар асосида кейинги йилларда туризм соҳасини ривожлантириш узоқ муддатли истиқоболда мамлакат туризм индустриясининг барқарор ривожланишига эришиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ““Ўзбектуризм” Миллий Компаниясини ташкил қилиш тўғрисида”ги ПФ-447-сон Фармони, 27.07.1992 й. <https://lex.uz/docs/223878>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Буюк ипак йўлини қайта тиклашда Ўзбекистон Республикаси иштирокини авж олдириш ва республикада халқаро туризмни ривожлантириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-1162-сон Фармони. 02.06.1995 й. <https://lex.uz/docs/182051>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг ““Ўзбектуризм” Миллий компанияси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида”ги 484-сон қарори, 20.10.1992 й. <https://lex.uz/docs/514856>
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида халқаро туризмнинг замонавий инфраструктурасини барпо этиш чоратадбирлари тўғрисида”ги 210-сон қарори. 03.06.1995 й. <https://lex.uz/docs/428924>
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Сайёҳлик ташкилотлари фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 346-сон Қарори, 08.08.1998 й. <https://lex.uz/docs/838278>
6. Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида маданий бойликларнинг олиб чиқилиши ва кирилиши масалаларини тартибга солиш тўғрисида”ги 131-сон Қарори, 23.03.1999 й. <https://lex.uz/docs/279299>
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистонда туризм соҳаси учун кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 324-сон Қарори, 02.07.1999 й. <https://lex.uz/docs/594014>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2286-сонли Фармони, 15.04.1999 й. <https://lex.uz/docs/213701>
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида мехмонхона бизнеси ва халқаро туризмни янада ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида”ги 310-сон Қарори, 02.09.2002 й. <https://lex.uz/docs/563971>
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектларига тегишли бўлган корхоналар ва ташкилотлар классификациясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 439-сон Қарори, 11.10.2003 й. <https://lex.uz/docs/246538>
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ““Ўзбектуризм” миллий компанияси фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 360-сон Қарори, 28.07.2004 й. <https://lex.uz/docs/344658>

ustuvor yo'nalishlari

12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида”ги 491-сон Қарори, 21.10.2004 й <https://lex.uz/docs/866186>

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Тошкент вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 259-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2239481>

14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хоразм вилоятида туристик инфратузилманинг қўшимча объектларини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 261-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2241069>

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Қашқадарё вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 294-сон Қарори, 01.11.2013 й. <https://lex.uz/docs/2261926>

16. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий мерос объектларини ва уларга туташ ҳудудларни, уларни ободонлаштириш ва зарур ҳолатда сақлаш бўйича инвестиция мажбуриятлари олган ҳолда ижарага бериш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 53-сон Қарори. 06.03.2014 й. <https://lex.uz/docs/2352891>

17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл бўйи ва туризм инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 51-сон Қарори. 09.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591263>

18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни ривожлантиришнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 53-сон Қарори. 10.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591903>

KORPORATIV BOSHQARUVNING O‘ZBEK MODELI

УЗБЕКСКАЯ МОДЕЛЬ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ

UZBEK MODEL OF CORPORATE GOVERNANCE

Nazirova Maftuna Salimovna

Buxoro davlat universiteti magistri

E-mail: ilhomovabdoqodir@gmail.ru

Тел: +998914124308

Annotatsiya: Korporativ boshqaruv bugungi kunda mamlakat iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shu munosabat bilan ushbu tezisdan asosan korporativ boshqaruv konsepsiyasi va uning qo‘llanilishi hamda O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tuzilmasi, shuningdek boshqaruvning nazariy asoslari va modeli mavzusiga bag‘ishlangan.

Аннотация: Корпоративное управление сегодня играет ключевую роль в экономическом развитии страны. В связи с этим данная тезис в основном касается концепции корпоративного управления и ее применения, а также структуры корпоративного управления в Узбекистане, а также теоретических основ и модели управления.

Abstract: Corporate governance plays a key role in the economic development of the country today. In this regard, this thesis mainly deals with the concept of corporate governance and its application, as well as the structure of corporate governance in Uzbekistan, as well as the theoretical foundations and model of management.

Kalit so‘zlar: Korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruv modeli, korporativ boshqaruv tizimi

Ключевые слова: Корпоративное управление, модель корпоративного управления, система корпоративного управления

Keywords: Corporate governance, corporate governance model, corporate governance system

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy tizimini barcha tarmoq va sohalarda rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa yangi zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda faoliyat yuritayotga kompaniyalar va barcha mulkchilik shakldagi korxonalarda korporativ boshqaruvning ilg'or usullarini joriy etish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida umuman boshqarish tizimini rivojlantirish hozirda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri bo'lmoqda. Mamlakat korporativ sektorini joriy etish va rivojlantirish standartlariga o'tishni taqazo etadi. Mamlakatimizdagi mavjud milliy korporativ boshqaruv mexanizmi shakllanishini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa korporativ boshqaruv tushunchasini chuqur ilmiyuslubiy jihatdan uning mazmun-mohiyatini milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda kengroq yoritish va takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Korporativ boshqaruv korporatsiya sarmoyadorlarning manfaatlarini ifodalovchi va xizmat ko'rsatadigan va iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar o'rtasidagi muvozanatni tashkil etuvchi jarayondir. Korporativ boshqaruv ostida Aksiyadorlik jamiyatlari, menejment organlari va emitentning mansabdor shaxslari o'rtasidagi munosabatlar tizimi, mulkdorlar bilan aloqa qilish tizimi yotadi. Shunday qilib, korporativ boshqaruv aksiyadorlik kompaniyasi o'z aksiyadorlarining manfaatlarini ifodalash, himoya qilish, kompaniya faoliyatining samaradorligini ta'minlash, kompaniyaning egalarini himoya qilish, shu jumladan ichki tartibga solish bilan bog'liq barcha masalalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Korporativ boshqaruv kodeksiga ko'ra, Korporativ boshqaruv – bu aksiyadorlik jamiyati ijroiya organi, uning kuzatuv kengashi, aksiyadorlari, mehnat jamoasi vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar, jumladan kreditorlarning manfaatlarining muvozanatiga erishish maqsadida, Aksiyadorlik jamiyati faoliyatini samarali tashkil etish, modernizatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik qayta qurollantirish, raqobatbardosh mahsulotni ishlab chiqarish va uni tashqi bozorlarga eksport qilishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro munosabatlar tizimidir. Bugungi kunda mustaqil Markaziy Osiyo davlatlaridan biri bo'lgan O'zbekiston korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish va takomillashtirishga rahbarlik qildi va islohotlar dasturini amalga oshirish natijasida mamlakat korporativ boshqaruv tizimiga sezilarli o'zgarishlar kiritildi.

Korporativ boshqaruvning O'zbek modeli hukumat, intuitiv investorlar va minoritar manfaatdor tomonlar tomonidan yuqori darajadagi mulkka egalik bilan ajralib turadi. Tadqiqotning ushbu qismida biz korporativ boshqaruv modelining asosiy ishtirokchilari, ulushga egalik shakli, direktorlar kengashi tarkibi, me'yoriy-huquqiy baza va oshkor qilish talablari kabi beshta muhim elementga asoslangan O'zbekiston korporativ boshqaruv modelini keng muhokama qilamiz.

O'zbek modelidagi asosiy o'yinchilar:

O'zbek modelining asosiy ishtirokchilari orasida institutsional investorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar, shuningdek, korporativ boshqaruv doirasida hukumatning qo'shilishi kiradi. Ulardan hukumat va intuitiv investorlar asosiy o'yinchilardir. Yapon modeliga o'xshab, o'zbek modelida ham davlat kompaniya faoliyatida korporativ boshqaruv jarayonida faol ishtirok etadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional investorlar faoliyatining professional standartlari to'g'risidagi nizomga (2008) muvofiq O'zbekistonda investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari institutsional investorlar hisoblanadi.

O'zbek modelidagi ulush egalik shakli.

Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekistonda kompaniyaning mulkchilik tarkibiga davlat mulki, chet el mulki va xususiy mulk kiradi. Biroq, ichki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida hali ham davlat ulushining salmoqli qismi mavjud. Masalan, O'zbekistondagi 31 bankdan 11 ta yirik tijorat bankida davlat ulushining salmoqli qismi saqlanib qolgan. Bundan tashqari, bank sohasida 2 ta to'liq ulushga ega davlat banklari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston kompaniyalari uchun fond bozori orqali o'z kapitalini moliyalashtirishdan ko'ra bank moliyalashtirish muhimroq moliyaviy manba hisoblanadi. O'zbekiston kompaniyasining xorijiy kompaniyalarining egalik ulushi juda kichik, ammo qabul qilingan tashqi siyosat kompaniyalarning mulkchilik tarkibidagi xorijiy kapital ulushini oshirishni rag'batlantiradi.

O'zbek modelida direktorlar kengashi tarkibi:

O'zbekistonda ham kompaniyalar Germaniya va Yaponiyadagi kabi ikki pog'onali boshqaruv tuzilmasiga ega. Kengash tarkibida kuzatuv kengashi va boshqaruv kengashi mavjud (Ashurov Z., 2014 yil). O'zbek modelida kuzatuv kengashi faoliyati 2003-yilda Hukumat qarori bilan qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun hamda "Aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashlari to'g'risida"gi namunaviy nizom bilan tartibga solinadi. O'zbekistondagi har bir kompaniya, mulkchilik turlaridan qat'i nazar, kompaniyaning boshqaruv organi sifatida kuzatuv kengashiga ega bo'lishi kerak. Kuzatuv kengashi korporativ boshqaruv organi bo'lib, mulkdorlar (asosiy) va menejerlar (agent) o'rtasida bog'lanish vazifasini bajaradi. U kompaniyani strategik boshqarishni, boshqaruv faoliyati sifatini nazorat qilishni ta'minlaydi. Jahon korporativ boshqaruv amaliyotida ham odatiy hol bo'lganidek, O'zbekistonda kuzatuv kengashi a'zolari Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi, bundan tashqari, kuzatuv kengashiga shaxslar bir muddatga qayta saylanishi mumkin. Kengash a'zolarini saylash huquqiga faqat oddiy aksiya egalari ega. Kuzatuv kengashi raisi hay'at a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylanishi mumkin. Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi har yili kompaniyada majburiy ravishda o'tkaziladi. Uning vazifasi mulkdorlarga boshqa boshqaruv organlaridan kompaniya tomonidan olib borilayotgan siyosat, istiqboldagi yutuqlar va strategiya to'g'risida batafsil va ishonchli ma'lumot olish, kompaniya faoliyatining eng muhim maqsadlari bo'yicha munozaralarda ishtirok etish va qarorlar qabul qilish imkoniyatini berishni o'z ichiga oladi. Umumiy yig'ilishni odatda umumiy yig'ilish raisi yoki hay'ati boshqaradi, bu yig'ilishda qatnashgan aksiyadorlarning umumiy ovoz berish yo'li bilan tasdiqlanadi. Ko'pincha kuzatuv kengashi raisi Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi raisi etib saylanadi

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, kuzatuv kengashining a'zolari soni Ustav va Kuzatuv kengashi to'g'risidagi ichki Nizom yoki Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Aksiyadorlar soni 500 dan ortiq bo'lgan jamiyat uchun qonunga muvofiq boshqaruv kengashining kamida yetti nafar a'zosi, jamiyatda aksiyadorlar soni 1000 nafardan ortiq bo'lsa, kamida to'qqiz nafar a'zo bo'lishi shart. O'zbekiston kompaniyasida korporativ boshqaruvning ikkinchi bo'g'ini kompaniyaning kundalik faoliyatini boshqarish bo'yicha boshqaruv kengashi hisoblanadi, Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi yoki kuzatuv kengashining mutlaq vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno. Boshqaruv kengashi asosan kompaniyaning rivojlanishi, kompaniyaning maqsadlari, uzoq muddatli strategiyalari va siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lib, kompaniya faoliyatida boshqaruv samaradorligini oshirishga, shuningdek, aksiyadorlarning kutilayotgan daromad yoki dividendlarni olishdan manfaatdorligini ta'minlashga majburdir. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi qarori bilan boshqaruv kengashining ishonch ma'lumotlari shartnoma asosida tijorat tashkilotiga (yoki proksi boshqaruvchiga) o'tkazilishi mumkin. Boshqaruv kengashining har bir a'zosi bilan bir yillik shartnoma tuziladi, bu shartnoma kompaniya nomidan kuzatuv kengashi raisi yoki kuzatuv

kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi qaroriga ko'ra, ushbu shartnoma har yili yangilanishi yoki bekor qilinishi kerak.

O'zbek modelidagi me'yoriy-huquqiy baza:

O'zbekistonda, yuqorida korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari bo'limida muhokama qilinganidek, tartibga soluvchi qonunlarning keng doirasi va korporativ boshqaruv kodeksi modelning asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi. O'zbekistonda korporativ boshqaruv masalalarini boshqarish bo'yicha bir qancha vakolatli organlar mavjud. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi kompaniyalar faoliyatiga korporativ boshqaruvning xalqaro siyosati va standartlarini joriy etishga ko'maklashish uchun mas'ul organ sifatida faoliyat yuritadi.

Bu komissiya oldiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: davlatning iqtisodiyotga aralashuvining maqbul darajasini holisona baholash; kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi xorijiy va milliy qonunchilikni tahlil qilish; kompaniya faoliyati va korporativ boshqaruvini tizimli o'rganish; samarali korporativ boshqaruvning xalqaro normalari va standartlarini joriy etish. Bundan tashqari, TRSE mamlakatdagi birja savdosi va aksiyalarning listingiga oid qoidalar va qoidalarni tasdiqlovchi hamda samarali korporativ boshqaruvni qo'llab-quvvatlovchi yagona fond birjasidir. Bundan tashqari, Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi organ bo'lib xizmat qiladi, O'zbekiston Markaziy banki esa O'zbekiston bank sektorida korporativ boshqaruv amaliyotini tartibga solish va joriy etish uchun mas'uldir.

O'zbek modelidagi ma'lumotlarni oshkor qilish talablari:

O'zbekistonda 2008 yildagi moliyaviy inqirozlargacha kompaniyalar uchun ma'lumotlarni oshkor qilish talablari qattiq bo'lmagan. Hozirgi vaqtda ma'lumotlarni oshkor qilish talabi korporativ boshqaruv tizimining muhim elementlaridan biri bo'lib, korporatsiyaga tegishli barcha muhim masalalar, shu jumladan kompaniyaning moliyaviy holati, faoliyati, mulkchilik va boshqaruvi to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri oshkor etilishini ta'minlashi kerak. Aniqrog'i, kompaniyalar o'z ma'lumotlarini O'zbekistonda yaqinda ishga tushirilgan Korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz) oshkor qilishlari kerak. Mazkur portal Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi bilan hamkorlikda sayti asosida yaratilgan bo'lib, unda kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari joylashtiriladi; potentsial investorlar uchun emissiya prospektlari, taqsimlangan ulushlar, ustav kapitali hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar; korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaga o'zgartirishlar va boshqa tegishli ma'lumotlar (UzReport Axborot Agentligi, 2016 yil).

Bundan tashqari, O'zbekiston ning Korporativ boshqaruv kodeksida kompaniyalar faoliyatining shaffofligini va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ham belgilangan. Korporativ boshqaruv kodeksiga ko'ra, O'zbekiston kompaniyasi o'z faoliyatini chorak, yarim yillik va yillik hisobotlar shaklida vaqti-vaqti bilan oshkor etib turishi shart. Masalan, kompaniyaning yillik hisobotlari kompaniyaning to'liq va qisqartirilgan nomlari, joylashgan joyi, bank hisobvarag'i rekvizitlari, statistik va soliq identifikatsiya raqamlari, moliyaviy hisobot, kuzatuv kengashi va boshqaruv kengashidagi har qanday o'zgarishlar bo'yicha boshqaruv kengashi tarkibi, taftish komissiyasi, xalqaro mustaqil auditorlik hisobotlari va jamiyat faoliyati uchun chiqarilgan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar.

Davlat mulkini xususiy aksiyadorlik jamiyatlari tasarufiga boshqichma bosqich o'tkazish korporativ boshqaruvni rivojlantirish bilan ham bog'liqdir. Bunday ishlar natijasida yurtimizda ko'plab aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilgan. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti o'sishiga munosib hissa qo'shayotgan yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritayotgani ham korporativ boshqaruv sohasini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etishidan dalolatdir.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati kabi korporativ tashkilotlar tuzilmasini qurish va ular faoliyatining asosiy tamoyillari va tartibini, huquqiy maqomini belgilash, aksiyadorlar va korporativ munosabatlarning boshqa ishtirokchilari huquqlari va majburiyatlarini tartibga soluvchi korporativ huquq me'yorlarining kompleksini shakllantirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Korporativ tuzilmalarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari bir qancha davrlarni o'z qamroviga olgan holda, yildan-yilga takomillashib bormoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida esa korporativ boshqaruv tuzilmalarining faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida yaratilgan bo'lib, kundan kunga rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 23- dekabr 2019 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz./ Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.(2016-yil 14-dekabr kuni).
3. [Making Public in a Privatized World David A. McDonald](#) London, United Kingdom ZEDBOOKS-LTD 2016 Paperback
4. Mamarasulov U.M. Iqtisodiyot va bozor munosabatlari. - T.: «Navruz», 2016.
5. Кузнецова А.И. Инфраструктура: Вопросы теории, методологии и прикладные аспекты современного инфраструктурного обустройства. Геоэкономический подход. М.: Кои Книга, 2016.

Internet saytlari

1. www.lex.uz
2. www.norma.uz
3. www.gkk.uz
4. www.stat.uz
5. www.webofscience.com

TURISTIK DESTINATSIYALAR MOHIYATIGA YONDASHUVLAR VA TURISTIK DESTINATSIYALAR SHAKLLANISHINING NAZARIYUSLUBIY JIHATLARI

Hamidov Saidjon Komilovich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** Maqolada tadqiqot jaraёnida “turistik destinatsiya” tuшunчаси аниқ чегарага эга туристик ресурс; миллий, ҳудудий ва маҳаллий даражада аниқ амалга ошириши механизми мавжуд бўлган ягона бошқарув стратегиясига эга тизим; кўп босқичли комплекс туристик маҳсулот, туристлар, тадбиркорлар ва маҳаллий бошқарув тузилмаларининг мураккаб ўзаро муносабатлари натижасида фойдаланилувчи туристик ресурс; фақатгина истеъмол қийматига эга бўлмасдан, туристик тажрибани шакллантирувчи туристик маҳсулот каби асосий белгиларга эга бўлган маҳсулот, ҳудуд, истеъмол қийматига эга қадрият сифатида талқин этилиши мақсадга мувофиқлиги белгиланган.*


***Kalit so'zlar:** turizm, destinatsiya, turistik destinatsiya, turistik destinatsiyalar faoliyati, turistik bozorning hududi, turistik mahsulot.*

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar iqtisodiy munosabatlar doirasida mavjud va asoslangan qonuniyatlar insoniyatning taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda ma'lum bir darajada o'zgarishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Ana shunday tendensiyalarning asosiy qismi moddiy ishlab chiqarish sohasining xizmatlashuv tomon yuz tutayotganligi bilan izohlanadi. XX asrning oxiridan boshlab bugungi kungacha bo'lgan davrda jahon miqyosida moddiy ishlab chiqarish sohalari insoniyatning global darajadagi axborot kommunikatsiya sohasidagi rivojlanishi bilan bog'liq o'zgarishlar ta'sirida o'z faoliyatini xizmatlar sohasi bilan birlashtirgan holda olib borishga harakat qilmoqda. Bunday o'zgarishlar ushbu sohada faoliyat olib borayotgan turli hajmdagi korxonalarining raqobat ustunligini ta'minlayotganligi korxonalar faoliyatida xizmatlashuv darajasining ortib borishiga olib kelmoqda.

Turizm sohasi mohiyat jihatidan bevosita xizmatlar sohasi tarkibiga kirsa-da, soha faoliyatining asosiy qismi bevosita moddiy ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga bog'liq. Shu bilan birga turizm sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari singari juda katta hajmdagi moddiy vositalarni talab qilmasligi hamda faoliyatning tabiiy resurslar mavjudligi bilan bog'liqligi mamlakatimizda sohani qisqa vaqtda jadal rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. 2016-yildan boshlab mamlakat darajasida turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar ham sohaning mamlakat taraqqiyotini jadal rivojlantirishdagi "o'sish" nuqtalaridan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Postindustrial jamiyatga o'tishdan bugungi kungacha bo'lgan o'zgarishlar tahlili iqtisodiy tizimlarning sanoatlashgan iqtisodiyot, xizmatlar iqtisodiyoti hamda o'zgarishlar iqtisodiyotiga o'tib borishini ko'rsatadi (1.1-rasm).

Fikrimizcha, iqtisodiy o'zgarishlarning ko'rib o'tilayotgan ketma-ketlikda rivojlanishining asosiy omili sifatida mahsulot yoki xizmatlarning individuallashtirishini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi. Chunki taraqqiyot bosqichlarida kommodizatsiya jarayonining zaiflashib borishi va, bir vaqtning o'zida kastomizatsiya jarayonining kuchayib borishi kuzatiladi. Bu esa, jamiyatda yaratilayotgan mahsulot va xizmatlarning iste'molchilarning xoxish (istak)laridan kelib chiqib, individuallashtirish borishini ko'rsatadi.



1.1-pacm. Postindustrial jamiyat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari³⁹

Yuqoridagi o'zgarishlar moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda xizmatlar sohasida birmuncha yuqori ekanligini, shu bilan birga "standartlashuvdan qochish" xizmatlar sohasida avvaldan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Turizm xizmatlar sohasining bugungi kunda eng jadal rivojlanayotgan va yuz berayotgan o'zgarishlarga tez moslasha oladigan tarmog'i bo'lganligi hamda tarmoqni hali o'zlashtirilmagan tabiiy-iqtisodiy resurslar negizida qisqa vaqtda kengaytirish imkoniyati mavjudligini hisobga olgan holda mamlakatimizda ushbu tarmoqni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.


Turizm sohasining rivojlanishi ko'p jihatdan, aytib o'tilganidek, mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslarning mavjudligi va ushbu resurslarning iqtisodiy faoliyatga kiritilganligiga bog'liq. Iqtisodiy terminologiyada turistlar, ya'ni xizmatlar iste'molchilari tomonidan tanlanadigan va ushbu hududda yaratilgan xizmatlarni istemol qilinadigan hudud "turistik destinatsiya" deb ataladi.

Turistik nuqtayi nazardan xizmatlarni yaratish, turistik destinatsiyalardan faoliyatda samarali foydalanish va boshqarish ularning raqobat ustunliklarini belgilaydi va, bu o'z navbatida, turistik faoliyat samaradorligini belgilaydi.

"Destinatsiya" atamasi dastlab turizm faoliyatiga tizimli yondashuv doirasida yuzaga keldi. Turistik tizim N.Leyper modeliga ko'ra eng kamida quyidagi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan 5 ta elementning mavjud bo'lishini talab etadi:

- turistlar (iste'molchilar);
- turistlar shakllanuvchi hududlar;
- turistlar o'tib boruvchi tranzit hududlar; - turistik destinatsiyalar; - turistik sanoat.

Turizm sohasining rivojlanishi, turistik korxonalar faoliyati samaradorligi hamda turistik mahsulotning yaratilish jarayonini tadqiq etishda, avvalo, "turistik destinatsiya" turistik tizimning asosiy elementi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq. Shuni hisobga olgan holda, tadqiqot jarayonida "turistik destinatsiya" atamasi va unga yondashuvlarni kengroq o'rganib chiqqan holda mualliflik yondashuvini ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.



1.2-rasm. N.Leyperning turizm tizimi modeli tarkibi⁴⁰

³⁹ Pine, J. and Gilmore, J. (1999). The Experience Economy, Harvard Business School Press, Boston.

⁴⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlarda “destinatsiya” atamasi bir xil bo‘lmagan holda talqin etiladi. “Destinatsiya” tushunchasi, odatda, geografik nuqtayi nazardan ma’lum bir turistik resurslarga ega bo‘lgan hudud sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan yondashilsa, destinatsiya tushunchasi turistik mintaqa yoki turistik hudud tushunchalariga muqobil ma’noni bildiradi. Destinatsiya tushunchasini bugungi kunda turistik jihatdan uning potensial mijozga nisbatan jalb etuvchanlik (jozibadorlik) tomonidan o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ayrim tadqiqotchilarning talqinida “destinatsiya” turistlarni ehtiyoji va talablariga javob beruvchi bir qator xizmatlar to‘plamini taklif etuvch hamda aniq jalb etuvchanlik darajasiga ega bo‘lgan geografik hudud sifatida qaraladi.

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan esa “turistik destinatsiya” tushunchasi esa turistlar tomonidan borishga harakat qilinuvchi, turistik oqimni shakllantiruvchi joy, qandaydir lokatsiya (hudud, makon, akvatoriya) sifatida tushuncha beriladi. Shu mazmunda turistik destinatsiya turist tomonidan yashash manzilini tark etgan holda ushbu makonda yangi hissiyotlar va o‘ziga xos qoniqishlarni olishni rejalashtirgan joy sifatida qaraladi.

E.Louzing yondashuvlaridan tashqari turistik destinatsiya tushunchasiga A.Lu, V.Framke, J.Saarinen va M.Kilanenlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ham mavjud. Ushbu tadqiqotchilarning “turistik destinatsiya” tushunchasiga konseptual yondashuvlarini o‘rganib chiqqan holda konseptual yondashuvlarni to‘rt asosiy yo‘nalishda ajratib chiqish mumkin.

1. Iqtisodiy-geografik jihatdan yo‘naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu yo‘nalishdagi yondashuvga K.Metelka, S.Medlik, R.Batler, N.Leyper va R.Meytlend kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarini kiritish mumkin.

Konseptual yondashuvlar	Tadqiqotchilar	Konseptual yondashuvlar mazmuni
Iqtisodiy-geografik jihatdan yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	N.Leyper	Turistik destinatsiya bu – turistlar tomonidan hududning bir yoki bir necha belgi va xususiyatlari bo‘yicha turistik tajriba olish uchun ma’lum bir vaqtga to‘xtovchi joy.
	K.Metelka	Turistik destinatsiya – inson sayohat qiluvchi “geografik joy”, “turistik bozorning hududi”.
	S.Medlik	Turistik destinatsiya – turistlar tomonidan tashrif buyuriladigan jalb etuvchanlik xususiyati, turistik xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmasi va geografik jihatdan borish chegaralanmaganlik kabi asosiy omil belgilariga ega bo‘lgan hudud.
	R.Meytlend	Turistik destinatsiya – turistlar tashrif buyuruvchi geografik chegaralarga ega bo‘lgan alohida hudud.
Marketingboshqaruviga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	F.Kotler, J.Bouen, J.Meykenz	Turistik destinatsiya – ko‘p bosqichli tarkibiy tuzilish: asosiy, yondosh va qo‘shimcha tuzilishga ega bo‘lgan moddiy yoki nomoddiy elementlardan tashkil topgan turistik mahsulot.
	D.Buxalis	Turistik destinatsiya bu – iste‘molchiga umumlashgan tajribani o‘zlashtirish imkonini beruvchi turistik mahsulot.

ustuvor yo'nalishlari

Mijozga yo'naltirilgan konseptual yondashuv	J.Moysander, A.Valtonen	Turistik destinatsiya imij, joy, xizmatlar va mehmondo'stlik sohasi kabi mijozga yo'naltirilgan kengaytirilgan turistik mahsulotni ifodalovchi xizmatlar tizimi. Unda mijoz, bir tomondan, tadbirlarda ishtirok etuvchi nafaol istemolchi sifatida, ikkinchi tomondan, turistik mahsulotni iste'mol qilish uchun iqtisodiy jihatdan optimal qaror qabul qiluvchi faol subyekt sifatida qaraladi.
Ijtimoiy-madaniy konseptual yondashuv	J.Dyumazedye	Turistik destinatsiya – jamiyatdagi ne'mat hisoblanib, "ishlab chiqarish" iqtisodiyoti o'rniga "xizmatlar" iqtisodiyotining kelishi bilan rivojlanuvchi muhit.
	N.Kolodiy	Turistik destinatsiya xizmatlar sohasining asosiy institutlari (universitetlar, axborot, fan, madaniyat, tibbiyot) ishtirokida nazariy va amaliy jihatdan shakllanuvchi qadriyatlar va tajribalar o'rganiladigan joy.
	J.Urri	Turistik destinatsiya – global bozorda raqobat muhitida foydalaniluvchi, turist tomonidan tanlanadigan va uning xoxish istaklari doirasida foydalaniladigan turistik mahsulot.

1.1-jadval "Turistik destinatsiya" tushunchasiga konseptual yondashuvlarning mazmuni

2. Marketing-boshqaruviga yo'naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu yo'nalishdagi yondashuvga xorijlik olimlardan F.Kotler, J.Bouen, J.Meykenz, D.Buxalis va K.Gunnlarning yondashuvlari tegishli.

3. Mijozga yo'naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu konseptual yondashuvga xizmatlar marketingi, strategiyasi hamda marketing aloqalariga tegishli qarashlarni ifodalovchi J.Moysander, A.Valtonen, K.Grenroos, M.Bitner, J.Gorovits va L.Mossberglarning tadqiqotlari kiradi.

4. Ijtimoiy-madaniy konseptual yondashuv. Bu yondashuvlarning mazmuni J.Dyumazedye, N.Kolodiy, J.Urri va R.Lashlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yondashuvlarning mazmuni 1.1-jadvaldagi talqinlar orqali aniqroq ko'rsatib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adilova Z.D., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Xursandov K.M. Turizm menejmenti: O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2011. -116 b.
2. Bertalanffy, Ludwig Von. (1968). General System Theory: Foundations, Development, Applications. New York: George Braziller.
3. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S. Turizm: nazariya va amaliyot. – T.: «Fan va texnologiya», 2018, - 400 b.
4. Davidson R., Maitland R. Tourism destinations / R. Davidson, R.Maitland. – London: Hodder & Stoughton, 1997. – P.4.
5. Pine, J. and Gilmore, J. (1999). The Experience Economy, Harvard Business School Press, Boston.

KORXONA MARKETING TAHLILINI TASHKIL ETISHDA MONTEKARLO SIMULYATSIYASI MODELINING AFZALLIKLARI

**Raxmatov Jahongir Shuxratovich «Buxgalteriya
hisobi va statistika» kafedrasini o'qituvchisi Buxoro
Davlat Universiteti**

Monte-Karlo Simulyatsiyasi (MCS) modeli[1] dastlab yadroviy qurollarni loyihalashda foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Bu tasodif va noaniqlik bilan bog'liq jarayonlarni simulyatsiya qilishning samarali usulini taqdim etadi va bozor hajmini aniqlash, mijozlarning hayotiy qiymatini hisoblash[1] va mijozlarga xizmat ko'rsatishni boshqarish kabi turli sohalarda qo'llanilishi mumkin.

Monte-Karlo simulyatsiyasi modeli[1] - bu murakkab tizimlarning xatti-harakatlarini modellashtirish uchun tasodifiy tanlab olish va ehtimollikdan foydalanadigan raqamli tahlil usuli bo'lib hisoblanadi. Monte-Karlo simulyatsiyasi modelidan foydalanish tasodifiy rag'batlantirilgan kirish parametrlari asosida korxonaning marketing samaradorligining yakuniy ko'rsatkichini tahlil qilish va indikatorning olingan xususiyatlari asosida loyiha natijalarining o'zgaruvchan sharoitlarga barqarorligini baholash imkonini beradi.[1]

Monte-Karlo Simulyatsiyasi (MCS) texnikasi dastlab yadroviy qurollarni loyihalashda foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Bu tasodif va noaniqlik bilan bog'liq jarayonlarni simulyatsiya qilishning samarali usulini taqdim etadi va bozor hajmini aniqlash, mijozlarning umr bo'yi qiymatini o'lchash va mijozlarga xizmat ko'rsatishni boshqarish kabi turli sohalarda qo'llanilishi mumkin. MCS tijorat ilovalarida, jumladan marketing va mijozlar bilan aloqalarni boshqarishda (CRM) ortib borayotgan rol o'ynamoqda.

Monte-Karlo Simulyatsiyasi (MCS)ning marketing tahlili uchun ahamiyatini bir so'z bilan ifodalash mumkin "integratsiya"[1]. Bu to'liq modelni ta'minlash uchun har bir komponent an'anaviy usullar (masalan, bashoratli yoki tavsiflovchi tahlillar) yordamida ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin bo'lgan bir qancha komponentlarni birlashtirish imkonini beradi. Bunday integratsiya an'anaviy usullardan foydalangan holda juda qiyin, samarasiz yoki hatto chidab bo'lmay bo'lishi mumkin. Klassik misol - mijozlar qiymatini modellashtirish, bunda ma'lum vaqt davomida mijozlarning to'liq ko'rinishini ta'minlash uchun mijozlar xatti-harakatlarining bir qator modellarini birlashtirish kerak.[2]

Korxonada faoliyatida marketing tahlili amalga oshirilganda Monte-Karlo simulyatsiyasi modellashtirish xavflarni baholash, bashorat qilish va marketing strategiyalarini optimallashtirish uchun qimmatli vositaga aylanadi.

Korxonada faoliyatida marketing tahlilini amalga oshirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz[2]:

1. Korxonadagi mavjud xatarlarni baholash va sotishni prognozlash. Monte-Karlo simulyatsiyasi modellashtirish iste'mol talabining o'zgarishi, raqobatbardosh faoliyat va iqtisodiy o'zgaruvchilar kabi omillarni hisobga olgan holda turli xil savdo siyosatini rag'batlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu korxonada daromadlarini prognozlari bilan bog'liq xavfni baholashga yordam beradi.

2. Korxonadagi mavjud investitsiyalarning rentabelligini prognoz qilish (ROI). Korxonalar marketing loyihalari uchun ma'lum darajadagi rentabellikka erishish ehtimolini baholash uchun Monte-Karlo simulyatsiyasi modelidan foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida turli tashabbuslar bilan bog'liq potentsial xavf va mukofotlarni tushunishga yordam beradi.

3. Korxonada mavjud marketing strategiyalarini optimallashtirish va narx strategiyasini ishlab chiqish. Monte-Karlo simulyatsiyasi modellashtirish talabning o'zgarishi,

ustuvor yo'nalishlari

raqobatchilarning xulq-atvori va boshqa bozor dinamikasini hisobga olgan holda optimal narx darajalarini o'rganishga imkon beradi. Bu rentabellikni maksimal darajada oshiradigan narx strategiyasini ishlab chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi.

4. Korxonada turli xil marketing kompaniyalarini tashkil etishni rejalashtirish. Korxonalar turli marketing kompaniyalarining samaradorligini baholash uchun Monte-Karlo simulyatsiyasi modelidan foydalanishlari mumkin. Turli xil PR larni va ularning potentsial natijalarini modellashtirish orqali tashkilotlar resurslarni yanada samaraliroq taqsimlashlari hamda marketing kompaniyalarining umumiy ta'sirini yaxshilashlari mumkin.

5. Korxonada kelajakdagi iste'molchilar xulq-atvorini prognozlash va mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish.[1] Monte-Karlo simulyatsiyasi modellashtirishda marketing harakatlarining samaradorligi va raqobatchilarning xulq-atvorini prognozlash kabi turli omillarga asoslanib, muayyan bozor ulushlariga erishish ehtimolini baholashga yordam beradi.


6. Korxonaning bozordagi o'zgarishga ta'sirchanligining tahlili. Korxonalar bozordagi o'zgarishlarning (masalan: reklama xarajatlari, narxlar, bozor sharoitlari) marketing natijalariga qanday ta'sir qilishini baholash uchun Monte-Karlo simulyatsiyasi modelidan foydalangan holda ta'sirchanlik tahlilini o'tkazishi mumkin. Bu asosiy drayverlarni va zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi.

7. Korxonada marketingni tashkil etish uchun resurslarni optimal taqsimlash. Resurslarni taqsimlashning turli loyihalarini rag'batlantirish orqali korxonalar marketing maqsadlariga erishish uchun resurslarning eng samarali va muqobil variantlarini aniqlashlari mumkin.

Umuman olganda, Monte-Karlo simulyatsiyasi modellashtirish usuli korxonalar uchun marketing tahlilida kuchli vosita bo'lib hisoblanadi[1]. Uning noaniqliklarni hal qilish, xavflarni baholash va turli xil marketing mexanizmlarni rag'batlantirish qobiliyati hamda korxonaning dinamik biznes muhitida ongli qarorlar qabul qilish va marketing strategiyalarini optimallashtirish uchun bebaho model bo'lib xizmat qiladi.

Monte-Karlo simulyatsiyasi modellashtirish usuli iqtisodiyotda murakkab tizimlarni tahlil qilish, xavflarni baholash va bashorat qilishda turli holatlar uchun qo'llanilishi mumkin. Monte-Karlo simulyatsiyasi modellashtirish iqtisodchilarga iqtisodiy tizimlarga xos bo'lgan murakkabliklar va noaniqliklarni tahlil qilish uchun moslashuvchan hamda kuchli asos yaratadi.

Korxonaning marketing tahlilini amalga oshirishda Monte-Karlo simulyatsiyasi modelini quyidagi bosqichlarda tashkil etilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi deb o'ylaymiz[2].



Korxonada yuqorida mavjud bo'lgan bosqichlarni amalda qo'llab, marketing tahlilining qat'iyligi va samaradorligini oshirish uchun Monte-Karlo simulyatsiyasi modelidan foydalanishlari mumkin, bu esa noaniqlik sharoitida ko'proq xabardor qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Monte-Karlo simulyatsiyasi marketing tahlili sohasida bir qancha afzalliklarni taqdim etadi.[3]

1. Noaniqlik boshqariladi. Marketing muhiti ko'pincha noaniqlik va o'zgaruvchanlik bilan bog'liq bo'ladi. Monte-Karlo simulyatsiyasi modelida ushbu noaniqliklarni tahlilga kiritiladi va potentsial natijalarni yanada realroq tasvirlanadi.

⁵⁹ 21-sonli BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ni tasdiqlash to'g'risida"

Korxonaning xom-ashyo material, yoqilg'i va energiya etkazib berishning uzilib qolishi ishlab chiqarish ritmini buzishga bekor turtib qolishlariga oy oxirida xaybarakallachilikka va oqibat natijada unumsiz xarajatlarga olib keladi. Korxonada itisodiyotga xaddan tashqari normativdan ortiqcha zapaslarni bo'lishi xam salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zapas ko'payib ketganda oborot mablag'lari oshib ketadi, moliyaviy axvol yomonlashadi, ishlab chiqarishning rentabelligi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga mehnatni tashkil etishda takomillashtirish ta'sir ko'rsatadi. Har qanday texnikadan xatto yangisidan xam ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilmay turib, maksimal ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik jarayonlarni mexanizatsiya va avtomatlashtirish bilan bir qatorda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta e'tibor berish kerak.

Mahsulot tannarxini pasaytirishda hisobotning roli kattadir. Hisob olib borish yoqilg'i va energiyadan, xom ashyo va materiallardan ratsional foydalanishga yordam beradi, xarajatlarni kamaytirish va korxonada jamg'armasini oshirish imkonini beradi. Jamoaning kuchini yetishtiriladigan mahsulotning tannarxini pasaytirishga qaratish uchun ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish va hisobga olish zarur. Iqtisod qilish yo'llarni aniqlash ortiqcha xarajatlarning sababini ochib tashlash uchun bu xarajatlarni doimiy tahlil qilib turish kerak. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish rejasining bajarilishini tahlil qilish ishlab chiqarish rentabelligining oshishi uchun korxonadagi barcha ishlarni takomillashtirilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Lekin tahlil faqatgina tannarxning pasaytirish rejasini bajarilishiga qo'yilgan baho bilan chegaralanmaydi, u ishlab chiqarish xarajatlarini yanada kamaytirish uchun tahliliy va texnikaviy harakatlarni ham ko'rish kerak. Mahsulot ishlab chiqarishni tahlil qilishda ishchilarning faol ishtirok etishlari uni pasaytirishning muhim yo'lidir. Xarajatlar korxonaga bog'liq bo'lmagan omillarga qarab o'zgaradi. Masalan; resurs narxi, har xil xizmat xaqining tebranishi korxonada xohishidan qat'iy nazar xarajatlarni o'zgartiradi. Korxonada ishlab chiqarish ko'lamini kengaysa, resurslar sarfi qisqaradi, chunki ular kamroq isrof etiladi. Resurslarni tejovchi texnologiya joriy etilganda xarajatlar keskin qisqaradi. O'rtacha xarajatlar mehnat unumdorligiga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Mehnatni unumining ortishi ham moddiy ham mehnat sarfini qisqartiradi, bozordagi narx binobarin tovar barqaror sharoit va mehnat unumdorligi xarajatlari pasaytirish orqali foydani ko'paytiradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxonada foydasini oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zero mahsulot bahosi tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin xarajatlar qanchalik qisqarib borsa, shunga mos foyda oshib boradi.

ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLISH METODOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

**Sunnatov Yu.U. BuxDU – "Buxgalteriya hisobi va statistika"
kafedrasi mudiri, PhD Jamilova E.V.**

BuxDU – Iqtisodiyot va Turizm fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi 4-kurs talabasi

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiruvchi, mahsulot sifatini yaxshilovchi, maksimal foyda olish imkoniyatini hamda ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida korxonalar faoliyatida asosiy vositalarning roli oshib bormoqda. Korxonalar faoliyatini pirovard natijasi qanday mehnat vositalarining ishlatilishiga, ularning holatiga, texnika taraqqiyoti darajasiga mosligiga bevosita bog'liq.

Mehnat vositalari har qanday ishlab chiqarishning majburiy moddiy elementi bo'lib, ular inson mehnati mahsuloti sifatida qiymatga ega bo'lgandagina, iqtisodiy kategoriya bo'lib hisoblanadi. Asosiy mehnat vositalarini iqtisodiy tabiati ularning korxonada ishlab chiqarilganligi, sotib olinganligi, lizingga (ijaraga) olinganligi yoki tekinga olinganligi kabi aniq shartlar bilan tavsiflanib, ularda mehnat sarfini namoyon bo'lishi va tan olingan iste'mol sifatlarining mavjudligi, ya'ni ulardan foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi. Ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida natural shaklini saqlab qolgan holda, sekinasta o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazadi va shu orqali ularga qilingan dastlabki sarf-xarajatlar amortizatsiyalanadi (qayta tiklanadi).

Mehnat vositalarining jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynashi, ularning moddiy ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasini belgilashi, mehnat unumdorligini oshirishi bu turdagi aktivlarni "asosiy vosita" nomi bilan atalishiga sabab bo'ldi.

Asosiy vositalar – bu kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan, korxonalar tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar. Aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishda mezon sifatida ularning foydalanish muddati va qiymati asos qilib olinadi. Chunonchi bu tartib "Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSda ham belgilab qo'yilgan bo'lib, unga muvofiq asosiy vositaning qiymati eng kam oylik ish haqi miqdoriga bog'liq. Eng kam oylik ish haqi miqdorining oshishi asosiy vositalar tarkibida bo'lgan aktivlarni aylanma aktivlar tarkibiga o'tkazishga asos bo'la oladi. Bu yerda asosiy vositalardan foydalanish muddati va ular orqali olinadigan iqtisodiy naf rol o'ynamay qoladi. Bizning fikrimizcha, aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishdagi asosiy mezon bo'lib undan foydalanish mobaynida olinadigan daromad (iqtisodiy naf) hisobga olinishi lozim.

Bizningcha, 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ning 4-bandida keltirilgan talabni quyidagi tahrirda o'zgartirish maqsadga muvofiq. "Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

a) kelgusida iqtisodiy naf keltirishi;

b) bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;

Xizmat muddatidan qat'iy nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

a) maxsus asboblardan va moslamalardan (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga

ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan, maqsadli yo'naltirilgan asboblardan va moslamalardan);

b) maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallar;

c) ko'rpa-to'shak anjomlari;

d) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblardan

va

boshqalar);

- e) oshxona anjomlari, shuningdek oshxona uchun dasturxon, sochiqlar;
- f) tiklanishi bo'yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul inshootlar) moslamalar va qurilmalar;
- g) kamida bir yillik foydalanish muddatiga ega bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;
- h) ov qurollari (trallar, to'rlar, qarmoqlar, matraplar, merejalar va boshqalar).

Asosiy vositalar tarkibida qonun hujjatlariga muvofiq korxonalar mulkiga o'tkazilgan yer uchastkalari ham hisobga olinadi. Ko'p yillik ko'chatlarga, yerni tubdan yaxshilashga, ijaraga olingan asosiy vositalar obyektlariga kapital qo'yilmalar har yili barcha ishlar majmuasi yakunlangan sanadan qat'iy nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga tegishli xarajatlar summasi miqdori asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi."

Asosiy vositalarni xarid qilish, qarzga olish, qurib bitkazish, ayirboshlash, hadya qilish, ta'sisчилarning ulushlari kabi turli yo'llar orqali shakllantiriladi. Mazkur aktivlarni kirim qilib olish hamda ulardan foydalanish jarayonida turli xarajatlar qilinadi. Bunday xarajatlar ikki turga: kapital xarajatlar va joriy - operatsion xarajatlarga bo'linadi.

Kapital xarajatlar – bu asosiy vositalarni xarid qilish yoki rivojlantirish uchun sarf bo'lgan mablag'lardir. Odatda, kapital xarajatlar aktivlar schyotida aks ettirilib, balansda ko'rsatiladi, chunki ushbu xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy naf kelgusi davrda olinadi.

Operatsion xarajatlar esa – nasosiy vositalarni hisobot davri mobaynida ishchi holatda saqlab turish bilan bog'liq sarflarni o'z ichiga oladi. Ushbu sarflar xarajatlar schyotida aks ettirilib, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning xarajatlar elementi sifatida e'tirof etiladi.

Ko'rinib turibdiki, kapital xarajatlar bilan operatsion xarajatlar bir-biridan farqlanadi. Kelgusida daromad olish maqsadida qilingan sarf-xarajatlarni kapitallashtirmaslik, ularni joriy hisobot davrida olingan daromadlar evaziga qoplash joriy davr moliyaviy natijalarini soxtalashtirishga, ya'ni xarajatlar orttirib ko'rsatilishga olib keladi. 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ning 22-bandiga muvofiq, asosiy vositalar qiymatiga o'tkaziladigan kapital qo'yilmalar kelgusida asosiy vositalardan foydalanish natijasida olinadigan iqtisodiy nafni olish imkoni ma'lum bo'lgan holdagina kapitallashtirilgan xarajatlar deb tan olinadi. Kelgusida olinadigan iqtisodiy nafni oshirmaydigan barcha boshqa xarajatlar joriy xarajatlarda hisoblanadi.

Sarf qilingan xarajatlar kelgusida iqtisodiy naf keltirishi shartmi? Buni kim aniqlaydi? Me'yoriy hujjatlarga muvofiq ushbu savollarga javoblarni ifodalovchi tartiblarni korxonalar rahbariyati belgilashi lozim. Bunday tartib xarajatlarni kapitallashtirish yoki aksincha ularni operatsion xarajatlarga olib borishda subyektivlikka olib keladi. Shuningdek, subyektivlik mulk solig'iga tortiladigan asosiy vositalar qiymatini shakllantirishda obyektivlikni pasaytiradi. Muammo yechimini topish uchun bizning fikrimizcha, 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ning 22,23-bandlarini izohli ilovalar bilan to'ldirish lozim. Chunonchi, ushbu standartda xarajatlarni kapitallashtirishning aniq mezon va cheklovlari belgilanishi darkor.

Asosiy vositalarni xarid qilish uchun odatda katta miqdordagi mablag talab qilinadi. Korxonalarda esa hamma vaqt ham bo'sh turgan mablag'larning o'zi bo'lavermaydi. Shuning uchun asosiy vositalarni qarzga chetdan jalb qilish maqbul variantlardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar qonunchilik talablaridan kelib chiqib, qarzli qimmatbaho qog'ozlarni muomalaga chiqaradilar. Bunda asosiy vositalarni xarid qilish jarayonida ularning qiymatini shakllantirish va balansda aks ettirish bo'yicha muammolar kelib chiqadi. Albatta, bu yerda asosiy vositalar uchun to'lovlarning kechiktirilgan holatlari yoki pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda (aksiyalarni chiqarish sharti bilan). Asosiy vositalarni xarid qilish uchun korxonalar qarzli qimmatli qog'ozlarni (obligatsiya) yoki o'zining xususiy aksiyalarini muomalaga chiqarib asosiy vositalarga ayirboshlashi mumkin. Bu yerda asosiy vositalarni qaysi bahoda kirim qilib olish haqida so'z boradi: qimmatli qog'ozning

ustuvor yo'nalishlari

nominal qiymatidami yoki sof bozor bahosidami? Korxonada asosiy vositani olish uchun qarzdagi qimmatli qog'ozni muomalaga chiqaradi. Mazkur muomalaga chiqarilgan qarzdagi qimmatli qog'ozning sof bozor qiymati aniqlanadi. Asosiy vositalar shayti ana shu summaga debetlanadi, to'lanadigan uzoq muddatli obligatsiyalar shayti esa kreditlanadi. Obligatsiyani muomalaga chiqargan korxonada ushbu obligatsiya uchun va'da qilgan foiz stavkasi bozor stavkasidan farq qilsa, u holda asosiy vositaning qiymati, albatta, obligatsiyaning nominal qiymatidan farqlanadi. Va'da qilingan foiz stavkasi bozor stavkasidan past bo'lsa, u holda asosiy vositaning qiymati qarzdagi qimmatli qog'ozning nominal qiymatidan yuqori bo'ladi. Aksincha, va'da qilingan foiz stavkasi bozor stavkasidan yuqori bo'lsa, u holda asosiy vositaning qiymati obligatsiyaning nominal qiymatidan past bo'ladi.

Asosiy vositani muomalaga chiqarilgan xususiy aksiyalarga ayirboshlash operatsiyasi amalga oshirilganda, ikkita holatga e'tibor qaratish lozim. Birinchisi aksiyaning bozor qiymatini ma'lum bo'lishi, asosiy vositaning sof bozor qiymatini aniqlash imkonining yo'qligi bo'lsa, ikkinchi holat esa aksiyaning bozor qiymatining ma'lum emasligi va aksincha, asosiy vositaning sof bozor qiymatining ma'lum ekanligi. Ushbu ikkala holatni quyida ko'rib chiqamiz.

Aksiyadorlik jamiyati to'qimachilik dastgohini sotib olish uchun muomalaga aksiyasini chiqardi. Aksiyaning sof bozor qiymati ma'lum, ammo dastgohning sof bozor qiymatini aniqlashning imkoni yo'q. U holda dastgoh aksiyaning sof bozor qiymatidan kelib chiqib kiritiladi. Aksincha, aksiyaning sof bozor qiymati ma'lum bo'lmasdan dastgohning sof bozor qiymati ma'lum bo'lsa, u holda dastgoh sof bozor qiymatida kiritiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kapital xarajatlar asosiy vositalar qiymatini to'g'ri belgilashning muhim omili hisoblanadi, chunki ularning qiymatini kelgusida mahsulot tannarxiga olib borib, uning shakllanishida va pirovard moliyaviy natijani aniqlash obyektivligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

КАПИТАЛ БОЗОРИДА СУВЕРЕН ҚАРЗЛАР

Абдуллаева Назокат

Тошкент Молия Институтини

Кириш

Капитал бозори молиявий тизимнинг бир қисми бўлиб, унинг муваффақиятли ишлашининг асосий шarti - истиқболи жарёнларни тўғри молиялаштиришдир. Суверен қарзлар эса, мамлакатлар ёки давлатлар томонидан чиқариладиган қарзлар ҳисобланиб, капитал бозоридаги муомалаларнинг муҳим бир қисмидир. Суверен қарз деганда, одатда, облигациялар чиқариш орқали давлат томонидан ўз зиммасига олган молиявий мажбуриятлари тушунилади. Ушбу қарз воситалари ҳукуматлар учун давлат лойиҳаларини молиялаштириш, бюджет тақчиллигини бошқариш ёки иқтисодий инқирозларга жавоб бериш учун капитал жалб қилиш учун восита бўлиб хизмат қилади. Мамлакатлар олган суверен қарзлар орқали молиявий ресурсларни жалб қилиш ва молиявий лойиҳаларни амалга оширишлари мумкин.

Иқтисодий адабиётларда қайд этилганидек, суверен қарзлар мамлакатнинг молиявий ҳолатини ва лойиҳалари ривожлантириш учун йўналтирилади. Улар одатда узоқ мuddatли масалан, 10 йил ёки ундан кўпроқ ва катта миқдорда бўлади.

Жаҳон банкининг берган маълумотларига кўра, дунёда ташқи қарзнинг жами қиймати 2022 йилда 832,761 млрд. АҚШ долларини, жумладан, давлатларнинг қарзи 428,181 млрд. АҚШ долларини ташкил этган[1]. Шунингдек, Халқаро ҳисоб китоблар банкининг маълумотларига кўра, давлатларнинг суверен ташқи қарзлари АҚШда 20,237

млрд. АҚШ доллари, Буюк Британияда 2,545 млрд. АҚШ доллари, Германияда 1,695 млрд. АҚШ доллари, Испанияда 1,289 млрд. АҚШ доллари ташкил этган[2]. Суверен қарзлар капитал бозори учун ҳам муҳим аҳамиятга эга, чунки улар мамлакатнинг молиявий барқарорлиги ва қарз ундириш воситалари сифатида қабул қилинади. Шунингдек, бу қарзлар мамлакатнинг кредит рейтинги ва молиявий ислоҳотларида муҳим бир ўрин тутди. Глобал капитал бозори тизимида суверен қарзлар хавфсизликка, даромаднинг мустаҳкамланишига ва мамлакатнинг молиявий рақобатбардошлигига таъсир этади.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи

Капитал бозорида суверен қарзлар - мамлакатлар ва халқаро ташкилотлар, шунингдек халқаро капитал бозори тизимининг бошқа субъектлари учун доимий равишда жозибадор инструмент ҳисобланади. Уларни олиш, муддатлари ва шартлари ҳар бир давлатнинг молиявий сиёсати, иқтисодий ва инвестицион потенциали билан боғлиқ бўлиши лозим. Шунингдек, суверен қарзлар халқаро молиявий ташкилотлар ва инвесторлар учун молиявий равишда ишончли инвестиция объекти сифатида номоён бўлади.

Капитал бозори суверен қарзлари таҳлили бўйича бир қанча тадқиқотлар ўтказилган. Хорижий иқтисодчилардан Маурисе Обстфелд ва Алан М.Тейлор [3] ўзларининг илмий тадқиқотларида глобал капитал бозорларининг турли жиҳатларини, жумладан, уларнинг интеграцияси, инқирозлари ва ўсиб боришини кўриб чиқиб, суверен қарзларнинг капитал бозорининг кенг динамикаси ўзаро таъсирини бўйича тушунчалар берганлар.

Иқтисодчи олимлардан Сеема Жаячандран ва Майкл Кремер[4]лар суверен қарзнинг амалий ва иқтисодий жиҳатларини ўзларининг илмий изланишларида баён этганлар. Шунингдек, иқтисодчилардан Роза М. Ластра ва Ли С.Бухейтлар[5] суверен қарзларга институционал ёндашувни таклиф қилувчи тадқиқотларни амалга оширганлар. Юртимиз иқтисодчиларидан А.Абдуллаев[6] жаҳон молия тизимида суверен қарзлар иқтисодий аҳамиятини ўзининг илмий тадқиқотларида баён этган бўлса, Ўзбекистоннинг давлат қарзлари ва иқтисодий хавфсизлиги бўйича таҳлилларни

Ш.Раҳматуллаев[7]нинг илмий изланишларида кузатишимиз мумкин. Шунингдек, Ф.Улуғбеков жаҳон молия бозорлари ва суверен қарзлари бўйича[8], Д.Холмуратова[9] давлатларнинг суверен қарзлари ва молиявий рақобатбардошлиги бўйича, А.Ёкубов[10] Ўзбекистонда давлат қарзлари ва даромадларини барқарорлаштириш бўйича бир қатор тадқиқотлар олиб боришди.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқот давомида капитал бозоридаги суверен қарзлар билан боғлиқ мураккабликлар, ҳукуматлар дуч келадиган муаммолари, молия бозорлари учун оқибатлари ва барқарорликни таъминлаш учун қўлланиладиган стратегиялар ўрганилган. Суверен қарзлар тузилиши, уларнинг муддати, қарзлар миқдори ва бошқа кўрсаткичлар таҳлили этилди. Молия бозорларидаги янгиликлар ва ахборотларни суверен қарзлар олиш ва уларни тўлаш жараёнларига таъсир этиши кўриб чиқилди. Суверен қарзларни бошқа молиявий воситалардан фарқ қиладиган томонлари ва уларнинг мамлакатлар учун муҳимлиги ҳақида маълумотлар келтирилди.

Мақолада, мамлакатлар томонидан суверен қарзлар билан бошқа молиявий воситалар орасидаги танловларни тузиш ва бошқариш учун қўлланиладиган стратегиялар кўриб чиқилган. Молиявий барқарорлик ва хавфсизликни таъминлашда суверен қарзлар роли, уларнинг қандай шаклланиши ва ўзгариши ўрганилган. Шунингдек, капитал бозоридаги суверен қарзлари, мамлакатларнинг молиявий сиёсати таҳлил қилинди ва уларнинг ўзаро таъсири, ўзгарувчанликлари ва молиявий салоҳиятлари кўрсатилди.

Таҳлил ва натижалар

Ҳозирги вақтда, мамлакатлар суверен қарзлар орқали молиявий ресурсларини жалб қилиш ва молиявий лойиҳаларни амалга оширишлари мумкин. Жаҳон молиявий ландшафтнинг муҳим таркибий қисми бўлган давлат қарзи мамлакатларнинг иқтисодий фаровонлигини шакллантиришда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Глобал капитал бозори тизимида суверен қарзлар муҳим аҳамиятга эга бўлган ва мамлакатлар учун катта таъсир кўрсатувчи бир восита сифатида танилган. Қуйида суверен қарзларнинг асосий эътиборли жиҳатларини кўриб чиқамиз:

Суверен қарзлар молиявий хавфсизликка таъсир этади: Мамлакатлар ўзларига тегишли суверен қарзларни олишади ва уларни бошқаришда иқтисодий хавфсизликка эришишади. Бу қарзлар мамлакатнинг иқтисодий ва сиёсий мустақиллигини таъминлашда муҳим бўлиб, иқтисодий инқирозларга қарши курашишда ёрдам беради; даромаднинг мустаҳкамланиши: суверен қарзлар орқали мамлакатлар даромади мустаҳкамланади. Бу қарзлар мамлакатлар томонидан амалга оширилаётган молиявий лойиҳалар маблағ жалб қилиш учун ишлатилади. Шундай қилиб, янги объектлар яратилади ва даромаднинг ўсиши, иқтисодий ривожланиш ва ишлаб чиқариш тармоқларининг ривожланиши ошади. молиявий ресурсларни жалб қилиш: мамлакатлар суверен қарзлар орқали молиявий ресурсларни жалб қилиши мумкин. Бу ресурслар мамлакатни иқтисодий равишда мустаҳкам қилишда ва хусусий бизнес соҳасида иқтисодий ривожланишни таъминлашда ишлатилади.

Молиявий рақобатбардошлиги: Мамлакатлар суверен қарзлар орқали молиявий рақобатбардошлигини оширишади. Қарзлар орқали амалга оширилаётган лойиҳалар, молиявий соҳасидаги рақобатнинг ривожланишига олиб келади ва мамлакатни глобал иқтисодий тартибда мустаҳкам қилишга ёрдам беради.

Давлат қарзи иқтисодий фаровонликни шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Мамлакатлар ташқи капитал бозоридан миллий иқтисодиёт учун муҳим бўлган суверен қарзларни олишади. Бу қарзлар орқали мамлакатлар ўз молиявий ресурсларини ўстириш ва иқтисодий фаолиятларини ривожлантириш имкониятига эга бўладилар.

Давлат суверен қарзларининг миқдорини ўсиши ёки камайиши иқтисодий ривожланиш даражаси билан ўзаро боғланган. Халқаро молиявий институлар берган маълумотларига кўра 2022 йилда давлат суверен қарзлари бўйича мажбуриятлар АҚШ, Германия ва Испанияда юқоридир (1-жадвал).

2022 йил ҳолатига давлатларнинг суверен қарзи[11]

Давлатлар	Қарз мажбурияти, млрд. АҚШ доллари				Ўртача йиллик сўндирилиш		
	Жами	Маҳаллий валютада			Хорижий валютада	Асосий сўндирилиш	Қайта кўндирилиш
		Белгиланган курсли	Сузуб юрувчи курсли	Инфляцияга боғланган			
Аргентина	116,8	0,9	1,4	59,4	55,2	7,4	4,2
Австралия	586,6	560,6	0	26	0	11	7
Белгия	442,4	436,7	2,2	0	3,6	16,9	10,9
Канада	771,1	735,2	0	35,9	0	10,2	6,7
Хитой	188,7	188,7	0	0	0	16,9	9,7
Чехия	115,2	95,8	17,8	0	1,6	12	6,3
Германия	1695,4	1597,2	5,4	83,4	9,5	13	7,1
Венгрия	80,7	58,4	9,3	12	0,9	9,2	5,5
Индонезия	344,4	289,6	54,4	0	0,4	9,7	6,2
Исроил	155,4	81,6	11,6	62,1	0	14,2	8
Малайзия	232,9	232,9	0	0	0	13,9	8,5
Мексика	494,9	155,8	202,9	136,2	0	10,1	6,5
Перу	35,7	34,9	0	0,8	0	13,8	8,3
Сингапур	120,2	120,2	0	0	0	8,8	5,7
Испания	1289,8	1201,4	18,1	70,3	0	13,7	7,7
Таиланд	209,5	209,5	0	0	0	16,7	11
Туркия	102,3	38,2	14,5	21,2	28,3	6	3,5
Қўшма Штатлар	20237,1	17711,8	617,2	1908,1	0		6,2

1-жадвал маълумотларида шуни қайд этиш жоизки, дунё давлатларида 2022 йил бўйча давлат қарзининг мажбуриятлари бериб ўтилган. Шунингдек, жадвалда суверен қарзларнинг 3 турдаги фоиз ставкалари: белгиланган курс, сузуб юрувчи курс, инфляцияга боғланган қийматларини аохида ажратиб кўрсатишимиз мумкин. Аксарият давлат суверен қарзлари аниқ белгиланган фоиз ставкалари асосида муомалага чиқарилади. Сўндирилиш даражаси бўйича Белгия ва Хитой давлатларининг суверен қарзлари ўртача 10,9 ҳамда 9,7 йилни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикасида ҳам иқтисодий ва ижтимоий лойиҳалар юзасидан ташқи ва ички қарзларни давлатга жалб этиш амалиётлари олиб борилмоқда (1-расм).

ustuvor yo'nalishlari

Давлат қарзининг хавфсиз даражаси (ЯИМга нисбатан 60 фоиз)



1-расм. Ўзбекистон Республикаси давлат қарзининг динамикаси [12]

2022-йилда Ўзбекистоннинг давлат қарзи қарийб 3 млрд. АҚШ долларига ошган. Ўсишнинг катта қисми давлат ташқи қарзи ҳисобига тўғри келди — 2,3 млрд. АҚШ доллари қўшилган, қолган 0,6 млрд. АҚШ доллари эса ички қарзга тўғри келди.

Хусусан, давлат қарзининг ЯИМга нисбатан 2021 йил бошида 38,0 фоиздан 2023 йил 1 январ ҳолатига кўра 36,4 фоизга яъни ўтган йилгига нисбатан 1,6 фоизга пасайди. Давлат қарзи 2022 йил давомида 2021 йилга нисбатан 2,9 млрд. АҚШ долларига ошган.

Ўз навбатида, 3,3 млрд. АҚШ доллари ички қарз давлат кафолати остида жалб қилинган бюджетдан қайтариладиган мажбуриятдан иборатдир. Маблағларнинг асосий қисми халқаро молия ташкилотлари — Жаҳон банки, ЕТТБ, ОТБ, томонидан тақдим этилди.



2-расм. Ўзбекистон Республикаси номидан ва давлат хизмати имзоланган ташқи кредит битимлари ҳажми [12] (01.01.2023 й. ҳолатига)

Ўзбекистон Республикасининг —2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджет тўғрисида [14] ги Қонунига мувофиқ: Ўзбекистон Республикаси номидан ва Ўзбекистон Республикасининг кафолати остида жалб қилинган давлат қарзининг суммаси ялпи ички маҳсулотнинг йиллик прогноз кўрсаткичига нисбатан 60 фоиздан ошмаслига; 2021 йил учун Ўзбекистон Республикаси номидан ва Ўзбекистон

Республикасининг кафолати остида ички ва ташки қарзларни жалб қилиш бўйича йиллик имзо янги битимларнинг тузилиши соф хажми 5,5 млрд. АҚШ доллари ташкил қилди. Бу кўрсаткич 2023 йилга келиб 4,5 млрд. АҚШ долларини ташкил этди.

Хулоса

Хулоса қилганда, суверен қарзлар капитал бозори тизимида муҳим аҳамиятга эга бўлган молиявий восита сифатида ҳисобланади. Бу қарзлар мамлакатлар учун хавфсизлик ва иқтисодий ривожланишни таъминлашда муҳим бўлиб, улар иқтисодияти шакллантириш, инфраструктурани ривожлантириш, ва бошқа стратегик молиявий лойиҳаларни амалга ошириш учун ишлатилади.

Мамлакатлар ўз қарзларини барча тўғридан-тўғри инвестициялар, даромадлар ўсиши ва иқтисодий фаолиятни қўллаб-қувватлаш учун йўналтиришлари муҳим ҳисобланади.

Давлат қарзини бошқаришда иқтисодий-молиявий рискларни таҳлил қилиш ва уларни бошқаришда хориж тажрибасидан кенг фойдаланиш зарурдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://datatopics.worldbank.org/debt/ids/regionanalytical/SSA>
2. https://data.bis.org/topics/DSS/tables-and-dashboards/BIS,SEC_C2,1.0
3. Obstfeld, Maurice, and Alan M. Taylor. 2017. "International Monetary Relations: Taking Finance Seriously." *Journal of Economic Perspectives*, 31 (3): 3-28.
4. Jayachandran S., Kremer M. Odious debt // *American Economic Review*. – 2006. – Т. 96. – №. 1. – С. 82-92.
5. Lastra R. M., Buchheit L. (ed.). *Sovereign debt management*. – Oxford : Oxford University Press, 2014.
6. Абдуллаев А. Суверен қарзлар ва жаҳон молия тизими. Тошкент: —Ўзбекистон| нашриёти, 2018 йил.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбекистоннинг давлат қарзлари ва иқтисодий хавфсизлиги. Тошкент: Фан ва ҳаёт, 2017.
8. Улуғбеков Ф. Жаҳон молия бозорлари ва суверен қарзлар. Тошкент: Ўзбекистон давлат иқтисодиёт университети, 2019 йил.
9. Холмуратова Д. Давлатларнинг суверен қарзлари ва молиявий рақобатбардошлиги. Тошкент: —Молия ва бизнес| нашриёти, 2016 йил. 16 б.
10. Ёқубов А. Ўзбекистонда давлат қарзлари ва даромадларини барқарорлаштириш. Тошкент: Ўзбекистон Иқтисодиёт илмий-тадқиқот институти, 2015 йил.
11. https://data.bis.org/topics/DSS/tables-and-dashboards/BIS,SEC_C2,1.0
12. https://api.mf.uz/media/filestore/DB_2022.pdf
13. Ўзбекистон Республикасининг —2021-йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида| қонуни, 25.12.2020 йилдаги ЎРҚ-657-сон (<https://lex.uz/docs/-5186044>)
14. Ўзбекистон Республикасининг —Давлат қарзи тўғрисида| Қонуни, 29.04.2023 йилдаги ЎРҚ-836-сон (<https://lex.uz/docs/-6446817>)

TIJORAT BANKLARI BALANSI VA AKTIVLARINING TARKIBIY TAHLILI (MIKROKREDITBANK MISOLIDA)

Sa'dullayeva Sayyora Nasillo qizi

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2-kurs magistranti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi tijorat bankining faoliyatini to'liq tahlil qilish jumladan, bank balansini to'liq tahlil qilishning ahamiyati tahlil natijalarining bank faoliyatining samaradorligiga va tahlilning istiqboldagi rejalar va qabul qilinadigan qarorlarga to'g'ridan to'g'ri ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, markaziy bank, kreditor, omonatchi, bank oboroti, aktiv, kapital, passiv, aktivlar tarkibi, samaradorlik, moliyaviy aktivlar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar.

COMPOSITION ANALYSIS OF BALANCE SHEETS AND ASSETS OF COMMERCIAL BANKS (IN THE EXAMPLE OF MIKROKREDITBANK)

Abstract: In this thesis, a complete analysis of the commercial bank's activity, including the importance of a complete analysis of the composition of the bank's balance sheet, the results of the analysis on the effectiveness of the bank's activity and the direct impact of the analysis on future plans and decisions to be made. studied.

Key words: commercial bank, central bank, creditor, depositor, banking turnover, asset, capital, liability, composition of assets, efficiency, financial assets, fixed assets and intangible assets.

АНАЛИЗ СОСТАВА БАЛАНСА И АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ (НА ПРИМЕРЕ МИКРОКРЕДИТБАНКА)

Аннотация: В данной тезис дан полный анализ деятельности коммерческого банка, включая важность полного анализа состава баланса банка, результатов анализа эффективности деятельности банка и прямого влияния анализа. о будущих планах и решениях, которые необходимо принять.

Ключевые слова: коммерческий банк, центральный банк, кредитор, вкладчик, банковский оборот, актив, капитал, пассив, состав активов, эффективность, финансовые активы, основные средства и нематериальные активы.

Kirish

Har bir jarayonning kelgusidagi faoliyati uni har tomonlama chuqur tahlil qilishga asoslangan bo'ladi. Vaholanki, bozor iqtisodi sharoitida banklar iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanar ekan, uning faoliyatini tartibga solish iqtisodiyotning eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Banklar kredit munosabatlari va hisob-kitob vositachisi ekan iqtisodiy musobatlarning barqarorligini bank faoliyati va uning rivojisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bank faoliyatini tahlil qilishdan bosh maqsad bu bank faoliyati samaradorligi oshirishdir.

Tahlil va natijalar

Ushbu tesizda bank aktivlari tahliliga keng e'tibor qaratiladi. Asosiy maqsad yuqori foyda olishdan iboratligini inobatga olgan holda bank daromadlari va xarajatlari tarkibi o'rganiladi. Foydani tashkil etish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:


- Bank kreditorlari va omonatchilarining manfaatlarini himoyalash;
- Bank oborotiga chetdan jalb etilgan pul mablag'lari va bankning o'z mablag'laridan

samarali foydalanish;

- Bank resurs bazasining barqarorligini ta'minlash va ularni oqilona boshqarish;
- Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy normativlarning bajarilishini ta'minlash.

- Bank aktivlarini tarkibini va sifatini to'liq nazorat qilib borish.
- Bank daromadlari va xarajatlarining optimal miqdorini aniqlash
- Bank qimmatbaho qog'ozlarining jozibadorligini ta'minlashga erishish

Qisqa qilib aytganda, bank faoliyatining samaradorligi uning faoliyatini to'liq tahlil etilishi, natijalari o'rganilishi, tahlil natijasida qabul qilingan qarorlar, istiqboldagi rejalar sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Bank faoliyatini tahlil etish subyektlari nuqtayi nazaridan ular ikkiga ya'ni tashqi va ichki tahlilga bo'linadi. Tashqi tahlil asosan Markaziy bank, Tashqi auditor tashkiloti va Soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Ichki tahlil bankning ichki audit guruhi, tegishli departament va boshqarmalar hamda har bir bank xodimining funksional vazifalari yuzasidan amalga oshiriladi.




1-rasm. Bank faoliyati tahlilini amalga oshiruvchi subyektlar⁵⁵

Tashqi moliyaviy tahlil kompleks ravishda amalga oshiriladi, amaldagi qoidalarga muvofiq har bir tijorat banki har yili bir marta tashqi auditdan o'tishi va uning tegishli xulosalariga ega bo'lishi kerak. Tashqi audit tashkiloti bank aksionerlarining umumiy yig'ilishida tanlanadi. Yirik banklar o'zining imijini oshirish maqsadida xalqaro audit tashkilotlarini tanlashlari mumkin.

Ichki tahlilning asosiy maqsadi, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunda amaldagi qonun va qoidadan chetlashishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, bankning har operatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Tahlil natijasida bank boshqaruvi va kuzatuv kengashiga zarur ma'lumotlar taqdim etiladi va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fikr mulohazalar bildirish asosiy vazifa hisoblanadi.

⁵⁵ Bank faoliyati tahlili - T.M. Karaliyev, O.B. Sattarov, I.F. Sayfiddinov o'quv qo'llana 2016. 10-bet



2-rasm. Bank tahlilining mazmuni bo'yicha turlari

Shuni ta'kidlash joizki, tashqi tahlil ma'lumotlaridan foydalanuvchilar kreditorlar, investorlar, omonatchilar, auditorlar va boshqa bank faoliyati bilan qiziquvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ichki tahlil natijalaridan foydalanuvchilar esa faqat bank bo'linmalari hisoblanadi. Bu ma'lumotlardan bank rahbariyati operativ qarorlar qabul qilish uchun foydalaniladi.

Bank aktivlari holati, dinamikasi, samaradorligi kabi masalalar doimiy ravishda tahlil etilishi zarur. Shu bilan birga aktivlarning likvidligi, daromadligi va risklilik darajasi tahlil faoliyat muvoffaqiyatining garovi hisoblanadi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta'minlash ham muhim. Har qanday bank ham o'zining aktivlarining tarkibini samarali shakllantirishda ma'lum bir muammolarga uchraydilar.

Bank aktivlarini tahlil qilganda quyidagilarni aniqlash lozim:

- Bank aktivlarining umumiy qoldig'i hisobot davrida qancha o'zgarganligini;
- Aktivlarning tarkibini – mablag'lari asosan qaysi aktivlarga sarflanganini; – Bank aktivlari tarkibining hisobot davrida (tahlil qilinayotgan davrda) qanchalik o'zgarganligini va ularning o'zgarish sabablarini;
- Bank aktivlarining likvidligini;
- Bank aktivlarining samarali foydalanish ko'rsatkichlarini hamda ularning hisobot va o'tgan davrdagi tafovutlarini;
- Bank aktivlaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni (ijobiy va salbiy) hamda foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlab tahlil qilib, bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash lozim bo'ladi. Asosiy e'tibor aktivlar tarkibining o'zgarishiga qaratilishi zarur.

1-jadval.

Mikrokreditbank aktivlarining holati va dinamikasi(mln. so'mda yil oxirida)

№	Ko'rsatkichlari	2022-yil		2023-yil		farqi		Nisbiy o'zgarish %
		qoldig'i mln. so'm	ulushi %	qoldig'i mln. so'm	ulushi %	mln. so'm	%	
1	Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	1 172,2	9,2	1 535,1	9,3	362,9	0,1	31,0
2	O'z Res dagi hisobvaraqlarda gi majburiy zaxiralar	27,3	0,2	35,8	0,2	8,5	0,0	31,1

3	Boshqa banklardagi mablag'lar	116,4	0,9	104,2	0,6	-12,2	-0,3	-10,5
4	Mijozlarga kreditlar va avanslar	10 334,2	80,7	13 350,4	80,8	3 016,2	0,1	29,2
5	Investitsion moliyaviy aktivlar	507,2	4,0	454,7	2,8	-52,5	-1,2	-10,4
6	Investitsion mulk	62,0	0,5	195,6	1,2	133,6	0,7	215,5
7	Foyda solig'i bo'yicha avans to'lovlari	0,0	0,0	6,2	0,06	6,2	0,06	0,06
8	kechiktirilgan soliq aktivi	18,7	0,1	10,8	0,1	-7,9	-0,1	-42,2
9	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	462,9	3,6	600,1	3,6	137,2	0,0	29,6
10	Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar	52,0	0,4	143,7	0,9	91,7	0,5	176,3
11	boshqa aktivlar	49,5	0,4	85,0	0,5	35,5	0,1	71,7
12	jami aktivlar	12 802,4	100	16 521,6	100	3 719,2	0	29.1

Bunda daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan aktivlar, likvid yoki nolikvid aktivlar holati to'liq talqin qilinadi. Bundan tashqari, bank aktivlari tarkibida bank faoliyati uchun umuman keraksiz aktivlar mavjudligi va ularni «ishchan» aktivlarga aylantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi lozim. Kredit garoviga olingan mol-mulklar, ombordagi keraksiz asbob-uskunalar va vaqtincha foydalanilmayotgan bino-inshootlar shular jumlasiga kiradi.

Bankning aktivlari holatini tahlil qiladigan bo'lsak, eng likvid sanalgan kassadagi naqd pullar yil davomida 1,1 mlrd so'mdan 1,5 mlrd so'mgacha ko'paygan, ya'ni yil davomida kassadagi naqd pul qoldig'i 362,9 mln so'mga ko'paygan. Markaziy bankdagi mablag'larda ham o'sish sur'ati kuzatilgan, natijada yil davomida 2,03 mlrd so'mdan 2.15 mlrd so'm (yoki 105.55%) ga oshgan, bu bankning likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bankning boshqa banklardagi pul mablag'lari 116.4 mlndan 104.2 ga kamaygan ya'ni 10.5%ga kamaygan, bundan banklardan pul mablag'larini oldi-sottisi yil davomida yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rish mumkin. Investitsion mulk eng yuqori o'sish suratini qayd etgan 62.0 mlndan 133.6 mlnga ya'ni 215,5% ga oshgan. yil davomida davlatning budget mablag'lari profi tsit bilan chiqqan hamda bank keyinchalik ham foyda olish maqsadida bu aktivlarni ko'paytirgan. Kechiktirilgan soliq aktivi tahlilni ko'radigan bo'lsak, bank yil boshida 18,7 mln so'm miqdoridan -42,2% ga kamaygan fikrimizcha, bank yil davomida soliq aktivini uzishga qiynalmagan. Foyda solig'i bo'yicha avans to'lovlari yil

ustuvor yo'nalishlari

davomida deyarli o'zgarishsiz qolgan desak bo'ladi. Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar yil boshiga 52.0 mln so'mni qayd etgan bo'lsa yil oxirida 143.7 mln so'mni tashkil etgan bu 176.3% ortiqroq bo'lib bank bu aktivni risksizroq va daromad olish manbasi sifatida ko'rganini bilishimiz mumkin. Yil boshiga investitsion moliyaviy aktivlar 507.2 mln so'm bo'lgan bo'lsa yil oxirida 454.7 mln so'm qayd etgan. Kredit operatsiyalari bo'yicha ham shu holat, ya'ni yil davomida kredit hajmi 28.9 mlrd so'mdan 28.6 mlrd so'mga kamaygan. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hamda mijozlarga kreditlar va avanslar va O'zbekiston Respublikasidagi hisobvaraqlardagi majburiy zaxiralar miqdori deyarli bir sur'atda o'sish qayd etgan

Umuman olganda bank aktivlari yil boshida 12.8 mlrd so'm bo'lib, yil oxiriga borib bu 16.5 mlrd so'mni tashkil qilgani holda 129.1 %ga o'sgan. Bank aktivlari miqdorining tarkibi va dinamikasini o'rgangan holda, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlar belgilanmog'i lozim.

Xulosa va takliflar

Banklarning raqobatbardoshligini aniqlashda ularning likvidligi va to'lov qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil davomida banklarning likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar to'liq o'rganildi va qo'shimcha sifatida bu omil ta'sirini yanada kengroq o'rganish taklif etiladi. Har qanday tahlildan maqsad kamchiliklarni aniqlash va ularni tugatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Shunday ekan kamchiliklar atroflicha bartaraf etilsa, bu to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilayotgan xizmat sifatiga va kelgusida kutilayotgan daromad oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun. Lex.uz
3. Bank faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma T.M. Karaliyev, O.B. Sattarov, I.F.Sayfiddinov 2016.
4. Ergashev M. Tashqi savdo–statistik o'rganishning obyekti sifatida. – 2023.
5. Ergashev M. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: минтақаларнинг инновацион ривожланишини статистик баҳолаш //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2022. – Т. 13. – №. 13.
6. Sherov A. U. Qurbonov A. U., Ergashev M. Y. Tendency Of Developing Digital Economy in Uzbekistan //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 5. – С. 123-126.

TIJORAT BANK BALANSI, DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASINING TEMATIK TAHLILI

Sa'dullayeva Sayyora Nasillo qizi
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti 2-kurs magistranti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda bozor iqtisodiyoti sharoitida bank faoliyatining barqarorligi, uning raqobatbardoshligi va istiqbollari ko'p jihatdan o'tgan davrda erishilgan natijalar va yo'l

qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga bog'liqligidan kelib chiqib bank daromadlari, xarajatlari va foydasini tematik tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: balans, xo'jalik yurituvchi subyekt, to'lov qobiliyati, capital, xususiy kapital, aksiyalar

THEMATIC ANALYSIS OF COMMERCIAL BANK BALANCE, INCOME, EXPENSES AND PROFIT

Abstract: In this thesis, a thematic analysis of the bank's income, expenses and profit was carried out based on the fact that the stability of the bank's activity in the market economy, its competitiveness and prospects largely depend on the results achieved in the past period and the identification of the shortcomings.

Key words: balance sheet, economic entity, solvency, capital, private capital, shares

ТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БАЛАНСА, ДОХОДОВ, РАСХОДОВ И ПРИБЫЛИ КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА

Аннотация: В данной тезис проведен тематический анализ доходов, расходов и прибыли банка, исходя из того, что устойчивость деятельности банка в условиях рыночной экономики, его конкурентоспособность и перспективы во многом зависят от достигнутых результатов в истекшем периоде. и выявление недостатков.

Ключевые слова: баланс, хозяйствующий субъект, платежеспособность, капитал, частный капитал, акции.

Kirish

Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur anglash zarur bo'ladi. Buning uchun bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, vazifalarni bajarish asoslari, usullari, qisqa qilib aytganda, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni o'rganish lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun kerak bo'lgan mablag'lar va ularning manbalari, o'z mablag'lari hamda majburiyatlari tarkibi, ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari, ushbu mablag'larni samarali yo'naltirish, bankning likvidiligi, to'lov qobiliyatini ta'minlash asoslari kabilar yetarlicha o'rganilishi zarur.

Tahlil va natijalar

1-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standartlari 5-moddasiga binoan: moliyaviy hisobot alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lishi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning uyushgan guruhiga kirishidan qat'iy nazar bajaradigan, xo'jalik yurituvchi subyektga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy hodisalarni va muomalalarni qayd qilish usuli hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot tizimida balans muhim ahamiyatga ega bo'lib, yillik hisobot tarkibida unda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi, chunki xalqaro andozalar talablariga moslashtiriladi va bozor munosabatlariga qaratiladi. Balansning aktiv va passiv moddalarining mazmuni ichki hamda tashqi foydalanuvchilarga undan foydalanish imkoniyatini beradi. Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun korxonaning faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy barqarorligi, kreditor qarzlarning hajmi, bank kreditlari bo'yicha qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar zarur.

Korxonaning ichida balansda keltirilgan axborotlar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, xarajatlari va zararlarni qisqartirish imkoniyatlarini qidirib topish, korxonaning hisobidan to'lanadigan jarimalar sabablarini bartaraf etish uchun keng qo'llaniladi. Yillik hisobotga tushuntirish xati, korxonaning rahbarining faoliyatning yo'nalishi to'g'risidagi ma'ruzasi ilova qilinadi. Bu korxonaning asosiy analitik hujjatlaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha reja bajarilishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar ochib beriladi: mahsulot miqdori, turlari, sifati, mahsulot sotish hajmi, foyda summasi, tannarxni pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, samaradorlik, ilmiykonstruktorklik ishlarining natijalari, istiqbollari va shu kabilar. Tushuntirish xatining mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya xususiyatlari bilan belgilanadi. Bugungi

ustuvor yo'nalishlari

kunda moliyaviy hisobotlarning yangi shakllari tasdiqlangan Balansga asosan korxonaning to'lov qobiliyati va boshqa bir qancha sifat ko'rsatkichlarni hisoblab tahlil qilish mumkin

Balans ma'lumotlariga asosan korxonaning mutlaq to'lov qobiliyati quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Korxonaning mutlaq to'lov qobiliyati} = \text{Pul mablag'lari} / \text{Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari.}$$

Bu ko'rsatkich 0,2 yoki 20 %dan kam bo'lmasligi kerak. Shu yo'l bilan hisoblab chiqilgan koeffitsiyent korxonaning qisqa muddatli qarz majburiyatlarini qanchasi zudlik bilan qaytarilishini ko'rsatadi. Balans ma'lumotlari bo'yicha korxonaning sof aylanma mablag'lari yoki kapitalini aniqlab olish uning istiqboldagi rivojlanishini ta'riflaydi.

$$\text{Sof aylanma mablag'lar yoki kapital} = \text{Aylanma aktivlar} - \text{Qisqa muddatli majburiyatlari.}$$

Sof aylanma mablag'lar yoki kapital hajmi korxonadan o'z qarzini To'lagandan so'ng uning potensial rivojlanish qobiliyatini ta'riflaydi. Sof aylanma mablag'lari yoki kapitalning koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:

$$\text{Sof aylanma mablag'lari} = \text{Mahsulot ishlab chiqarish} / \text{Sof aylanma kapital}$$

Bu koeffitsiyent bir so'mlik sof aylanma kapitaliga necha pullik hali ishlab chiqarishga sarflanmagan moddiy zaxiralar to'g'ri kelishini ta'riflaydi. Bunday ma'lumotlarga asosan korxonaning menejerlari korxonaning holatini rivojlantirish bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qilishadi. Balans ma'lumotlaridan foydalanadigan tashqi qiziquvchilar uchun korxonaning kapitalining tuzilishi ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i)

Kapitalning tuzilishi ko'rsatkichlari korxonaga uzoq muddatli qo'yilmalar qo'ygan investorlar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish darajasini ta'riflaydi. Ular korxonaning uzoq muddatli qarzlarni to'lash qobiliyatini aks ettiradi. Mulk koeffitsiyenti (yoki xususiy kapitalni konsentratsiyalash koeffitsiyenti) quyidagicha topiladi:

$$Mk = \text{Xususiy kapital} / \text{Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati}$$

Bu koeffitsiyent bir birlikka teng yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. U korxonaning egalarining korxonaga qo'yilgan mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi. Korxonaning egalarining ulushi qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik korxonaning moliyaviy barqaror, iqtisodiy mustahkam bo'ladi va tashqi kreditorlarga qaram bo'lmaydi. Korxonaning moliyaviy qaramlik (Kmq) koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$Kmq = \text{Qarz kapitali} / \text{Xususiy kapital}$$

Ushbu koeffitsiyent 0,5 dan kam bo'lishi, lekin ko'p bo'lsa, 1 dan oshmasligi kerak. Bu korxonaning tashqi qarz beruvchilardan moliyaviy qaramligini ta'riflaydi va uning o'sish dinamikasi korxonaning moliyalashtirishda qarzga olingan mablag'lar ulushining ko'payib borayotganini ko'rsatadi

Xulosa va takliflar

Banklar barqaror va samarali faoliyat yuritmasligi uning mijozlari o'z faoliyatini uzliksizligini ta'minlay olmasligiga olib keladi. Mijozlar faoliyati ko'p jihatdan banklarning likvidligi, to'lov qobiliyati va samarali faoliyat yuritishiga bog'liqdir. Shu sababdan, banklar faoliyatini izchil, chuqur va ilmiy asoslangan ravishda uzluksiz tahlil etib borish, ular faoliyatining barqarorligini ta'minlash muhim iqtisodiy masalalardan biri bo'lib qolaveradi va ulkan ahamiyat kasb etadi. Bosh maqsadga erishish uchun bank faoliyatining barcha jihatlari uzluksiz ravishda tahlil etilishi, uning natijalari to'g'ri va aniq talqin qilingan holda Bank Boshqaruviga xulosa chiqarish va qaror qabul qilish uchun muntazam ravishda taqdim etib borilishi lozim. Bank strategiyasini belgilash, Bank Boshqaruvi, Kuzatuv kengashi va Aksionerlarning umumiy yig'ilishi qarorlari ham bank faoliyati tahliliga asoslanadi va ushbu qabul qilingan qarorlar

samaradorligini belgilab beradi. Bank faoliyatini yetarlicha chuqur tahlil qilishda statistikada qo'llaniladigan guruhlash, iqtisodiy indekslash, zanjirli almashtirish, balans, korrelatsiya, regrepsiya, matritsa kabi uslublardan foydalaniladi. Hozirgi zamon bank texnologiyalari, matematik dasturlardan oqilona foydalanish faoliyat tahlilining tezkorligi va samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620 son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun. Lex.uz
3. Bank faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma T.M. Karaliyev, O.B. Sattarov, I.F.Sayfiddinov 2016.
4. Ergashev M. Tashqi savdo–statistik o'rganishning obyekti sifatida. – 2023.
5. Ergashev M. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: минтақаларнинг инновацион ривожланишини Статистик баҳолаш //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 13. – №. 13.
6. Sherov A. U. Qurbonov A. U., Ergashev M. Y. Tendency Of Developing Digital Economy in Uzbekistan //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 5. – С. 123-126.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASH BO 'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Sotvoldiyev Nurmuhammad Nematjonovich,

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, talaba

Ma'lumki, respublikamiz tijorat banklarida ular faoliyatini boshlaganidan hozirga qadar filiallarning bank operatsiyalarini amalga oshirishdagi mustaqilligini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilmagan. Xususan, kreditlar berishda va valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda filiallarning mustaqilligi mavjud emas. Masalan, hujjatlashtirilgan akkreditiv ochishga bank filiallari vakolatli emas. Ular tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, bankning bosh ofisiga jo'natadi, xolos. Respublikamizning tijorat banklari hududlardan eksport qilinayotgan tovarlarni to'lovi bo'yicha xorijiy banklarning hujjatlashtirilgan akkreditivlaridan foydalanish jarayonini qo'llabquvvatlashda o'zlarining xorijlik vakil banklaridan foydalanishlari mumkin.

Hozirgi davrda barqaror pul oqimiga ega bo'lgan kichik biznes sub'ektlarini alohida mijozlar guruhi sifatida tanlab olib, ularga ta'minotsiz kreditlar berish amaliyoti mavjud emas. Buning ustiga, kredit ta'minotini rasmiylashtirish kredit oluvchini kreditlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini oshiradi. Masalan, tijorat banklarining filiallari tomonidan hududlardagi kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda asosan kreditlashning bir marotabali kreditlash shaklidan foydalanilmoqda. Kreditlashning overdraft, kontokorrent, faktoring va forfeyting shakllari tijorat banklarining filiallarida mavjud emas.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining kredit to'loviga layoqatliligi bevosita ularning rentabelligiga bog'liq. SHu jihatdan olganda, respublikamizda 2020 yildan boshlab inflyatsion targetlash rejimini bosqichma-bosqich joriy etilayotganligi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining kredit to'loviga layoqatliligini ta'minlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2017 yil 5 sentyabrda valyuta munosabatlarini liberallashtirilishi munosabati bilan milliy valyuta-so'm keskin devalvatsiya qilindi, ya'ni devalvatsiya sur'ati qariyb ikki barobarni tashkil etdi. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy valyutalardagi kreditlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kompensatsiya qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi

ustuvor yo'nalishlari

Prezidentning 2021 yil 27 oktyabrdagi PQ-5268-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq yukini kamaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, tijorat banklaridan xorijiy valyutada olingan kreditlar milliy valyutaga o'tkazilganda amaldagi kompensatsiya taqdim etish to'g'risidagi shartnomalari mavjud bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining ekvivalenti 1 million AQSH dollaridan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmaydigan kreditlarning asosiy stavkadan oshadigan, lekin 5 foizli punktdan ko'p bo'lmagan qismi bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kompensatsiya taqdim etish tartibi joriy etildi.

Germaniyada kichik biznes sub'ektlariga beriladigan imtiyozli kreditlarning shartlari quyidagicha: kredit miqdori 1,0 mln. evrogacha bo'lgan summani tashkil etadi; kreditning yillik foiz stavkasi 5 foizni tashkil etadi; kredit 20 yilgacha muddatga beriladi va kichik biznes sub'ekti faoliyatini kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish xarajatlarining 50 foizdan oshmaydigan qismini moliyalashtirish imkonini berishi kerak; kredit shartnomasi muddatining dastlabki ikki yili mobaynida foiz olinmaydi.

G'arbiy Evropa mamlakatlaridan Buyuk Britaniya, Frantsiya va Italiyada faktoring asosida kichik biznes sub'ektlarini kreditlash nisbatan yaxshi rivojlangan. Bu esa, ushbu mamlakatlarni yirik jahon faktoring bozorlari ekanligi bilan izohlanadi. Jahon faktoring bozorlarida amalga oshiriladigan faktoring operatsiyalarining 22 foizi Buyuk Britaniyaga, 15 foizi Frantsiyaga va 14 foizi Italiyaga to'g'ri keladi. G'arbiy Evropa mamlakatlari amaliyotida imtiyozli kreditlash kichik korxonalarining 40 foiz xarajatlarini qoplaydi. Yangi firma yaratish uchun kreditlar 15 yilga beriladi. Modernizatsiya uchun 10 yilga beriladi. Davlat institutlari faqat kichik korxonalarda emas, balki kichik korxonalarining birlashmalariga ham imtiyozli foiz stavkali kreditlar beradi.

Graminbank o'zining mablag'lari hisobidan Gramin Kapital fondini tashkil etdiki, ushbu Fondning faoliyati kengayib, kichik biznes sub'ektlarining yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga mo'ljallangan loyihalarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan mustaqil venchur fondiga aylandi. Shuningdek, Graminbank kichik biznes sub'ektlariga qo'shimcha ravishda quyidagi kredit xizmatlarini ko'rsatadi: istiqbolli, lekin vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan kichik biznes sub'ektlarini kredit hisobidan sotib olish; kredit hisobidan kichik biznes sub'ektlarining ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish; baliqchilik va chorvachilikni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlariga kreditlar berish.

Vneshekonombank orqali kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Rossiya davlat byudjetidan Vneshekonombankka kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashni qo'llab-quvvatlash uchun resurslar beriladi; Vneshekonombank olingan resurslarni MSP Bankka beradi va berilgan kreditlarni nazorat qilish huquqini o'zida saqlab qoladi; MSP bank yuqori reytingga ega bo'lgan Rossiya banklari hamda lizing va faktoring kompaniyalari bilan kredit shartnomasi tuzish yo'li bilan ular orqali kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2010. – С. 161-163.
2. Рыбин Е.В. Опыт поддержки малого и среднего бизнеса в России через банки развития. // Банковское дело. – Москва, 2011. - №10. - С. 31-32.
3. Экономика Европейского Союза, Учебник. Под. ред. проф. Р.К.Щенина. – М.: КНОРУС, 2012. - С. 139-140.

BANK MARKETINGINING MAZMUNI VA MOHIYATIGA DOIR NAZARIY YONDASHUVLAR

Razzoqov Nozim Abdiroziqovich.

Buxoro viloyat AT "Agrobank" mutaxasisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy yondashuvlari tahlil qilindi. Katta e'tibor bank marketingidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslariga qaratildi. Bank marketingining mohiyatini aniqlashda muhim Marketing bankning samarali faoliyat yuritishi uchun mijozlarning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Tayanch iboralar: marketing tadqiqotlari, bank, raqobat, bozor, bank mahsulotlari, kredit marketingi.

Annotation. This article analyzes the theoretical approaches of domestic and foreign scientists. Much attention was paid to the theoretical and practical foundations of using banking marketing. Importance in determining the essence of bank marketing Marketing is necessary to satisfy the requests and needs of customers for the effective functioning of the bank.

Key words: marketing research, banking, competition, market, banking products, credit marketing.

Kirish. O'zbekistonda zamonaviy bank xizmatlari bozoridagi jadal o'zgarishlar sharoitida har bir bankning mavjud va potentsial mijozlarning talablarini o'zaro manfaatli shartlarda maksimal darajada qondirishni ta'minlashga intilishi o'zgarishsiz qolmoqda. Bunday maqsadga muvaffaqiyatli erishish faqat marketing vositalaridan kompleks foydalanish asosidagina mumkin bo'ladi, bu esa bank marketingining barcha nazariy va amaliy tomonlarini har tomonlama o'rganishni bevosita talab qiladi. Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'p jihatdan, uning moliya sektori, shu jumladan, bank tizimining rivojlanish darajasiga bog'liq. Bank sohasida iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Chunonchi, 2016-2023 yillarda yalpi milliy mahsulot hajmining yillik o'sishi 5,2 foizdan 8,1 foizgacha, har bir aholi boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hajmi esa 2016 yilda 8 million so'm yoki 2 704 AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda 29,3 million so'm yoki 2 495 AQSH dollar miqdorida shakllandi [1]. Shu bilan birga, 2016–2023-yillarda umumiy iqtisodiyoga, O'zbekiston Respublikasi banklarining kredit qo'yilmalarining yillik o'sishi sezilarli darajada yuqori bo'ldi va 31 dan 62% tahsil qildi [2]. Bu holat, bank kreditlari kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga, shuningdek, kichik va yirik ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirayotganidan dalolat beradi. Banklar faoliyatini marketingga yo'naltirilganligi natijasida iqtisodiy subyektlarning haqiqiy ehtiyojlarini aniqlash va qondirishga, moliyaviy, kadrlar, tashkiliy, texnologik, qonunchilik va boshqa cheklolarni bartaraf qilishga erishildi. Yaqin kelajakda iqtisodiyotni, shu jumladan, bank sohasini rivojlantirish, bank va kredit marketingining ham nazariy jihatlari va ham amaliy tomonlarini shuqur o'rganishni taqozo etadi. Banklar faoliyatida marketingdan mohirona foydalanish bozorda tijorat banking muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Maqolaning maqsadlarini shakllantirish. Maqolaning maqsadi - bank marketingining mohiyatini aniqlashning nazariy yondashuvlarini o'rganish, uning xususiyatlarini marketingning tarmoq turlaridan biri sifatida aniqlash va uning rivojlanish jarayonini tahlil qilish, bu uning rolini aniq tushunishga imkon beradi. Bundan tashqari, bankla va kredit tashkilotlari tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishning samarali vositasi sifatida marketing tadqiqotlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash. Marketing tadqiqotlaridan foydalanadigan banklarga kelajakda bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va mijozlar ishonchini qozonishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarni tahlil qilish. Bir qator O'zbekiston lik va xorijiy tadqiqotchilarning ishlari bank marketingining nazariy jihatlari ko'rib chiqishga bag'ishlangan.

ustuvor yo'nalishlari

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari B. Navruzzoda, A. Vaxobov, A. Ibrohimov, A. Rahimov, A. Azlarova, M. Abduraxmanova, J. Toxirov, N. Kuliyeu, Sh. Xusainov, S.G'ulomov va boshqalar tomonidan mazkur sohada izlanishlar olib borganlar. Bank marketingi muammolari xorijlik olimlar, xususan, F.Kotler, K.Keller, Y.Redli, T. Nikolaeva, G.Makarova, O. Lavrushinlar tomonidan juda chuqur o'rganilgan.

Umumiy muammoning ilgari hal etilmagan qismlarini aniqlash. Banklar faoliyatini, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy asarlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bank marketingi doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Bu holat amaliy yangiliklarni tizimlashtirish va bank marketingining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish zarurligini hamda bankning raqobatbardosh marketing siyosatini shakllantirishni talab qiladi.

Asosiy tadqiqot materialining taqdimoti. Jahonda shakllangan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning hozirgi holati real iqtisodiyot tarmoqlari va bank tizimi bir-biri bilan tobora yaqinlashib hamda o'aro uyg'unlashgan holda rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi. Ushbu o'zaro bog'liqlik bank sohasining, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri kuchayib borayotganida darak beradi. Buning yaqqol tasdig'i bank guruhlarini soni bo'yicha statistik ma'lumotlardir. 2024-yil 1 yanvar holatida, O'zbekistonda 35 ta bank guruhi ro'yxatga olingan va ularning o'ntasida davlat ulushi mavjud bo'lib, qolgan yigirma beshtasi esa 25 tijorat hamda xususiy banklar. Shuni ta'kidlash lozimki, xususiy va qo'shma banklar soni sezilarli darajada o'sib bormoqda[3]. O'zbekiston ning zamonaviy bank xizmatlari bozorida marketing strategiyasi va taktikasini o'rganish, eng avvalo, asosiy ta'rif – bank marketingining mohiyatini oydinlashtirishni taqozo etadi. Mahalliy va xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda bank marketingi mohiyatining umumiy qabul qilingan ta'rifini mavjud emas. Bunday holatning aniq sababi tijorat va notijorat faoliyatning deyarli barcha sohalarida marketingning keng ko'lami va uning yordami bilan keng ko'lamlil muammolarni hal qilishdir. Bank marketingining nazariy jihatlari va amaliy vositalarini tadqiq qilish rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari amaliyotida marketing vositalarining tarqalishi bilan bir vaqtda, ya'ni XX asrning 50-yillari oxiridan boshlab boshlandi.

Marketingning aksariyat ta'riflari, uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilinishiga asoslanadi. Masalan, F. Kotler fikricha "Marketing" ilmiy atamasi (inglizcha marketing - sotish, bozorda savdo qilish) sotuvni ko'paytirish va foydani ko'paytirish maqsadida mijozlar ehtiyojlarini aniqlash, oldindan bilish, reklama va ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonini anglatadi"[4]. Aslida, barcha marketing faoliyati jami to'rtta yo'nalishga bo'lingan: mahsulot, narx, mahsulotni bozor bo'ylab harakati va mahsulot sotishini rag'batlantirish"[5].


Bank marketingi esa bank bozorida muvaffaqiyatli joriy etish orqali mavjud imkoniyatlardan foydalanib yuridik va jismoniy shaxslarning ehtiyojlari, talablari qondirishga qaratilgan bankning falsafasi, strategiyasi va taktikasi deb izzohlanadi. Ammo, marketing bu nafaqat falsafa, fikrlash tarzi va iqtisodiy tafakkur yo'nalishi, ammo ayrim firma, kompaniya, tarmoq va butun iqtisodiyot bo'yicha amaliyot faoliyati hamdir[6]. Aslida bank marketing bozor rivojlanish tendentsiyalarini hisobga oladigan mahsulotlar, aktivlar va majburiyatlarni, foyda va xarajatlarni, bank likvidligini va uning operatsiyalarining tavakkalchilik darajasini boshqarish orqali jamiyatga foyda keltiradi. U banklarning o'z xizmatlari va mahsulotlarini realizatsiya qilish, xizmatlar va mahsulotlar bozoridagi strategiya va siyosatini amalga oshirish borasidagi faoliyatidir [7]. Bank marketingining mohiyatini turlicha yondashuvlar va talqinlarni tahlil qilish, bank marketingi ta'rifini tuzishda amal qilinishi kerak bo'lgan asosiy metodologik asoslarni shakllantirishga imkon beradi.

O'zbekistonda 2016-yildan boshlab iqtisodiyot va bank tizimini rivojlantirish strategiyasining o'zgarishi hamda mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan talabining ortishi barcha tijorat banklarining tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish maqsadida yangi strategik marketing rejalarini ishlab chiqishga kirishishiga olib keldi. va raqobatdagi muvaffaqiyatni ta'minlash. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatida marketingning quyidagi turlari qo'llaniladi:

1. Ixtisoslashtirilgan marketing bir bozor segmentiga diqqatni jamlashni o'z ichiga oladi. Bunday holda, bank o'z kuchini iste'molchilarning bir guruhiga xizmat ko'rsatishga qaratishi mumkin. Bu usul yangi bozorlarni zabt etishda keng qo'llaniladi. Ushbu strategiyaning afzalliklari - raqobatchilarning harakatlaridan nisbiy mustaqillik, mijozlarning "o'z" segmentidagi ehtiyojlarini bilish, maqsadli reklama kampaniyalari va bank daromadlarining barqarorligi. Uning kamchiliklari orasida dastlabki bosqichda jozibador bozor segmenti uchun raqobatchilarning kurashini engish, xizmatlarning ma'lum bir "bir xilligi" ga olib keladigan mijozlarning ma'lum bir doirasining ehtiyojlariga konsentratsiya, qondirish uchun qo'shimcha bank mahsulotlari turlarini ishlab chiqish zarurati kiradi. va agar iloji bo'lsa. Iste'molchilarning so'rovlarini oldindan bilish, mijozlar bilan doimiy aloqada bo'lish.

2. Differensial marketing bankning ikki yoki undan ortiq turli bozor segmentlariga yo'naltirilishini o'z ichiga oladi. Ushbu usulning afzalliklari bozor kon'yunkturasiga tez moslashish qobiliyati, turli mijozlarning imkoniyatlariga qarab narx siyosatini amalga oshirish qobiliyati va har qanday segmentda nosozliklar bo'lsa, diqqatni tezda boshqalarga o'tkazish qobiliyatidir. Kamchiliklari katta marketing xarajatlari va har bir bozor segmenti uchun doimiy raqobatdir.

3. Ommaviy marketing bozorning barcha segmentlari uchun yagona dasturni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, ya'ni. barcha iste'molchilar guruhlarini mijozlariga xizmat ko'rsatish. Ushbu usul bank xizmatlari bozori deyarli bir xil bo'lgan vaziyatda qo'llaniladi. Differentsiallanmagan marketingning afzalliklari orasida turli segmentlardan yangi mijozlarni keng jalb qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyati, shuningdek, past marketing xarajatlari kiradi. Kamchiliklari - doimiy raqobatning mavjudligi, bozorda etakchi o'rinni egallashdagi qiyinchiliklar, barcha iste'molchilarning ehtiyojlarini qondira oladigan yangi bank mahsulotlarini joriy etish bilan bog'liq muammolar, keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etishga qodir bank



xodimlarini tanlashdagi qiyinchiliklar. tegishli darajada.

1.diagramma. Tijorat banklar faoliyatidan foydalanuvchilar dinamikasi (ming kishi)

ustuvor yo'nalishlari

Manba: O'zbekiston Markaziy bankining 2020-2024 yillarga doir statistik ma'lumotlari.

Bank marketingi tagqiqotlari vositasida aholining turli qatlamlari hamda korxonalar va tashkilotlar, yakka tipdagi tadbirkorlarga kassa, pul o'tkazmalari xizmatlari, kreditlar taklifi amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot xulosalari. Taqdim etilgan materialga asoslanib, biz quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin:

1. Bank marketingi - bu bankning tijorati yoki biznesining falsafasi, strategiyasi va taktikasi sifatida, uning vositalarini ishlab chiqish, amaliyotda qo'llash hamda faoliyat samaradorligini oshirish va ijobiy moliyaviy natijalarga hamda maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.
2. Bank marketingi bugungi kunda aholining barcha qatlamlari, ko'p qirrali tadbirkorlik faolyatini rivojlantirish usuli sifatida namoyon bo'lmoqda.
3. Marketingning tarmoq turlaridan biri sifatida bank marketingi ham umumiy, ham ma'lum xususiyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ularni o'rganish va ulardan foydalanish samarali marketing siyosatining zaruriy shartidir. Jahonning, shu jumladan, O'zbekiston ning bank xizmatlari bozorida, bank marketingining rivojlanish jarayoni kuzatilmoqda va ushbu bozorda ham aholi ham yuridik shaxslar ma'lum bir strategiyalar vositasida jalb qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikaslikasi davlat statistik qo'mitasining 2016-2023 yillarga doir ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Markaziy bankining 2016-2023 yillar bo'yicha ma'lumotlari.
3. O'zbekiston Markaziy bankining 2024 yil 1 yanvar holatidagi statistik ma'lumotlari.
4. F. Kotler Marketing asoslari: trans. ingliz tilidan M.: "Biznes kitobi"; "IMA-Xoch. Plyus", 1995. 9-bet.
5. B.Navro'zzoda. Osnovi rinka.D. TGU. 1993. 20 str.
6. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari. Darslik. T.: «Iqtisodiyot», 2019. - 21 bet.
7. Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Bank marketingi va menejmenti: O., quv qo., llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. -109 b.
8. O.A. Ortiqov, I.Ya. Qulliyev. Bank menedjmenti va marketingi. Tafakkur bo'stoni. Toshkent. 2015 yil, 168 bet

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI, ULARNING O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTLARI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

Urakova M.X.-BuxDU, "Buxgalteriya hisobi va statistika"
kafedrasida dotsenti
Ubaytova M.J.-BuxDU 4-bosqich talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishning afzalliklari va xususiyatlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobi va hisobot standartlari haqida tahliliy ma'lumotlar, xalqaro kapital bozorlariga qo'shilish jarayoni, moliyaviy hisobot standartlari va buxgalteriya hisobini taqqoslash yoritilgan. global miqyosda kompaniyalar o'rtasidagi hujjatlar.

Tayanch so'zlar buxgalteriya hisobi, xalqaro integratsiya, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, milliy hisob, moliyaviy resurslar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Аннотация В данной статье рассматриваются преимущества и особенности внедрения международных стандартов финансовой отчетности в нашей стране, аналитическая информация о международных стандартах финансовой отчетности, стандартах бухгалтерского учета и отчетности, процесс присоединения к международным рынкам капитала, стандарты финансовой отчетности и сравнение бухгалтерского учета. документов между компаниями в глобальном масштабе.

Ключевые слова бухгалтерский учет, международная интеграция, финансовая отчетность, международные стандарты, национальный учет, финансовые ресурсы, международные стандарты финансовой отчетности.

Abstract This article covers the advantages and features of the introduction of international standards of financial reporting in our country, analytical information about international standards of financial reporting, accounting and reporting standards, the process of joining international capital markets, financial reporting standards and comparison of accounting documents between companies on a global scale.

Key words *accounting, international integration, financial reporting, international standards, national accounting, financial resources, international financial reporting standards*

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish, qolaversa turli davlat investorlarining diqqat-e'tiborini qozonish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vanimiz iqtisodiy sub'ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini - moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bilan bog'liq. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyoti tomon harakatiga tushdi. Bu jarayonda sovetlarning buxgalteriya uslublaridan voz kechildi va moliyaviy hisobotlar jahonda qabul qilingan tamoyillarga o'ta boshladi. Jumladan, qonun bilan quvvatlangan turli milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqildi, buxgalterlar uyushmalari qoshida xalqaro buxgalteriya amaliyotlarini o'rgatish va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari shakllandi. O'zbekistonda yuritilgan qonunchilik, ta'lim va malaka oshirish amaliyotlarining yakuni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bilan to'la uyg'unlashuvga olib kelishi kutilgan edi. So'nggi yillarda respublikamizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlarning xorijlik hamkorlar bilan xalqaro aloqalar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda, va o'z o'zidan buxgalteriya hisobotlaridan xorijiy foydalanuvchilar hajmi ham ortmoqda. Shu munosabat bilan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni kompaniyalarning aksiyalari xalqaro fond bozorlarida kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlariga aylanishi uchun MHXSga muvofiq o'zgartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish uchun mamlakatda ma'lum bir shart-sharoitlar vujudga kelishi lozim. Ushbu shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq.

Birinchiidan, mamlakatda bozor iqtisodiyoti elementlarining to'liq mavjudligi va biznes birliklarida dunyo standartlariga uyg'un menejment tizimining shakllangan bo'lishi lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, buxgalteriya hisobi menejerlarga qarorlar qabul qilish uchun axborot etkazadi, menejmentda ishtirok etadi va menejment tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, buxgalteriya hisobi tizimida olib borilayotgan islohatlar menejment

ustuvor yo'nalishlari

tizimi va fanidagi olib borilayotgan islohatlarga monand va uning tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, mamlakatda jahon talablari va bozor infrastrukturasi mos moliya va bank tizimi shakllangan bo'lishi lozim. Moliya va bank institutlari, qimmatbaho qog'ozlar birjalari buxgalteriya hisobi tizimi shakllani-shiga muhim darajada ta'sir ko'rsatib turadi. Jahon hamjamiyati tomonidan milliy buxgalteriya hisobi tizimini e'tirof etishi ko'p jihatdan mamlakatda shakllangan moliyaviy tuzulmalarning barqarorligi va mustahkamligiga bog'liq.

Uchinchidan, mamlakatda mustaqil, nodavlat jamoat buxgalteriya hisobi professional tashkilotlarining mavjudligi. Fikrlarimizga tayangan holda buxgalteriya hisobi masalalarini standartlashtirishda mustaqil professional institutlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish zarur.

To'rtinchidan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan, jumladan chet el investitsiyalarini jalb qilishni rag'barlantiradigan va sarmoyadorlar-ning huquqlarini himoya qiladigan demokratik qonunlar tizimining mavjudligi..

Beshinchidan, sertifikatli, professional amaliyotchi buxgalterlar ar-miyasining mavjudligi. O'qitish, imtihonlarni topshirish tizimini va tarti-bini ishlab chiqish va tashkil qilish ishlarini Professional Buxgalterlar Institutiga yuklash maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, buxgalteriya hisobi atamalarini xalqaro atamalarga yaqinlashtirish. Bu borada, dunyodagi nufuzli darsliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish, qolaversa atamalar lug'atini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

1- jadval

1-son MHXS "MHXSlarini birinchi marta qo'llash" da atamalar tavsifi

1. MHXSlariga o'tish sanasi	Eng oldingi davr boshi bo'lib, qaysiki unda tashkilot MHXSlari bo'yicha o'zining birinchi moliyaviy hisobotida MHXSlariga muvofiq holda to'liq taqqoslanadigan axborotlarni taqdim etadi.
2. Dastlabki qiymat	Aniq sanada qiymatni yoki amortizatsiyalangan qiymatni ifodalash uchun foydalanadigan miqdor. Keyingi eskirishi yoki amortizatsiyasi shuni ko'zda tutadiki, unda tashkilot dastlab ushbu sanada aktiv va majburiyatlarni tan oladi va uning qiymati dastlabki qiymatga teng bo'ladi.
3. Adolatli qiymat	Yaxshi xabardor bo'lgan, bitimning yuz berishini xoxlaydigan va bir-biridan mustaqil bo'lgan tomonlar o'rtasida bitimlar tuzishda yuzaga kelgan aktivlarni almashtirish yoki majburiyatlarni tartibga solishi mumkin bo'lgan summadir.
4. MHXSlari bo'yicha birinchi moliyaviy hisobot	Birinchi yillik moliyaviy hisobot bo'lib, qaysiki unda tashkilot moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalash va so'zsiz muvofiqligi to'g'risida e'tirof etish yo'li bilan qabul qiladi
5. Tashkilot, qaysiki xalqaro standartlarni birinchi marta qabul qilgan	Tashkilot, qaysiki o'zining MHXSlari bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotini taqdim etadi

6. MHXSlari bo'yicha boshlang'ich buxgalteriya balansi	Tashkilotning MHXSlariga o'tish sanasida (nashr qilingan yoki nashr qilinmagan) buxgalteriya balansi
7. Hisobning oldingi milliy qoidalari	Xalqaro standartlarni birinchi marta qabul qilgan tashkilot tomonidan foydalanilgan hisob siyosati
8. Hisob sanasi	Moliyaviy hisobot yoki oraliq moliyaviy hisobot tuzilgan eng so'ngi davr oxiri

Moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami quyidagilarni qamrab oladi:

- (a) davr oxiridagi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
- (b) davr uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;
- (v) davr uchun kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;
- (g) davr uchun pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;
- (d) izohlar, ya'ni muhim hisob siyosatlarining va boshqa tushuntirish ma'lumotlarining qisqa bayonini qamrab olgan izohlar;
- (e) oldingi davr boshiga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, qachonki xo'jalik sub'ekti hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo'llasa, yoki o'zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni retrospektiv tarzda qayta hisoblashni amalga oshirsa, o'zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni qayta tasniflasa

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash paytida, rahbariyat xo'jalik sub'ekti faoliyatini uzluksiz davom etishi qobiliyatini baholashi lozim. Qachonki rahbariyat xo'jalik sub'ektining faoliyatini tugatishni yoki savdoni to'xtatishni mo'ljallayotgan bo'lmasa yoki bunday choralarni amalga oshirishdan boshqa amaliy muqobil choralar mavjud bo'lmagan holat yuzaga kelmasa, xo'jalik sub'ekti moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlashi lozim. Agar rahbariyat, baholashni amalga oshirayotganda, xo'jalik sub'ekti faoliyatini uzluksiz davom etishi qobiliyati to'g'risida ahamiyatli shubha to'g'ridirishi mumkin bo'lgan hodisalar yoki sharoitlarga tegishli ahamiyatli noaniqliklardan xabardor bo'lsa, xo'jalik sub'ekti ushbu noaniqliklarni oshkor etishi lozim. Agar xo'jalik sub'ekti moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlamasa, u ushbu faktni, moliyaviy hisobotlar qaysi asosda tayyorlanganligini hamda xo'jalik sub'ekti faoliyatning uzluksizligini ta'minlay olmaydi deb hisoblanishining sababi bilan birga, oshkor etishi lozim.

Xo'jalik sub'ekti o'zining, pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlaridan tashqari, moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining hisoblash usuli asosida tayyorlashi lozim.

Buxgalteriya hisobining hisoblash usuli qo'llanilganda, xo'jalik sub'ekti moddalarni aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar (moliyaviy hisobotlar elementlarini) sifatida tan oladi, qachonki ular Kontseptual asosda keltirilgan ushbu elementlarning ta'riflariga va tan olish mezonlariga to'g'ri kelsa.

Xo'jalik sub'ekti o'xshash moddalarning har bir ahamiyatli turkumini alohida taqdim etishi lozim. Bir biridan farq qiladiganli xususiyatga yoki vazifaga ega bo'lgan moddalarni, ular ahamiyatsiz bo'lmasa, xo'jalik sub'ekti alohida taqdim etishi lozim.

¹ 1-son MHXS

Xalqaro standart qoidalari asosida tuzilgan hisobotlar, ma'lumotdan foydalanuvchilar uchun korxonalar holatiga baho berishida ko'pgina qulayliklar yaratib beradi. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida BHMS va BHXS ga ko'ra tuzilgan buxgalteriya balansining farqlarini ko'rishimiz mumkin.

2- jadval.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari qoidalariga asosan tuzilgan balans

Ko'rsatkichlar		Summa (shartli birlikda)
AKTIV		
1.1	Uzoq muddatli aktivlar	14
1.2	Joriy aktivlar	6
	Balansning aktiv qismi bo'yicha jami	20(14+6)
PASSIV		
2.1	O'z mablag'lari manbai	12
2.2	Majburiyatlar	8
	Balansning passiv qismi bo'yicha jami	20(12+8)

3- jadval.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari qoidalariga asosan tuzilgan balans

Ko'rsatkichlar		Summa (shartli birlikda)
AKTIV		
1.1	Uzoq muddatli aktivlar	14
1.2	Joriy aktivlar	6
1.3	Joriy majburiyatlar	5
	Balansning aktiv qismi bo'yicha jami	15 ((6-5) +14)
PASSIV		
2.1	O'z mablag'lari manbai	12
2.2	Uzoq muddatli majburiyatlar	3
	Balansning passiv qismi bo'yicha jami	15(12+3)

Moliyaviy hisobot shakllarining asosiy yakuniy ko'rsatkichlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning sof foyda summasi, taqsimlanmagan foyda va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning xuddi shunday nomdagi ko'rsatkichiga

teng bo'lishi lozim. Aks holda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining mosligi va haqqoniyligiga putur yetadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishi bizning mamlakatimizda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllaridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov A.A, Kurbanbayev J.E, Jumanazarov S.A, Xalilov Sh.A. "Moliyaviy hisob va hisobot" o'quv qo'llanma T: "Iqtisod-Moliya", 2019.- 496 bet
2. Karimov A.A, Kurbanbayev J.E, Jumanazarov S.A. "Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari" Darslik T: "Iqtisod-Moliya", 2019.- 624 bet
3. Isroilov B.I, Xolbekov R.O. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" Darslik T: "Tafakkur", 2020 -240 bet Qo'shimcha adabiyotlar
4. Loose Leaf for International Accounting / Timothy Douppnik, Mark Finn, Giorgio Gotti, Hector Perera Professor Jan 16, 2019 .
5. А.Сотиволдиев, Ф.Абдувахидов, Д.Сатывалдыева Финансовый и управленческий учёт. Учебник Т:"Iqtisod-Moliya", 2012.- 432 с
6. Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik "Iqtisodiyot" T.: - 2021 y. 696 b.
7. Ergasheva Shaxlo Turg'unovna, Temirov Furqat Tursoatovich, Mavlyanova Dilobar Mahkamovna Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" o'quv qo'llanma. 2021 yil. 290-bet.
8. B.I.Isroilov, N.Sh.Xajimurotov, B.B.Ibragimov. BIZNESDA BUXGALTERIYA HISOBI. O'quv qo'llanma. -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 - 160 bet

MEHMONXONALAR BUXGALTERIYA BALANSINING AKTIVLARI VA PASSIVLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIGI VA XUSUSIYATLARI

Isomov B.S.

BuxDU

Sayfiddinova Z.SH., Sanoqulova N.SH.

BuxDU talabalari

Buxgalteriya balansining tuzilish aktiv bilan passiv o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Har bir aktiv ob'ekti o'z moliyalashtirish manbalariga ega. Masalan, uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish manbalari odatda o'z kapitali va uzoq muddatli qarz mablag'lari hisoblanadi. Ayrim hollarda uzoq muddatli aktivlar qisqa muddatli bank kreditlari hisobidan shakllantirilishi mumkin. Aylanma aktivlar ham o'z kapitali, ham qisqa muddatli kreditlar hisobidan shakllanadi. Ularning yarmi o'z mablag'lari hisobidan, yarmi esa qarz mablag'lari hisobidan tashkil etilgani maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.


Shakllanish manbalariga ko'ra, joriy aktivlarning umumiy miqdori 2 qismga bo'linadi:

- O'zgaruvchan - mehmonxonaning qisqa muddatli majburiyatlari hisobidan yaratilgan resurslar.
- Doimiy - o'z kapitali va uzoq muddatli qarz kapitali hisobidan shakllanadigan aylanma mablag'larning minimal miqdori.

ustuvor yo'nalishlari

O'z aylanma mablag'larining yetishmasligi aylanma mablag'larning doimiy qismining kamayishiga olib keladi. Shunday qilib, mehmonxonaning moliyaviy holati ko'p jihatdan uning ixtiyorida qanday mablag'lar mavjudligi va ular qayerga investitsiya qilinganligiga bog'liq. Buxgalteriya balansi tuzilishini tahlil qilishning yana bir muhim jihati bu balansning aktivi va passivlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdir (4.1.-rasm), chunki mehmonxona faoliyatini jarayonida balansning aktiv va passiv qismida alohida elementlarining doimiy o'zgarishi sodir bo'ladi.

1. Rasm. Balansning aktivi va passivi o'rtasidagi bog'liqlik



Har bir passiv guruhi buxgalteriya balansining ma'lum bir qismi bilan funksional bog'langan. Masalan, qisqa muddatli kreditlar aylanma mablag'larni to'ldirish uchun mo'ljallangan. Uzoq muddatli majburiyatlarning bir qismi joriy va uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtiradi. Oddiy faoliyat yurituvchi mehmonxonada aylanma mablag'lar qisqa muddatli majburiyatlardan oshib ketishi kerak, deb hisoblashadi, ya'ni, joriy aktivlarning bir qismi qisqa muddatli majburiyatlarni qoplaydi, boshqa qismi uzoq muddatli majburiyatlarni qoplaydi, qolgan qismi o'z kapitalini to'ldirish uchun ketadi. Balans tahlilini o'tkazishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- balansga kiritilgan moliyaviy ma'lumotlar tarixiy xususiyatga ega, ya'ni, hisobot berish paytidagi mehmonxonaning holatini ko'rsatadi;
- moliyaviy hisobotlar faqat hisobot davrining boshi va oxiridagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun bu davrda sodir bo'lgan o'zgarishlarni baholash lozim.

Balansdagi ma'lumotlar turli yo'llar bilan taqdim etilishi mumkin, ammo amalda odatda balansning ikkita shakli qo'llaniladi - gorizontaal va vertikal.

Buxgalteriya balansining gorizontaal shaklida aktiv va passiv moddalari bir-biriga qarama-qarshi ikkita ustunda ko'rsatiladi. Har bir aktiv bo'limidagi moddalar likvidlik (naqd pulga aylantirish qobiliyati) kamayish tartibida ro'yxatga olinadi. Shuning uchun, eng past likvidli aktivlar birinchi bo'lib, yuqori likvidli aktivlar esa oxirgi ro'yxatga olinadi. Aylanma mablag'larga kelsak, tovarlarni debitorlik qarzga, debitorlik qarzlarni esa naqd pulga aylantirish mumkinligi ko'p vaqtdan beri ma'lum. Shuning uchun, "aylanma kapital" bo'limida birinchi navbatda tovarlar, keyin qarzdorlar va faqat oxirida - naqd pul ko'rsatiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, pul mablag'larini mehmonxona majmuasiga joylashtirish moliyaviy faoliyat va uning samaradorligini oshirish uchun katta ahamiyatga ega. Asosiy va aylanma mablag'larga qancha mablag' kiritilishi, ularning qanchasi xizmat ko'rsatish va muomala sohasiga, pul va moddiy shaklda bo'lishi, ularning nisbati qanchalik maqbul bo'lishi, xizmat ko'rsatish va moliyaviy faoliyat natijalari ko'p jihatdan xizmat ko'rsatish va aylanma mablag'larga bog'liq. Agar yaratilgan xizmat ko'rsatish quvvatlari ba'zi bir sabablarga tufayli to'liq ishlatilmasa, bu

mehmonxonaning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun mehmonxonalar aktivlarini va passivlari bo'yicha hisobot tuzish hamda ularni bo'g'liqligini tahlil qilish jarayonida, birinchi navbatda, ularning tarkibi va tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganish va ularga baho berish kerak.

Xulosa sifatida yan shuni ta'kidlash lozimki, har qanday hisobotlarni tuzishni boshlashdan oldin uning tarkibi, mazmuni, tuzilishi, tayyorlash tamoyillari, uning asosiy elementlarining iqtisodiy talqini, ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mehmonxona xo'jaligining buxgalteriyasida mavjud bo'lgan hisobot shakllari mantiqiy jihatdan o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadi. Mantiqiy bog'liqlikning mohiyati hisobot shakllari, ularning bo'limlari va satr hamda ustunlarni o'zaro to'ldirilishidir.

QURILISH KORXONALARIDA TOVAR MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI YURITISH.

Ablazov Nurillo Xusanboyevich,

Farg'ona politexnika instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası, katta o'qituvchi,
email: nurilloablazov1990@gmail.com, +998990302555

Xusanov Rashidbek Sharof o'g'li

Farg'ona politexnika instituti, EL 61-21 BH va A guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot mamlakatimiz qurilish korxonalarida tovar moddiy zahiralari hisobini tashkil etish xolati, ularni kirimi, sarfi, turli ko'rinishdagi yo'qotishlar, bu yo'qotishlarni hisobga olish va chiqarish tartibotlari hamda mazkur yo'nalishda tabiiy kamayish me'yorlarini qo'llash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qurilish materiyallari, tabiiy yo'qotishlar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zarar, tannarx.

O'zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning drayver sohalaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar sababli bu sohada yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida qurilish tarmog'i muhim o'rini tutadi. Chunki qurilish sohasini rivojlanishi o'z navbatida boshqa sohalar xususan, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlanishiga mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratilishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oxirgi besh yilda uy-joy qurilishi qariyb 2 barobar ortdi va aholi jon boshiga uy-joy bilan ta'minlanish darajasi 15,7 kvadrat metrdan 18,2 kvadrat metrgacha foizga oshdi. O'tgan 2022 yilda axoliga 24,3 mingta, shu jumladan, "Yangi O'zbekiston" massivlarida 3,5 mingta xonadon qurib bitkazilib foydalanishga topshirildi [3]. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz barcha hududlari qurilish maydonlariga aylangan.

Qurilish korxonalarini moliyaviy barqaror faoliyati qurilish, qurilish-montaj ishlarini belgilangan muddatlarda tugatilishiga buning uchun tegishli miqdordagi qurilish materiallarining mavjudligiga, shuningdek, tovar-moddiy zahiralari hisobini oqilona tashkil etilishi va ulardan samarali foydalanishga bog'liqdir. Qurilishda smeta xarajatlarida material sarflar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Obeykt loyihasining xususiyatiga va turiga qarab, qurilish materiallari loyiha qiymatining 60-70% ni tashkil qilishi mumkin. Bu sohaning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ya'ni materiallarni tashib kelish, saqlash va ularni sarflash jarayonlarida materiallar yo'qotishlarga uchraydi. Yo'qotishlar esa o'z navbatida tabiiy va ma'sul moddiy javobgar shaxslar aybi bilan yuzaga kelishi mumkin. moddiy javobgar shaxslarning aybi bilan sodir bo'lgan yo'qotishlar ular hisobidan qoplanishi mumkin. Lekin xozirgi kunda mamlakatimizda tabiiy

ustuvor yo'nalishlari

kamayish normalarini mavjud emasligi materiallar hisobini yuritishda hamda hisobdan chiqarishda bir qator noqulayliklar olib keladi. Bundan ko'rinib turibdiki material zahiralari sarf qilish jarayonida inobatga olinmagan tabiiy kamayish qurilayotgan obyektning tannarxini oshirishga sabab bo'ladi. Shu bois mazkur maqolada tabiiy kamayish omillari, turlari va me'yorlarini yoritib beramiz.

Har qanday mahsulotni ishlab chiqarish, xizmatlarni va ishlarni bajarish xom-ashyo va materiallarni ishlatish evaziga amalga oshiriladi. Biz bilamizki xom-ashyo va materiallarni ishlatish yo'qotishlarsiz bo'lmaydi. Chunki materiallar tashib keltirish va saqlash jarayonlarida turli sabablar bilan kamayishi yoki yo'qotilishi mumkin. Masalan, o'g'rilik, talon-taroj qilinishi, iqlim sharoitlari tufayli qurib yengillashi va fizik xajmini qisqarishi, havoga uchib ketishi sababli. Ko'rinib turibdiki kamayish yoki yo'qotishlar 2 yo'l bilan inson omili va inson omilisiz ham bo'lishi mumkin. Tabiiy kamayish bo'yicha olimlar turlicha ta'rif berishgan. Shuningdek tabiiy kamaish me'yorlari ham turli davlatlarda turlicha belgilangan. Bu normalar, iqlim sharoiti va boshqa omillar asosida tuzib chiqiladi.

Jamiyat taraqqiyotini va mamlakatlar qudratini yirik qurilish obektlarisiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda sifatli va arzon tannarxga ega bo'lgan qurilish sanoatiga butun jahon muhtojdir. Qurilish obyektlarini tannarxini pasaytirgan xolda uning sifatini saqlab qolish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda, jumladan bu kabi muammolar O'zbekiston qurilish sanoatida ham o'z aksini topmoqda. Biz mazkur maqolada tabiiy kamayish me'yorlarini kengroq yoritib tahlil qilamiz. Obyektning loyahasini rejalashtirish va binoni qurish jarayonida qurilish materiyallarini tabiiy kamayish me'yorini hisobga olishimiz zarur, chunki qurib tugatilayotgan inshootga rejalashtirilgan qurilish materiyallari qurishi yoki materiyallarni tashib kelish va saqlash jarayonida o'z xususiyatiga, iqlim sharoitiga ko'ra, ularni ma'lum bir joydan ma'lum bir joyga ko'chirish, saqlab turish jarayonida tabiiy kamayishlar yoki tabiiy yo'qotishlar vujudga keladi. Bunda qurilish jarayonida zarur bo'lganidan ko'ra ko'proq miqdorda materiallarni sarflash qurilayotgan obyektning tannarxini oshirishga sabab bo'lishi mumkin.

Qurilish materiallarini qayta ishlash, saqlash yoki ishlab chiqarish jarayonida materialni bir qismini yo'qotish xarajatlarni hisobga olishda moddiy yo'qotishlar deb ataladi. Biz moddiy yo'qotishlarni ikki qismga ajratishimiz mumkin:

- me'yoriy yo'qotishlar
- nome'yoriy yo'qotishlar.

Me'yoriy yo'qotishlar: Muqarrar bo'lgan yo'qotishlar me'yoriy yo'qotishlar deb ataladi. Me'yoriy yo'qotishlarini to'liq oldini olish mumkin emas, lekin cheklangan darajada nazorat qilinishi mumkin. Ushbu yo'qotishlardan vujudga kelgan xarajatlar korxonaning umumiy xarajatlarga o'tkaziladi. Me'yoriy yo'qotishlarga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin:

- Bug'lanish natijasidagi yo'qotishlar
- Yuk ortish va tushirish natijasidagi vujudga keladigan yo'qotishlar
- Materiyallarni ishlatish jarayonida va hokazo.

Nome'yoriy yo'qotishlar. Ish faoliyatning samarasizligi, ehtiyotsizlik va boshqalar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar nome'yoriy yo'qotishlar deb ataladi. Ushbu yo'qotishlar foyda va zararlar hisobotlarida aks etadi. Nome'yoriy yo'qotishlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

- buzilishlar natijasida;
- yong'in, avariya, suv toshqini va h.k.;
- noto'g'ri saqlash natijasida;
- o'g'rilik va talon-taroj natijasida.

Yo'qotishlar albatta moddiy shaklda bo'ladi va bular chiqindilar, har xil turdagi qirinishlar, buzilishlar va nuqsonlar ko'rinishida yuzaga kelishi mumkin.

Shuning uchun rivojlangan bir qator mamlakatlarda materiallarni tabiiy kamayishi bo'yicha normalar belgilangan. Bu normalar doirasida sodir bo'lgan yo'qotishlar qiymati albatta xarajatga olib boriladi. Mamlakatimiz me'yoriy –huquqiy hujjatlarida tabiiy kamayish normalari haqida bir qancha ma'lumotlar berilgan bo'lsada, lekin bu normalarni tasdiqlangan varianti mavjud emas. Bu esa buxgalterlarda materiallar hisobini yuritishda bir qator muammolar keltirib chiqaradi [2].

1-jadval.

Rivojlangan mamlakatlarda qurilish materiallarining o'rtacha tabiiy kamayish darajasi.

Materiyallar	Tabiiy kamayish me'yorlari (%)					
	AQSH	Xitoy	Buyuk Britaniya	Janubiy Koreya	Braziliya	Gong Kong
Turli g'isht va bloklar	3.5	2.0	4.5	3.0	17.5	-
Beton	7.5	2.5	2.5	1.5	7.0	6.7
Gipsakarton	7.5	-	5.0	-	-	9.0
Oynak	-	0.8	-	6.0	-	2.3
Ohak	3.5	5.0	-	0.3	46.0	3.2
Miq	5.0	-	-	-	-	-
Plastik	5.0	5.0	-	-	21.0	8.0
Cherepitsa	6.5	-	5.0	2.5	87.0	6.3
Devor gul qog'ozi	10.0	-	-	11.0	-	-
Taxta	16.5	-	6.0	-	32.0	45.0

Tadqiqotimiz davomida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan qurilish kompaniyalarida materiallar hisobini yuritish xolatini tahlil qildik. Ushbu tadqiqot turli turdagi qurilish loyihalarida tabiiy kamayish miqdorini aniqlash va pudratchilar nuqtai nazaridan tabiiy kamayish omillari va sabablarini aniqlash uchun o'tkazildi. Lekin mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan qurilish tashkilotlarida tabiiy kamayish normalarini hisobga olish uslubiyoti mavjud emasligiga guvoh bo'ldik. Tadqiqotimiz davomida mustaqil hamdo'stlik davlatlarida tabiiy kamayish normalari mavjudligiga guvoh bo'ldik.

2-jadval. Ba'zi mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarda qurilish materiallarining o'rtacha tabiiy kamayish darajasi.

Materiallar	Tabiiy kamayish me'yorlari (%)					
	O'zbekiston	Rossiya	Qozog'iston	Ukraina	Gruziya	Belarussiya
Turli g'isht va bloklar	-	4.9	4.5	3.0	3.5	3.5
Beton	-	1.35	2.5	1.5	3.0	2.5
Gipsakarton	-	-	5.0	-	-	-
Oynak	-	1.8	-	6.0	4.0	2.3
Ohak	-	5.0	-	0.3	4.5	3.2
Miq	-	-	-	-	5.0	-
Plastik	-	5.0	-	-	3.0	8.0
Cherepitsa	-	-	5.0	2.5	4.0	6.3
Devor gul qog'ozi	-	-	-	11.0	2.5	-

ustuvor yo'nalishlari

Taxta	-	-	6.0	-	7.0	6.0
--------------	---	---	-----	---	-----	-----

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda tabiiy kamayish me'yorlari hali to'liq yoritilmagan.

Agar tabiiy kamayish me'yorlarini ishlab chiqib amaliyotga tadbiiq qilsak natijada bir qancha quyidagi samaradorliklarga ega bo'lamiz:

Birinchidan: Buxgalteriya hisobini yuritishda yana ham aniqlik va shaffoflikga erishamiz. Buning natijasida buxgalteriya hisobotlaridan tashqi va ichki foydalanuvchilarga mukammal ma'lumotlar taqdim etishimiz mumkin.

Ikkinchidan: Uzoq davom etuvchi qurilish obyektlarida xarajatlar hisobini yuritishda aniqlik va tannarxni shakllantirishda shaffoflikga erishamiz. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganidek "Qurilish obyektlarini tannarxini qisqartirishimiz lozim, chunki 2021 yilda YAIMni salmoqli 6.6% qismini qurilish tashkil qilgan. Bundan tashqari aholigan uy-joy qurilish bugungi kunda trendga aylanib bormoqda. O'zbekiston aholisini tez sur'atlarda o'sib borishi yangi uyjoylarga ehtiyojini oshirmoqda. Aholini sifatli va arzon uy-joy bilan ta'minlash bugungi kunda mamlakatning eng katta muammosiga aylanib ulgurdi [1].

Uchinchidan: O'zbekiston ga chet el investitsiyalarini jalb qilish, qurilish texnologiyalarini dunyoning ilg'or mamlakatlaridan tajribalarini o'zlashtirib yuqori sifatli va arzon Tovar material zahiralarni lokallashtirish, natijada qurilish sohasida past tannarx yaratishga turtki bo'ladi.

Qurilish korxonalarini shiddatli rivojlanib borayotgan bir paytda raqobatbardosh va samarali faoliyat olib borishi mamlakat iqtisodiyotiga keng ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ko'tarilishiga salmoqli hissa qo'shadi. Chunki qurilish sanoati aholini ish bilan ta'minlash, davlat byudjetiga foyda keltirishi va boshqa omillarni ko'rishimiz mumkin. Qurilishda material zahiralarni hisobini yuritishni takomillashtirishda biz tavsiya etayotgan me'yorlar qurilish sanoatini samarali faoliyat ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. //Zarafshon, 2017 yil 17 yanvar, 7(22.807)-son, 4-bet.
2. ISMANOV, I., DAVLYATOVA, G., & BUZRUKXONOV, S. (2020). Biznesni rejalashtirish. DARSLIK. Toshkent.
3. Бобобеков, Б. Қ., & Мамирова, М. Б. (2022). МОЛИЯВИЙ HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TALABLARI ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBINI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI. Экономика и социум, (7 (98)), 36-39.

BOSHQARUV HISOBI VA TAHLILI AXBOROT BAZALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimova Zarema Zokirovna,

Farg'ona politexnika instituti, tayanch doktoranti, e-mail: z.z.ibragimova@ferpi.uz, +99890 585 42 26.

Annotatsiya. O'rganish korxonalarida boshqaruv hisobining axborot bazasini takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan bo'lib asosiy urg'u uning tasniflash masalalariga qaratilgan. Nazariy, uslubiy va tashkiliy masalalarning murakkab tabiati nuqtai nazaridan boshqaruv tahlili axborot bazalarini takomillashtirish masalasi muhokama etilgan

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, kompaniyalar faoliyati, axborot bazasi, buxgalteriya ma'lumotlari, buxgalteriya hisobi, boshqaruv ma'lumotlari.

Boshqaruv hisobi belgilangan maqsadlarga erishish uchun aniq qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. To'g'ridan-to'g'ri qaror qabul qilishdan oldin, nafaqat ba'zi mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash, balki uni o'z vaqtida qabul qilish jarayonini tashkil qilish kerak. Ya'ni, har qanday boshqaruv qarorini qabul qilishdan oldin, qaror qabul qilish zarurligini baholash uchun ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun axborot bazasi tashkilot faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Har bir korxonada kompaniyaning faoliyati to'g'risida axborot bazasini shakllantirishga yo'naltirilgan ma'lum bir xodimlar to'plamini, axborot texnologiyalari va ma'lum bir tarzda tashkil etilgan boshqa vositalarni o'z ichiga olgan o'z axborot tizimini tashkil qiladi. Boshqaruv hisobi uchun asosiy ma'lumot manbai buxgalteriya tizimi hisoblanadi.

Boshqaruv hisobi doirasida buxgalteriya ma'lumotlarining qiymatini kamaytiradigan bir qator taxminlar mavjud. Ular bundan keyin muhokama qilinadi. Boshqaruv hisobi qanchalik samarali amalga oshirilsa, xarajatlarni shakllantirish obyektlari va javobgarlik markazlari to'g'risidagi ma'lumotlar shunchalik aniq bo'ladi [1].

Buxgalteriya hisobi boshqaruv hisobi uchun ishlatilganda bir qator taxminlarga ega bo'lsada, u boshqa ma'lumot manbalari bo'lgan tizimda ham zarur va shu munosabat bilan uning ma'lumotlarini boshqaruv hisobida ishlatish uchun zarur bo'lgan omillarni ta'kidlash kerak [2].

Boshqaruv hisobining axborot oqimlarining butun hajmini tizimlashtirish va ko'plab mezonlarga asoslanib turlarga bo'lish mumkin. Eng keng tarqalgan tasniflardan biri boshqaruv darajalari va maqsadlari asosida ma'lumotlarni guruhlashni o'z ichiga oladi. Bunday holda, ma'lumotlar har qanday tijorat tashkilotining maqsadlariga muvofiq operativ, taktik va strategik bo'linadi.

Strategik axborot konsepsiyasining bo'linishi strategik boshqaruv hisobi rivojlanishning asosiy yo'nalishiga aylana boshlagan bir paytda sodir bo'ldi.

Operatsion boshqaruv ma'lumotlari boshqaruv jarayonini samarali amalga oshirish, shuningdek joriy faoliyatni nazorat qilish va tartibga solish uchun ma'lumotlarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq.

Taktik ma'lumotlar deganda kompaniyaning yaqin kelajakdagi faoliyati bilan bog'liq asosiy fikrlarni ishlab chiqish uchun yaratilgan bunday ma'lumotlar hajmi tushuniladi.

Strategik boshqaruv hisobi yuqori menejment manfaatlariga moslashtirilgan. Uzoq muddatli istiqbolda kompaniyaning barqaror raqobatbardoshligiga erishish uchun ichki resurslarni izlash va ulardan maksimal darajada samarali foydalanish uchun tashqi muhit to'g'risida baholovchi ma'lumotlarni taqdim etadi [3].

Ushbu turdagi ma'lumotlar tashqi muhit haqidagi ma'lumotlarni to'playdi, bu uning noaniqligini kamaytiradi va kompaniyani tashqi tebranishlarga eng xavf-xatarsiz moslashtirish usullarini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Taktik ma'lumotlar asosan tashkilotning yaqin kelajakdagi ishlab chiqarish siyosatini ishlab chiqish uchun ishlatiladi.

Taktik boshqaruvni amalga oshirish doirasidagi asosiy maqsadlarga quyidagilar kiradi [4]:

- kompaniyaning barqaror ishlashini ta'minlash;
- kompaniyaning uzluksiz rivojlanishi uchun potensialni yaratish;
- amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda dastlabki rejalariga o'zgartirishlar.

Ushbu boshqaruv darajasida taqdim etilgan ma'lumotlar o'rta rahbariyat tomonidan monitoring, nazorat va qaror qabul qilish uchun ishlatiladi. Strategik boshqaruv ma'lumotlari tashkilotning strategik qarorlari va maqsadlarini ishlab chiqishga, shuningdek ularni qo'llabquvvatlashga qaratilgan.

ustuvor yo'nalishlari

Keyinchalik, ma'lumotlar boshqaruv hisobining kompaniyaning ichki yoki tashqi muhitiga yo'nalishiga qarab tasniflanishi kerak. Bunday holda, ichki va raqobatbardosh ma'lumotlar ajralib turadi. Ko'rinib turibdiki, ichki boshqaruv hisobi kompaniya ichidagi jarayonlarni o'rganishga qaratilgan.

Raqobat ma'lumotlari tashkilotning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish, shu jumladan raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish jarayonida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasini nazarda tutadi.

2-жадвал маълумотларидан кўринадики, Ўзбекистон Республикасининг ички валюта бозорида чет эл валютасининг таклифининг миқдори 2018-2022 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотларига кўра:

* 2022 йилда импортни молиялаштириш манбалари таркибида ички валюта бозорида сотиб олинган маблағлар (конвертация) улуши 58 фоизни, хорижий валютадаги ўз маблағлари ҳисобига импортни молиялаштириш 32 фоизни, чет эл валютасидаги кредитлар ҳисобига молиялаштириш эса 10 фоизни ташкил этди;

* 2022 йилда ички валюта бозорида чет эл валютасининг асосий қисми (56.6 фоиз) ишлаб чиқариш учун асбоб-ускуналар, товарлар ва хомашё импорти, 18.8 фоизи хорижий кредитларни сўндириш, 20.8 фоизи халқ истеъмоли товарлари ва дори-дармон маҳсулотлари импорти, 2.1 фоизи хорижий инвесторлар даромадларининг репатриацияси ва қолган 1.7 фоизи бошқа мақсадлар учун харид қилинган⁶⁴.

Ўзбекистон Республикаси валюта биржасида 2018-2022 йилларда амалга оширилган конверсион операцияларнинг мутлақ асосий қисми (90 фоиздан ортиқ қисми) АҚШ долларида амалга оширилган операцияларнинг ҳиссасига тўғри келди.

Бу эса, валюта операциялари ҳажмини ошириш вавалюта рискинни бошқариш самарадорлигини ошириш учун бўлган зарур шарт-шароитларни яратиш имконини бермайди.

Ўзбекистон Республикаси валюта биржасида 2018-2022 йилларда амалга оширилган конверсион операцияларнинг мутлақ асосий қисмини АҚШ долларида амалга оширилаётганлигининг асосий сабаби бўлиб, корхоналар, тижорат банклари ва давлатнинг валюта захираларини диверсификация даражасини паст эканлиги ҳисобланади.

BANK SOHASIDA RISKLARNI BOSHQARISH TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Xasanova Xamida Xaydaraliyevna

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali katta o'qituvchisi.
h.hamida1776@mail.ru

Yuldasheva Ruxangiza Xamroz qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali talabasi.

⁶³ www.cbu.uz – сайти маълумотлари.

⁶⁴ www.cbu.uz – сайти маълумотлари.

*Ravshanova Dilsora Kurayishxon qizi,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti Olmaliq filiali talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank sohasida risk tushunchasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni va riskni boshqarishning nazariy asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bank, risk, riskni boshqarish, ichki risk, tashqi risk.

Bank sohasi rivojlanishining jadalligi xar bir davlatning moliya-kredit institutlari faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratishga majbur qiladi. Shu munosabat bilan risklarni boshqarish har qanday bank nazoratida alohida ahamiyatga ega, chunki bu nafaqat yo'qotishlarning oldini olish, balki qo'shimcha daromad olish usuli hamdir. Bank faoliyatiga risklar hajmining ortib borayotganini hisobga olib, hozirgi bosqichda bank risklarini boshqarish muammosi muhim hisoblanadi. O'z faoliyatida banklar barcha muhim risklarni aniqlaydilar va ularni doimiy ravishda baholaydilar. Samarali riskni baholash xarajatlarni foyda bilan solishtirishdan iborat bo'lib, o'lchanadigan va o'lchab bo'lmaydigan risk omillarini hisobga olinadi. Risklarni baholash jarayoni bankning qaysi risklarni boshqarishi va boshqarishi mumkin emasligini ham aniqlaydi.

“Risk” tushunchasi bank faoliyatiga kelganda kalitlardan biridir, chunki bu sohada risksiz operatsiya deyarli mavjud emas. Risklarning bank tizimi faoliyatiga ta'sirini baholashning alohida ahamiyati kutilmagan vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Risk hodisaning natijasini oldindan aniqlash mumkin bo'lmaganda paydo bo'ladi va rivojlanish variantlari orasida albatta noqulay variant mavjud. Bank ishida bu odatda qandaydir yo'qotishdir (iqtisodiy zarar, foydaning kamayishi).

Shuningdek, bank nafaqat muayyan bank risklariga, balki har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida mavjud bo'lgan umumiy risklarga ham duchor bo'lishi ham muhimdir.

Bank sektorining globallashuvi riskning milliy iqtisodiyotga ta'sirini ham kuchaytirmoqda.

Bank asosan risklarni sotib oladi va sotadi. Shunday qilib, bank qabul qilish, baholash va mahalliyashtirishga qodir bo'lgan bir hil risklar turlari shakllanadi, shu bilan risklarni ma'lum bir boshqariladigan doirada joylashtirish orqali o'z faoliyatining ijobiy rentabelligini ta'minlaydi. Bank risklarining ko'plab tasniflari mavjud. Bizning fikrimizcha, bank risklarini samarali boshqarish uchun ularni umumiy xususiyatlar yoki belgilarga muvofiq ma'lum sinflarga guruhlash imkonini beradigan tasnif zarur.

Bank risklarini boshqarishning tarkibiy qismi bu bank muassasalarida risklarni nazorat qilish jarayonidir, chunki ma'lum bir boshqaruv ta'siri bir martalik harakat emas, balki uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlar qatoridir. Shuning uchun bu jarayonda muayyan bosqichlarni ajratib ko'rsatish kerak.

Bank risklarini boshqarishning mohiyatini aniq tushunish uchun bank muassasalari bank risklarini nazorat qilishning bosqichini, xususan: risklar mohiyatini oydinlashtirish, risklarni aniqlash va identifikatsiya qilish, risklarni baholash (miqdoriy aniqlash), risklarni nazorat qilish usullarini tanlash, natijalarni monitoring qilish, nazorat qilish va baholash kabilarni o'zichiga oladi.

Bundan tashqari, mikro va makro darajada bank risklarini boshqarishni farqlash maqsadga muvofiqdir. Makro darajada, bank tizimi darajasida ham bank risklariga ta'sir qilishning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat: kapitalning minimal miqdori, kapitalning tarkibi va yetariligi qoidalariga qo'yiladigan talablar, moliyaviy ahvol va umumiy risklar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish talablari. bank tizimi, riskni miqdoriy baholashga doir me'yoriy talablar va boshqalar. Bank muassasalari darajasida tashqilardan tashqari, risklarni nazorat qilishning ichki mexanizmlari qo'llaniladi. Ularga ichki modellar, risklarni baholash va risklarni nazorat qilish usullari, shuningdek, bank muassasalarining risklarni boshqarishning

tashkiliy tuzilmasi, normativ-huquqiy yordam, xodimlarning malakasi va boshqalar kiradi. Bularning barchasi bank risklarini boshqarish tizimini tashkil etadi.

Ichki risklar - bu banklarning o'z faoliyatidan kelib chiqadigan va ularning faoliyatiga bog'liq bo'lgan risklar. Shunga ko'ra, ichki bank risklari bankning asosiy va qo'shimcha faoliyati bo'yicha zararlarga bo'linadi.

Tashqi risklar - bu bank yoki muayyan mijozning faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan risklar. Bu urushning boshlanishi, inqilob, milliyashtirish, chet yelda to'lovlarni taqiqlash, qarzlarni konsolidatsiya qilish, import lisenziyalarini bekor qilish, mamlakatdagi iqtisodiy inqirozning kuchayishi va tabiiy ofatlar.

Shunday qilib, milliy va jahon bozorlari talablariga javob beradigan riskni samarali boshqarish muammosi bank institutlari faoliyatidagi ahamiyati bo'yicha birinchi o'rinlardan birini egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Лаврушин О.И. Банковское дело. М.: КноРус. 2014. 800 с.
2. Гранатуров В.М. Экономический риск. Сущность, методы измерения, пути снижения. М.: Дело и сервис, 2010, 208 с.
3. Terje Aven "Risk assessment and risk management: Review of recent advances on their foundation", European Journal of Operational Research, Volume 253, Issue 1, 16 August 2016, Pages 1-13.

XALQARO STANDARTLARGA KO'RA BIOLOGIK AKTIVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna

Farg'ona politexnika instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası, assistenti, e-mail: z.a.axmadaliyeva@ferpi.uz, +998905810799.

Annotatsiya. Maqolada xalqaro standartlarga ko'ra biologik aktivlar hisobining tan olish mezonlari, o'ziga xos jihatlari va amaliyotda uchraydigan ko'plab muammoli tomonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: biologik aktiv, yig'im jarayonidagi qishloq xo'jaligi hosillari, o'zgarish qobiliyati, o'zgarishni baholash, o'zgarishni boshqarish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [1] PQ-4611 Qarori MHXS ga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek hisob va audit sohalarini mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Yuqoridagi qarorlar ijrosining ta'minlashi mamlakat iqtisodiyotining bozor konvertatsiyalari yo'lida rivojlantirish, prinsipial jihatdan yangi iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishiga, shuningdek uzoq muddatli aktivlar bo'yicha hisob-analitik ma'lumotlarni shakllantirish talablarini takomillashtirishga olib keladi.

Biologik aktivlar haqidagi ma'lumotlarini to'g'ri va obyektiv shakllantirilishi, ular bo'yicha hisob tizimini optimallashtirish imkoniyatini yaratib, investorlarga aktiv haqidagi ma'lumotlarni uzatishda shaffoflik va qulaylikka ega bo'lish sharoitlarini vujudga keltiradi.

Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda mavjud bo'lgan buxgalteriya hisobi tizimi biologik aktivlar to'g'risida ma'lumotlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan miqdor va shaklda olishga imkon bermaydi. Bu esa tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq turli xildagi aktivlarni tasniflashda maxsus 41-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS 41) "Qishloq xo'jaligi" standartining talablariga amal qilish lozim.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Qishloq xo'jaligi" standartining maqsadi etib, qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli buxgalteriya hisobi yondashuvini va ochib beriladigan ma'lumotlarni belgilashdan iboratligi belgilangan.

Mazkur standartda qishloq xo'jaligi faoliyati deyilganda xo'jalik subyekti tomonidan sotish yoki qishloq xo'jaligi hosiliga yoki qo'shimcha biologik aktivlarga aylantirish uchun biologik aktivlarning biologik transformatsiyasini va yig'imini boshqarishdan iborat ta'rifi berilgan. Biroq hamma tirik hayvon va o'simliklar ham avtomatik ravishda 41-son BHXS amal qilish doirasiga tushmaydi.

Masalan, agar korxonada qoramolni ko'paytirish maqsadida saqlasa, bu biologik aktiv deyiladi va 41-son BHXS qo'llaniladi. [2]

Agar korxonada o'z iste'moli uchun qora mol boqsa va ko'paytirsa biologik aktiv hisoblanmaydi va bu standart qo'llanilmaydi. Bunda qoramol hisobini 16-son moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari "Asosiy vositalar" yoki 2-son moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari "Tovar-moddiy zaxiralar" standartini qo'llab yuritadi 1-jadval.

41-sonli BHXS ning qo'llanishi [5]

41-sonli BHXS-"Biologik aktivlar" qo'llanilishi

Biologik aktivlar Yig'im jarayonidagi qishloq xo'jaligi hosillari Davlat grantlari Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, standart qoidalari faqat yig'im jarayonidagi qishloq xo'jaligi hosiliga, ya'ni qishloq xo'jaligi subyekt biologik aktivlarining yig'ishtirilgan mahsulotiga nisbatan qo'llaniladi. Keyingi jarayonlarda (masalan, qayta ishlash) bu to'g'ridanto'g'ri 2-son BHXS "Tovar-moddiy zaxiralar" yoki boshqa tegishli standartlarda qo'llaniladi. Respublikamizda tashkil etilayotgan klasterlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ishtirish jarayoni uchun 41-son BHXSni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan, urug'chilik klasterida paxta o'simlik sifatida biologik aktivga va paxta xom-ashyosi sifatida qishloq xo'jaligi hosiliga kiradi. Uni yig'imidan so'ng qayta ishlash natijalaridagi kalava ip va kiyimlarga boshqa standartlar amal qiladi. [3]

Mazkur standart qoidalari qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli yer 16-son BHXS "Asosiy vositalar" va 40-son BHXS "Investitsion mulk" hamda qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli nomoddiy aktivlar 38-son BHXS "Nomoddiy aktivlar"ga nisbatan qo'llanilmaydi..

Demak, qayta ishlash jarayonlari qishloq xo'jaligi faoliyatining mantiqiy va tabiiy davomi bo'lsa-da, sodir bo'layotgan jarayonlar biologik transformatsiya bo'yicha ayrim o'xshashliklarga ega bo'lishidan qat'i nazar ushbu standartdagi qishloq xo'jaligi faoliyatining doirasiga kiritilishi mumkin emas.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi faoliyati keng turdagi faoliyatlarni qamrab oladi: masalan, chorvachilik, o'rmonchilik, bir yillik yoki ko'p yillik ekinlarni yetishtirish, bog' va plantatsiyalarni parvarishlash, gulchilik va akvaekinlari (jumladan, baliqchilik).

Natijada bular quyidagi ma'lum bir umumiy jihatlarga ega: [4]

-O'zgarish qobiliyati. Tirik hayvonlar yoki o'simliklar biologik transformatsiya qobiliyatiga egadirlar; -O'zgarishni boshqarish. Boshqarish jarayon sodir bo'lishiga zarur bo'lgan sharoitlarni (masalan, ozuqa moddalari darajasi, namgarchilik, harorat, hosildorlik va yorug'lik) yaxshilash, yoki kamida barqarorlashtirish, orqali biologik transformatsiyani yengillashtiradi. Bunday

boshqarish qishloq xo‘jaligi faoliyatini boshqa faoliyatlardan farqlaydi. Masalan, boshqarilmaydigan manbalar, jumladan, okeandagi baliqchilik va o‘rmonlarni kesish kabilar qishloq xo‘jaligi faoliyati hisoblanmaydi;

-O‘zgarishni baholash. Biologik transformatsiyadan yuzaga keladigan sifatdagi (masalan, genetik jihati, zichlik, yetilganlik, yog‘ miqdori, oqsil miqdori va tolaning mustahkamligi) yoki miqdordagi o‘zgarish (naslлик, og‘irlik, kubik metr, tolaning uzunligi yoki diametri va kurtaklarning soni) yoki hosil muntazam boshqarish funksiyasi sifatida baholanadi va nazorat qilinadi.

Biologik aktivlar buxgalteriya hisobida olib borilgan tadqiqot asosida quyidagicha xulosa berildi.

Milliy hisob tizimida qishloq xo‘jaligiga faoliyati bilan bog‘liq asosiy vositalar qiymatini baholash 5-son BHMS “Asosiy vositalar”ga muvofiq umum belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi qonunchiligi va milliy standartlarda biologik aktivlar tushunchasi boshqacha talqinda berilgan:, jumladan, 21-son BHMSda (Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma, 1-bo‘lim, 2-band) “Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, “Ko‘p yillik o‘simliklar” va “O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar” nomi bilan hisobga olinadi. Qishloq xo‘jaligi hosiliga kiruvchi bir yillik o‘simliklar (paxta, g‘alla va boshq.) bunda hisobga olinmagan.

Bizning fikrimizcha, Respublikamiz qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq korxonalar uchun “Qishloq xo‘jaligi” nomli 41-sni BHXS negizida Agrar soha uchun “Biologik aktivlar hisobi” yoki shunga o‘xshash modifikatsiyalashgan standartni ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 2020 24 fevral
2. В.М.Витальевна развитие организационно-методического обеспечения управленческого учета биологических активов Автореферат диссертации д.э.н. Воронеж – 2022.
3. Л.И.Куликова Концепция бухгалтерского учета долгосрочных материальных активов в коммерческих организациях. Автореферат диссертации д.э.н. Казан: — 2001г.
4. Н.А.Казакова Анализ финансовой отчетности. Консолидированный бизнес. Учебник -М.:Издательство Юрайт, 2019.
5. Z.Axmadaliyeva Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards // CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE november 2021 URL: <http://cajtmf.centralasianstudies.org/index.php/>

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA XARIDOR VA BUYURTMACHILAR BILAN HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Urakova M.X.

BuxDU o'qituvchisi

Yuldasheva Nilufar

BuxDU talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada korxonalarda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini aks ettirilishi va ular bilan bog'liq hisob-kitoblar hamda ishlatiladigan o'tkazmalar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: debitorlar, kreditorlar, xaridor va buyurtmachilar, sotilgan mahsulot, tayyor mahsulot

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о представлении дебиторской и кредиторской задолженности на предприятиях и соответствующих расчетах и используемых трансфертах.

Ключевые слова: дебиторы, кредиторы, покупатели и заказчики, реализуемая продукция, готовая продукция.

Abstract: This article provides detailed information about the presentation of receivables and payables in enterprises and the related calculations and transfers used.

Key words: debtors, creditors, buyers and customers, sold product, finished product

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish jarayonida doimo boshqa xo'jaliklar bilan iqtisodiy aloqada bo'ladilar. Bunday aloqalarini olib borish xo'jaliklarning asosiy faoliyati hisoblanadi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, mahsulotlarni o'z vaqtida jo'natish hamda sotish jarayoni ta'minlanadi. Xo'jalik aloqalari shartnomalar bilan rasmiylashtirilib, ularga asosan bir tomon mahsulot (ish va xizmat) larni taklif etuvchi (sotuvchi), ikkinchi tomon esa – xaridor sifatida qatnashib, to'lovni amalga oshiruvchi bo'lib qatnashadi. Har xil tashkilot va shaxslar bilan o'zaro hisob-kitob munosabatlarida korxonada Asosiy hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzaga keladi.

Debitor – muayyan korxonadan pul qarzi bo'lgan korxonalar, tashkilot yoki shaxs tovarlar yuklab junatilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan kundan boshlab 90 kun mobaynida, yetkazib berilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag' kelib tushmagan vaqtda debitorlik qarzi muddati o'tkazib yuborilgan bu shunday korxonalar, tashkilot yoki shaxski, uning oldida boshqa hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlari bo'ladi.

Turli debitor va kreditor qarzlari quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- korxonaning o'zidan yoki uning mehnat jamoasi a'zolaridan ijro varakalariga asosan javobgar shaxs bo'lsa;
- kommunal xizmati, turar joy haqi, turar joy bo'lmagan xonalarning ijara haqlari bo'yicha;
- mehnat jamoasi a'zolarining buyrug'i bilan bankka va boshqa joylarga pul o'tkazish bo'yicha

Agarda mahsulot ortib junatish orqali sotiladigan bo'lsa, bunda to'lovlar amalga oshirish sanasiga qadar majburiyat, qarzi sifatida aks ettiriladi.

Xaridorlarga yuklab jo'natilgan mahsulotlar harakatining hisobi 16 qaydnomaning 2bo'limida yuritiladi. Yuklab jo'natilgan va sotilgan mahsulotlarning hisobvaraqlari bo'yicha sintetik hisob 11 jurnal - orderda yuritiladi. Bu jurnal-order 2810, 9410, 9010, 9020, 9030, 9210,

1010 - hisobvaraqlarining kredit aylanmasi hamda 9010, 9020, 9030 — hisobvaraqlarining analitik ma'lumotlarini yozish uchun mo'ljallangan.

11-jurnal-order 15 va 16-vedomostlarning analitik ma'lumotlariga asosan to'ldiriladi.

Tayyor mahsulotlarni xaridorlarga jo'natish xaridor bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo'natiladigan mahsulot muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari keltiriladi. Jo'natilgan mahsulot schyot-faktura, chiqim hujjati, to'lov talabnomasi va boshqa hujjatlarda rasmiylashtiriladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining undirish muddati 3 oy yoki 90 kun qilib belgilangan. Ushbu muddatdan so'ng debitorlik va kreditorlik majburiyatlari nazoratga olinadi va ularning holati bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlik shartlari) belgilanadi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisobdan chiqarish muddati sifatida yuridik shaxslar o'rtasida ham, korxonalar bilan jismoniy shaxslar o'rtasida ham 3 yil muddat belgilangan. Ushbu muddatda tulanmagan yoki undirib olinmagan majburiyatlar, qarzlarning korxonaning foyda va zararlariga olib boriladi. Muddati utgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari davlat tomonidan nazoratga olinadi. Muddati utkazib qo'yilgan kreditorlik majburiyatlari korxonalar foydasiga kushiladi va umumiy asosida soliqqa tortiladi. Muddati utgan debitorlik majburiyatlarini zararga olib borish soliqqa tortiladigan foyda summasini kamaytirmaydi.

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan tovarlar, tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun debitorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

4020 "Olingan veksellar".⁷⁰

4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" hyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisobkitob hujjatlari bo'yicha debitorlik qarzlari hisobga olinadi.

Tayyor mahsulotning sotilishida sotish bahosining aks ettirilishiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"; Kredit

6410-"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar";

Kredit 9010-"Mahsulot sotishdan olingan daromad".

4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" hisobvarag'i aktiv bo'lib, uning saldosi xaridor va buyurtmachilarning korxonadan sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar bo'yicha qarzini ko'rsatadi, debet aylanmasi hisobot oyida topshirilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning sotish qiymatini, kredit aylanmasi esa hisobot oyida xaridorlar tomonidan to'langan summani ko'rsatadi.

4020 "Olingan veksellar" schyotida olingan veksellar bilan la'inlangan xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik qarzi hisobga olinadi.

(Respublikamizda veksel operatsiyalari amalga oshirilmaydi)

Olinadigan schyotlar (4000) asosiy (operatsion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000), asosiy vositalar va hoshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200) va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar

Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni aks ettirish muomalasi (provodka)			
Muomala mazmuni		Debet	Kredit
1	Xaridor va buyurtmachilarga chegirmalar berilganida	9050	4010
2	Xaridorlarga jo'natilgan tayyor mahsulotlarga QQS va aksiz solig'i hisoblanganida	4010	6410
3			
4	QQS summasi byudjetga o'tkazib berilganida	6410	5110
5	Sotilgan tovarlarning qaytishi	9040	4010
6	Nomoddiy aktivlarning sotilishidan olinadigan tushumni aks ettirish	4010	9220

Bundan tashqari, turli debitorlar tarkibida moliyaviy va operativ lizinglar bo'yicha olinadigan to'lovlar, olinadigan foizlar va dividendlar, royalti (royalti - bu sotuvchiga litsenziya shartnomasida belgilangan ma'lum narsani ishlatish huquqi uchun davrny to'lovlar) va gonorar (gonorar - bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha mukofot va ragbatlantirishlar) bo'yicha olinadigan schyotlar va boshqa shaxslarning qarzlari joriy qismi) hisobga olinadi. Bu muomalalarning hisobi 4800-«Turli debitorlarning qarzlari hisobi» bo'yicha ochilgan (4810, 4820, 4840 va 4890) hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Korxonaning turli kreditorlardan bo'lgan qarzlari tarkibiga moliyaviy va operativ lizinglar bo'yicha to'lanadigan to'lovlar, to'lanadigan foizlar va dividendlar, royalti va gonorar bo'yicha to'lanadigan schyotlar, hisobdor shaxslardan bo'lgan qarzarlar va boshqa majburiyatlar kiradi. Bunday muomalalarning hisobi 6900-«Turli kreditorlardan olingan qarzarlar va boshqa majburiyatlar hisobi» hisobvaragi bo'yicha ochilgan (6910, 6920, 50, 6940, 6950, 6960, 6970 va 6990) hisobvaraqlarda aks ettiriladi.

40, 63, 65, 47, 67, 48, 69, 41, 61-hisobvaraqlar bo'yicha analitik hisob 7qaydnomada yuritiladi.

Mahsulot (ish va xizmat) larni yetkazib beruvchi bilan uning haqini to'lovchilar orasidagi hisoblashishlar o'z vaqtida tashkil etilishi aylanma mablag'larning aylanish tezlashishiga ta'sir qilib, olinadigan va to'lanadigan mablag'larning paydo bo'lishiga barham beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. –T.: 2016
3. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni. –T.: 2021 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 23 martdagi PQ-1306sonli "2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida»gi Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 "O'zbekiston Respublikasining 2024 yilga investision dasturi haqida»gi Qarori.
6. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi. /Darslik –T.: Iqtisod, 2011. -307
7. Xolbekov R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi./Darslik –T.: CHo'lpon, 2011.-185 b.

8. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. Rossiya . -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.
9. Jo'raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet.
10. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchets vneshneekonomicheskoy deyatelnosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

KORXONALARDA TAYYOR MAHSULOT (ISH VA XIZMATLAR) VA BOSHQA AKTIVLARNI SOTISH HISOBI.

Latipova Nargiza
OXU magistranti
Salimova Shaxzoda
BUXDU talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada korxonalarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot va boshqa aktivlarni sotish muomalalari bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar: tayyor mahsulot, aktivlar, asosiy vositalar, QQS, mahsulot realizatsiyasi

Аннотация: в данной статье дано описание операций по реализации готовой продукции и других активов, произведенных на предприятиях.

Ключевые слова: готовая продукция, активы, основные средства, НДС, реализация продукции.

Abstract: this article provides a description of transactions for the sale of finished products and other assets produced in enterprises.

Key words: finished product, assets, fixed assets, VAT, product realization

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda, sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birning alohida turi bo'yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ulaming har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysisining rentabellik darajasi va boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi lozim. Korxonalar o'z mahsulotlarining sotilishini hisobga olish bilan bir qatorda mahsulot (ish, xizmat)lar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) ham hisobga olib borishlari shart.

Buxgalteriya hisobi haqidagi qonunlarga muvofiq berilgan xomashyo mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonadan balansdan tashqarida hisobga olinadi.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobida tayyor mahsulot sotishning yangi qirralari namoyon bo'lmoqda. Bu, ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyat hamda barter muomalalarida o'z ifodasini topmoqda. Aynan bu muomalalar buxgalteriya hisobining hozirgi amaliyotida hisob yuritishda bir qancha muammolari mavjudligi bilan ko'zga tashlanmoqda. Fikrimizcha, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda barter muomalalarini keng qo'llashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Agarda barter muomalalari amaliyotga keng tatbiq etilsa, birinchidan, mavjud inflyatsiya sur'atini jilovlash imkoniyati tug'iladi, ikkinchidan, hisob ishlarida ortiqcha rasmiyatchiliklar miqdori kamayib, uning samaradorligi yanada oshishi uchun zamin yaratiladi. Tayyor mahsulotlarni xaridorlarga jo'natish xaridor bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo'natiladigan mahsulot muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari keltiriladi. Jo'natilgan mahsulot schyot-faktura, chiqim hujjati, to'lov talabnomasi va boshqa hujjatlarda rasmiylashtiriladi.

ustuvor yo'nalishlari

Tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar";
- 9020 "Tovarlarni sotishdan daromadlar";
- 9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar";
- 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi";
- 9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar";

9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar"; 9020 "Tovarlarni sotishdan daromadlar"; 9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar" schyotlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyati (tayyor mahsulotlar, tovarlarni sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)dan daromadlar olinadigan schyotlar va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi, biroq, oldingi hisobot davrlarida olingan, ammo joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summalari 6230 "Boshqa kechiktirilgan daromadlar" schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

1-jadval.

Tayyor mahsulotning sotilishi bo'yicha muomalalar⁶⁵

	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1	tayyor mahsulot xaridorlarga jo'natildi, ya'ni sotildi:	4010	9010
2	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxini hisobdan chiqarilishi	9110	2810
3	Mahsulotni sotishdan olingan moliyaviy natijani aniqlanishi	9910	9110
4	Yakuniy moliyaviy natija	9010	9910

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyoti yordamida mahsulotni sotishdan olingan daromad va shu mahsulotni sotishdan olingan daromad va shu mahsulotning tannarxi solishtiriladi. 9910 schyotning kredit qoldig'i foydani, debet qoldig'i esa, zararni bildiradi

Korxonalarda tayyor mahsulotdan tashqari asosiy vositalar, valyuta mablag'lari, materiallar, qimmatbaho qog'ozlar va boshqa aktivlar ham sotilishi mumkin. Ushbu sotish jarayonlarining hisobi 9210-"Asosiy vositalarning chiqib ketishi", 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyotlarda aks ettiriladi

Asosiy vositalarni sotishdan olingan foydaning hisobi 9310 schyotda, boshqa aktivlarni sotishdan olingan foydaning hisobi esa 9320 schyotida yuritiladi.

2-jadval

Asosiy vositalar (uzoq muddatli aktiv) haq evaziga sotilganda ularning chiqib ketishi⁶⁶

	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1	Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarish	9210	0100

⁶⁵ Muallif tomonidan tuzildi

⁶⁶ Muallif tomonidan tuzildi

2	Hisoblangan eskirishni hisobdan chiqarish	0200	9210
3	Asosiy vositalarni sotishdan tushgan tushum aks ettirish	4010	9210
4	QQS hisoblanishi	9210	6410
5	Asosiy vositani sotishdan olingan zararining aks ettirilishi	9430	9210
6	Asosiy vositani sotishdan olingan foydaning aks ettirilishi	9210	9310

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016.13.04 yangi tahrir. O'zRQ 404-son.
2. O'zbekiston Respublikasi "Masuliyati cheklangan hamda qo'shimcha masuliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni 20-son, 222-modda; 2015., 33-son, 439-modda)
3. O'zbekiston Respublikasi "Soliq Kodeksi" 30.12.2019.
4. "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish to'g'risida Nizom" 1999 yil, 5 fevralda Vazirlar Mahkamasining 54-son qarori bilan tasdiqlangan.
5. Dusmuratov R.D. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi". T.: "Iqtisodmoliya" 2013. -425 b.
6. G'ulomova F.G'. "Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma T.: "Norma". 2012.-426 b.
7. Ibragimov A.K., Ochilov I.K., Qo'ziev I.N., Rizaev N.K. "Moliyaviy va boshqaruv hisobi: o'quv qo'llanma".-T.: "Iqtisod-moliya", 2008. -444 b.
8. Karimov A.A., Islomov F.R., Avlaqulov A.Z. "Buxgalteriya hisobi" SHarq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi., T.: 2004.-169 b.
9. №18-son BHXS "Odatdagi faoliyatdan olingan daromad" 1995 yil, 1- yanvar.
10. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI

Yusupova Nigina BuxDU magistranti

Muzaffarov Javohir BuxDU talabasi

Аннотация: Мақоллада узоқ мuddatli активлар hisobining rivojlanish tarixi o'zbekistonlik va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etish orqali o'rganilganligi va hozirgi kunda tadqiqot natijalari qanday qo'llanilayotganligi yoritib berishga harakat qilingan.

Калит со'злар: активлар, узоқ мuddatli активлар, moliyaviy активлар, nomoddiy активлар, kapital, investitsiya

Аннотация: В статье изучена история развития учета долгосрочных активов узбекскими и зарубежными учеными и то, как результаты исследования используются сегодня.

Ключевые слова: активы, долгосрочные активы, финансовые активы, нематериальные активы, капитал, инвестиции

Abstract: In the article, the history of the development of long-term asset accounting was studied by Uzbek and foreign scientists and how the research results are used today.

Key words: assets, long-term assets, financial assets, intangible assets, capital, investment

Xo'jalik yuritishning rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asosan ishlab chiqarish vositalarigina asosiy kapital sifatida gavalanganligini va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan olinadigan daromadlar sababchisi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jamiyatning rivojlanish bosqichida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidagi ishlab chiqarish omillaridan bo'lgan kapitalning tarkibiy qismi bo'lgan asosiy kapital qatorida nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar kabi aktivlar vujudga kela boshladi. Ushbu aktivlarning xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatidagi ishtiroki va daromad olishdagi ulushlari asosiy kapitalga aynan o'xshamasada, lekin korxonada bir doiraviy aylanishdan ko'ra ko'proq muddatda ishtirok etishlari va daromad olishga sababchi bo'lishlari asosiy kapitalga nisbatan o'xshashlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham asosiy kapitaldan farqlanuvchi aktivlarni vujudga kelishi endilikda buxgalteriya hisobida asosiy vositalar sifatida tan olingan va aksariyat korxonalarining buxgalteriya balansida faqatgina asosiy vositalarni aks ettirilishiga barham berildi. Asosiy vositalar bilan teng qatorda nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital qo'yilmalar, kechiktirilgan xarajatlar va debitorlik qarzlarni ham aks ettirish zaruriyati kelib chiqdi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ishtirok etadigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar deb e'tirof etilib, ular shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital) va joriy aktivlar (aylanma kapital) kabi guruhlariga ajratiladi. Bunday guruhlariga ajratishning asosini "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun tashkil qiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy konsepsiyasidir.

Aktivlarni uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar guruhlariga ajratilishi, ularning bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog'liqligi kapital hisobining iqtisodiy kontsepsiyasini tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi ob'ekti sifatidagi kontsepsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos qilib olinishi lozim.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma'nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar korxonaga tegishli xo'jalik mablag'lari deb tan olingan va e'tirof etilgan. Ammo bu e'tirof asosan asosiy kapitalga talluqli bo'lgan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida davrda uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa ob'ektlari ham paydo bo'lganki, ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar, uzoq muddatli debitor qarz va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham korxonada faoliyatida uzoq muddat ishtirok etishadi. SHulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo'lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar va investitsion mulk sifatida e'tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jihatlar uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va tavsiflash asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Prezident SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim: iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash;^[1] Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida uzoq muddatli aktivlarning tarkibida salmoqli hissaga ega bo'lgan asosiy vositalarga qilingan investitsiyalar miqdori barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda.

Respublikamizning me'yoriy –huquqiy hujjatlarida, chunonchi “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonunda, 1- son BHMS “hisob siyosati va moliviy hisobot”da keltirilgan uzoq muddatli aktivlarning tavsifi bizning fikrimizcha ular mazmun mohiyatini yaqqol ochib bera olmaydi. Fikrimizcha, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunning 4-moddasida “Asosiy” deb boshlangan jumlaning “Uzoq muddatli va” degan jumla bilan almashtirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari 1-son BHMS “ ”ning 11 punktini “Uzoq muddatli aktivlar – bu korxonadan tomonidan uzoq muddat mobayinida (12 oydan ko'p) foydalanish uchun ulush, hadya ko'rinishida hamda xarid qilib olinadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira olishi va nazorat qilinishi mumkinligi bilan tavsiflanadigan mablag'lardir” degan ta'rif bilan to'ldirish zarur.

Uzoq muddatli aktivlarning tasnifi mamlakat iqtisodchi olimlari tomonidan yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Adabiyotlarda ularning tarkibiy qismlari alohida alohida holda tasniflangan, bunda asosiy vositalarga nisbatan ko'proq urg'u berilgan. Shuningdek, adabiyotlarda uzoq muddatli aktivlarga ta'rif berilmasdan, balki alohida asosiy vositalarga, nomoddiy aktivlarga, moliyaviy qo'yilmalarga ta'riflar berilgan. Chet ellik iqtisodchi olimlar tomonidan e'tirof etilgan uzoq muddatli aktivlar tarkibiy qismlarining tasniflanish tartibi - jadvalda keltirilgan.

Uzoq muddatli aktivlar	R.N.Entoni J.S.Rins	J.G.Siegel, D.Minars	K.D.Larson, R.B.V. Miller	B.Nidlz, X.Anderson	T.P.Edmonds F.M.Nair.	R. Libbi RA. Libbi6.	R.L. Dixon X.E. Arnett	R.X. Xermonson	Bizning taklifimiz
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1. Moddiy aktivlar:									
Yer-	+	+	+	+	+	+		+	+
Bino va inshootlar –			+			+	+	+	+
Bino va asbob-uskunalar	+			+					
Mashina va asbob-uskunalar		+	+			+	+	+	
Mashina, asbob-uskuna va ofis jihozlari			+			+			+
O'rnatiladigan asbob-uskunalar									+
Mashina, zavod va asbob-uskunalar					+				
Erni obodonlashtirish			+						
Qazilma boyliklar		+							
Tabiiy resurslar	+		+	+	+	+	+	+	
Ijaraga olingan mulk									+
Ijaraga olingan mulkni obodonlashtirish									+

II Nomoddiy aktivlar:									
Gudvill	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Patent	+		+	+	+	+	+	+	+
Mualliflik huquqi	+		+	+	+	+		+	+
Litsenziyalar		+		+		+			+
Savdo markalari		+	+	+	+	+	+	+	+
Franchayzes		+		+	+	+	+	+	+
Savdo nomi		+	+					+	
Maxfiy jarayonlar		+					+		
Tovar belgisi		+		+			+		+
Imtiyozlar	+								
Ijaraga olingan mulk		+	+	+		+	+		
Muddati uzaytirilgan xarajatlar	+								
Erdan foydalanish huquqi									+
Ilmiy tadqiqot va ilmiy konstruktorlik ishlanmalari	+	+		+		+	+	+	+
Uzoq muddatli oldindan to'lovlar							+		
III. Moliyaviy aktivlar	+	+	+	+		+	+	+	+
IV. Muddati uzaytirilgan xarajatlar va debitorlik qarzlari		+							+

1-jadval Xorijiy davlatlar olimlari tomonidan uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ko'pchilik mualliflar uzoq muddatli aktivlarni uchta yirik guruhga ajratganlar: 1) moddiy aktivlar, 2) nomoddiy aktivlar, 3) uzoq muddatli investitsiyalar.

J.G.Siegel va D.Minarslar esa «Muddati uzaytirilgan xarajatlar»-ni alohida to'rtinchi guruh qilib ajratganlar.

Ushbu mualliflar uzoq muddatli moddiy aktivlar tarkibini uchta guruhga ajratishadi. Birinchi guruhga yerni (R.L. Dixondan tashqari) kiritganlar. Ikkinchi guruhni mualliflar turlicha nomlaydilar. Bunda, ushbu guruhni R.N.Entoni va B.Nidlz – bino va asbob-uskunalar, T.P.Edmonds - mashina, bino va asbob-uskunalar deb ataydilar. Uchinchi guruhga tabiiy resurslarni kiritadilar.

Nomoddiy aktivlar tarkibini belgilashda, ko'pchilik olimlar tomonidan bir xil yondashishni kuzatishimiz mumkin. Ammo boshqa ayrim moddalarni ko'pchilik olimlar e'tirof etishmagan. Masalan, "muddati uzaytirilgan xarajatlar" (Deferred Charges)ni faqat R.N. Entoni va boshqalar (1 ustun) nomoddiy aktivlar qatoriga kiritgan. J.S. Siegel va boshqalar (2 ustun) esa bu moddani alohida to'rtinchi guruh sifatida e'tirof etishgan. Xuddi shuningdek, "uzoq muddatli oldindan to'lovlar" moddasini R.L. Dixon nomoddiy aktiv sifatida e'tirof etgan. Biz R. Entoni va R.L. Dixonning yuqorida qayd qilingan fikrlariga qo'shila olmaymiz, ya'ni uzoq muddatli debitorlik qarzlarni nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Chunki, uzoq muddatli debitorlik qarzlari buyumlashmagan aktivlar toifasiga mansub bo'lsa ham, kelgusida daromad keltirishni emas, balki korxonaga tegishli bo'lgan aktivlargagina haqdorlikni xarakterlaydi. Nomoddiy aktivlar kelgusida iqtisodiy naf keltirish xususiyatiga egadir. SHuning uchun uzoq muddatli debitor qarzlarni va muddati kechiktirilgan xarajatlarni alohida

«Muddati uzaytirilgan debitor qarzlari va kechiktirilgan xarajatlar» nomi bilan to'rtinchi bo'limga kiritish lozim. O'z mohiyatiga ko'ra, muddati uzaytirilgan qarzlari moddiy yoki nomoddiy aktiv ham emas, bevosita daromad olishni maqsad qilib uzoq muddatga mo'ljallab qilingan investitsiya ham emas, balki kelgusida bilvosita daromad olishni ko'zda tutib amalga oshirilgan sarf-xarajattir. Bizning mamlakatimizda "Yer" va "Tabiiy resurslar" xususiy mulk ob'ekti hisoblanmaydi. Bugungi kunga kelib yer uchastkalarini xususiylashtirish ob'ekti deb qabul qilish masalasi ko'tarilmoqda. Fikrimizcha, korxonalar yerga mulkiy egalik qilish huquqi bo'lganda ularni asosiy vositalar tarkibiga kiritish, doimiy va muddatli foydalanish uchun yerni ijaraga olish huquqiga ega bo'lgan holda esa foydalanish huquqi qiymatini nomoddiy aktiv sifatida tan olish va aks ettirishni maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi yetarlicha o'rganilmagan

Fikrlarni umumlashtirib shu narsani aytish mumkinki, uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga boshqaruv uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish maqsadida ularni tasniflash va tavsiflash mumkin

**VI SHO'BA. AHOLINING IJTIMOIIY HIMOIYAGA MUHTOJ TOIFALARINI
MODDIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI YANADA
TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING DOIMIY DAROMAD MANBALARINI
SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
СИСТЕМЫ МАТЕРИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ СОЦИАЛЬНО
УЯЗВИМЫХ КАТЕГОРИЙ НАСЕЛЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ ИХ
ПОСТОЯННЫХ ИСТОЧНИКОВ ДОХОДА**

Исмоилжонов Восижон Жамшид угли студент 1-курса,
факультета «Управление в производстве»,
Ферганского политехнического института,
г. Фергана, Узбекистан
abduvasid710@gmail.com

Мамаджанов Шохрухбек Мухиддинович
студент 1-курса, факультета «Управление в производстве»,
Ферганского политехнического института,
г. Фергана, Узбекистан

delovoyshohrux@gmail.com Курпаяниди Константин Иванович
Профессор, Ферганский политехнический институт,
г. Фергана, Узбекистан
antinari@gmail.com

Аннотация.

В данной статье рассматривается проблема экономической уязвимости социальных слоев населения, исследуются стратегии улучшения их материальной поддержки и создания стабильных источников дохода. Анализируются различные подходы, включая расширение социальных программ, развитие образования и навыков, микрофинансирование, а также государственно-частное партнерство. Основываясь на полученных данных, выводится необходимость комплексного подхода для решения проблем социальной уязвимости, который включает как непосредственную помощь, так и меры по обеспечению долгосрочной самообеспеченности.

Ключевые слова: *государственно-частное партнерство, материальная поддержка, микрофинансирование, образование и навыки, социальная интеграция, социальная уязвимость, стабильные источники дохода, стратегии поддержки, устойчивое развитие, экономическая стабильность.*

**AHOLINING IJTIMOIIY ZAIF TOIFALARINI MODDIY QO'LLAB-QUVVATLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING DOIMIY DAROMAD MANBALARINI
SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

Vosijon Ismoiljonov Jamshid o'gli

«Ishlab chiqarishda boshqaruv» fakultetining 1-bosqich talabasi, Farg'ona politexnika instituti,
O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona shahar. abduvasid710@gmail.com

Mamadjanov Shohruhbek Muhiddinovich

1-kurs talabasi, "Ishlab chiqarishni boshqarish" fakulteti,
Farg'ona politexnika instituti, Farg'ona shahri,
O'zbekiston delovoyshohrux@gmail.com

Konstantin Ivanovich Kurpayanidi

Professor, Farg'ona politexnika instituti,
O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona shahar.
antinari@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada aholining ijtimoiy qatlamlarining iqtisodiy zaifligi muammosi ko'rib chiqiladi, ularni moddiy qo'llab-quvvatlashni yaxshilash va barqaror daromad manbalarini yaratish strategiyalari o'rganiladi. Ijtimoiy dasturlarni kengaytirish, ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish, mikromoliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik kabi turli xil yondashuvlar tahlil qilinadi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, ijtimoiy zaiflik muammolarini hal qilish uchun keng qamrovli yondashuv zarur bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri yordam va uzoq muddatli o'zini o'zi ta'minlash choralari o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, moddiy qo'llab-quvvatlash, mikromoliyalashtirish, ta'lim va ko'nikmalar, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy zaiflik, barqaror daromad manbalari, qo'llabquvvatlash strategiyalari, barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik.

PRIORITIES FOR IMPROVING THE SYSTEM OF MATERIAL SUPPORT FOR SOCIALLY VULNERABLE POPULATION GROUPS AND FORMING THEIR PERMANENT SOURCES OF INCOME

Vosijon Ismoiljonov Jamshid ugli

1st-year student of the Economics Faculty, Ferghana Polytechnic Institute, Republic of Uzbekistan, Ferghana.

abduvasid710@gmail.com

Shokhrukhbek Mukhiddinovich Mamadzhanov

1st-year student, Faculty of "Production Management,"

Fergana Polytechnic Institute,

Fergana, Uzbekistan delovoishohrux@gmail.com

Konstantin Ivanovich Kurpayanidi

Professor at the Department of Economics, Ferghana Polytechnic Institute, Republic of Uzbekistan, Ferghana city.

antinari@gmail.com **Annotation.**

This article addresses the issue of economic vulnerability among social strata, exploring strategies to enhance their material support and establish stable income sources. Various approaches are analyzed, including expanding social programs, advancing education and skills, microfinancing, and public-private partnerships. Based on the gathered data, the necessity of a comprehensive approach to tackling social vulnerability issues is emphasized, encompassing both immediate assistance and measures for long-term self-sustainability.

Key words: public-private partnership, material support, microfinancing, education and skills, social integration, social vulnerability, stable income sources, support strategies, sustainable development, economic stability.

Введение. На сегодняшние дни в современном мире социально уязвимые слои населения включая пожилых людей, инвалидов, безработных и малообеспеченных семей, часто сталкиваются с серьезными экономическими трудностями, которые в свою очередь негативно сказываются на их качестве жизни и затрудняют их социальную интеграцию. При таком положении удовлетворение потребностей социально уязвимых слоев населения путем улучшения систем материальной поддержки и создания стабильных источников дохода играет ключевую роль в решении экономических проблем таких как расслоение населения на классы или простое существование определенного количества людей во вред бюджету государства. Основная цель данного исследования заключается в выявлении и анализе наиболее эффективных стратегий, направленных на поддержку этих групп, обеспечение их экономической стабильностью и снижение их зависимости от временной помощи. В рамках исследования рассматриваются как существующие инициативы, так и новые подходы, которые способствуют долгосрочной финансовой безопасности и самостоятельности социально уязвимых слоев населения.

Исследование определяет ряд ключевых стратегий, направленных на усиление материальной поддержки и обеспечение стабильных источников дохода для социально уязвимых категорий населения. Ниже приведены несколько из них:

1. Улучшение социальных программ:

- Увеличение объема и охвата социальных программ для обеспечения адекватной финансовой помощи и доступа к необходимым услугам. Например введение программы субсидий на оплату коммунальных услуг для малообеспеченных семей, которая позволяет снизить их ежемесячные расходы и высвободить средства для других необходимых расходов. Также можно добавить помощь в виде ваучеров на продукты питания и медикаменты.

2. Образование:

- Реализация программ обучения и образования для повышения трудоспособности и предоставления возможностей для получения стабильного дохода. Открытие бесплатных центров профессионального обучения для безработных, предлагающих курсы по востребованным специальностям, таким как информационные технологии (IT), ремонт бытовой техники, роботостроение и т.п. Дополнительно можно организовать курсы финансовой грамотности и предпринимательства, что в свою очередь улучшит качество использования и обращения денег.

3. Микрофинансирование и поддержка предпринимательства:

- Создание программы микрозаймов с низкими процентными ставками для предпринимателей в сельских районах, что позволит им открыть собственные небольшие предприятия, такие как магазины, ателье или пекарни, а также можно включить консультации по бизнес-планированию и маркетингу для новых молодых предпринимателей.

4. Государственно-частное партнерство:

- Поощрение сотрудничества между государственным и частным секторами для создания новых рабочих мест и предоставления ресурсов для уязвимых групп. Разработка совместных проектов с крупными корпорациями, которые включают создание учебных центров и программ стажировок, предоставляющих уязвимым слоям населения возможность получить практический опыт и найти работу. Кроме того, можно организовывать ярмарки вакансий и карьерные мероприятия с участием местных предприятий.

5. Базовая поддержка:

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2016 yil 13 aprel. № O'RQ-404.
2. Данилевский Ю.А., Шапигузов СМ., Ремизов Н.А., Старовойтова Е.В. Аудит. Учеб. пособие. 2-е изд. перераб. и доп. - М.: Издательский дом ФБК-ПРЕСС, 2002.
3. R.D.Dusmuratov, Sh.N.Fayziyev, A.A.Karimov, -T.: Audit / 2010. 268 bet.
4. Vahobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati, 2005 yil, 292-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati milliy standartlari" to'plami, T.: -O'zBAMA, 2012y.

O'ZBEKISTON MILLIY STATISTIKA TIZIMINING AYRIM MUAMMOLARI: TAHLIL VA TAVSIYALAR

Fozilov Hayotbek Raximovich,

Farg'ona politexnika instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedresi, katta o'qituvchi, email: hayotbek.fozilov@ferpi.uz, +998 90 291 21 44.

Yusupova Nigoraxon Bahromjon qizi,

Farg'ona politexnika instituti, 72b-20 I guruhi talabasi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston milliy statistika tizimi, uning o'tmishi, rivojlanish bosqichlari, prinsiplari, hamda raqamli iqtisodiyot sharoitidagi ahamiyati, statistika tizimini rivojlantirishdagi ayrim muammo va kamchiliklar, shuningdek, ularni bartaraf qilish yo'llariga batafsil to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, statistika, uning prinsiplari, mustaqillik, shaffoflik, maxfiylik, dolzarblik, aholini ro'yxatga olish, milliy bo'lylik.

Statistika raqamlardan iborat, ha u asosan raqamlar bilan ishlaydi. Unga asosan sonlar, raqamlar ularning o'zgarishi dinamikasiga albatta hisob-kitoblar asosida baho beriladi. Bir so'z bilan aytganda har kunlik hayotimizning o'zi ham bevosita raqamlar bilan bog'liq. Raqamli iqtisodiyot noldan boshlangan butunlay yangi iqtisodiyot deyish o'rinli emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Masalan, xaridorga biror bir buyum kerak bo'ldida, aytaylik uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlab va naqd pulga sotib oldi, bu an'anaviy iqtisodiyot. Shuni telegramdagi biron savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lasa va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olsa, bu – raqamli iqtisodiyot deyiladi. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot

ichidamiz, uning qulayliklaridan deyarli har kuni foydalanamiz. Masalan, oyliklarning plastik kartalarga tushishi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lovlar qilish, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshirish, kartadan kartaga pul o'tkazish, uyga taom buyurtma qilish va hokazo.

Dastlab ana shu raqamlardan iborat bo'lgan statistika haqida, uning bugungi kuni, barcha talablarga javob berishi, aniqroq aytadigan bo'lsak statistika amalda barcha printsiplariga mos keladimi yoki yo'qmi? –degan o'rinli savolga javob berib o'tsak.. Statistikaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- mustaqillik;
- tushunarlik va shaffoflik;
- aniqlik va ishonchlik;
- beg'arazlik va xolislik; -statistik maxfiylik; -dolzarblik.

Davlat va jamiyat boshqaruvida qarorlar qabul qilish jarayonlarini miqdoriy va sifatli ko'rsatkichlar bilan ta'minlashda statistika tizimining ahamiyati va o'rni beqiyos [1].

Bundan tashqari, parlament nazoratini samarali amalga oshirish, qonun hujjatlarini qabul qilishda ham statistik ma'lumotlarga tayaniladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida statistika davlat, jamiyat va biznesni obyektiv, ishonchli hamda shaffof ma'lumotlar bilan ta'minlovchi umummilliy manba sifatida shakllanishi kun tartibida eng dolzarb masala sifatida turibdi. Sir emaski, bugungi kunda, statistik ma'lumotlardan jamiyatning barcha a'zolari to'liq va cheklovlarsiz foydalanishi, statistikaning ijtimoiy ne'mat sifatida shakllanishi uchun ma'lumotlarning ochiq va ishonchli bo'lishiga talab tobora kuchayib bormoqda.

Sohada sanab o'tish joiz bo'lgan kamchiliklar ham bor albatta. Ularning ayrimlariga to'xtalib o'tsak. Ushbu kamchiliklardan biri bevosita aholi statistikasi xususan aholini ro'yxatga olish tadbirlari bilan bog'liqdir.

Aholini ro'yxatga olish – bu mamlakat aholisining muayyan vaqtdagi “fotosurati”ni olish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko'lamli tadbir bo'lib, aholi soni va tarkibi to'g'risidagi ishonchli axborot manbai hisoblanadi. Agar ushbu tarif to'g'ri bo'ladigan bo'lsa nima uchun mustaqilligimizga 30 yildan oshayotgan bo'lsada bu tadbir amalga oshirilmagan. Yoki biz ushbu tadbirga ketadigan mablag'ni tejab, biror bir undan-da foydali va muhimroq bo'lgan sohalarni rivojlantirish bilan bandmizmi? Negadir O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish ishlari oxirgi marotaba 1989 yilda amalga oshirilgan xolos [5,6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5655sonli Farmoniga ko'ra 2022 yilda aholini ro'yxatga olish o'tkazilishi nazarda tutilgan edi. Farmonda keltirilishicha, mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish o'tkazilmagan. Respublikamizda demografik jarayonlarning holatini o'rganishda mamlakat hududida o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarga ko'ra, O'zbekiston hududida dastlabki aholi ro'yxati 1897 yilda o'tkazilgan bo'lib, ushbu ro'yxat ma'lumotlari XIX asr oxirida O'zbekistonda mavjud oilalar soni, aholi soni, yoshi va jinsi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam bergan .

Yana bir ma'lumot statistikada O'zbekiston Respublikasi milliy boyligining hajmi 1991 yil 1 sentyabrdan hisoblana boshlangani ta'kidlab o'tiladi. Lekin manbalarda na 1991 yilgi va na hozirgi davrdagi milliy boylikning hajmi haqidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Bu nimadan dalolat beradi ?. Bu ko'rsatkichlarni hisoblashga, uni keng ommaga haqqoniy va shaffoflik prinsipida yetkazib berilishiga nima to'sqinlik qiladi?-degan o'rinli savol barchani qiynab kelmoqda. Fikrimizcha, statistika yuqorida sanab o'tilgan barcha prinsiplarga amal qilgan holda yuritilishi shart [6]

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda so'nggi yillarda statistika tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 31 iyuldagi PQ-3165-son va “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2019 yil 9 apreldagi PQ-4273-son qarorlari, 2021 yil 11 avgustda “Rasmiy statistika to'g'risida”gi O'RQ-707-son Qonuni qabul qilingan.

Natijada, statistika tizimida bir qator ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

Jumladan:

- inflyatsiyani hisoblash usuli xalqaro standartlarga moslashtirilib, kuzatuvdagi tovarlar tarkibi 334 tadan 2020 yildan boshlab 510 taga kengaytirildi;

- oltin zaxirasi, tabiiy boyliklar, Davlat byudjeti va tashqi qarz haqidagi ma'lumotlar ochiq e'lon qilinmoqda;

- Jahon bankining statistika salohiyati indeksida O'zbekiston ko'rsatkichi 2021 yilda 67,8 ballgacha ko'tarildi va 154 davlat orasida 67 o'ringa ega bo'ldi;

- Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlarni tarqatish umumiy tizimi doirasida axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi;

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining "UN Comtrade" xalqaro tashqi savdosi axborotlar bazasiga qo'shilishi ta'minlandi.

Shu bilan birga, sohada axborotlarning umumiy foydalanish uchun ochiqlik holati, ochiq ma'lumotlarning oshkorlik va sifat darajasi, ularni fuqarolarga va jahon hamjamiyatiga yetkazishning amaldagi mexanizmlari qabul qilingan xalqaro talablarga to'liq javob bermasligi kabi bir qator muammolarning mavjudligi mamlakatimizning statistika salohiyati indeksidagi o'rni pastligiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunga kelib statistika tizimida ham avtomatlashgan tizimdan keng foydalanilmoqda. Masalan, EXCELL dasturidan foydalanib korxonalar, moliya, bank, sug'urta, statistik tahlil va boshqa barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga avtomatlashgan chizmalar, grafik va diagrammalar asosida baho berilmoqda. 1S dasturining joriy qilinishi ham buxgalteriya hisobidagi yana bir muvaffaqiyatdir. Shunday ekan, statistik tadqiqotlarni amalga oshirishning murakkabligini kamaytirish va ma'lumotlarning obyektivligini, haqqoniyligi va shaffofligini oshirish uchun ma'lumotlarni birlamchi ro'yxatdan o'tkazishni mashinalarga o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Axborotga qo'yiladigan talablardan biri buxgalteriya hisobi va statistik ma'lumotlarining birligi. Birlamchi hujjatlar birlashtirilgan bo'lishi kerak.

Kompyuterlar nafaqat odamni, menejment, iqtisodiyot, statistika yoki buxgalteriya hisobidagi muntazam ma'lumotlarni qayta ishlashdan ozod qiladi, balki ularning asosida yangi axborot va texnologik qarorlar qabul qilish bazasi shakllanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar kompyuter modellashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayni paytda dasturiy ta'minotning yangi versiyalari, statistik tizimning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish tizimlari tobora ko'payib bormoqda, yangi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bunga statistiklar, iqtisodchilar va dasturchilar-ishlab chiquvchilarning birgalikdagi faoliyati yordam beradi [3,4].

Statistika tizimidagi ushbu muammolarni bartaraf etish amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlashda, mamlakatimiz nufuzi va investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashda, jahon hamjamiyati oldida rivojlanishning ochiqlik prinsiplarini namoyish etishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Sohada xorijiy davlatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, AQSh, Germaniya va Hindiston kabi iqtisodiyoti rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarning statistika tizimi bir necha alohida mustaqil organlardan tashkil topgan. Ushbu organlar faoliyati o'zaro uzviylikda va uyg'unlikda amalga oshirilib yagona tizimni tashkil etadi. Misol uchun, AQShda Sog'liqni saqlash statistikasi milliy markazi, Ta'lim statistikasi milliy markazi, Mehnat statistikasi byurosi kabi 9 dan ortiq statistik organlar o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritib yagona federal statistika tizimini tashkil etgan[5].

Fikrimiz nihoyasida shuni aytish mumkinki, milliy statistika tizimini rivojlantirish o'z navbatida mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jabhalarida barqaror rivojlanishni ta'minlashda, amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning natijadorligini aks ettirishda hamda mavjud kamchiliklarni belgilab olish va istiqbolda ularni samarali bartaraf etishda xizmat qiluvchi ko'zgu sifatida namoyon bo'ladi. Shaffof, ochiq va ishonchli statistik ma'lumotlarning mavjudligi mamlakat ravnaqining va unda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-707-son.2021 yil 11 avgust.
2. Fozilov H.R. Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy statistika tizimidagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. FarPI, ilmiy-texnika jurnali 10-son 235-238 b.

3. Fozilov H.R. O'zbekiston milliy statistika tizimini takomillashtirish masalalari. FarPI, ilmiy-texnika jurnali 13-son 257-260 b.
4. Jumaev.N. / Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi? / <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>.
5. Rakhimovich, Fozilov Ibromkhon, and Fozilov Hayotjon Rakhimovich. "ASPECTS OF DEVELOPMENT OF ECONOMIC ANALYSIS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY." life 2.15: 17.
6. Фозилов, Х. Р., & Фозилов, И. Р. (2020). Экономический анализ и его роль в управлении предприятием. Вопросы управления и экономики: современное состояние актуальных проблем (pp. 16-19).

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI BANDLIGI MUAMMOLARINI BARTARAF ETISHDAGI VAZIFALARI

Taylakova Dilafro'z Baymamatovna Innovatsion iqtisodiyot kafedrasida
assistenti taylakovadilafroz7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish jarayonida aholi bandligini oshirishda qishloq xo'jaligi va qishloq mahsulotlarini ishlab chiqish va sotish, mahalliy hunarmandchilik, pazandachilik an'analari va barqaror turizm, xizmat ko'rsatish turlari, shuningdek, yuqoridagi tuzilmalarni innovatsion rivojlantirishning zamonaviy va yagona yo'li ilm-ma'rifat hisoblanib, u orqali qishloq joylarini raqamlashtirish ishlari qishloq infra tuzilmasining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadigan vazifalar orqali bir qancha muammolarni bartaraf etish yo'llari ifodalangan.

Kalit so'zlar: qishloq joylarda, xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jaligi, aholi bandligi, infratuzilma.

Qishloq joylarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish ko'plab mamlakatlar qatori bizning mamlakatimizda ham dolzarb vazifa sanaladi.

Jahon banki hisobotlaridagi ish bilan band dunyo aholisining alohida mezonlar bo'yicha tahlili – bandlarning 61 foizi norasmiy bandlardan iboratligi, 52 foizigina mehnatiga haq to'lanuvchi bandlar ekanligi, 26 foiz bandlar aholining o'ta va o'rtacha qashshoq qismini tashkil etishi to'g'risidagi ma'lumotlar mehnat bozoridagi bandlik holatini o'rganish va tahlil etish asosida uni tartibga solish hamda boshqarish jarayonlarida bandlikning zamonaviy xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olish lozimligini ko'rsatmoqda. Munosib ish o'rinlarini yaratish, qishloq joylarida iste'qomad qilayotgan doimiy aholi farovonligini oshirish mamlakatimizning asosiy vazifasidir. Chunki, qishloq joylarda yashayotgan doimiy aholi soni Respublika doimiy aholi soniga nisbatan deyarli 50 foizini tashkil etmoqda. Aksariyat qishloq joylarida daromad va ish joyining yo'qligi, yerning yo'q bo'lib ketishi va yerdan voz kechish, shuningdek, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish iqtisodiy hayotning tubdan yo'qolishiga, hayot sifatining pastligiga, kam ishlov beriladigan yerlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Qishloq joylarini iqtisodiy diversifikatsiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturi qishloq joylarida iqtisodiy diversifikatsiya va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni qo'llab-quvvatlash uchun qishloq joylarining imkoniyatlari yetarli emasligidir. Bunday hollarda qishloq joylarini rivojlantirish siyosati va vositalarini uyg'unlashtirish va moslashtirish uchun asosiy rag'batlantirish mexanizmini to'g'ri tanlash zarur.

Bunday mexanizmlarga tanlangan qiymat zanjiri va qishloq joylari mintaqalariga mos barqaror biznes modellari ishlab chiqish yuqori ahamiyat kasb etadi. Xususan, qishloq xo'jaligi va qishloq mahsulotlarini ishlab chiqish va sotish, mahalliy hunarmandchilik, pazandachilik an'analari va barqaror turizm, xizmat ko'rsatish turlari, shuningdek, yuqoridagi tuzilmalarni innovatsion rivojlantirishning zamonaviy va yagona yo'li ilm-ma'rifat hisoblanib, u orqali qishloq joylarini raqamlashtirish ishlari qishloq infra tuzilmasining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

X.Rindermann, M.Seyler va J.Tompsonlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida ijtimoiy taraqqiyotning omillariga e'tibor qaratgan. Xususan ular, aql va bilimga asoslangan omilni alohida tadqiq etishgan. Ularning xulosasiga ko'ra, xalqning (IQ, intelligence quotient – intellekt darajasi) intellekt darajasi koeffitsiyenti bir punktga oshishi YAIMning kishi boshiga 229 AQSH dollarga, eng yuqori intellekt egalarning 5 foizi doirasida esa 468 AQSH dollarga ortishini asoslab berganlar[1].

Qishloq aholisining bandligini oshirishda unumli daromad manba yaratilishi, yer resurslaridan samarali foydalanish qishloq joylar uchun mavjud resurs bo'lib yuqori natija beradi. M.D.Maxsudovning ilmiy xulosasini to'ldirib, qishloq joylarida aholining mavjud tomorqa xo'jaligi, yer resursining muhim omil ekanligini ko'rsatadi. M.D.Maxsudov o'zining ilmiy maqolasida bozor munosabatlari sharoitida yer resurslaridan foydalanish va boshqarish bozor mexanizmiga mos holda amalga oshirilishi, yer toifalari va yer turlari tuman, mintaqa, viloyatlar xududida tarqoq va o'zaro turli nisbatlarda taqsimlanishi, bunday sharoitda yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning tarmoqlar va tarmoq ichidagi yer taqsimoti masalalarini xalq etishda ma'muriy-xududiy xususiyatlarini inobatga olish muhim sanaladi[2]. – deb ta'kidlaydi.

1-jadval

Xodimlarning mehnat salohiyatini belgilovchi omillar[3]

№	Xizmat ko'rsatish sohasi xodimining salohiyatini belgilovchi omillar	Ishlab chiqarish sohasi xodimining salohiyatini belgilovchi omillar
1	Professionallik	Professionallik
2	Ijodkorlik	Tezkorlik
3	Shijoatlilik	Jismoniy qobiliyat
4	Chaqqonlik	Chaqqonlik
5	Hushyorlik	Hushyorlik
6	Mulozamat	Tizimlilik
7	Iltifot	-
8	Innovatorlik	-
9	Kelishuvchanlik	Sinchkovlik
10	Tashabbuskorlik	-
11	Hatti-harakati	Hatti-harakati
12	Aql, idrok, intellekt	Aql, idrok, intellekt

1-jadval shundan dalolat beradiki xizmat ko'rsatish sohasi xodimining salohiyatini belgilovchi omillarda "Ijodkorlik" juda muhim faktor hisoblanadi. Masalan, satarosh mijozlarning soch turmaklarini shakllantirishda hoxish istaklarini inobatga oladi va asta-sekin uni amalga oshiradi. Demak, u o'sha vaqtdan ijod qilishni boshlaydi. Xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining "Tezkorlik" xususiyati mijozlarga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi "Tezkorlik" vaqt omiliga bog'liq bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mijozlarning har biriga alohida e'tibor berish orqali "Mulozamat" ko'rsatadi. Bu omil mijoz va xodim munosabatining yorqin namunasi sifatida gavdalanadi. Masalan, taksi, umumiy ovqatlanish va satarosh xizmatlarida mijoz hoxishiga ko'ra musiqa qo'yish, mijozlar navbat kutib qolganida choy, kofe kabilar orqali mijoz ko'nglini olishda namoyon bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari bunday usullardan unumli foydalanishi mijozlarning ortishiga xizmat qiladi. Bunday omillardan yana biri "Iltifot" omilidir. Bunda xodim mijozlarning hoxish-istaklarini yanada jozibadorligini oshirishga qo'shimcha munosabatga kirishishini nazarda tutadi. Masalan, sataroshxonada sochini oldirgan mijozga atir sepib qo'yish, ximchistkalarda kiyim yuvib berishda narxini arzon qilish, ko'proq kiyim bo'lsa ba'zilarini bepul qilish, ularni qadoqlab berish kabilarini aytish mumkin. "Innovatorlik" bu omil xizmat ko'rsatish sohasi xodimining ulkan yashirin imkoniyatlarini, ish faoliyat bilan bog'liq yangiliklarni qo'llay olishini nazarda tutadi. Yuqoridagi omillarni to'ldiradigan kategoriyalar sirasiga "Tashabbuskorlik" omilini ham aytishimiz mumkin. Bunda xizmat ko'rsatish sohasi xodimi mijozga munosib kutilmagan xizmatlarni taklif etishida namoyon bo'ladi. Masalan, taksi xaydovchisi mijozga yo'llar tirbandligini inobatga olib tirband bo'lmagan yo'llar orqali belgilangan vaqtda mijozni manzilga yetkazish kabilarini aytishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish sohasi xodimining salohiyatini belgilovchi omillarda "Professionallik" bo'lishi zarur.

Shu

sababdan ikki omilga ham uni kiritdik. Bu omilga xodimning yuqori mahorat imkoniyati orqali o'zini namoyon etishini aytishimiz mumkin. Ishlab chiqarish sohasi xodimida "Jismoniy qobiliyat" omili muhim faktorlardan biri sifatida gavdalanadi. Bu omil orqali ishlab chiqarishda band xodim ko'proq jismoniy mehnat bilan vazifalarni bajaradi. Masalan, yuklarni tushirishi yoki ortishini aytishimiz mumkin. Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda xodim ma'lum tartibga keltirilgan vazifalarni bajaradi. Bunday vazifalarni bajarishi "Tizimlilik" omili deb ataladi. Bu omil qadoqlanayotgan tovarlarni qachon qadoqlash, apparatga xom-ashyoni qachon qo'yish, o'z vaqtida olish kabilarda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish sohasida band xodim "Sinchkovlik" omilida o'zining salohiyatini namoyon etadi. Masalan, xodim tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida uning sifatini buzib qo'ymasligi, tovar sifatiga kutilmagan qanday omillar ta'sir etishi mumkinligi, texnikaning to'g'ri ishlayotganini nazorat qilishi kabilarda namoyon bo'ladi. Shu sababli ishlab chiqarish sohasida band xodimdan sinchkov bo'lishi zarur sanaladi.

2-jadval Soha

xodimlarining salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar[4]

№	Omillar
1	Ish haqi
2	Investitsiya
3	Innovatsiya
4	Ta'lim sifati
5	Raqobat muhiti
6	Texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi
7	Korxonalar rahbarining munosabati
9	Jamoa muhiti

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki xodimlarning salohiyatini oshirishga ushbu omillar yuqori ta'sir etadi. Ishchi xodimlar doimo oylik maoshlari yuqori bo'lishini istaydi agar ularga yuqori ish haqqi to'lanadigan bo'lsa xodim ish o'rnini yuqotishdan qo'rqadi va o'z ustida doimo ishlashga intiladi.

Hozirgi kunda qishloq joylarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, hududlarga asoslangan rivojlanish yondashuvida ilgari belgilangan chora-tadbirlarga asoslanadi. Qo'llab-quvvatlash davlatning turli maqsadli dasturlar orqali amalga oshiriladi, aholi va xususiy sektorning tegishli manfaatdor tomonlariga maqsadli investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy zaxiralarni yaxshilash orqali qishloq joylarida xizmatlar tovar va mahsulotlarning qo'shimcha qiymat zanjirining oshishiga olib keladi. Bu esa qishloq aholisining ish bilan bandlik darajasiga ijobiy ta'sir etadi.

Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini va aholi bandligini nazariy va amaliy tadqiq etish natijasida bir qator xulosalar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Xizmat ko'rsatish sohasi nazariyasi kishilik jamiyatining dastlabki bosqichidan boshlab taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etganligi uning ibtidoiy jamoa davriga borib taqalgan degan xulosaga kelindi va ilmiy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Абалкин Л.И. Курс переходной экономика. -М.: Финстатинформ, 1997г.-640 с.; Буздалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепция, опыт, перспективы).-М.,2000. -325с. Rindermann H., Sailer M., Thompson J. The impact of smart fractions, cognitive ability of politicians and average competence of peoples on social development//Talent Development & Excellence, 2009. - №1(1). - pp.3-25.

"Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorligini taminlash: muammolar, tahlillar va natijalar" 2020 yil 30 aprel 568-bet.

К.Р.Макконнелл, С.Л.Вруч, Экономика.- Принципы, проблемы и политика. /В 2 –х томах. Пер.с англ. – Таллин. Римол. 1993 г.,Т.1.-398 с.;

Котлер Ф. Основы маркетинга. -М.:Прогресс, 1992.- 734 с.; Самуэльсон П. Экономика. - М.,1992. Т.2.; Хоскинг А., Курс предпринимательства. – М.: Международные отношения,1993г.– 478 .

6. Чужинов П.И., Петренко И.Я. Экономика сельскохозяйственного производства. Алма-ата: Кайнар, 1992г. -560сО'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Taylakova Dilafro'z Baymamatovna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti taylakovadilafroz7@gmail.com

+99890 672 32 25

Аннотация

Ushbu maqolada iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishining jihatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, boshqa sohalar va sanoat tarmoqlari orasida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar, takliflar va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch iboralar: *Qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, xizmatlar sohasi, dexqon va fermer xo'jaliklari, raqamli iqtisodiyot.*

Аннотация

В данной статье показаны аспекты быстрого развития сферы услуг в развитии аграрной экономики среди других секторов и отраслей экономики. Также представлены выводы, предложения и рекомендации по повышению эффективности быстрого развития сектора услуг среди других секторов и отраслей экономики.

Ключевые слова: *Сельское хозяйство, услуги, сфера услуг, фермеры и фермерские хозяйства, цифровая экономика.*

Abstract

This article shows the aspects of the rapid development of the service sector in the development of the agricultural economy among other sectors and industries of the economy. It also presents conclusions, proposals and recommendations to improve the efficiency of the rapid development of the service sector among other sectors and industries.

Keywords: *Agriculture, services, services sector, farmers and farms, digital economy.*

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ichida jadal rivojlanishi bilan ajralib turibdi. Mamlakatimiz ishlab chiqarish va intellektual salohiyatining yarmidan ortig'i muayyan tarzda bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liqdir. Qishloq xo'jalik mahsuloti mamlakatga valyuta tushumlarining 55 foizidan ortig'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaning iqtisodiy jihati xizmatlar sohasi bilan o'zaro bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi samaradorligini oshirishning metodologik muammolarining ayrim nazariy va uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar – K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, F.Kotler, P.Samuelson, A.Xosking[1] tomonidan izlanishlar olib borilgan va o'rganilgan.

Ushbu sohaning u yoki bu yo'nalishlariga oid tadqiqotlarni Hamdo'stlik mamlakatlari olimlari – L.I.Abalkin, I.N.Buzdalov, I.Y.Petrenko, P.I.Chujinov [2] va boshqalarning asarlarida ham uchratish mumkin. Aynan shu soha bilan bog'liq masalalar mamlakatimizning yetuk iqtisodchi A.K.Ismoilov, A.M.Jo'rayev, P.R.Po'latov, M.T.Rizayev, N.Tuxliyev, S.N.Usmonov, A.S.Samutali, Q.A.Choriyev, Q.A.Xasanjonov, R.H.Husanov, F.Q.Qayumov, A.A.Shokirov va boshqa olimlar tomonidan ham ilmiy asar va maqolalarida samarali izlanishlar olib borilgan va chuqur o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko'rsatish sohalarida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi"[3] shu boisdan barcha turli tashkilotlarda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish qolaversa, qishloq xo'jaligida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash lozim. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining

mutanosibligi va barqarorligini ta'minlashda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish natijasida, mamlakatda qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi hamda aholining turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Xizmatlar sohasi aslida korxonalar, tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan jamlanma soha hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida xizmatlar sohasi juda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qishloq xo'jaligi - bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan muhim tarmoq hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholi uchun turmush sharoitini yaxshilashni ta'minlaydigan daromadlar manbai va tabiiy resurslarni boshqarishning asosi bo'lib, qishloq turmush tarzini saqlab turishga o'zining munosib hissasini qo'shadi. Shuning uchun ham Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini yuksaltirish va aholi turmush darajasini oshirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ahamiyati katta. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotga asoslanib, zamonaviy texnik – texnologiyalar va turli xildagi maishiy xizmatlar sohasidagi bir qancha muammolarni hal etish muhim masaladir.

Qishloq xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta va o'z ahamiyatga egadir. Chunki ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir. Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, konsalting va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Bizga ma'lumki, hozirgi vaqtda har birimiz deyarli har kuni xizmat ko'rsatish sohasi bilan yuzlanamiz. Demak xizmatlar sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida bu masala ham alohida nazarda tutilgan. Dastur doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar esa ushbu sektorda biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada qulaylashtirishga qaratilgan. [4]

Xizmat ko'rsatish sohasining yuqori darajada o'sishini bir qator omillar ta'siri bilan izohlash mumkin, jumladan: mamlakatimizda zamonaviy yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi ya'ni bugungi kundagi raqamli iqtisodiyotdan foydalangan holda, kredit kartalari orqali uyali aloqa, internet, savdo, ko'ngilochar markazlar, umumiy ovqatlanish joylari, go'zallik salonlari, konsalting xizmati, tibbiy va o'quv markazlari xizmatlaridan, turli transport vositalaridan foydalanib, elektron (onlayn ilova orqali) to'lov xizmat turidan foydalanib kelmoqdamiz. Bu barcha xizmat turlari xizmatlar sohasi tushunchasini tashkil etadi. Xizmatlar sohasi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida paydo bo'lib, jamiyatning davlat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi kabi xizmat turlarini o'z ichiga olgan.

1-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi *[5] (mlrd.so'm hisobida)

Kÿpcatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Xizmatlar – jami	97 050,0	118 811,0	150 889,8	193 697,8
Shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:				
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	6 306,8	8 196,7	10 332,6	10 891,7
moliya xizmatlari	9 898,4	15 023,8	21 296,3	34 036,6
transport xizmatlari	30 617,8	36 217,2	44 159,4	54 473,5
shu jumladan: avtotransport xizmati	19 216,7	20 232,9	21 786,8	25 527,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 038,7	3 649,6	4 673,3	5 933,6
savdo xizmatlari	27 368,2	32 006,9	39 743,4	48 748,2

ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 405,1	4 026,5	4 949,2	5 950,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 263,0	4 402,0	5 416,5	7 164,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 416,3	1 701,5	2 220,0	3 104,3
ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	2 270,1	2 589,2	3 297,4	3 733,5
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2 187,8	2 329,2	2 630,7	3 200,1
shaxsiy xizmatlar	2 915,5	3 134,4	3 700,6	4 575,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 132,6	1 611,7	2 953,6	4 543,1
boshqa xizmatlar	3 229,7	3 922,3	5 516,8	7 342,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 2020 yilda 97 050,0 mlrd.so'm, 2021 yilda 118 811,0 mlrd.so'm, 2022 yilda 150 889,8 ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 193 697,8 mlrd.so'm ga o'sgan. mamlakatimizda transport (54 473,5 mlrd.so'm) va savdo (48 748,2 mlrd.so'm) sohasida ko'rsatilgan xizmatlar eng yuqori ulushga ega. Eng past ulush esa sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (3 104,3 mlrd.so'm). Lekin 2023 yilda 2022 yilga nisbatan eng yuqori o'sishga erishgan xizmat turi sifatida moliya sohasida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish mumkin (34 036,6 mlrd.so'm). Shu bilan bir qatorda eng past o'sish sur'ati savdo sohasida ko'rsatilgan xizmatlarda kuzatilgan (48 748,2 mlrd.so'm).

Xizmatlar ko'rsatish sohasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligi o'sishining muhim omili hisoblanadi. Xom-ashyo, material va tayyor mahsulotning o'z vaqtida va meyorida yetkazib berilishi, tezkorligi xo'jalik aylanmasida bo'lgan resurs hajmini belgilaydi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar obyektlarining joylashganligi (asosan tuman markazlarida), qo'llaniladigan texnologiyalar, xizmat ko'rsatish tariflarining yuqoriligi, monopol xolati va boshqa sabablar natijasida fermerlar ularning xizmatidan to'liq foydalanmasliklariga sabab bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti talab, taklif, raqobat va baho asosida xarakatga kelmoqda. Shuning uchun qishloq xo'jaligida ham dexqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning tashkil topishi va joylashishi dexqon va fermer xo'jaliklarining talabi va taklifi asosida tashkil topadi. Hozirda mamlakatimizning ko'pgina tumanlarida dexqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ularning talablaridan kelib chiqib emas, balki aksincha yoki kerakli xududda joylashmagan yoki uzoqda joylashgan bo'lib, bu xolat dexqon va fermer xo'jaliklari bilan ularga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy, tashkiliy va xuquqiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Agar xududlarda xizmat ko'rsatish korxonalari talab va taklif asosida tashkil etilsa, ular o'rtasida raqobat shakillanadi va o'z-o'zidan ularning sifati va xizmat narxini arzonlashishiga erishish mumkin. Bu esa, dexqon va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. К.Р.Макконнелл, С.Л.Вруу, Экономикс.- Принципы, проблемы и политика. /В 2 –х томах. Пер.с англ. –Таллин. Римол. 1993 г. ,Т.1.-398 с.;
2. Котлер Ф. Основы маркетинга. -М.:Прогресс, 1992.- 734 с.; Самуэлсон П. Экономикс. - М.,1992. Т.2.; ХоскингА., Курс предпринимательства. – М.: Международные отношения,1993г. – 478 с.
3. Абалкин Л.И. Курс переходной экономика. -М.:Финстатинформ, 1997г.-640 с.;

4. Буздалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепция, опыт, перспективы).-М.,2000. -325с.;
5. Чужинов П.И., Петренко И.Й. Экономика сельскохозяйственного производства. Алма-ата: Кайнар, 1992г. -560с
6. SH.M. Mirziyoyev “2019 yil – Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”. 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi –T.: Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr, № 271272
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari.

Internet saytlari.

www.stat.uz www.lex.uz

www.biznes-daily.uz

www.tsue.uz

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

Захирова Г.М.

Иқтисодиёт назарияси кафедраси катта ўқитувчиси ЎЗМУ

Жамиятнинг ривожланиши, ишлаб чиқариш қувватининг ўсиши натижасида хизмат кўрсатиш соҳаси муайян ривожланиб боради. Бу соҳада бандликнинг кўпайиши, меҳнатнинг техник жиҳозланиши, янада илғор технологияларни жорий этилиши кузатилади. Ҳозирги вақтда иқтисодиётнинг энг муҳим тармоқларидан бири бўлган хизматларнинг роли жуда катта ва долзарбдир. Бу ишлаб чиқаришнинг мураккаблашиши, бозорни кундалик ва индивидуал талабларни қондирувчи товарларига тўйинганлиги, илмий ва технологик тараққиётнинг жадал ўсиши билан боғлиқ бўлиб, натижада жамият ҳаётидаги янгиликларга олиб келади. Бундай ҳолатга ахборотли, молиявий, суғурта ва бошқа хизматларсиз эришиб бўлмайди. Бундан ташқари, хизматлар товарлар савдосининг ажралмас қисмидир (айниқса, техник жиҳатдан мураккаб бўлса), чунки товарларни сотиш тобора ривожланган тармоқни талаб қилади, бу эса асосан сотув ишларни амалга ошириш ва эгаларига етказишдаги кўрсатиладиган хизматларга боғлиқ бўлади.

Бир томондан хизматлар бозори, қадимдан пайдо бўлган фаолият деб таъкидлаш мумкин, чунки пул пайдо бўлиши билан, хизматларнинг унчалик кўп бўлмаган турлари пайдо бўлган (ёзувчилар, айғоқчилар, менежерлар, ошпазлар, ёлланган жангчилар, шифокорлар, фолбинлар, мунажжимлар ва б.). Бошқа томондан, ривожланган, замонавий шаклда хизмат кўрсатиш бозори яқинда пайдо бўлди ва ҳали ҳам фаол ривожланиш жараёнида десак муболаға бўлмайди.[1]

Жамиятнинг ривожланиши билан хизматларнинг янгидан янги соҳалари пайдо бўлди. Қадимги жамиятда деярли замонавий хизматларга мос келадиган транспорт, савдо, илм-фан, соғлиқни сақлаш, таълим, молия, маданият, дам олиш каби кенг кўламли хизматлар кўрсатилди. Фақат XIX-XX асрларда уларга нисбатан бирмунча янги турлар — алоқа, маркетингнинг айрим турлари, аудиторлик хизматлари қўшилди. XX асрнинг ўрталаригача хизматлар соҳаси ишчиларнинг жуда катта қисмини қамраб олсада, у нисбатан иккиламчи иқтисодий фаолият деб ҳисобланар эди, асосан паст даражадаги малакага эга бўлган ходимлар (айниқса, хизматлар кўрсатишнинг энг катта соҳаси бўлган савдо соҳасида) фаолиятидан иборат эди.

Айнан хизматлар соҳасининг иқтисодиётдаги паст роли туфайли XVIII асрдан XX аср ўрталаригача бу соҳадаги иш умуман жамият бойлигини кўпайтирмайди деб ҳисобланди. Хизматлар соҳасининг ривожланиш даражаси жуда паст бўлганлигининг асосий сабаблари давлат мулкисининг устуворлиги ва хизматлар соҳасини молиялаштириш қолдиқ принципи асосида амалга оширилганлиги бўлди. Хизматлар соҳасида барқарор ривожланиш XX асрнинг иккинчи ярмида нафақат ривожланган, балки ривожланаётган мамлакатларда ҳам кузатилди. Натижада хизматлар

соҳасининг кўлами кенгайди ва мамлакат ялпи ички маҳсулотининг (ЯИМ) катта қисмини эгаллади.[2]

Хизматлар соҳаси — саноат, қурилиш ва қишлоқ хўжалиги билан бир қаторда иқтисодиётнинг тўртта асосий таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Хизматлар соҳасининг ЯИМдаги улуши бўйича мамлакат иқтисодиётининг тараққиёт даражасини баҳолаш мумкин. Иқтисодий ривожланган мамлакатларда ЯИМ ўсишининг асосий қисми хизматлар соҳасига тўғри келади.

Мисол учун, 2020 йилда хизматлар соҳасининг ЯИМдаги улуши АҚШда 78 % ни, Европада 70 % дан ортиқни, Хитойда — 52,8 % ни ташкил қилган. МДХ давлатларида, масалан, Қозоғистонда бу кўрсаткич 52,6 %, Белорусда 48,2 % ни ташкил этган. Ўзбекистонда бу кўрсаткич 2021 йил январь-декабрь ойларида 42,6 % га тенг бўлди.[1]

Дунёда кузатилган пандемия, мамлакатларнинг иқтисодий ривожланишига, ўз навбатида ЯИМ ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қолмади. Жумладан, ЯИМ таркибида саноатнинг улуши 28,2 % дан 27,7 % га, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигининг улуши 27,7 % дан 27,5 % га, қурилиш тармоғининг улуши 7,3 % дан 7,0 % га камайган бўлсада, хизматлар соҳасининг улуши ўзгармай 42,3 % ни ташкил қилди.[2]

Хизматлар бозори — илгариги жисмоний товарлар ва хизматлар ягона бозоридан ажратилган бозор турларидан бири. Ушбу бозорда энг соддадан энг мураккаб хизматларнинг барчаси сотилади. Шу билан бирга, биз моддий товарлар бозори ва хизматлар бозорини бир-биридан ажратиш мумкин эмаслигини англаймиз, чунки хизматни сотиш (уни тақдим этиш) кўпинча жисмоний товарларни сотиш билан боғлиқ бўлиб, аксинча, уни сотиб олиш ва сотиш бўйича хизматнинг ўзи «товар» кўринишини олади, яъни товарга айланишини кузатамиз.

Хизматлар бозори турли хизматларни сотиб олиш ва сотиш билан боғлиқ ҳолда ишлаб чиқарувчилар ва хизматлар истеъмолчилари ўртасидаги иқтисодий муносабатларнинг йиғиндисидир. Хизматлар бозори товар ишлаб чиқариш ва муомалага қонунларига мувофиқ ташкил этилган алмашинув соҳасининг ажралмас қисмидир. [3]

Хизматлар бозори хизматлар учун талаб ва таклифни, пул эгалари бўлган ишлаб чиқарувчилари ва хизматлар истеъмолчиларини бирлаштирадиган тизим сифатида намоён бўлади. Бундан ташқари, хизматлар бозорининг роли ҳам товар-моддий бойликлар бозорини ривожлантиришга, аҳолининг турли эҳтиёжларини қондириш орқали қайта ишлаб чиқариш жараёнининг мувозанатини таъминлашга, ҳаёт сифатига мос келишига ёрдам беришда акс этади. Замонавий шароитда хизмат кўрсатиш бозорининг ривожланиш даражаси ва унинг тузилиши мамлакат рақобатбардошлигининг таъминлашдаги энг муҳим мезонларидан биридир. [4]

Хизматлар бозорини ва унинг фаолият юритиш амалиётини ўрганишда унинг ўзига хос бўлган томони, билимни ҳисобга олмасдан, турли хил хизмат турлари бўйича муваффақиятга эришиш мумкин эмаслигини кўрсатди.

Замонавий адабиётларда, хизматлар бозорининг қуйидаги хусусиятлари белгиланган: биринчидан, бозор жараёнларининг юқори динамикаси. Бу, хизматнинг сақланмаслик хусусиятига боғлиқ. Агар хизматлар «сақланиши» мумкин бўлмаса, истеъмол талабининг ўзгаришига тезкор жавоб сифатида, хизмат кўрсатиш фаолиятини доимий такомиллаштириш зарур бўлади; иккинчидан, даромад, нарх, истеъмол томонидан хизматнинг аҳамиятини (долзарблигини) субъектив баҳолаши, узоқ фойдаланиладиган товарлар билан таъминлаш; миллий анъаналар ва истеъмол хусусиятлари, турмуш тарзи ва бошқаларга қараб хизматларга бўлган талабнинг аниқ ажратилиши; учинчидан, истеъмол характеристикалари (горизонтал дифференциация) ва сифат даражаси (вертикал дифференциация) бўйича бозор маҳсулотининг ролида хизматни фарқлашнинг юқори даражаси; тўртинчидан, моддий товарлар бозорига нисбатан, хизматлар бозори янада аниқ ҳудудий сегментация ва маҳаллийлаштирилиш хусусиятга эга. Ҳақиқатан ҳам, хизмат кўрсатиш турларининг тузилиши, хизмат кўрсатиш шакли асосан «географик» омил (иқлим шароитлари, маълум бир ҳудудда мавжуд анъаналар, йирик марказлардан узоқлиги) билан белгиланади; бешинчидан, ишлаб чиқариш давомийлиги даври қисқалиги туфайли капитал айланмаси юқори даражасига етишиши. Хизмат фаолиятининг бу хусусияти хизмат соҳасидаги бизнеснинг асосий афзалликларидан бири сифатида инқироз ҳолатларида айниқса намоён бўлади; олтинчидан, хизматлар бозорига киришнинг нархсиз

тўсиқлари муҳим роль ўйнайди. Бу хусусият, асосан, ишлаб чиқарувчини танлашда хизматларнинг асосий истеъмолчилари, қоида тариқасида, нафақат нарх даражасига, балки нарх-наво омиллари — хизмат кўрсатишнинг ўзига хослиги, хизмат кўрсатиш сифати, замонавий ва хавфсиз технологияларнинг мавжудлиги (ёки аксинча, ноёб, деярли йўқолган «қўлда» технологияга содиқлик: масалан, китобларни қўлда ямаш, матоларни қўлда бўйаш, дўппидўзлик, сўзана тикиш ва ҳ.к.); офис интеръери, хушмуомалалик, иш жадвалининг қулайлиги ва бошқалар.[5]

Хизматлар бозори замонавий жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тобора катта роль ўйнамоқда, шунинг учун унинг ривожланишини белгилайдиган омилларни билиш муҳим ҳисобланади. Бу омиллар иқтисодий, психологикдан тортиб макроиқтисодий ва микроиқтисодий каби жуда хилма-хилдир. Улар қуйидагиларда намоён бўлади:

- тадбиркорлик учун, айниқса, кичик бизнес соҳасида қулай шарт-шароитлар яратиш, самарали солиқ тизимини яратиш, хизматлар ишлаб чиқаришда хусусий ва давлат секторларини пухта бирлаштириш орқали хизматлар бозорини ривожлантиришни рағбатлантиришга қаратилган давлатнинг макроиқтисодий роли;

- аҳолининг турли қатламларининг фаровонлик даражаси ва уларнинг даромадларининг ўсиши;

- ушбу бозорнинг «белгилари»ни эмас, балки, энг муҳими, хизматларнинг замонавий сифатини белгиловчи хизмат кўрсатиш фаолияти ва хизматлар бозорининг техниктехнологик таркибий қисмини ишлаб чиқаришни ривожлантириш ҳолати ва суръати

(кўплаб

хизматлар юқори технологияли кўринишга айланмоқда, масалан, уяли алоқа, таълим, тиббиёт, банк хизматлари ва б);

- етарли малакали мутахассислар, шу жумладан менежерлар, сотувчилар мавжудлиги. Кичик бизнесда банд бўлганларни тайёрлаш шакллариининг кенг тармоғи;

- анъаналар, менталитет. Улар жуда муҳимдир, чунки хизматлар бозорининг ҳолати, хизмат кўрсатиш тизими ва сифати асосан жамият маданиятининг даражаси, шу жумладан, хизмат кўрсатиш бозорининг барча субъектлари, умуман ижтимоий-маданий омилнинг ҳолати билан белгиланади.

Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришда барча соҳа ва тармоқлар билан бир қаторда хизматлар соҳаси ҳам алоҳида ўрин тутади. 2021-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳасини ривожлантириш дастурини амалга ошириш натижасида 2021 йилда хизматлар кўрсатиш ҳажми қарийб 20 фоизга ўсди. Худудларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, алоҳида ёндашувлар асосида хизматлар соҳасини ривожлантириш, тадбиркорлик субъектларини молиявий ресурслар ва инфратузилма билан таъминлаш ҳамда уларга қулай солиқ режимини жорий этиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

**Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича кўрсатилган хизматлар ҳажми
(млрд.сўм ҳисобида)[1]**

	2018	2019	2020	2021	2022
Ўзбекистон Республикаси	150 889,8	193 697,8	219 978,5	284 388,1	366 891,0
Қорақалпоғистон Республикаси	4 600,2 5	5671,8 6	6 520,3	8 458,4	10 595,3
Андижон	8 011,5	9 803,8	11 413,0	14 459,6	17 804,0
Бухоро	6 631,6	8 413,2	9 843,1	12 574,1	15 848,8
Жиззах	3 283,2	4 305,1	5 024,7	6 395,7	8 127,3
Қашқадарё	7 064,1	8 800,9	10 349,5	12 907,4	15 967,7
Навоий	3 925,6	5 056,2	5 840,5	7 459,6	9 322,8
Наманган	6 067,7	7 747,6	8 928,6	11 619,5	14 693,4
Самарқанд	10 043,5	12 786,8	14 086,1	18 259,0	22 953,6
Сурхондарё	6 079,6	6 981,9	8 013,9	10 387,4	12 838,4
Сирдарё	2 031,4	2 726,8	3 303,0	4 183,1	5 018,8
Тошкент	11 292,9	14 568,4	16 438,3	21 197,4	25 919,7
Фарғона	9 237,9	11 684,1	13 694,4	17 705,2	22 131,8
Хоразм	4 562,8	5 763,3	6 461,2	8 348,1	10 480,4
Тошкент ш	50 176,2	65 759,2	79 879,3	106 502,8	144 533,7

1-жадвал маълумотларидан ҳудудлар бўйича кўрсатилган хизматлар ҳажмини таҳлил қилсак, сўнгги беш йил мобайнида мамлакат миқёсида кўрсатилган хизматлар икки баробарга ошганлигини кўришимиз мумкин (2018 – йилда 150 889,8 млрд.сўм, 2022 – 366 891,0 млрд.сўм). Ўсиш суръати юқори кузатилаётган ҳудуд Тошкент шаҳри (144 533,7млрд сўм, олдинги йилга нисбатан 118,0%), паст ҳудуд эса Сирдарё вилоятига тегишли (5 018,8 млрд сўм, олдинги йилга нисбатан 101,6%). Мамлакатнинг ЯИМ таркибида хизматлар соҳаси улушининг ортиши, мамлакатда иқтисодий тараққиётнинг белгиси сифатида намоён бўлади. Бунда аҳоли турмуш даражаси кўтарилиши ўз навбатида хизматлар кўламининг кенгайиши, турларининг купайишига ўз таъсирини кўрсатади.

Шундан келиб чиққан ҳолда, мамлакатимизда хизматлар соҳасини янада ривожлантириш мақсадида қуйидаги таклифларни киритишимиз мумкин:

— хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш, ялпи ички маҳсулотни шакллантиришда хизматларнинг ўрни ва улушини ошириш, кўрсатилаётган хизматлар таркибини, энг аввало, уларнинг замонавий юқори технологик турлари ҳисобига тубдан ўзгартириш;

— аҳолига ижтимоий хизмат кўрсатишни яхшилаш, аҳолига ижтимоий хизмат кўрсатишда давлат-хусусий шериклигини камайтириш;

— аҳолига тиббий ва ижтимоий-тиббий хизмат кўрсатиш қулайлиги ҳамда сифатини ошириш ва соғлом турмуш тарзини шакллантириш;

— аҳолини коммунал-маиший хизматлар билан таъминлаш даражасини ошириш ва замонавий технологияларни босқичма-босқич жорий этиш орқали қишлоқ жойларда аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш;

— аҳолига транспорт хизмати кўрсатишини тубдан яхшилаш, йўловчи ташиш хавфсизлигини ошириш;

— театр ва томоша, дам олиш, хордиқ масканлари, маданий-маърифий ташкилотлар ва музейлар фаолиятини ривожлантириш ҳамда такомиллаштириш, уларнинг моддийтехника базасини мустаҳкамлаш.

Миллий иқтисодиётнинг мутаносиблиги ва барқарорлигини таъминлашда хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантириш натижасида, мамлакатда янгидан-янги қўшимча иш ўринлари яратилади ва бу ўз навбатида, аҳолининг турмуш фаровонлигини яхшилашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика. Москва, КНОРУС, 2006.

2. Свириденко Ю. П. Сервисная деятельность в обслуживании населения учебное пособие. Издательско-торговая корпорация «Дашков И КО», 2012.
3. Свириденко Ю. П. Сервисная деятельность : учебное пособие / Ю. П. Свириденко, В. В. Хмелев. — Альфа-М : ИНФРА-М, 2011.
4. Савченко П.В., Жильцов Е.Н. Экономика общественного сервиса. Учебное пособие. – М.: ИНФРА – М, 2012. – 763 с.
5. Кара А. Н. Экономика сферы обслуживания : учеб. Пособие для студ. Учреждений высш. проф. образования / — М. : Издательский центр «Академия», 2010.

УЙ ХЎЖАЛИГИ СЕКТОРИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ ВА УЛАРДАН ЎЗБЕКИСТОНДА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ғуломов Шохназар

*Ўзбекистон Миллий университети, Иқтисодиёт назарияси кафедраси эркин
тадқиқотчиси*

Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган иқтисодий ислохотлар мамлакат иқтисодиётининг ҳаётий муҳим соҳаларининг барчасини камраб олиш билан бирга, мазкур соҳалардаги мавжуд муаммоларни тизимли ва замонавий технологик тараққиёт самараларидан муваффақиятли фойдаланиш асосида бартараф қилишга ҳаракат қилинмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикасида бандликни таъминлаш, янги иш ўринларини вужудга келтириш, аҳолининг иқтисодий фаровонлигини ошириш йўлида муҳим стратегик йўналишлардан бири уй-хўжалиги секторини жаҳон андозалари ва етакчи мамлакатлар тажрибаси асосида ривожлантириш, хусусан алоҳида субъект сифатида кўриш, ички ва хорижий инвестицияларни жалб қилиш унинг реал соҳа сифатидаги тараққиётга йўл очади. Мамлакатнинг иқтисодий ривожланишида тадбиркорлик билан шуғулланувчиларнинг ҳиссаси тобора юқори бўлиб бораверади. Бугун давлат томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик учун яратилаётган қулайликлар улар фаолиятини йўлга қўйиш ва муваффақиятларга эришиш учун катта имкониятдир. [2]

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев таъкидлаганидек, юртимизда хусусий мулк дахлсизлигини таъминлаш ва мулкдорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасида мисли кўрилмаган чоралар ҳаётга жорий этилди. Ўзбекистонда илғор хорижий амалиёт ва тажрибани жорий этиш мақсадида инвесторларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш қўмитасини ташкил қилинади [1]. Ўзбекистон Республикаси давлат ва ҳукумат раҳбарияти томонидан юқорида кўрсатилган омилларга диққат-эътиборни қаратиш йўналишида хорижий мамлакатлар тажрибаси ва технологияларини олиб киришда тегишли вазирлик ва давлат идоралари мутахассисларини малака ошириш ва тажриба алмашиш учун чет элга юбориш ҳамда инновацион янгиликларни жорий этиш ишлари олиб борилмоқда. Бунда мазкур соҳанинг самарали ишлашини таъминлаш мақсадида миллатимиз менталитети ва эҳтимолий иқтисодий зарарлар, тараққиётга салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган хавфхатарларни эътиборга олиш муҳим аҳамият касб этади. Иқтисодиётнинг уй хўжалиги секторига хорижий тажрибаларни олиб кириш йўналишида чет эл давлатлари эришган муваффақиятларини тадқиқ этиш, уларнинг ушбу даражага эришгунга қадар босиб ўтган эволюцион тараққиёт йўли ва концептуал ёндашувларини ўрганиш мақсадга мувофиқ. Хорижий тажрибани тадқиқ қилишда уй хўжалиги секторининг даставвал мамлакат ижтимоий-иқтисодий муносабатларидаги ифодаланишини тизимли таҳлил қилиш унинг самаралилиги ва Ўзбекистон Республикасидаги мавжуд шаклланган шароитга мувофиқлигини ҳамда татбиқ қилиш жараёнининг мамлакат иқтисодий хавфсизлиги мезонларига мувофиқлигини кўрсатади.

Хорижий тажрибани татбиқ қилиш деганда дастлаб —хорижий тажриба, —ижтимоий сиёсат ва —иқтисодий хавфсизлик тушунчалари кенг маъно касб этади. Илмий адабиётларда аксарият ҳолларда ушбу тушунчаларга турлича таъриф берилади.

Хорижий мамлакатларнинг иқтисодий тараққиётдаги тажрибаси Ўзбекистон учун муҳим бўлиб, уларни таҳлил қилиш, ўрганиш ва мақбулини амалиётда синаб кўриш лозим. Бу каби таҳлил асосида мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар ишбилармонлар қатлами сафини кенгайтириш ва аҳоли даромадларини ошириш имконини бермоқда. Масалан фақат 2018 йилда 53 нафар хусусий тадбиркор —Ҳар бир оила – тадбиркор— ва бошқа давлат дастурлари доирасида хорижда таълим олди.

Ижтимоий сиёсат – бу давлат, бизнес, жамоат ташкилотлари ва тадбиркорлар уюшмалари ўртасидаги ўрнатилган ижтимоий соҳани ривожлантириш тамойиллари ва устувор йўналишларидир. Ижтимоий сиёсатнинг мақсади аҳолининг ҳаёт даражасини астасекин кўтариш, ижтимоий тенгсизлик даражасини камайтириш ва фуқароларни асосий ижтимоий бойлик ва ҳуқуқларини таъминлашдир [3].

—Иқтисодий хавфсизлик| хўжалик ва ташқи иқтисодий фаолиятнинг глобаллашуви, мурасасозлик, хусусий секторни кенгайтириш шароитида Ўзбекистон иқтисодий хавфсизлигини таъминлашдир. Иқтисодий хавфсизликни текшириш предмети-давлатнинг ташкил этилган ва мувофиқлашган иқтисодий муносабатлар йиғиндиси сифатидаги иқтисодий тизимидир. Бунда иқтисодий хавфсизлик соҳасидаги вазифаси давлатни беқарорлаштирувчи омилларнинг зарарли таъсирини йўқотадиган ёки юмшатадиган иқтисодий сиёсат ва ислохотларнинг ягона дастури чегарасида шакллантиришдан иборат. Иқтисодий хавфсизлик объектларига шахс, жамият ва давлат киради. Иқтисодий хавфсизлик субъектларига функционал ва соҳа, шунингдек, маҳсулот ишлаб чиқарувчи истеъмолчилар уюшмалари киради. Ташқи иқтисодий алоқалар мурасасиз тус олаётган вазиятда, иқтисодий хавфсизликка дахл қилувчи, мамлакатнинг миллий манфаатларига зарар етказиши мумкин бўлган омил ва шароитлар киради. Улар ташқи ва ички хавфларга бўлинади [4].

—Иқтисодий хавфсизлик| тушунчасининг таърифлари кўп. Уларни умумлаштирган ҳолда иқтисодий хавфсизлик – бу, давлат иқтисодий тизимига таъсир қилувчи ва унинг босқичма-босқич барқарор ривожланиши, шу асосда жамиятнинг потенциал имкониятларини ҳар томонлама амалга ошириш учун, миллий манфаатлар энг кўп ифодаланишига имкон берувчи (ички ва ташқи) шарт ва омиллар йиғиндиси ҳамда давлатнинг турли хил хавфлар ва йўқотишларга қарши туриш қобилиятидир.

Тадқиқот методологиясини уй хўжалиги секторини ривожлантириш, иқтисодий хавфсизлик назарияси, мамлакатимиз ҳамда хорижий тадқиқотчиларнинг илмий ишлари натижалари, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Президентининг уй хўжалигини ривожлантиришда хорижий тажрибани қўллаш ва иқтисодий хавфсизликни таъминлаш бўйича концептуал фикрлари, тегишли фармон ва қарорлари ташкил этади. Шу билан бирга, ривожланган чет эл давлатларида уй хўжалиги моделларининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш ҳамда уларни Ўзбекистон уй хўжалиги секторига мослаб татбиқ этиш кутилган самарни бериши мумкин. Шу нуқтаи назардан ушбу тадқиқотнинг методологик жиҳати мамлакатимизда уй хўжалиги секториди хорижий инновацион ривожланиш ғояларини амалиётга жорий этиш йўлларини асослашдан иборат.

Жаҳонда бир неча ижтимоий сиёсат модели мавжуд бўлиб, ҳар бир давлат ўзига хос умумий хусусиятларни ҳисобга олиб, амалда у ёки бу моделдан фойдаланади. Жумладан етакчи давлатларда 3 йўналишдаги замонавий ижтимоий сиёсат олиб борилади: социал-демократик модел (Швеция, Норвегия, Финляндия, Дания, Голландия, Швейцария);

либерал модел (АҚШ, Канада, Австралия, Буюк Британия); консерватив модел (Австрия, Германия, Италия, Франция).

Бу моделларга хос бир қатор хусусиятлар мавжуд. Жумладан, социал-демократик моделнинг (скандинавия ёки шимолий модел) асосий ижтимоий таъминот тамойили универсализм бўлиб, бунда ижтимоий таъминот - барча фуқароларнинг давлат сектори (бюджети) томонидан кафолатланган ҳуқуқи тушунилади. Бу моделнинг молиявий таркиби юқори ва барқарор ишлаб чиқариш даражаси, кучли таъсирга эга қасаба уюшмалари ва давлат томонидан назорат қилинадиган иш берувчилар ва ёлланма ишчилар ўртасидаги шартномавий муносабатларга асосланган. Давлат сектори ижтимоий дастурларни солиққа тортиш тизими орқали молиялаштиради ҳамда ижтимоий таъминот тизимини молиялаш, турли ижтимоий хизматларни фаолият юритиши учун жавобгардир. Бу кучли, аммо

марказлашмаган бошқарув тизимида мавжуд бўлади. Бу типдаги давлатларда ижтимоий сиёсатни юритиш ушбу тамойилларга асосланади:

барча фуқаролар истисносиз бир хил аҳамият ва қадриятга эга, камбағалларга ҳам ўз эҳтиёжларини қондириш имконияти берилади, ижтимоий хизматлар ихтиёрий тарзда тақдим этилади; ижтимоий ҳимоя доимий бўлиб, инсон ҳаётининг барча соҳа ва босиқичларини ўз ичига олади ва яхши ҳаёт кечириш имконини беради; жамиятнинг барча тоифалари жисмоний ва ижтимоий имкониятлардан фойдаланишда тенг ҳуқуққа эга.

Консерватив моделнинг асосий тамойили бозор иқтисодиётига ҳамда давлат кузатувида ёлловчи ва ёлланувчиларнинг суғурта механизмига таянишидир. Меҳнат ижтимоий таъминотни белгилайди, бунда суғурта қилинмаган ишсиз аҳоли қатламлари фақат маҳаллий хайрия жамғармаларига умид қилишлари мумкин. Бу моделга хос хусусиятлар:

суғурта тўловлари ҳажмининг маошга боғлиқлиги;

тўлов харажатларининг ёлловчи ва ёлланувчи ўртасида тақсимланиши; суғуртани ташкиллаштиришнинг оммавий-ҳуқуқий шакли.

Либерал модел ҳам бозорни ижтимоий қўллаб-қувватлашнинг муҳим соҳаси сифатида кўради. Бу моделда ижтимоий таъминот қолдиқ типда бўлади, яъни кишилар жамиятда ижтимоий таъминотсиз ҳам яшайдилар, ҳукумат бу йўналишда чекланган жавобгарликни зиммасига олади. Шу боис моделнинг молиялаштирилиши ихтиёрий ва норасмий ёрдамга боғлиқ.

Россияда эса 1990-йиллардаги иқтисодий ислохотлар даврида ижтимоий ҳимоя назарга олинмаганлиги боис, инқирозли вазият вужудга келди. Шу боис ижтимоий тараққиёт доктринасини қабул қилиш эҳтиёжи туғилди ва бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида қуйидаги муқобил вариантлардан бири танланиши керак эди:

ортодоксал либерализм ёки ижтимоий давлат, яъни давлат томонидан ижтимоий қафолатлар берилиши ёки ижтимоий суғурталаш; давлат ҳимоя қилиши ёки давлатнинг қўллаб-қувватлаши; давлат патернализми ёки уй хўжалигининг мустақиллиги.

Либерал сиёсат давлат фуқароларнинг шахсий муаммоларига аралашини камайтириш, уларга кўпроқ озодлик бериш ҳамда фуқароларнинг ташқи ёрдамга эмас, ўз кучларига ишонишларини кўзда тутди. Ҳаракатчан ва яшаш учун кундалик курашга тайёр жамиятда бу сиёсат самара беради. Бироқ Россияда кишилар ижтимоий қийинчиликларга мослашмаганликлари боис бу сиёсат ижтимоий инқироз, ижтимоий мослашувнинг пасайиши ва жамиятда бўлинишга олиб келди.

Шу сабабли РФ конституциясида кўрсатилган ижтимоий давлат тизими ортодоксал либерализм билан уйғунлашмаслиги боис бошқа технологияларни қўллашни тақозо қилади. Давлат патернализми сиёсати фуқароларни яшаш учун курашишдан маҳрум қилади ҳамда тенглаштириш, ижтимоий бир хиллик ва оқибатда жамиятнинг ижтимоий энергиясини пасайиш омили сифатида хизмат қилади. Шу сабабли аҳолининг барча табақаларининг мослашиш имкониятларини кучайтириш учун юқоридаги моделларга таянадиган механизм ишлаб чиқиш ҳаракатлари олиб борилди. Натижада либерал модел танланиб, уни мослашган аҳоли гуруҳлари учун, ижтимоий ҳимояни эса аҳолининг заиф ва мослашмаган қатламлари учун йўналтиришга қаратилган Россия шароитларига хос бўлган иерархик тизимни вужудга келтириш ишлари олиб борилди.

Жумладан, давлат томонидан қўллаб-қувватланишга муҳтож аҳоли гуруҳларига ўз имкониятларидан фойдаланган ҳолда кейинчалик ўрта синфни ташкил қилувчи кичик тадбиркорлар ва уй хўжалигини ташкил қилган фуқароларга ижтимоий кўмак ва давлат қафолатлари тақдим қилиниши муҳим омил ҳисобланади. Бунда қийинчиликларни енгиб ўтишга интиладиган фуқароларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш дастурларини ишлаб чиқилиб амалга оширилиши айни муддао бўлди.

Юқорида шакланган тамойилларга жавоб берадиган қўллаб-қувватлаш технологияларнинг ишлаб чиқилиши имкониятларни аниқлаш, аҳоли манфаатларига таяниш, ижтимоий-иқтисодий

жараёнларни қувватлаш ва рағбатлантириш бўйича вазифаларни белгилаш имконини беради. Бу тизимнинг устида ихтиёрийлик ва барқарорлик тамойилларига қурилган нодавлат ижтимоий суғурталаш механизми ётади. Мазкур интеграл тизим Россия ижтимоий сиёсатининг асосий вазифаларини ҳал қилишга ҳамкорлик кўрсатади ҳамда жамиятнинг интеграцион алоқаларини бузмасдан қийин иқтисодий ҳолатдаги аҳоли қатламларини инқирозсиз бозор иқтисодиётига мослашиши ва ижтимоий рағбатлантирилишини таъминлайди.

Юқоридаги ривожланган бозор иқтисодиётига эга мамлакатлар ижтимоий сиёсат моделлари таснифини кўриб чиқиб қуйидаги тарзда умумлаштириш мумкин:

барча иқтисодий тараққий қилган мамлакатлар ижтимоий сиёсатида муайян инструментлар гуруҳи мавжуд; ҳар бир инструментнинг ижтимоий сиёсат вазифаларини ҳал қилиш жараёнидаги

аҳамияти бу мамлакатнинг у ёки бу моделга алоқадорлигини белгилайди; ижтимоий сиёсат инструментлари структураси мамлакатлар бўйича ва бутун жаҳон

миқёсида чекланган; уй хўжаликлари даромадларини тартибга солиш инструментларига ижтимоий суғурталаш, жамоат ва давлат ёрдами ижтимоий солиқ чегирмалари (имтиёзлар), нафақа таъминоти қиради;

ижтимоий солиқ чегирмалари (имтиёзлар) бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатлар, жумладан Россияда ҳам, ижтимоий сиёсатнинг асосий инструментларидан бўлиб, улар кўпинча аҳолининг ижтимоий заиф қатламларига нисбатан қўлланилади[5].

Ўзбекистон Республикасида ҳам ижтимоий сиёсат доирасида аҳолининг заиф қатламлари, кичик тадбиркорлик субъектлари, уй хўжаликларини ижтимоий ҳимоя қилиш бўйича мамлакат раҳбарияти томонидан бир қатор қарорлар қабул қилинмоқда. Жумладан, тадбиркорлик субъектларини микро, кичик, ўрта ва йирик тоифаларга, туман ва шаҳарларни 5 та тоифага ажратиш орқали тадбиркорликни манзилли қўллаб-қувватлаш тизими йўлга қўйилди. —Йўл харитаси! доирасида кичик бизнес ва оилавий тадбиркорликка бир қатор имкониятлар яратилмоқда:

Бизнесни ривожлантириш банки ташкил этилиб, у орқали кичик тадбиркорлик субъектлари лойиҳаларини молиялаштириш;

кичик бизнес лойиҳалари учун қулай шартларда 7 йилгача бўлган муддатларда кредитлар ажратиш; қўшилган қиймат солиғининг салбий суммаси ўрнини қоплашда солиқ узилиши (tax gap) коэффицентини қўллаш амалиётини тақиқлаш; камерал солиқ текширувини ўтказишда солиқ тўловчи ҳудудига кириш,

хужжатларни талаб қилиб олиш, чақиртириш, олиб қўйишни тақиқлаш. [6]

Бундан ташқари Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш давлат жамғармасига ҳам устувор йўналишлар сифатида жойларда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш, аҳоли бандлигини таъминлаш мақсадида кичик тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш унинг асосий йўналишлари этиб белгиланган. Жумладан: ушбу жамғарма тадбиркорликни молиявий қўллаб-қувватлаш орқали жойларда ижтимоийиқтисодий вазиятни яхшилаш; кичик тадбиркорлик субъектларини (хусусан оилавий тадбиркорлик) тижорат банклари орқали кредитлаш ҳисобига экспорт маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ихтисослаштирилари таъминлаш;

ўз-ўзини иш билан таъминлаш дастурларини ишлаб чиқиб амалга ошириш; оилавий тадбиркорлик, даромад топишга қаратилган муайян меҳнат фаолияти билан шуғулланиш ва фаолият турини кенгайтириш истагини билдирган аҳоли ҳамда тадбиркорлик субъектларига йиллик 14 фоиз ставкада имтиёзли кредитлар берилишини таъминлаш[7]. Бундан ташқари оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари ва кичик лойиҳаларни молиялаштириш доирасида ажратиладиган кредитларнинг 70 фоизи кичик бизнес лойиҳаларига, 30 фоизи ўзини ўзи банд қилишга (томорқадан унумли фойдаланиш, уй шароитида тадбиркорлик) йўналтирилади[8]. Мамлакатимизда уй хўжалиги секторини тараққий қилдириш аҳолини иш билан банд қилиш ва иқтисодий хавфсизликни таъминлашдаги асосий омиллардан бири бўлиш билан бирга, ижтимоий сиёсатнинг бош йўналишларидан ҳам ҳисобланади. Уй хўжалигини ижтимоий сиёсат доирасида белгиланган мақсадларга йўналтириш учун бу субъектларга мамлакат раҳбарияти томонидан тегишли эътибор

карателиши, қатор имтиёзлар берилиши нафақат уларнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, балки молиявий ва бошқа зарур воситалар билан мунтазам таъминлаб бориш имконини беради.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, уй хўжалиklarининг (оилавий тадбиркорлик) муаммолари ҳукумат қарорлари асосида босқичма-босқич ҳал қилиб борилиши (фаолиятига ҳамкорлик кўрсатилиши, имкониятлари кенгайтирилиши), ушбу соҳанинг иқтисодиётнинг ривожланган, экспортбоп маҳсулот ишлаб чиқарадиган рақобатбардош тармоққа айлантиради. Фикримизга кўра, Ўзбекистон Республикасида уй хўжалиги секторини ижтимоий сиёсат доирасида иқтисодий мустақиллиги ва хавфсизлигини таъминлашни қуйидаги мезонлар бўйича тадқиқ қилиш мумкин:

уй хўжалиklarини ҳудудий бўлиниш тоифаларининг кичик тадбиркорлик субъектлари сифатида манзилли қўллаб-қувватлаш тизимини кенгайтириш ва оптималлаштириб бориш; ихтисослашган молиявий институтларнинг кичик бизнес субъектлари лойиҳаларини молиялаштириш фаолиятини мақбуллаштириб бориш; оилавий тадбиркорлик субъектларига янги мини технологияларни жалб қилиш, қўшимча иш ўринларини ташкил қилиш ва илғор кичик бизнеснинг экспортга йўналтирилган фаолиятини рағбатлантириш орқали мамлакат иқтисодий салоҳиятини ошириш.

Ушбуларни амалга ошириш учун тегишли асосланган бир қатор чораларни кўзда тутиш зарур:

уй хўжалиklarига берилган имтиёзлар, солиқ тўловларидаги енгилликларнинг манзилли етиб боришини қатъий назоратга олиш, ажратилган маблағларни мақсадли фойдаланилиши ҳолатлари мониторингини амалга ошириш; давлат ва назорат органлари томонидан уй хўжалиги субъектлари фаолиятига аралаштирилишини олдини олиш ҳамда солиқ имтиёзлари ижросининг назоратини амалга ошириш; уй-хўжалиги субъектларининг молиявий саводчилигини ошириш ва замонавий технологияларни ўзлаштириш орқали улар томонидан бизнес лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш тизимини шакллантиришда хорижий етакчи давлатлар илғор тажрибаларни татбиқ қилиш; уйхўжалиги субъектларининг ижтимоий ҳимоя ва иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, қўшимча иш ўринларини яратиш билан боғлиқ фаолият ҳамда ички ва ташқи тижорат амалиётларини эркин амалга оширишларини таъминлаш мақсадида ҳуқуқий билимларини ошириб бориш;

Ўзбекистон Республикаси раҳбариятининг жаҳондаги айни пайтда юзага келган иқтисодий-сиёсий кескин вазиятни ҳисобга олиб, мамлакат ичкарасида етарли иш жойларини яратиш бўйича қилаётган ҳаракатлари фонида уй хўжалиklarини биз юқорида кўрсатиб ўтган омилларни ҳисобга олиб илмий-назарий асосланган ҳолда мақбуллаштириш бу субъектларни ўзбек иқтисодиёти драйверларидан бирига айланттириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хорижий инвесторлар кенгашининг биринчи ялпи мажлисидаги нутқи. // <https://president.uz/uz/lists/view/570216.11.2022й..>
2. Бозор иқтисодиёти: асл моҳият, тартиб ва тамойиллар.// <https://uza.uz/posts/65227>
3. И.А. Григорьева. Социальная политика: основные понятия. // <https://cyberleninka.ru/article/n/>
4. Ишмухаммедов А.Э. Иқтисодий хавфсизлик (Укув кулланма)—Т.: ТДИУ, 2004 — 176 бет. [https://ilmiy.bmti.uz/blib/files/ «Налоговый кодекс Российской Федерации \(часть вторая\)» от 05.08.2000 г. №117-ФЗ, ст. 218,219.](https://ilmiy.bmti.uz/blib/files/«Налоговый кодекс Российской Федерации (часть вторая)» от 05.08.2000 г. №117-ФЗ, ст. 218,219.)
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 04.09.2023 йилдаги ПҚ-292-сон — Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан 2023 йилдаги очиқ мулоқотида белгиланган вазибаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида// <https://lex.uz/docs/6060527>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 09.06.2022 йилдаги ПФ-150-сон —Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш давлат жамғармаси фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида// <https://lex.uz/docs/6060527>

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 21.04.2021 йилдаги ПҚ —Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш, ишбилармонлик муҳитини янада яхшилаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида
8. Россия и страны мира, 2006 : стат. сб. / Федер. служба гос. статистики (Росстат). - М. : Статистика России, 2006. - С. 150.

BUXORO VILOYATINING TURIZM KONTENTINI TAYYORLASHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Toxirov Javlon Raximovich

*Buxoro davlat universiteti, Marketing va menejment kafedrası
mudiri, dotsent, PhD*

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar doimo rivojlanib, hayotimizning turli sohalariga kirib bormoqda. Mobil ilovalar, virtual reallik, kengaytirilgan reallik va ijtimoiy tarmoqlar kabi yangi innovatsiyalar raqamli turizmدا yangi imkoniyatlar va yaxshilanishlarni taqdim etadi. Biroq, ushbu raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini va ularning sayyohlarga ta'sirini tushunish uchun chuqur tadqiqotlar talab etiladi. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining turizm kontentini tayyorlashda raqamli marketingdan foydalanish imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, raqamli marketing, raqamlashtirish, mobil ilovalar, reklama

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib bormoqda va bizdan o'zaro ta'sir va moslashishning yangi usullarini talab qilmoqda. Mobil ilovalar, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar kabi yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan ulardan samarali foydalanish orqali turizm sohasi raqamlashib jadal rivojlanib bormoqda.

Datareportal.com ning 2023 yil yanvardagi "Digital 2023" hisobotiga ko'ra, 8.01 milliarddan iborat dunyo aholisining 64.4 foizi, ya'ni 5.16 milliard Internet, 68 foizi (5.44 mlrd.) mobil telefonlari foydalanuvchisi sanaladi, hamda 4.76 milliard inson, ya'ni dunyo aholisining 59.4 foizi ijtimoiy medianing faol foydalanuvchisidir. O'z navbatida bu raqamlar har yili tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, Internet foydalanuvchilari turli yoshdagi, turlicha daromadli va ijtimoiy mavqega ega bo'lgan odamlardir. Shunisi qiziqki, Internet resurslaridan faol foydalanuvchilar orasida har yili ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiladigan va ma'lumot qidirish uchun Internetdan foydalanadigan keksa yosh odamlar ko'payib bormoqda.

Jahon tendentsiyasiga hamohang ravishda O'zbekistonda ham internet foydalanuvchilarining umumiy soni 31 milliondan, mobil internetdan foydalanuvchilar soni esa 29,5 milliondan oshdi. Xalqaro internet-kanalga ulanish tezligi so'nggi ikki yilda 2,6 baravarga oshib, 3200 Gbit/s ga yetdi.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilyapti.

Turizmning raqamlashuvi sayyohlik xizmatlarini marketing va reklama qilish sohasida ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu sayyohlik kompaniyalariga an'anaviy reklama va ommaviy reklama xarajatlarini kamaytirish va maqsadli reklamaga e'tibor qaratish imkonini beradi, bu esa maqsadli auditoriyani aniq belgilash imkonini beradi.

Shuningdek, barcha texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan va sayyohlarga dam olish maskanlari, diqqatga sazovor joylar, ekskursiyalar va sayyohlik marshrutlari haqida to'liq ma'lumot beradigan universal sayohat yo'riqnomasi tizimini yaratishga qaratilgan ko'plab loyihalar mavjud.

Raqamli marketing zamonaviy turizm sanoatida katta rol o'ynaydi. Instagram, Facebook, YouTube va TikTok kabi platformalar sayyohlik kompaniyalari va mahalliy diqqatga sazovor joylarga sayohatchilar e'tiborini tortadigan vizual kontent bilan bo'lishish imkonini beradi. Ular fotosuratlar, videolar va hikoyalardan joylarning go'zalligini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini namoyish qilish uchun foydalanishlari mumkin.

Potensial turistlarning muayyan guruhlarini jalb qilish uchun Internetda maqsadli reklama kampaniyalaridan foydalanish. Bu kontekstli reklama, ijtimoiy media reklamasi va ixtisoslashgan sayohat platformalarida reklamani o'z ichiga olishi mumkin.

Bloglar, vloglar, maqolalar va sayohat joylari, turar joy va sayohat bo'yicha maslahatlar e'tiborni jalb qilish va odamlarni ma'lum sayohat marshruti yoki xizmatini tanlashga ishontirishga yordam beradi.

Qidiruv tizimlari uchun kontentni optimallashtirish sayohat takliflarining ko'rinishini oshirishga yordam beradi. Yaxshi optimallashtirilgan maqolalar, sayohat tavsiflari, sharhlar va diqqatga sazovor joylarning mahalliy ro'yxati ko'proq organik trafikni jalb qilishi mumkin.

Sayyohlik marshrutlari, shahar navigatsiyasi, mahalliy turistik qo'llanmalar va sayohatchilar uchun boshqa foydali vositalar uchun ilovalarni ishlab chiqish ham juda muhimdir. Sayohatchilarga haqiqiy sayohatdan oldin virtual sayohatlar yoki kengaytirilgan haqiqat ilovalari orqali mahalliy tajribaning bir qismini boshdan kechirish imkonini beradi.

Raqamli marketing sayyohlik kompaniyalariga mijozlarni jalb qilish va sayohat tajribasini yaxshilash uchun ko'proq shaxsiylashtirilgan va maqsadli yondashuvlarni yaratishga imkon beradi. Bu qaerga sayohat qilish va qanday xizmatlarni tanlash haqida taassurotlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Raqamli sayyohlik xizmatlari bozori turli xil texnologik yutuqlar, iste'molchilarning xattiharakatlaridagi o'zgarishlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli jadal rivojlanmoqda.

Buxoro viloyatida raqamlashtirish hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Raqamlashtirish biznes-jarayonlarining samaradorligi va mahsuldorligini oshirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy o'sishning yangi omili hisoblanadi.

1-jadval Buxoro

viloyatining 2018-2022 yillarda turizm sohasi asosiy ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
1	Tashrif buyurgan turistlar soni	ming.nafar	2512	3640,9	249,9	2265,3	3514,2
2	Jami joylashtirish vositalari	birlik	168	337	372	415	485
3	Turistik kompaniyalar	birlik	56	115	118	115	119
4	Xamroh tarjimonlar (GID) soni	nafar	110	211	232	241	280
5	Sayyohlar tashrif buyuradigan madaniy meros ob'ektlari soni	birlik	105	123	139	139	140
6	Turistlar tashrif buyuradigan restoranlar soni	birlik	21	68	72	85	107
7	Turizm namoyish ob'ektlari	birlik	140	175	189	241	270
8	Turistik yo'nalishdagi avtotransport vositalari	birlik	110	211	232	281	281
9	Sanitariya-gigiena shoxobchalari soni	birlik	190	344	411	512	596
10	Turistik yo'l ko'rsatkichlari soni	birlik	80	122	123	128	136
11	Turizm axborot markazlari soni	birlik	5	12	14	16	17

Buxoro viloyati uchun turizm kontentini tayyorlashda raqamli marketingdan foydalanishning quyidagi samarali imkoniyatlar mavjud:

- Instagram, Facebook va TikTok kabi vizual platformalar orqali madaniy diqqatga sazovor joylar, tarix, mahalliy oshxona va an'analar haqida qiziqarli kontent yaratish. Bu diqqatga sazovor joylar haqida hikoya qiluvchi fotosuratlar yoki video sayohatlar bo'lishi mumkin.
- Mahalliy mutaxassislar Buxoro viloyatidagi tashrif buyuradigan joylar haqida qiziqarli faktlar, hikoyalar va tavsiyalar bilan o'rtoqlasha oladigan blog yoki YouTube kanalini ishlab chiqish.
- Diqqatga sazovor joylar, marshrutlar, restoranlar va boshqa turistik joylar haqida ma'lumot beruvchi mobil ilovalar yoki raqamli qo'llanmalar yaratish.
- Sayyohlar Buxoro viloyati haqidagi ma'lumotlarni osongina topishlari uchun qidiruv tizimlari uchun kontentni optimallashtirish. Bu bloglar, maqolalar, videolar va boshqa kontentni o'z ichiga olishi mumkin.
- Voqealar, chegirmalar, yangi diqqatga sazovor joylar va boshqalar haqida xabarnomalarni yuborish uchun obunachilar bazasini yaratish.
- Buxoro viloyatining turizm takliflariga ko'proq e'tiborni jalb qilish uchun Google Ads yoki ijtimoiy tarmoqlar kabi platformalarda maqsadli onlayn reklamadan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abowd GD, Atkeson CG, Hong J, Long S, Kooper R, Pinkerton M (1997) Cyberguide: a mobile context-aware tour guide. *Wireless Networks* 3, 5, pp 421–433
2. Ardissono L, Goy A, Petrone G, Segnan M, Torasso P (2003). Intrigue: personalized recommendation of tourist attractions for desktop and handset devices. *Applied artificial intelligence, special issue on artificial intelligence for cultcommunities of agents*
3. Benyon, D., Quigley, A., O'Keefe, B., & Riva, G. (2014). Presence and digital tourism. *AI & society*, 29(4), 521-529.
4. Buhalis, D. (2003): *eTourism: Information technology for strategic tourism management*, Pearson (Financial Times/Prentice Hall), London ISBN 0582357403.
5. De Carolis B, Novielli N, Plantamura V, Gentile E (2009) Generating comparative descriptions of places of interest in the tourism domain. In *Proceedings of the third ACM conference on recommender systems (RecSys '09)*. ACM, New York, pp 277–280
6. Khurramov, O. K., & Fayzieva, S. A. (2020). The main convenience of internet marketing from traditional marketing. *Academy*, 1(52), 30-32.
7. Schinke, T., Henze, N., & Boll, S. (2010, September). Visualization of off-screen objects in mobile augmented reality. In *Proceedings of the 12th international conference on Human computer interaction with mobile devices and services* (pp. 313-316).
8. Tadjieva, S., Tokhirov, J., Khurramov, O., Juraeva, Z., & Khodjaeva, D. (2023). Trajectory of economic development of Bukhara region during digitalization. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 403, p. 08027). EDP Sciences.
9. Uriely Natan (2005) The tourist experience: conceptual developments. *Ann Tour Res* 32(1):199–216
10. Watanabe A. (2012) Inside 'world's first augmented reality hotel'. Retrieved on 14 Mar 2012
11. Тохиров, Ж. (2021). Кўп омилли эконометрик моделлар асосида таълим хизматлари бозори ривожланиши мақсадли кўрсаткичларини шакллантириш. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 277-282.
12. Хуррамов, О. (2016). Особенности использования маркетинговых инструментов в социальных медиа. *Alatoo Academic Studies*, (2), 236-249.
13. <https://datareportal.com/reports/digital-2023-global-overview-report>
<https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/>

TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI AMALGA OSHIRISH TAMOYILLARI

Nafasov Mirzomurod Muxamadovich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrası dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Raqamli transformatsiya ta'lim sohasida katta o'zgarishlarni olib keluvchi jarayondir. Ushbu maqolada ta'limda raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillar ko'rib chiqiladi. Asosiy tamoyillarga talabaning markaziy o'rin tutishi, texnologiyalardan samarali foydalanish, uzluksiz o'quv jarayonini ta'minlash, ma'lumotlar va tahlillardan foydalanish, xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash, hamkorlik va aloqani rivojlantirish, innovatsion pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni muntazam yangilash kiradi. Shuningdek, maqolada raqamli transformatsiyaning ta'limdagi muhim misollari va uning afzalliklari bilan bir qatorda qiyinchiliklar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, ta'lim texnologiyalari, onlayn ta'lim, virtual ta'lim, sun'iy intellekt, o'rganish analitikasi, raqamli laboratoriyalar, texnologik integratsiya, innovatsion pedagogika

Ta'limda raqamli transformatsiyani amalga oshirish – bu, ta'lim tashkilotlari yoki muassasalari tomonidan raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish orqali o'z faoliyatlarini tubdan o'zgartirish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat texnologiyalarni joriy qilish, balki ish usullari va ta'lim strategiyasini ham o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadi, tashkilotning ta'lim samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish kuchli raqobat sharoitida samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlashdir.

Raqamli transformatsiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Raqamli texnologiyalarni joriy etish: Bu bosqichda zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt (AI), bulutli hisoblash, IoT texnologiyalar, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) va blokcheyn kabilarni joriy etish va ulardan foydalanish amalga oshiriladi.

2. Biznes jarayonlarini optimallashtirish: Texnologiyalarni joriy qilish orqali mavjud biznes jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish kerak. Bu, resurslarni samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va ish jarayonlarini tezlashtirishni o'z ichiga oladi.

3. Mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash: Raqamli transformatsiya mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun muhimdir. Bu, mijozlarning ehtiyojlarini tushunish va ularga moslashtirilgan xizmat va mahsulotlar yaratishni o'z ichiga oladi.

4. Malakani oshirish va ta'lim: Texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilish va ulardan samarali foydalanish uchun xodimlarning malakasini oshirish va yangi ko'nikmalarni o'rgatish zarur. Bu, uzluksiz o'qitish va professional rivojlanish dasturlarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

Raqamli transformatsiyani amalga oshirishda talaba markaziy o'rinni egallashi kerak. Bu, ta'lim jarayonida texnologiyalarni joriy etishda talabaning ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'quv uslublarini inobatga olishni anglatadi. Talabalarga individual yondashish orqali ularning o'zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Texnologiyalarni samarali joriy qilish uchun ularni qanday qo'llashni bilish va ulardan maksimal darajada foydalanish kerak. Bu o'qituvchilarni yangi texnologiyalarga o'rgatish, o'quv dasturlarini texnologiyalar bilan integratsiyalash va raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga moslashtirishni o'z ichiga oladi. Raqamli transformatsiya uzluksiz ta'limni ta'minlashi lozim. Onlayn kurslar, virtual sinflar va o'quv materiallarining raqamli shakllari talabalarga istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida, ta'lim jarayoni uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun ma'lumotlardan foydalanish muhim. Raqamli vositalar yordamida o'quv jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali talabalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Bu o'qituvchilarga o'z pedagogik uslublarini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Raqamli transformatsiyada xavfsizlik va maxfiylik masalalari juda muhim. Talabalar va o'qituvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va raqamli vositalarni xavfsiz ishlatish choralari ko'rilishi zarur. Bu, o'z navbatida, ishonchli ta'lim muhitini yaratadi. Raqamli vositalar yordamida talabalar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va aloqa yaxshilanishi mumkin. Virtual sinflar, forumlar va ijtimoiy media platformalari orqali o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida samarali muloqot o'rnatish, fikr almashish va birgalikda ishlash imkoniyatlari kengayadi. Ana shuni yodda tutish lozim-ki, raqamli transformatsiya innovatsion pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Ta'lim jarayoniga o'quv loyihalari va muammoli ta'lim kabi yangi uslublarni joriy qilish orqali ta'limning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlash mumkin. Bu talabalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Raqamli transformatsiya ta'lim sohasida keng ko'lamli o'zgarishlarni olib keldi. 1-rasmda dunyo bo'ylab amalga oshirilgan ba'zi muhim misollar keltirilgan.

Ta'limda raqamli transformatsiyani amalga oshirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarning texnologiyalarni qabul qilish va undan samarali foydalanish qobiliyatiga bog'liq.

Onlayn kurslar va ochiq ta'lim platformalari

MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari, masalan, Coursera, edX va Khan Academy, raqamli transformatsiyaning eng ko'zga ko'ringan misollaridan biridir. Ushbu platformalar dunyo bo'ylab millionlab talabalar uchun yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratdi. Har qanday joyda va har qanday vaqtda o'qish imkoniyati ta'limni hamma uchun qulay va mavjud qiladi.

Virtual va aralash ta'lim

Pandemiya davrida ko'plab ta'lim muassasalari virtual va aralash ta'lim shakliga o'tishdi. Zoom, Microsoft Teams va Google Classroom kabi platformalar yordamida talabalar va o'qituvchilar o'rtasida jonli muloqot amalga oshirildi. Ushbu vositalar virtual sinflar va guruh ishlarini tashkil qilishga yordam berdi.

Sun'iy intellekt va o'rganish analitikasi

Sun'iy intellekt (AI) va o'rganish analitikasi ta'limda katta imkoniyatlarni ochmoqda. AI yordamida shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlari yaratiladi, bu talabalar uchun individual yondashuvni ta'minlaydi. O'rganish analitikasi yordamida esa talabalar faoliyati tahlil qilinib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi va o'qituvchilarga o'z metodlarini moslashtirish imkonini beradi.

Raqamli laboratoriyalar va simulyatsiyalar

STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida raqamli laboratoriyalar va simulyatsiyalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Misol uchun, PhET Interactive Simulations yoki Labster kabi platformalar virtual laboratoriya tajribalarini taqdim etadi.

1-rasm. Dunyo bo'ylab ta'lim sohasida amalga oshirilgan raqamli transformatsiya misollar.

Quyida o'qituvchilarga raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash uchun bir necha tavsiyalar keltirilgan:

1. Treninglar va professional rivojlanish. O'qituvchilarni yangi texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarga o'rgatish uchun muntazam treninglar tashkil qilish zarur. Bu, ularga raqamli vositalarni qanday samarali qo'llash va o'quv jarayonini qanday yaxshilash mumkinligini o'rgatadi.

2. Innovatsion madaniyatni rivojlantirish. Ta'lim muassasalarida innovatsion madaniyatni rivojlantirish muhimdir. O'qituvchilarni yangi yondashuvlar va texnologiyalarni sinab ko'rishga rag'batlantirish orqali ular o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga intiladi.

3. Texnologiyalarning moslashuvchanligini ta'minlash. Texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishda ularning moslashuvchanligi va qulayligini ta'minlash lozim. O'qituvchilar uchun foydalanish oson bo'lgan platformalar va vositalar tanlanishi kerak.

4. Hamkorlik va tajriba almashish. O'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va tajriba almashish muhimdir. Bu, yangi g'oyalar va yondashuvlarni o'rganish va bir-biridan o'rganish imkoniyatini beradi. Onlayn forumlar, seminarlar va konferensiyalar bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun ideal vositalardir.

Ta'limda raqamli transformatsiyani amalga oshirishning afzalliklari va shu bilan birga qiyinchiliklari ham mavjud.

Afzalliklari	Qiyinchiliklari
- Samaradorlikni oshirish: Texnologiyalarni joriy qilish orqali biznes jarayonlari avtomatlashtiriladi va optimallashtiriladi, bu esa samaradorlikni oshiradi.	- Texnologik Investitsiyalar: Raqamli transformatsiya katta texnologik investitsiyalarni talab qiladi, bu esa kichik tashkilotlar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin.
- Xarajatlarni qisqartirish: Raqamli transformatsiya ko'pincha xarajatlarni kamaytirishga olib keladi, chunki u ko'plab qo'lda bajariladigan ishlarni avtomatlashtiradi va resurslarni samarali boshqaradi.	- O'zgarishlarni Qabul Qilish: Tashkilotlar va xodimlar o'rtasida o'zgarishlarga qarshilik bo'lishi mumkin, bu esa transformatsiya jarayonini qiyinlashtiradi.
- Innovatsiyalarni rivojlantirish: Yangi texnologiyalar va usullarni joriy qilish orqali tashkilotlar innovatsiyalarni rivojlantirishi va yangi mahsulotlar va xizmatlarni tezroq yaratishi mumkin.	- Kiberxavfsizlik: Raqamli transformatsiya bilan birga kiberxavfsizlik tahdidlari ham ortadi, shuning uchun xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarur.

Ta'limda raqamli transformatsiyani amalga oshirish tamoyillari muvaffaqiyatli ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tamoyillar asosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish orqali yanada sifatli, samarali va hamma uchun ochiq ta'lim muhiti yaratish mumkin. Raqamli transformatsiya nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki talabalarni kelajakdagi texnologik rivojlanishlarga tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Raqamli transformatsiya ta'lim sohasida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabning markaziy o'rinda bo'lishi, texnologiyalardan samarali foydalanish, uzluksiz o'quv jarayonini ta'minlash, ma'lumotlar va tahlillardan foydalanish, xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash, hamkorlik va aloqani rivojlantirish, innovatsion pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni muntazam yangilash kabi tamoyillarni qo'llash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Novak, Marek & Binas, Miroslav. (2011). Automated testing of case studies in programming courses. ICETA 2011 - 9th IEEE International Conference on Emerging eLearning Technologies and Applications, Proceedings. 10.1109/ICETA.2011.6112606.

2. Na Zhang, Xiaoan Bao, and Zuohua Ding, "Unit Testing: Static Analysis and Dynamic Analysis," Computer Sciences and Convergence Information Technology, ICCIT '09. Fourth International Conference on, Nov. 2009, pp. 232-237, ISBN: 978- 1-4244-5244-6

3. S. H. Edwards, "Using software testing to move students from trial-and-error to reflection-in-action," In 35th SIGCSE Technical Symposium on Computer Science Education, Norfolk, Virginia, USA, 2004, pp. 26–30.

4. Nafasov M.M. (2020). The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). pp.142166. DOI:10.36713/epra2013.

5. Akhtamova L. A. K. FORMS OF CONDUCTING AN ELECTRONIC LEARNING COURSE // Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 392-400. Zakirova F.M., Nafasov M.M. Ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning pedagogik asoslari // Academic research in educational sciences. 2022. №4. p 917-925

MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI REYTING KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING XORIJ TAJRIBALARI

Ismoilova Maxtoboy Said qizi Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda oliy ta'lim muassasalari reyting ko'rsatkichlarini baholashning xorij tajribalariga bag'ishlangan bo'lib, "Quacquarelli Symonds" reytingini tuzishda foydalanilgan sakkiz ko'rsatkich va "QS BRICS University Rankings" reyting ko'rsatkichlarida oliy ta'lim muassasalarining tashkil etish shakllari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, ilmiy salohiyat, ish beruvchi, bitiruvchi, reyting, oliy ta'lim muassasasi.

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida yuz berayotgan o'zgarishlar global darajada oliy ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Oliy ta'lim tizimi yuqori salohiyatga ega bo'lgan Yaponiya, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSh, XXR va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar tajribasi bu mamlakatlarning iqtisodiy o'sish darajasi tayyorlanayotgan mutaxassislarining sifati va raqobatbardoshligi ta'sirida barqaror o'sib borayotganligini ko'rsatadi. "Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda ta'limning boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlariga sarflanayotgan xarajatlarning qaytimi mos ravishda 7 va 10 foizni tashkil etsa, oliy ta'lim uchun qilingan xarajatlar qaytimi 17 foizdan ortiqroqqa teng"[1]. Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarining kadrlar buyurtmachilari hamda bugungi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar talablariga javob berishi uchun oliy ta'lim tizimini innovatsion faoliyatning ta'limga integratsiyasini chuqurlashtirish, ta'lim dasturlarining yuz berayotgan o'zgarishlarga moslashuvchanlik darajasini, bitiruvchilarning malaka kompetensiyalarini oshirish kabi o'zgarishlarning amalga oshirilishini talab etmoqda.

Ayniqsa, ta'lim jarayoni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa faoliyat sohasiga ta'sir qiladi. Ta'lim inson faoliyatining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u butun inson hayoti mobaynida amalda, ya'ni tug'ilganidan boshlanadigan, uzviy xususiyatga ega jarayondir. Chunki ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson rivojlanishining asosiy maqsadi ularning farovonligini ta'minlash, sog'lom va bunyodkorlik hayotidan yetarlicha bahra olish imkoniyatini beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda sog'lom muhitni yaratishdan iboratligiga katta e'tibor bilan qaralgan. Butun jahon bankining baholash bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda moddiy kapital hajmi har bir mamlakat umumiy boyluk hajmida 16 foizni, tabiiy – 20 foiz va inson kapitali – 64 foizni tashkil etadi [2].

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda inson kapitaliga bo'lgan ehtiyoj va uni rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda. Inson kapitali jahon darajasidagi universitetlarni o'z ichiga olgan raqobatbardosh va moslashuvchan ta'lim tizimiga asoslangan. Butun dunyo bo'ylab barcha OTMning xodimlari o'z universitetlarining nufuzi uchun qayg'uradi va o'z ta'lim muassasalarining global reytingda yuqori o'rinlarni egallashi uchun kurashadi. 2013 yilda ishga tushirilgan "QS BRICS University Rankings" beshta mamlakatdagi eng yaxshi universitetlar faoliyatini baholab, har yilgi reytingni tuzib boradi. Ushbu reyting tizimi BRICS mamlakatlarining oliy ta'lim sohasida erishgan yutuqlarini kuzatib boradi

hamda muhim ijtimoiy-iqtisodiy dinamikalariga ega bo'lgan davlatlardagi ba'zi universitetlarni taqqoslashga ko'maklashadi. Shuni nazarda tutish kerakki, reytingdan asosiy maqsad ma'lum bir bilim sohasidagi eng yaxshi oliy o'quv yurtlari, ularning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ta'lim berish faoliyati sifatini baholashdan iborat. Ushbu maqsadlarni inobatga olgan holda, har bir mamlakat mutaxassislari bilan keng qamrovli maslahatlashuvdan so'ng metodologiyada foydalanish uchun sakkiz ko'rsatkich tanlab olingan. BRICS reytingini tuzishda foydalanilgan sakkiz ko'rsatkich quyidagilar [3]:

- ilmiy salohiyat (30%);
- ish beruvchilarning bitiruvchilarga bergan bahosi (20%);
- professor-o'qituvchilarning talabalarga nisbati (20%);
- ilmiy darajali xodimlar (10%);
- e'lon qilingan ilmiy asarlar ko'rsatkichi (10%);
- ilmiy maqolalarga keltirilgan iqtibosliklar (5%);
- xorijiy fakultetlar (2,5%);
- xalqaro talabalarning ulushi (2,5%).

“Quacquarelli Symonds” (QS) universitetning kuchli tomonlarini tezda aniqlab olishlari va eng muhim sohalarda yuqori reytingga ega bo'lgan universitetlarni topishlari mumkinligini anglatadi. OTMlarning “QS BRICS University Rankings” ro'yxatida yillar kesimida tahlil qilganda quyidagicha ma'lumotlarga ega bo'ldik (1-jadval).

1-jadval

“QS BRICS University Rankings” reyting ko'rsatkichlarida OTMlarning soni (birlikda)

[4]

№	Davlatlar	2016 йil			2017 yil			2018 yil			2019 yil		
		OTM soni	Davlat OTM	Xususiy OTM	OTM soni	Davlat OTM	Xususiy OTM	OTM soni	Davlat OTM	Xususiy OTM	OTM soni	Davlat OTM	Xususiy OTM
1	Braziliya	40	34	6	54	46	8	61	52	9	90	70	20
2	Rossiya Federatsiyasi	52	52	0	55	55	0	68	68	0	100	98	2
3	Hindiston	31	26	5	44	37	7	65	53	12	84	70	14
4	Xitoy	68	66	2	87	85	2	94	92	2	112	109	3
5	Janubiy Afrika Respublikasi	11	11	0	11	11	0	12	12	0	13	13	0
Jami:		202	189	13	251	234	17	300	277	23	400	361	39

Tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, reytingga qatnashuvchi OTMlar oxirgi yillarda ortib borgan. Ayniqsa, davlat OTMlar soni 2016 yilda 189 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilga kelib, uning soni 400 taga etgan. Bu asosiy yiliga nisbatan 198,0 %ga ko'pdir. Xususiy ta'lim tizimida ham ma'lum o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bunday o'zgarishlar 2019 yilda 2016 yilga nisbatan 300,0 % oshganligini ko'rish mumkin, ta'lim tizimidagi keskin o'zgarishlar Xitoy bilan Hindistonda sodir bo'lmoqda. Xususan, davlat OTMlar soni 2016 yilga nisbatan 2019 yilga borib qariyb ikki barobarga oshgan. Xuddi shunday xususiy OTMlar ham 2016 yilga nisbatan 2019 yilga borib uch barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiyotida ko'p ukladlilikni hamda rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'lgan raqobat muhitini yaratish orqali davlatni mulkka bo'lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarini barpo etish strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayni shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, mamlakatda OTMlar o'rtasida raqobat muhitini yaratish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. <https://www.worldbank.org/en/topic/tertiaryeducation>.
2. Абдурахманов К.Х., Додобоев Ю.Т., Аллахвердиева Л.М. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, РЭА, - 2006. -7 с.
3. www.topuniversities.com/university-rankings/brics-rankings/ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. www.topuniversities.com/university-rankings/brics-rankings/ ma'lumot.

THE SIGNIFICANCE OF THE MANAGEMENT OF MECHANISMS FOR IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION SERVICES IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY

Bukhara State University
PhD researcher
Yuldashev Feruz Isroil ugli

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarining (OTM) milliy rivojlanish dasturini shakllantirish, intellektual kapitalni rag'batlantirish va ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashishdagi muhim roli muhokama qilingan. Unda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab ortib borayotgan jahon tendentsiyasi va bu ehtiyojlarni qondirishda oliy ta'lim muassasalarining asosiy roli qayd etilgan. Maqolada ilmiy tadqiqotlarning intellektual salohiyati va ahamiyatiga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama o'rganish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun universitetlarda samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarining davlat muammolarini hal etish, kadrlar malakasini oshirish va demokratik qadriyatlarni targ'ib qilishdagi o'zgartiruvchi ta'sirini o'rganadi. Nuansli tahlillar orqali maqola oliy ta'lim sifatini yaxshilashning turli xil manzarasi va uning global rivojlanishga ta'siri haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim muassasalari (OTM), intellektual kapital, innovatsiyalar, ijtimoiy taraqqiyot, boshqaruv mexanizmlari, barqaror iqtisodiy o'sish, ilmiy tadqiqotlar, inson resurslari, demokratik qadriyatlar, jahon taraqqiyoti, intellektual salohiyat, milliy rivojlanish dasturlari, malakali kadrlar, ijtimoiy muammolar, sifatni oshirish.

Annotation. The article delves into the critical role of higher education institutions (HEIs) in shaping national development agendas by fostering intellectual capital, promoting innovation, and advancing societal progress. It highlights the global trend of escalating demand for highly skilled personnel and emphasizes the pivotal role of HEIs in meeting these needs. Through a comprehensive examination of factors influencing intellectual potential and the significance of scientific research, the article underscores the imperative for effective management mechanisms in HEIs to ensure sustainable economic growth. Additionally, it explores the transformative impact of HEIs in addressing societal challenges, enhancing workforce capabilities, and promoting democratic values. Through a nuanced analysis, the article provides insights into the multifaceted landscape of higher education quality improvement and its implications for global development.

Key words. Higher education institutions (HEIs), intellectual capital, innovation, societal progress, management mechanisms, sustainable economic growth, scientific research, workforce capabilities, democratic values, global development, intellectual potential, national development agendas, skilled personnel, societal challenges, quality improvement

Аннотация. В статье рассматривается важная роль высших учебных заведений (ВУЗов) в формировании национальной программы развития, стимулировании интеллектуального

капитала и содействии социальному развитию. Отмечается мировая тенденция увеличения спроса

на высококвалифицированные кадры и основная роль высших учебных заведений в удовлетворении этих потребностей. В статье подчеркивается необходимость внедрения в вузах эффективных механизмов управления для обеспечения устойчивого экономического роста посредством комплексного изучения факторов, влияющих на интеллектуальный потенциал и значимость научных исследований. Кроме того, в нем рассматривается преобразующее влияние высших учебных заведений на решение общественных проблем, улучшение человеческих ресурсов и продвижение демократических ценностей. Благодаря детальному анализу статья дает представление о разнообразном ландшафте улучшения качества высшего образования и его последствиях для глобального развития.

Ключевые слова. Высшие учебные заведения (ВУЗы), интеллектуальный капитал, инновации, социальный прогресс, механизмы управления, устойчивый экономический рост, научные исследования, кадровый потенциал, демократические ценности, глобальное развитие, интеллектуальный потенциал, программы национального развития, квалифицированные кадры, социальные проблемы, улучшение качества

Introduction. The training of highly qualified personnel in the country allows to ensure competitiveness in the labor market, to introduce technologies with high scientific potential into production through the effective organization of scientific activities, and to develop the system of protection of intellectual property objects to solve a number of social problems. This includes the creation of new workplaces, improvement of the population's well-being, improvement of people's working conditions and lifestyle. At the same time, raising the intellectual potential of the country's population to a high level creates a basis for the development of innovative activities in the real sector of the economy. As a result, the needs of society members are continuously provided.

In order to realize such opportunities, it is necessary to systematically study the factors affecting the increase of intellectual potential in the country. It is known that the main components of innovative activity are determined by introducing innovations into science, education, investment and practice. Among these components, science is one of the main ones, and it is considered a certain field of human activity, in which knowledge about events is created and they are theoretically brought into a clear system. Implementation of scientific and educational achievements depends on the result of scientific activity, that is, scientific research, scientific and technical activity, and experimental design production activity. Management of mechanisms for improving the quality of higher education services in developing countries plays an important role in achieving sustainable national economic development.

The significance of the problem. Today, the number of researchers working in the higher education system around the world has reached 15 million, and has almost 4 times exceeded the figure of 4 million in 1980. This, in turn, is characteristic of the supply and demand laws of the national economy. In 1990, the coverage level of young people in higher education was 1%, and by the 20th century, 20% of young people were involved in higher education (Schofer & Meyer, 2005). It is emphasized in many foreign literature that the importance of higher education institutions has long been considered as the foundation of development. In particular, their role as an important driver in the commercial revolution and their role in the process of acquiring and imparting knowledge during the industrial revolution is emphasized (Mokyr, 2002).

There are several aspects in which HEIs can affect the economic growth of the country, their functioning as a large labor force provider, a source of effective innovation and support institutions of democratic values is considered important in the development of society (Anna Valero and John Van Reenen).

Main body. Since education is an important aspect of a nation's stability and sustainable development, the world community is interested in the promotion of science. The unexpected occurrence of complex and serious political, social and economic difficulties reduces the possibility of forecasting future changes and requires representatives of the scientific field to rely on multifactorial variables and increase the level of accuracy. The current management process in the field of higher education imposes

additional obligations on higher education institutions, specifying the activities of personnel training in accordance with the requirements of today's labor market.



Figure 1. Criteria for management of higher education quality improvement activities

Management activities of improving the quality of services in the field of higher education ensures the effectiveness and relevance of the activities of educational institutions. The development of human capital in the educational system increases the skills and abilities of individuals and increases the role of education in the development of human potential. In harmonizing the labor market, the main focus is on adapting the qualifications of graduates to the requirements of the labor market. That's in fact, it is necessary to ensure that educational programs in HEIs are in line with the needs of industries and sectors, thereby bridging the gap between education and employment.

Research and development shows the importance of raising the culture of research and innovation in higher education institutions. It increases the importance of science in promoting knowledge in society, stimulating technological progress and solving social problems through research.

In the field of higher education, it includes developing an entrepreneurial mindset among students and faculty, encouraging innovation, and supporting the translation of research findings into practical programs and initiatives. It can fill the gap between theory and industry by stimulating the practice of commercializing the results of direct research.

In socio-economic activity, it is emphasized the importance of providing equal opportunities regardless of socio-economic origin, gender or other factors, and ensuring equal access to education. This indicates the role of higher education institutions in creating equal conditions for all individuals.

The main focus is on training educated and hardworking personnel who actively contribute to the social, economic and cultural development of society by encouraging intellectuals. By supporting responsible and active members of this society, education attracts them.

Lack of resources is often explained by the limitations faced by HEIs, in particular, lack of financial resources, infrastructure and human capital. Eliminating the shortage of resources causes various difficulties in stabilizing and increasing the quality of education.

The field of education and research has been the starting point of innovation and development. Although all the projects developed to date have not been fully implemented in practice or have been unsuccessfully implemented, they have been the basis for the development of society without having a negative impact on the development of research. Institutions of higher education remain adaptable and flexible to changing social needs, technological progress and global trends, encouraging a culture of innovation and continuous improvement in the education system.

Implementation of skill development programs will help bridge the gap between educational outcomes and industry requirements. Such initiatives are aimed at equipping students with practical skills and competencies in their chosen fields.

Integrating technology into educational practices increases the effectiveness and efficiency of teaching and learning processes. It provides a personalized and science-based learning experience, facilitates access to educational resources, and prepares students for the digital environment.

Knowledge sharing in cooperation with international higher education institutions promotes cultural diversity and globalization in the education sector. It provides opportunities for students and faculty to participate in global learning experiences and research collaborations.

The hierarchical structure of the criteria, as shown in Figure 1, emphasizes the interdependence of various factors affecting the quality of higher education. Every aspect, from the formation of a qualified personnel base to the solution of problems and the implementation of solutions, plays an important role in the formation of the overall quality and efficiency of the activities of higher education institutions. In addition, numerical hierarchy indicates the inclusion and subordination of specific elements to broader categories, indicating their relative importance and interdependence within the framework.

Conclusion. In navigating the complex terrain of higher education quality improvement, it's akin to embarking on a collective journey toward a brighter future. It can be imagined a bustling campus teeming with students eager to learn, professors brimming with knowledge and enthusiasm, and administrators tirelessly working behind the scenes to ensure the smooth functioning of academic life.

At the heart of this endeavor lies the sincere desire to empower individuals, not just as students or educators, but as active contributors to society. Picture a young graduate stepping onto the threshold of adulthood, armed with not just a degree, but with the confidence and skills needed to navigate the challenges of the real world.

In Uzbekistan, where the rich tapestry of culture and history weaves seamlessly into the fabric of academia, the government's support for academic freedom is akin to nurturing the flames of intellectual curiosity. It's about creating spaces where ideas can flourish, where minds can soar, and where the pursuit of knowledge knows no bounds.

Furthermore, amidst the spirited competition among higher education institutions in Uzbekistan, there's a palpable sense of excitement and anticipation. It's a race not just for prestige or recognition, but for the opportunity to shape the future of a nation, to inspire generations yet to come.

And let's not forget the students themselves, each with their own dreams, aspirations, and stories to tell. For them, gaining admission to a higher education institution is not just a milestone but a gateway to endless possibilities. It's about seizing opportunities, forging connections, and leaving an indelible mark on the world.

As we exploration on the journey thus far, it's clear that the path to higher education quality improvement is paved with challenges, triumphs, and above all, the unwavering commitment of individuals who believe in the transformative power of education. It's a journey fuelled by passion, fuelled by dedication, and fuelled by the collective belief that education is not just a privilege but a fundamental right for all.

So, as we embark on the next chapter of this journey, let us carry forward the lessons learned, the experiences gained, and the bonds forged along the way. For in the end, it's not just about improving the quality of higher education—it's about shaping a better, brighter future for generations to come.

References:

1. Anna Valero va John Van Reenen, The economic impact of universities: Evidence from across the globe, *Economics of Education Review*, Volume 68, 2019, Pages 53-67, ISSN 0272-7757, <https://doi.org/10.1016/j.econedurev.2018.09.001>
2. Yuldashev Feruz Isroil o'g'li. (2023). The Importance of the Teacher-Student Ratio in Improving the Quality of the Educational Environment in Higher Educational Institutions. *Global Scientific Review*, 13, 76–81. Retrieved from <https://scientificreview.com/index.php/gsr/article/view/180>
3. Yuldashev, F. (2023). O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar.
4. Abdullayeva, H. (2021). Japanese Experience in Increasing the Efficiency of Tourist Territories in Uzbekistan. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 7(7).
5. Isroil o'g'li, Y. F. (2024). OLIY TA'LIM TIZIMIDA AKADEMIK MUSTAQILLIK SAMARASIGA ERISHISHDA RAQOBATNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(21), 49-51.
6. Yuldashev, F. (2021). O'ZBEKISTON TURIZM SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA KLASTERLARNING AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

XUSUSIY MAKTABLARDA MAVJUD BOSHQARUV MODELLARINI TAHLIL QILISH.

Kobilova Hilola Maxmudjonovna

BuxDU "Iqtisodiyot" fakulteti,

"Menejment" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi xususiy ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar va ularning natijasiga doir fikr va qarashlar. Xususiy maktabning afzallik va keng imkoniyatlari haqida.

Kalit so'zlar: Ilg'or, litsenziya, STEM, SCIENSE, PISA, infratuzilma.

Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada maxsus qonun, Prezidentimizning farmon va qarorlari qabul qilindi. Bular jumlasiga: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda "Davlat xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RBQ-537-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktyabrda "Davlat-xususiy

sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3980-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 1009-son qarori, 2020-yil 26-aprelda "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-iyundagi "Davlat-xususiy sheriklik asosida hududlarda zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi.

2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni hamda mazkur sohalarga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar kiradi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha sohalar bilan birga ta'lim sohasida ham DXSh masalalarini rivojlantirish vazifasi qo'yilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish ob'ektiv zaruratga aylanib qoldi. Chunki, Prezidentimiz 2021-yilning 16-iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida: "Oliy ta'lim yo'nalishlari bilan zamonaviy ehtiyojlar o'rtasida uzilish juda katta ekani tanqid qilindi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinlari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmaydi" [1], deb ta'kidladilar. Shu tufayli bugungi kunda ta'lim sohasini jadal rivojlantirish hayotiy zaruratga aylangan bir pallada, bunga erishish uchun DXSh imkoniyatlaridan ham foydalanish va uni ta'lim tizimiga moslashtirish masalasi ham o'ta dolzarb muammolardan biridir.

DXSh faoliyatidan keng foydalanish borasida mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarining bir qator olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan bo'lib, jumladan: K.A.Antonova, ye.V.Gorchakova, P.Snelson, ye.Korovin, M.Pazdnikov, V.G.Varnavskiy, A.V.Klimenko, V.A.Korolevlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan [2,3,4,5,6,7].

Ilmiy adabiyotlarda olimlarning DXShni tashkil etish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlari keltirilgan. Xususan, iqtisodchi olim K.A.Antonova "Davlat-xususiy sherikchiligi Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omili sifatida" nomli asarida DXShni – davlat va biznes o'rtasida davlat boshqaruvi idoralari va xususiy tuzilmalar orasida shartnoma asosida amalga oshiriluvchi institutsional tashkiliy ittifoq deb ataydi [2].

Ye.V.Gorchakova esa "DXSh – bu, davlat idoralari va xususiy biznesning ittifoqi, uning maqsadi – iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan tortib butun mamlakat yoki uning alohida hududlari bo'ylab xizmatlar ko'rsatishgacha ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni yaratish va rivojlantirish", deb qayd etadi [3].

P.Snelson esa "DXSh – bu, korxonalar faoliyatini amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan xatar va foydalarni baham ko'rish maqsadida davlat va xususiy sektor o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar" deb uqtirib o'tadi [4].

Ye.Korovin tadqiqotlariga asoslanib bergan ta'rifida esa "DXSh – davlat va xususiy sektor o'rtasida o'rta muddatli yoki uzoq muddatli hamkorlik sifatida bo'lib, uning doirasida siyosiy vazifalar bir necha tarmoqlarning tajribasini birlashtirish hamda moliyaviy xatarlar va foydalarni taqsimlash asosida hal qilinadi" deb ta'kidlaydi [5].

M.Pazdnikov esa "DXSh – davlat va biznes sherik bo'lgan g'arbiy bozor iqtisodiyotining mahalliy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, sheriklar tengdirlar. Shuning uchun "Davlat xususiy sherikchiligi" atamasi qo'llaniladi" deb ta'riflaydi [6].

Shuningdek, V.G.Varnavskiy, A.V. Klimenko va V.A. Korolev hammuallifligidagi "Davlat-xususiy hamkorligi. Nazariya va amaliyot" nomli o'quv qo'llanmasida "DXSh – davlat va jamoatchilik mulki ob'ektlari, shuningdek, keng doiradagi iqtisodiy faoliyat turlarida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va jamoatchilik idoralari, muassasa va korxonalari tomonidan ijro etiluvchi va ko'rsatiluvchi xizmatlarga nisbatan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yuridik jihatdan mustahkamlangan shaklini namoyon etadi" deb, ta'kidlashadilar [7].

Xususan, mamlakatimiz tadqiqotchilaridan U.I.Djumaniyazov "Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy uslubiy masalalari"ga bag'ishlangan maqolasida "DXSh – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va

maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun o'ta ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo'lsa, siyosiy ahamiyatga molik ob'ektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan tom ma'nodagi o'zaro manfaatli aloqalaridir" deb ta'riflaydi [8].

Ota-onalar fikriga ko'ra, davlat maktablari har doim ham bolalarni munosib ta'lim bilan ta'minlay olmaydi. Hozirda xususiy ta'lim segmenti rivojlanib borayotgani ajablanarli emas. Iste'dodli o'qituvchilar tobora ko'proq o'z kurslarini, o'quv markazlarini va xususiy maktablarni tashkil qilmoqdalar.

Ko'plab qiyinchiliklarga qaramay, yangi maktablar muntazam ravishda paydo bo'ladi va sifatli ta'lim bilan investorlarni o'ziga jalb qiladi.

O'zbekistonda xususiy maktabni qanday ochish kerak?

Qanday xususiy maktablar mavjud?

Xususiy maktablarni ko'p jihatdan tasniflash mumkin:

- klassik va elita maktablari,
- sirtqi maktablar va pansionatlar,
- "ilg'or" dasturlarni amalga oshiradigan maktablar,
- shahar va shahar atrofi ichida joylashgan va boshqalar.

Klassik o'rta maktabi.

Eng oson yo'li - bu shaharda o'quv jarayonini amalga oshiradigan, ta'lim standartlari doirasida ishlaydigan, ammo ayni paytda ko'plab fanlar bo'yicha ilg'or dasturlarni taqdim etadigan va o'quvchilarda o'ziga xos xususiyatlarni tarbiyalaydigan o'rta maktabni ko'rib chiqish. Masalan **bu chet tillarni chuqur o'rganadigan shahar xususiy maktabi, xalqaro, sport maktabi va boshqalar bo'lishi mumkin.**

Xo'sh, qanday qilib xususiy maktabni ochish kerak?

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, hozirgi kunda xususiy maktablar soni juda yomon - umumiy maktablarning 1% dan kamrog'i.

Nima uchun xususiy maktablar iste'molchilarni o'ziga jalb qiladi?

- kichik sinflar, har bir o'quvchiga yuqori darajada e'tibor berilishini kafolatlaydi;
- o'qitish uchun qulay yashash sharoitlari;
- maktab jihozlarining yuqori darajasi;
- yangicha yondashuv asosidagi o'quv dasturi;
- yuqori malakali o'qituvchilar;
- ko'plab qo'shimcha fanlar o'rganildi;
- maktabda yaxshi issiq ovqat (bolaning kun bo'yi maktabda qolish imkoniyati);
- juda ko'p to'garaklarning mavjudligi (ota-onalar maktabdan keyin bolani olib yurishlari shart emas);
- maktab bola bilan uy vazifasini bajarishni o'z zimmasiga oladi (ko'pchilik oilalar uchun uy vazifasini bajarish bu oiladagi kunlik mojaro);
- nufuzli universitetlarga yo'naltirishi;
- maktabga - uyga yetkazib berish va boshqa narsalar, shaxsiy shkaflarga qadar, har kuni uyga og'ir xalta olib yurmaslik uchun sharoitlarning yaratilgani va boshqa turli xizmatlarning mavjudligi.

Xususiy maktabning mijozlari - bu o'rtacha daromaddan yuqori bo'lgan, kelajakda o'z farzandlariga sifatli ta'lim berish muhimligini tushunadigan va bolalariga mablag' tejashni istamaydigan ota-onalarning farzandlari. Shuningdek, nufuzli maktabda o'qish "elita maqom" ko'rsatkichlaridan biridir.

Xo'sh, xususiy maktab qaysi mezonlar bo'yicha tanlanadi?

- o'qituvchilar tarkibining darajasi;
- sinfdagi o'quvchilar soni;
- uyga yoki ishxonaga hududiy yaqinlik;
- litsenziyaning mavjudligi;
- moddiy baza;
- akkreditatsiyadan o'tganligidir;
- do'stlarning sharhlari.

O'zbekistondagi o'rta maktablarning faoliyati quyidagi qoidalar bilan tartibga solinadi:

- "O'zbekiston Respublikasining ta'limi to'g'risida" 2020-yil 23-sentabrdagi O'QR-637-sonli qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarda mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini letsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 2022-yil 25-noyabrdagi "Umumta'lim maktablarida ta'lim sharoitlari va tashkil etilishiga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik talablar (0341-16-son SANQVAN)ga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi 35-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-son qarori.

Xususiy maktablar uchun zamonaviy bozorning asosiy xususiyatlari:

O'zbekistonda xususiy ta'lim maktab yoshidagi bolalarning atigi 1 foizini qamrab oladi. Ushbu o'quv muassasalarining aksariyati Toshkent va Toshkent viloyatida, shuningdek Samarqand va Farg'onada joylashgan. Shu sababli bunday xizmatlarning O'zbekiston bozori hali etarli darajada emas deya olamiz.

Zamonaviy nodavlat maktab muassasalarining asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqsak (2022-yil ma'lumotlari).

Bir sinfga o'rtacha o'quvchilar soni

12-25 kishi

Oyiga o'qish (ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lami hamda odatda barcha o'quvchilar uchun hududi va joylashuviga qarab belgilanadi)

800.000-3.000.000 mln so'm

Kirish to'lovi (maktablarning qariyb 70% talab qilinmaydi)

Ko'pgina xususiy maktablarning ish soatlari

soat 8 - 9.00 dan 18 - 20.00 gacha

Xususiy maktablarning yarmidan ko'pi bolalar bog'chalariga ega va muassasalarining aksariyati bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

Xususiy maktab ta'limining sifat jihatlari:

- kichik sinflar soni, har bir o'quvchiga etarlicha e'tibor berish;
- bolani topish va o'qitish uchun qulay sharoitlar;
- rivojlangan infratuzilma - maktablarda suzish havzasi, laboratoriya xonalari, ko'p funktsiyali sport zali, yaxshi jihozlangan kompyuter sinflari, har bir fan xonaning multimediyaga texnikalari bilan jihozlanganligi;
- Moslashuvchan o'quv dasturi;
- yuqori malakali o'qituvchilar;
- bolalarda muloyimlik, yetakchilik va ishbilarmonlik kabi zamonaviy zamonaviy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'qitish usullari;
- O'rganilayotgan fanlarning kengaytirilgan doirasi - umumiy ta'limdan tashqari quyidagi fanlar bo'yicha qo'shimcha darslar olib borilishi mumkin: tilshunoslik, STEM, SCIENCE, huquqiy-moliyaviy savodxonlik, dasturlash, teatr mahorati, vokal, kasblar, sport va boshqalar;
- PISA xalqaro baholash tizimi;
- bolani ish kuni davomida to'liq rivojlanishi imkoniyati;
- eng muvaffaqiyatli maktablar nufuzli universitetlarga (shu jumladan chet el universitetlariga) yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar ularni tegishli oliy o'quv yurtiga qabul qilish uchun tayyorlangan maxsus dasturlarda tahsil olishadi.

Xususiy maktablarning daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi: oylik o'qish, kirish to'lovlari, qo'shimcha xizmatlarga haq to'lash, shuningdek boshqa daromadlar - homiylik, grantlar va boshqalar. Foydaning katta qismi ishchilarga ish haqini to'lash, joriy xarajatlar, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangi lohihalarni qoplashga sarflanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021-yilning 16-iyun kunida “Oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalar”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida e’tirof etilgan topshiriqlar. 22:50 16 Iyun 2021 439 0. – 2 bet.
2. Kabashkin V.A. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo v regionax Rossiyskoy Federatsii: uchebnoe posobie / Kabashkin V. A. — M.: Delo, 2010. S.120.
3. Gorchakova ye.V. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo – novaya paradigma Rossii, Vestnik SamGu, 2011 №1/1 (82).
4. Snelson P. Gosudarstvenno-chastnye partnerstva v stranax s perexodnoy ekonomikoy. URL: <http://www.ebrd.com>.
5. Korovin ye. Kreditnyy risk proektov chastno-gosudarstvennogo partnerstva i mexanizmy podderjki. Vystuplenie na kruglom stole «Federalnye instrumenty podderjki investorov» 10 oktyabrya 2006 g. URL: regionalistica.ru/project/investproject/fed_instr.
6. Pazdnikov M. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo: sut i ponyatie. URL: <http://politmanagement.ru>.
7. Varnavskiy V.G., Klimenko A.V., Korolev V.A. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo: teoriya i praktika: uchebnoe posobie. — M.: GU-VShE, 2010.
8. Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, “davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariyuslubiy masalalari”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2017 yil № 3, may_iyun, 9-bet.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 mayda imzolangan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” O‘RQ-537-sonli Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 26 aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 3 mayda ma’qullangan. – 3-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 mayda imzolangan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” O‘RQ-537-sonli Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 26 aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 3 mayda ma’qullangan. – 4-modda.
11. Pardaev M.Q., Babanazarova S.A., Qo‘ziev Z.B., Ochilova H.N. Ta’lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. (Monografiya). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 260 bet.
12. Pardaev M.Q., Abduraxmanov Q.X., Mahkamova M.A., Pardaev O.M., Babanazarova S.A. Raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalari. (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 172 bet

INKLYUZIV TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSADI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.

Kobilova Zilola Maxmudjonovna
BuxDU “Iqtisodiyot” fakulteti,
“Menejment” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi inklyuziv ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar va ularning natijasiga doir fikr va qarashlar. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi va ustuvor yo‘nalishlari takomillashtirib borish haqida.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv, davlat-xususiy sheriklik, maxsus, davlat.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

a) inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta'lim metodikasiga oid o'quv materiallarini takomillashtirish;

inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirish, inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish;

o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

inklyuziv ta'limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishga e'tibor qaratish;

inklyuziv ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish;

xalq ta'limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo'yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta'limni amalga oshirish mexanizmlarini ko'zda tutuvchi o'quv kurslarini kiritish;

masofaviy kurslarni yo'lga qo'ygan holda, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarini oshirish, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo'lgan chekka hududlardagi abituriyentlar uchun maqsadli qabul ko'rsatkichlarini belgilash mexanizmini joriy etish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot instituti o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim-tarbiyaga oid maxsus o'quv dasturlari va mashg'ulotlarini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish;

b) inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

bolalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda sifatli ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini hamda qulaylikni ta'minlash bo'yicha davlat kafolatlarining amalga oshirilishini ta'minlovchi tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalariga yuborish uchun asos bo'luvchi tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

hududlar imkoniyatlarini inobatga olgan holda inklyuziv ta'limni rivojlantirish holati va tendensiyalari monitoringini olib borish;

har bir bolaga o'zining shaxsiy tempiga mos ravishda rivojlanish huquqini ta'minlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ulardagi aqliy yoki jismoniy nuqsonlarning ifodalanganlik darajasidan kelib chiqqan holda umumta'lim maktabida tegishli bilimlarni olishiga sharoit yaratish;

inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish;

inklyuziv ta'lim dasturlari asosida zamonaviy darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasb-hunarga o'qitishni takomillashtirish va ushbu yo'nalishlarda qisqa muddatli kurslarni tashkil etish;

inklyuziv ta'limning rivojlanishini monitoring qilish hamda amalga oshirilayotgan ishlar natijalarini yoritib borish;

v) inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun sport to'garaklarini tashkil qilish;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o'rtasida inklyuziv ta'lim tizimi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;

rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (bulling)ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

g) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

d) inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish:

barcha inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarini ma'lumotlarni uzatish bo'yicha yagona tarmoqqa birlashtirish;

ta'lim muassasalarini inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilar uchun maxsus jihozlangan kompyuter texnikasi, interaktiv doska, eshitish moslamalari va boshqa jihozlar bilan ta'minlash;

davlat-xususiy sheriklik asosida inklyuziv ta'lim jarayonini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizimini joriy etish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun darslik va metodik materiallarning elektron shakllarini eduportal.uz portalida joylashtirish va muntazam yangilab borish;

inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalar uchun mavjud darslik va o'quv-uslubiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish;

inklyuziv ta'lim jarayoni uchun multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayonini tizimli tashkil etish;

e) inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni budjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish:

ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalardagi qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarida ilg'or texnologiyalar va muhandislik yechimlariga tayanish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, "Zamonaviy maktab" davlat dasturi doirasida umumta'lim maktablari uchun inklyuziv ta'lim sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarining o'quv xonalari va laboratoriyalarini zamonaviy mebel, jihozlar, o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikalari, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash;

davlat-xususiy sheriklik asosida inklyuziv ta'lim tarmog'ini rivojlantirish hisobiga inklyuziv ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish;

nodavlat umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish amaliyotini kengaytirish;

j) inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish:

"Barkamol avlod" bolalar maktablari to'garaklarida inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining qamrovini oshirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning madaniyat, san'at, sport va boshqa yo'nalishlarda erishgan yutuqlari to'g'risida targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya byerish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. Inklyuziv umumta'lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta'lim byerishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

4. "Dakarskie ramki deystviy"- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel

5. U.Fayziyeva va boshqalar. "Tiflopedagogika" o'quv qo'llanma, "SanoStandart" nashriyoti, Toshkent-2011.

6. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfyerensiya matyeriallari to'plami. "LessonPress" nashriyoti, Toshkent-2021.

7. www.ziyonet.uz

8. www.pedagog.uz

9. www.klex.ru

10. www.window.edu.ru

11. <https://eduportal.uz>

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH TIZIMINING USLUBIY DASTAKLARI

G'afurova Sh.K

BuxMTI tayanch doktoranti

Annotatsiya: So'nggi yillarda oliy ta'limning zamonaviy bozorda tegishli xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z iste'molchisiga ega bo'lgan, ma'lum mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoq sifatida shakllanayotganligi sababli ta'limda sifat kategoriyasi tobora iqtisodiy tus olmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ta'lim muassasasi o'z sifatini talab darajasida saqlashi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim sifati muammosi, shubhasiz, milliy ta'lim siyosatining muhim qismidir, shuning uchun har bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim sifatini boshqarishning umumiy muammosi bilan bog'liq holda o'z sifat modeliga ega bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, malaka, mehnat bozori, ISO standartlari, umumiy sifat menejmenti, TQM tamoyillari

Ta'lim sifatini boshqarish ta'lim sifatini baholash muammosi bilan bog'liq bo'lib, u muvofiq ravishda nazariy va uslubiy strategiyani va yondashuvni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu yondashuv matematika va statistika vositalarini qo'llagan holda boshqarish jarayonlarini modellashtirish usuliga asoslanadi. Bugungi kunda raqamlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi bilan bu yondashuvning imkoniyatlari yanada kengaydi. Biroq, barcha xodimlar tomonidan zamonaviy statistik usullarni, raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llash ko'nikmasini egallashi juda murakkab va jarayon ishtirokchilarining chuqur matematik-kibernetik tayyorgarligisiz amalda qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun barcha uchun qulay va oddiy bo'lgan jarayonlarni, ya'ni ta'lim xizmatlari tizimining asosiy tarkibiy qismlarini (ta'lim xizmatlarining sifati, o'qitish usullarining samaradorligi va ta'lim xizmatlarini amalga oshirish faoliyati)ni aniqlashga imkon beradigan tahlil qilish usullarini tanlash katta ahamiyatga ega.

Ta'lim sifati omillarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- o'lchanadigan, mutlaq ko'rsatkichda aniqlanishi mumkin (ta'lim sifati komponentlari) bo'lgan;
- miqdoriy ifodaga ega bo'lmagan, masalan, motivatsiya;
- baholanadigan, ekspert baholash orqali ta'lim texnologiyalari mazmunining sifat xususiyatlarini aniqlaydigan.

Omllarning integratsiyasi miqdoriy omillarni ularning sifat analoglariga (sifatning intensivlik qiymatlariga mos keladigan) o'girish, har qanday qiymatlarni bitta asosga - sifatga transformatsiyalash mexanizmini yaratish bilan tavsiflanadi. Ko'pincha ta'lim sifatini boshqarishda statistik nazorat va jarayonlarning kirish va chiqish xususiyatlarini tahlil qilish usullari qo'llaniladi. Ta'lim sifati omillarini baholashda sifat statistikasi katta ahamiyatga ega. Uning afzallik jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'limni tizim, jarayon va natija sifatida ko'rib chiqadi;
- maqsadli tizimlarni o'rganishning eng muhim xususiyatini, ya'ni miqdoriy qiymatlardan sifat analoglariga o'tishni, hisobga oladi;
- tushunchalar va usullar tizimini joriy qilish orqali turli omillar uchun yagona sifat asosini yaratadi;

- shaxsiy kompyuterda ta'lim sifatini baholash va tadqiqot jarayonini modellashtirishning ko'p qirrali tavsifi uchun boshlang'ich nuqtalarni taqdim etadi.

Sifat dastaklari va usullariga oid bir qancha tadqiqotlar olib borilgan va sifat samaradorligini baholash usullari majmualari ishlab chiqilgan bo'lsada, TQM tizimini O'zbekiston OTMlarida joriy qilish nuqtai nazaridan ushbu uslublarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish talab etiladi. Sifat dastaklari va usullari o'quv muassasasidagi muammolarni aniqlash va ijodiy hal qilish vositasidir. TQMning kuchli jihatlaridan biri bu uning asosiy tushunchalarini amalga oshirish uchun bir qator foydali vositalarni birlashtirishdir. Biroq, metodlarning samarasi faqat ulardan muntazam foydalanish natijasida bo'lishi mumkin. Tahlil uchun maqbul, oddiy vositalarni topish va xodimlarni ulardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish muhimdir. Amaliyotda bunday vositalar muassasaning qaror qabul qilish madaniyatining bir qismiga aylanishi mumkin.

Tadqiqotimizda biz, yuqorida qayd etilgan TQM tamoyillari va uni joriy qilish bosqichlaridan kelib chiqib, milliy OTMlar uchun sifat menejmenti funksiyalarini ketma-ketlikda amalga oshirishda qo'llaniladigan dastaklar va usullar majmuini ishlab chiqdik (1-jadval).

1-jadval

Ta'lim jarayonida TQM usullari va vositalari

Sifat menejmenti funksiyalari va bosqichlari	Qo'llaniladigan vositalar
Fikrlash jarayonini tashkil etish usullari	Aqliy hujum
	Yaqinlik (affiniti) aloqalari
Rejalashtirish va amalga oshirishni boshqarish dastaklari	Sabab-oqibat diagrammasi (Ishikava diagrammasi)
	SWOT-tahlil
	Kuchli maydon tahlili
	Texnologik xaritalarni tuzish
	Qaror qabul qilish blok-sxemasi
	Tabaqalashtirish (stratifikatsiya)
	Sifat funksiyasini ishga tushirish
Sifatni tahlil qilish, nazorat qilish dastaklari va usullari	Pareto tahlili
	Gistogrammalar
	Dispersiya diagrammasi
	Nazorat xaritalari
	Blok-sxemasi

Bizningcha, ushbu funksiyalarni bosqichma-bosqich, izchil va siklik amalga oshirish barcha jarayonlarni nazoratga olish va doimiy takomillashtirishga olib keladi, har qanday OTMning ta'lim xizmatlari sifati muammolarini hal qilishda to'g'ri va samarali yondashuvni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Gafurova, S. K. (2023). *Quality Management In Education: A Systematic Approach. Educational Research In Universal Sciences*, 2(17 SPECIAL), 126-129.
- Nizamov, A. B., & G'afurova, S. K. (2024). *OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH TIZIMINI MODELLASHTIRISHNING USLUBIY YONDASHUVLARI. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, 1(1), 155-160.

3. Edward Kigozi, James Ko Yuen On. Total Quality Management (TQM) Practices Applied in Education Institutions: A Systematic Review of Literature//International Journal of Innovative Business Strategies (IJBS), Volume 5, Issue 2, 2019. DO - 10.20533/ijibs.2046.3626.2019.0045
4. Mekhrangiz, G. S. K. T. S. (2023). QUALITY MANAGEMENT OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS (HEIs). *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(12), 86-94.

AHOLINING IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ TOIFALARINI MODDIY QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING DOIMY DAROMAD MANBALARINI SHAKLLANTIRISH

A.U.Qurbonov

Buxoro davlat universiteti

“Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasida o‘qituvchisi.

D.R. Ergasheva

Buxoro davlat universiteti

3-1BUXKT-22 guruh talabasi

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi davlat taraqqiyotining asosiy vazifasi bo‘lib kelgan va bu yildan yilga takomillashtirilib borilmoqda. Mamlakatimizda aholining ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta‘minlash va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar, aholi va jamiyatning yoshi, salomatligi, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan qanchalik ta‘minlanganligi, yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik yo‘lga qo‘yilgan. Asosiy maqsad aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta‘minlash, aholi qatlamlarining ta‘lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta‘minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlari bu erkin ijtimoiy iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlash, ish bilan bandlik, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish, daromadlarning kafolatlanishi, har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi, iste‘molchilar himoyasi, iste‘molchilar jamiyatlari, tovarlar va xizmatlar sifati, iste‘mol kafolatini ta‘minlash, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy ta‘minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta‘minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish tushuniladi.

Respublikamizda ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratilgan, unga qonuniy asos solingan. Ijtimoiy himoya tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o‘z aksini topgan. Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o‘z zimmasiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida, ishlab chiqilgan taraqqiyot strategiyasida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan taminlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha farmon qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

O'tgan vaqt mobaynida o'ndan ortiq davlatning tajribasi chuqur o'rganilib, malakali ekspertlar jalb qilingan. Shu asosda olib borilgan tahlillarga ko'ra, bu soha 30 yil oldingi tizimda qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug'ullangan. Bu ayrim odamlarni o'zini o'nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o'rgatib qo'ygan deydi prezident.

Misol uchun, mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to'lab kelingan. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, kasbga o'rgatish orqali hayotga qaytarishga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Davlatimiz rahbari bu tizimni tubdan isloh qilish, ijtimoiy yordamning manzilliligi va natijadorligini ta'minlash zarurligini aytib:

– *Bu sohada umumiy ishlab bo'lmaydi. Har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topadi, – deb ta'kidladilar prezidentimiz.*⁶⁸

Shu bois endi nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo'yicha milliy tizim bo'ladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ishlash va kasb-hunarga o'qishda to'siqsiz muhit yaratish uchun ularning “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechiladi. Bunda nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanadi.

Bino va inshootlarni qurish loyihasi nogironligi bo'lganlar uchun qulay muhit yaratilganligi bo'yicha ham majburiy ekspertizadan o'tkaziladi. Jamoat transporti, bekatlar va chorrahalarda ular uchun to'siqsiz muhit yaratish choralari ko'riladi.

Xodimlarining 50 foizida nogironlik bo'lgan tadbirkorlarga davlat buyurtmachilari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish imkoniyati beriladi. Bunday shaxslarni kasbga tayyorlaydigan 4 ta ixtisoslashgan maktab sanoat tarmoqlariga birlashtiriladi. Nogironligi borlar kasanachilik va hunarmandchilik asosida yaratgan mahsulotlarni elektron platforma orqali sotish yo'lga qo'yiladi.

Sportni rivojlantirish assotsiatsiyasi tashkil etilib, nogironligi bor shaxslar mahalladan boshlab ommaviy sportga jalb qilinadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarda umid va o'ziga ishonch uyg'otadigan badiiy asarlar yaratiladi, deb takidladi prezidentimiz.

Davlatimiz yaratib berayotgan sharoitdan foydalanib, mehnatga layoqatli hattoki nogironligi bor yoshlar va insonlarning ilm va hunar o'rganib, ham o'ziga ham jamiyatga foydasi tegayotganlari talaygina. Buning uchun mahallalar yordamida davlat tomonidan moliyalashtirilib yoki imtiyozli kreditlar ajratilayotganligi, qulay sharoitlar uchun imkoniyatlar yaratib berilayotganini yaxshi bilamiz. Bugungi kunda ayollar uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi, qanchadan-qancha ayollar oliy ma'lumotli bo'lishdi, ilm va hunar o'rganishlariga juda katta imkoniyat yaratildi, uyda o'tirib ham pul ishlab topishlariga oilaviy byudjetga yordam bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, har bir oilada har bir kishi o'zi ishlab, mehnat qilib pul topishi kimdir bergan yordamidan ko'ra barakaliroq va qadrliroq bo'ladi. Shuning uchun ilm va hunarga tikilgan mablag' bu davomli va aylanma boylikdir. Oiladan jamiyatni, jamiyatdan davlatni iqtisodiy o'sishiga, ishsizlikni kamayishiga, doimiy daromad manbai bo'lishiga sabab buladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Inson taraqqiyotidagi maruza. O'zbekiston-2024, Muxtor Rasulov
2. 28.01.2022 yil PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

⁶⁸ Shavkat Mirziyoyev – Ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videselektor yig'ilishi 20.02.2024

3. Srojeva , G. . (2024). SOLUTIONS, RESULTS AND PROBLEMS OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION. Modern Science and Research, 3(1), 782–788
4. www.rresident.uz
5. <https://www.khanacademy.org>

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION IQTISODIYOT

Narzullayeva Gulchehra Salimovna
